

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“MADANIYATSHUNOSLIK”**  
**KAFEDRASI**

**“KUTUBXONASHUNOSLIK”**  
fanidan

**O`QUV-USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi:	300 000	-	Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta`lim sohasi:	320 000	-	Jurnalistika va axborot
Ta`lim yo`nalishi:	60320400	-	Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)

**Namangan – 2023**

O`quv-uslubiy majmua O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2023 yil 21 avgustdagi 367-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

**O.Topildiyev** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchi:**

**Z.Xaydarov** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

O`quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashining 2023 yil 28 avgustdagi 1-son yig`ilishida ko`rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

Ma'ruza matni .....	
Seminar mashg'ulotlar topshiriqlar.....	
Mustaqil ta`lim mashg`ulotlari.....	
Glossariy.....	
Ilovalar: .....	
Fan dasturi .....	
Ishchi fan dasturi .....	
Tarqatma materiallar .....	
Testlar.....	
Nazorat uchun savollar (J.N., O.N., Ya.N.).....	
Baholash mezonlari .....	

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“MADANIYATSHUNOSLIK”**  
**KAFEDRASI**

**KUTUBXONASHUNOSLIK**  
**fani bo`yicha**

**MA`RUZALAR MATNI**

NAMANGAN -2023

Ushbu ma`ruzalar matni Namangan davlat universiteti «Madaniyatshunoslik» kafedrasining 2023 yil 28-avgustdagi №1-sonli bayonnomasi bilan muhokama qilingan va Namangan davlat universiteti Musiqa ta`limi va madaniyat fakul'teti kengashining 2023 yil 29-avgustdagi №1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Namangan davlat universiteti Kengashining 2023 yil 30-avgustdagi №1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlanib, foydalanishga tavsiya etilgan.

**Tuzuvchi:**

**O.Topildiyev** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchi:**

**Z.Xaydarov** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

# **“KUTUBXONASHUNOSLIK” FANINING QISQACHA TAVSIFI**

## **1-Modul. Kutubxonashunoslik fanining umumnazariy masalalari**

### **1-mavzu: Kutubxonashunoslik faniniga kirish, fanning maqsadi va vazifalari**

#### **Reja:**

- 1. Kutubxonashunoslik fanning obyekti va predmeti.**
- 2. Kutubxonashunoslik fanning mazmuni va asosiy yo‘nalishlari.**
- 3. Zamonaviy muammolari va rivojlanish tendensiyalari**

#### **Tayanch so‘z va iboralar**

O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi, Kutubxonachilik ishi tarixi va nazariy asoslarining umumlashtirilishi, Kutubxona-axborot faoliyati.

Kutubxona-axborot faoliyati - kitob boyliklari va boshqa axborot manbalaridan jamiyat a‘zolarini foydalanishini tashkil etish maqsadida davlat, turli jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan kutubxonalar tizimi bo‘lib, ular o‘zida jamiyatimizda, axborot, madaniy-ma‘rifiy va ta‘lim berish vazifalarini bajaruvchi soha xisoblanadi. Axborot-kutubxona faoliyati soxasi, boshqa amaliy sohalar kabi o‘zini ilmiy-nazariy asoslariga ega bo‘lishligi talab etiladi. Bu vazifani “Kutubxonashunoslik” fani o‘rganadi.

**Kutubxonashunoslik fanining predmeti** sifatida kutubxona tarmoqlari va tizimlari va ularda mavjud muammolar, istiqbollar hamda axoliga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishning ahvoli va muammolari, AKM, ARM va kutubxonalar faoliyati, ularni boshqa tashkilotlar bilan hamkorligi masalalari haqida zaruriy bilimlar berish hamda ma‘lum bir ko‘nikmalarni shakllantirish hisoblanadi.

“Kutubxonashunoslik” fanining asosiy maqsadi - talabalarga kutubxonashunoslik, shu bilan birga axborot-kutubxona faoliyati soxasi uchun asosiy ilmiy -nazariy masalalarni, umumiy tamoyillar, qonuniyatlar, metodologik asoslarni, sohaning istiqbollarini, jamiyatni axborotlashtirish bilan bog‘langan xolda o‘rgatishdir.

Fanning vazifasi - talabalarning kasbiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash va bo‘lg‘usi mutaxassislariga ixtisoslik bo‘yicha malakalarini yanada mustahkamlash uchun kutubxonashunoslik uslubiyoti va metodologiyasi, kutubxonashunoslikni boshqa fanlar bilan bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega.

“Kutubxonashunoslik” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- ushbu fanni o‘zlashtirish davomida qo‘yiladigan talablar asosida amaliy va tajriba mashg‘ulotlarini bajarishlari, shuningdek fanning maqsadi, vazifasi, tamoyillari, qonuniyatlari, metodologiyasini va metodlarini, kutubxonalar tipologiyasini bilishi kerak.

- fanni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlarni mustaqil o‘rganish, ularni tahlil qilish ko‘nimalariga va malakalarga ega bo‘lishlari kerak.

-egallagan bilimlari asosida mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishlari va ularni amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llay olishlari kerak.

-fanni o‘zlashtirish natijasida hosil qilingan bilim va ko‘nikmalaridan ilmiy-tadqiqot va malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda foydalana olishlari zarur.

“Kutubxonashunoslik” fani ixtisoslik fanlardan biri hisoblanadi va bakalavr tayyorlash o‘quv rejasidagi “Ijtimoiy-gumanitar” va “Mutaxassislik fanlari” yo‘nalishidagi barcha fanlar bilan chambarchas bog‘liq. Fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari o‘quv rejasiga ko‘ra o‘quv materialining mazmuni va pedagogik maqsadlariga qarab, ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar ko‘rinishida tashkil etiladi. Fan bo‘yicha nazariy bilimlarni mustahkamlab borish uchun ma‘ruza

mashg'ulotlaridan hamda amaliy mashg'ulotlaridan foydalaniladi.

“Kutubxonashunoslik” fanini talab darajasida o'zlashtirish, talabalarda, Kutubxonashunoslik fani va axborot-kutubxona faoliyati sohasi bo'yicha fundamental bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan, hamda ularni kelgusida axborot-kutubxona muassasalari faoliyatida qo'llay olishdan iborat

Fanni o'zlashtirish chog'ida darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari va ularning elektron versiyalaridan, shuningdek ma'lumot olishning internet tizimidan foydalaniladi. Fanni o'rganishda mashg'ulotlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi: ma'ruza mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, fan mazmuniga tegishli o'quv materiallarini mustaqil o'rganish.

O'quv fanini yaxshi o'zlashtirish uchun uni bayon etish chog'ida faol o'qitish usullaridan (muammoli holatlar hosil qilish, jamoaviy tafakkur faoliyatini tashkil etish, shaxsiy topshiriqlar berish), informatsion texnologiyalardan foydalanish ko'zda tutilgan. Talabalarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish va mustahkamlash uchun amaliy mashg'ulotlar topshiriqlarini va uy vazifalarini bajarish chog'ida elektron hisoblash texnikasidan keng foydalanishga e'tibor beriladi.

O'quv fanining talabalar tomonidan o'zlashtirilishi oraliq nazoratlari (semestr davomida ikki marta) va yakuniy nazorat tadbirlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Oraliq va yakuniy nazoratlar mos ravishda fanning ayrim bo'limlari yoki barcha bo'limlari bo'yicha yozma ish yoki test savollari ko'rinishida o'tkaziladi.

Kutubxonashunoslik fanida quyidagi asosiy mavzular o'rganiladi: Fanning nazariy va metodologik asoslari. Kutubxonashunoslik fanining hozirgi ahvoli, taraqqiy ettirish yo'llari va muammolar. Kutubxonashunoslik fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Fanning maqsadi va vazifalari.

Kutubxonashunoslik fanining ilmiy va o'quv fani sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi. Zamonaviy kutubxonashunoslik fanining mazmuni, funksiyalari va tarkibi. Kutubxonashunoslik fanining metodologiyasi va ilmiy usullari. Kutubxonashunoslik fanini kutubxona-bibliografik va axborot fanlari bilan o'zaro aloqalari

Zamonaviy axborot-kutubxona muassasalarining O'zbekistondagi ijtimoiy funksiyalari. Axborot-kutubxona muassasalarining tarkibiy-funksional xarakteristikasi. Axborot-kutubxona muassasalarining asosiy tiplari va xillari.

Kutubxonachi kadrlarning tayyorlash va malakasini oshirish. Kutubxonachi kasbiga bo'lgan kasbiy talablar. Axborot-kutubxona muassasalarining tashkiliy tuzilmasi. O'zbekistonning taniqli kutubxonashunoslari. Sohalarga oid baza ma'lumotlarini yaratuvchi kutubxonachining faoliyati. Kutubxonachi-katologizatorning faoliyati. Multimediya resurslarini (CD,DVD) saqlash va undan foydalanishni tashkil etuvchi kutubxonachining faoliyati. Axborot-kutubxona faoliyatini boshqarish tizimi

Axborot-kutubxona muassasalarida qo'llanilayotgan axborot texnologiyalari jarayonlarining xalqaro tendensiyalari. O'zbekistonda axborot-kutubxona fanining rivojlanishi.

“Kutubxonashunoslik” fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. Tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi

#### **Nazorat savollari.**

1. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi xaqida nimalarni bilasiz?
2. Kutubxonachilik ishi tarixi va nazariy asoslarining umumlashtirilishi xaqida nimalarni bilasiz?
3. Kutubxona-axborot faoliyati xaqida nimalarni bilasiz?

## **2-MAVZU:KUTUBXONASHUNOSLIK FANINING ILMIY-O'QUV FANI SIFATIDA PAYDO BO'LISHI VA SHAKLLANISHI**

**Reja:**

- 1. XIX asrning boshlarida kutubxonashunoslik fanining paydo bo'lishi.**
- 2. XX asrda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi.**
- 3. Fan sifatida kutubxonashunoslikning tuzilmasi.**
- 4. O'quv predmeti sifatida kutubxonashunoslik fanini turli bo'limlarini paydo bo'lishi.**

**Tayanch iboralar:**

Kutubxonashunoslikning ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi, XIX asrning boshlarida kutubxonashunoslik fanining paydo bo'lishi.

XX asrda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi, Fan sifatida kutubxonashunoslikning tuzilmasi.

Kapitalistik ishlab chiqarish formatsiyasi oldingi formatsiyalarga ko'ra kutubxonachilik ishi va kutubxonashunoslik fanini rivojlanishi uchun juda katta sabab bo'ldi. Sanoat ishlab chiqarishini paydo bo'lishi, bosma mashinalarni yaratilishi, qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasini sanoat darajasida ommalashuvi va boshqa ko'plab omillar kutubxonachilikni ta'lim bazalari bo'lishiga olib keldi.

Kutubxonalar haqidagi emperik bilimlar va tushunchalar hamda amaliyotdagi bo'lgan talablar, ma'lum bir ilmiy tizimni shakllanishini tezlashtirdi va u "kutubxonashunoslik" deb nomlandi. Shu davrdan boshlab ikkinchi, ya'ni kutubxonashunoslikning ilmiy rivojlanish davri boshlandi. Bu davrni uchta qismga bo'lish mumkin.

Birinchi davr XIX-XX asr boshlarini o'z ichiga oladi. Dunyo bo'yicha kutubxonashunoslik "yagona oqim" sifatida qaralgan. Uni asosida jamiyat a'zolariga xizmat ko'rsatishning meyo'rlari va qadriyatlarini yotar edi. Birinchi bo'lib "kutubxonashunoslik" atamasini aniq joriy etish lozim ekanligini myunxenlik kutubxonachisi M. Shrettinger anglab yetdi. U tarixda birinchi bo'lib "kutubxonashunoslik" iborasini o'zini ikki tomlik asarida qayd etdi. Asarning nomi "Kutubxonashunoslikka oid to'liq tajribalar darsligi yoki kutubxonachining ishini yuritish bo'yicha xabarlik qilish" deb nomlangan. Ushbu asar 1808dan boshlab, to 1829 yilgacha chop etilgan. 1834 yilga kelib "Kutubxonashunoslikka xabarlik qilish" nomi bilan qayta nashr etilgan.

Shrettingerning kutubxonashunoslik tushunchasi xali kutubxonachilik ishidan farq qilmas edi. U kutubxonashunoslikni amaliy bilimlar sifatida bilar edi. Ushbu qarashlar barcha chet el kutubxonashunosligida XIX –XX asrlar boshigacha saqlanib qoldi. Buni natijasida ijtimoiy mazmundan xoli bo'lgan tor texnologik, amaliy, amaliy fan sifatida namoyon bo'ldi.

XIX asrning oxirlariga kelib kutubxonashunoslik fanining amaliy fandan ilmiy fanga aylana boshlanishining dastlabki belgilari paydo bo'la boshladi. Bu jarayonga nemets kutubxonashunos olimi A.Grezelning xissasi katta bo'ldi. "Kutubxonaga tegishli bo'lgan nazariy masalalar –deb yozadi u, kutubxonachilik ishi tarixi va aloxida kitob fondlari, mustaqil kutubxonashunoslik fanining predmetini shakllantiradi".

Tahminan o'sha davrlarda kutubxonashunoslik fanini ilmiy fan sifatidagi tarkibi haqidagi dastlabki qarashlar shakllana boshlandi. Unda ikkita bir-biriga teng bo'lgan bo'limlarga: kutubxonalar haqidagi va kutubxona fondi haqidagi bilimlarga ajratildi. Kutubxonashunoslikni kitobshunoslik, adabiyotshunoslik, bibliografiya, qo'lyozmalarni o'rganish va boshqa fanlar tarkibiga kiritishga urinishlar bo'ldi. Bularni barchasi kutubxonashunoslik fanining predmeti va tarkibini isbotlanmagan xolda kengaytirishga olib keldi.

Kutubxonashunoslik fanining shakllanishiga kutubxonachilik ishi, kutubxonashunoslik bo'yicha ko'plab asarlarni yaratilishi, dastlabki kutubxonachilikka oid jurnallarni ("Serapeum", Germaniyada 1840 yil; "Bibliotechniy jurnal" AQSH, 1876 yil;) kasbiy kutubxonachilik assotsiatsiyalarini (Amerika kutubxonachilik assotsiatsiyasi, AQSH, 1876 yil); Kutubxonachilik assotsiatsiyasi, Buyuk Britaniya 1877 yil), kutubxonashunoslik sohasidagi ilmiy markazlarni, ayniqsa Germaniyada, paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir.

Rossiyada kutubxonashunoslik fanini rivojlantirishga V.I.Sobolshikov (1813-1872), N.A.Rubakin (1862-1946), A.A. Pokrovskiy (1875-1954), K.I.Rubinskiy (1860-1930), L.B.Xavkina (1871-1949) va boshqalar katta xissa qo'shdilar.



O‘zbekistonda “kutubxonashunoslik” atamasi YE.K.Betger (1877-1956), A.V.Korshun (1878-1961), V.N.Smolin (1887-1945), N.A.Burov (1885-1969), O.V.Maslova (1893-1980) va boshqalarni asarlarida qo‘llanildi.

Jaxon kutubxonashunosligi oqimi bo‘yicha rivojlanishda davom etarkan, vatan kutubxonashunoslik fani kutubxonachilik ishini xalq ta’limining muxim qismi sifatida qaraldi va kutubxonaning ulkan madaniy o‘rni va aholini mustaqil o‘qishidagi muxim o‘rni qayd etib o‘tildi. Kutubxonashunoslik ijtimoiy-siyosiy jihatdan liberal-burjua va burjua-demokratik yo‘nalishdagi ilmiy bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ldi.

XIX asrda dastlabki kutubxonachilik maktablari va kurslari paydo bo‘ldi va u yerda kutubxonashunoslik o‘quv predmeti sifatida o‘qitila boshlandi. O‘quv predmeti sifatida kutubxonashunoslik fani amaliy yo‘nalish sifatida xarakterlandi. Shunday qilib XIX asr –XX asr boshlarida kutubxonashunoslik ilmiy va o‘quv dunyo predmeti sifatida shakllandi va asosan amaliy yo‘nalish kasb etdi. Ushbu davrdagi kutubxonashunoslik fanining o‘ziga xoslik shunda ko‘rinadiki, u dunyo miqyosid yagona fan sifatida rivojlandi.

### 3. XX asrda kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi va istiqboli

Yigirmanchi asrda kutubxonashunoslikning rivojlanishi-eng murakkab va shu bilan birga eng sermahsul bo‘ldi. Ushbu asrda “nazariyotchilar” va “amaliyotchilar” o‘rtasidagi kurash davom etdi.

Kutubxonashunoslik sekin-asta, lekin fan sifatida o‘zini mazmuniga to‘liq va keng miqyosda tushinib olishga erisha boshladi.

Birinci marotaba kutubxonashunoslik fanining ijtimoiy, psixologik, tarixiy aspektlariejdl berishga urinishlar bo‘ldi. (Batler P. 1933 y.) Kutubxonachilik ishi qonuniyatlarini shakllantirishga xarakat qilindi (SH.R.Ranganatan 1931 y.) Kutubxonashunoslik tadqiqotlarini mazmuni va nazariy asoslarini asoslash bo‘yicha tadqiqotlar davom etdi (Y.Forstius, G.Leydinger, A.Predeyek, O.S.Chubaryan)

XX asrning ikkinchi yarmida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Taxminan 60-70 yillardan boshlab kutubxonashunoslik ijtimoiy fan sifatida o‘zini qirralariga ega bo‘la boshladi. Kutubxonachilik ishi va kutubxonalarga ijtimoiy nuqtai nazardan qarashda D.X.Shiraning 1967 yilda chop etilgan ( rus tilida 1973 y.) “Sotsiologicheskoye osnovi bibliotekhnogo dela” asari katta rol o‘ynadi. Undan keyin bir qancha boshqa asarlari ham ketma-ket chop etildi.

Amerika kutubxonachilik assotsiatsiyasi (1948 y) tomonidan ishlab chiqilgan “Kutubxonachilik huquqlari haqida bill” (Bibliotekhniiy bill o pravax) (1948 y), “Ommaviy kutubxonalar haqida YUNESKO Manifesti” (1949 y), IFLAning “Kitoblar xartiyasi” (Xartiya knigi) (1972 y) kabi xujjatlar katta rol shynadi. Ushbu xujjatlarning asosiy mazmuni kutubxonachilik nazariyasi va amaliyotida demokratiya va intellektual ozodlik prinsiplarini joriy etishga yo‘naltirilgan edi.

Bir vaqttni o‘zida kutubxonashunoslikda umumnazariy masalalar, kutubxonashunoslik metodologiyasi muammolari, uning ilmiy metodlari, statusi, tarkibi va boshqa masalalari ishlab chiqildi.

Kutubxonashunoslik bo‘yicha ilmiy- tadqiqotlarni amalga oshirish sezilarli ravishda kengaydi: Jumladan, kutubxonachilik ishlarini rejali tashkil etish va markazlashtirish, o‘zaro hamkorlik muammolari (B.N.Bachaldin, L.M.Inkova, N.S.Kartashov, V.V.Serov, G.P.Fonotov);kutubxonalarni va kutubxona tizimlarini boshqarish (R.Bouden, D.E.Ueyngard, A.N.Vaneyev,N.N.Gudkov, YE.A.Fenelonov); kutubxonachilik xizmati nazariyasi va metodikasi ( A.Y.Ayzenberg, M.Y.Dvorkina, N.YE.Dobrinina, S.G.Matlina, B.G.Umnov); fondni saqlash muammolari ( “Pamyat mira” ( Dunyo xotirasi); kutubxonachilik ishida bozor munosabatlari ( G.Armstrong,F.Kotler, I.V.Eydellmiller, V.K.Klyuev, I.M.Suslova, G.P.Fonotov, J.S.Shadrina)

Axborotni juda tez ko‘payishi natijasida vujudga kelgan jiddiy krizis xolatini chet el kutubxonashunosligi nisbatan tezlikda yengib o‘tib, sifat jihatidan yangi sifat darajasiga chiqib oldilar. Buni obrazli ravishda “ kutubxonashunoslik yangi kalitda” (D.X.Shira) (Bibliotekovedeniye v novom klyuche”) deb nom oldi. “Yangi kalit” kutubxona va kutubxonachilik ishini axborotlashtirish interpretatsiyasida- ya’niy axborotlashtirishda amalga

oshirishdir.

Hozirda chet el kutubxonashunosligi nisbatan rivojlangan ilmiy institut xisoblanadi. Ilmiy markazlar tizimi tashkil etilgan, yuzlab milliy, regional va xalqaro kasbiy kutubxonachilik tashkilotlari umumnazariy muammolar bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda, 1,5 mingdan ortiq vaqtli matbuot nashrlari, aloxida kitoblar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalari va boshqalar chop etilmoqda.

O'zbekistonda ilk ilmiy tadqiqot ishlari o'tkan asrning 20-yillaridayoq boshlanganva u kutubxonachilik ishi tarixini madaniy qurilishning muxim qismi sifatida o'rganilgan. Bu muammoni o'rganishga respublikaning mashhur kutubxonashunos-olimi YE.K.Betger o'zini bir qancha ishlarini bag'ishlagan: "Turkiston davlat kutubxonasi (1918-1922 yillar)", "Qisqacha tarixiy ocherk", "Bir asrning to'rtidan uch qismidagi madaniy ishlar" (1870-1945 yillar).

Respublikada kutubxonachilik ishi tarixini o'rganish ishlari 60-yillarda ancha faollashdi. O'zbek manbashunoslari tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi va uning ayrim muammolari o'rganildi. Bu ishlar E.A.Oxunjonov, A.I.Kormilitsin, A.G.Kosimova, M.A.Raximova, B.K.Karimovlarning asarlari va ilmiy dissertatsiyalarida o'z aksini topdi.

Respublika olimlari tomonidan "Kitob va o'qish har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vositasi sifatida" mavzusi ishlab chiqildi. Ushbu mavzu bo'yicha M.Y.Malisheva va T.X.Kimlar ish olib bordilar. Axolini turli qatlamlariga kutubxona xizmati ko'rsatish ishlari M.M.Rasulov va M.X.Maxmudovning dissertatsiya tadqiqotlarida o'rganildi. Aloxida e'tibor bolalar va o'smirlarga kutubxona-bibliografik xizmati ko'rsatish ishlariga bag'ishlandi. Bu muammolar bilan E.Y.Yo'ldoshov, O.G.Shabalina, B.I.G'aniyeva, M.Y.Sarkazovalar shug'ullandilar Bibliografiya nazariyasi bo'yicha keng miqyosdagi ishlar M.M.Turopov, SH.M.Shamsiyev, N.P.Shumanova, I.M.Trotskiy, M.Mirzaaxmedova, M.Y.Nosirova, A.V.Nosirova, I.V.Dolgoplova va X.Mamatraimovalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topdi O'zbekistonlik tadqiqotchilari tomonidan kutubxona fondlari va kataloglari nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar bilan Y.B.Abramov, V.V.Sokolova, M.I.Vitenson, I.I.Kattaxodjayeva, Z.Berdiyeva va boshqalar shug'ullandilar Kutubxonachilik ishini boshqarish masalalari T.B.Yesimov, E.G.Islomov, A.P.Kovalenko tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston kitobshunoslik tarixi va kitob tarixi tadqiqotlarida aloxida o'rnini E.O.Oxunjonovning ilmiy ishlari tashkil etadi. Shu bilan birga ushbu muammolar F.N.Rojinskaya, Z.I.Yesenbayev, Z.Y.Yuldashev, M.R.Rashidovlar tomonidan ham o'rganilgan. Kutubxona tizimlari va aloxida kutubxonalarni axborotlashtirish, avtomatlashtirish va mexnanizatsiyalashtirish mavzusi bo'yicha M.Z.Yakubova, M.A.Raxmatullayev, U.F.Karimov, A.SHG.Muxammadiyev va B.A.Mannonovlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.

Ilmiy- tadqiqot ishlari natijalarikeng kutubxonachilik jamoatchiligiga turli xil nashrlar yordamida: monografiyalar, maqolalar to'plami, vaqtli matbuotdagi maqolalar, ilmiy xisobotlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar tavsiyalari, metodik, o'quv qo'llanmalari, dissertatsiyalar avtoreferatlari va boshqalar orqali yetkaziladi. XX asrning ikkinchi yarmi kutubxonashunoslik tadqiqotlarining umumnazariy masalarini o'rganilishi va ularni kengli bilan xarakterlanadi. Tarxiy-kutubxonashunoslik muammolariga, kutubxonalarni ijtimoiy roliga, kutubxonashunoslikning xususiy qismlarini o'rganishga aloxida e'tibor berila boshlandi. Kutubxonashunoslik fani ijtimoiy institut sifatida sifat jixatidan uni infrastrukturasi o'zgarib boshlandi; yirik ilmiy universal va maxsus kutubxonalarda ilmiy-tadqiqot bo'limlari tashkil etila boshlandi. "Sovetskoye bibliotekovedeniye" ilmiy-nazariy to'plami chop etila boshlandi. O'zbekistonda "O'zbekiston kutubxonashunosligi" va "Betgerxonlik o'qishlari" to'plamlari tashkil etildi. Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni aspirantura va doktorantura tizimlari joriy etildi. Zamonaviy kutubxonashunoslikning asosiy o'ziga xosligi-uni yangi va yagona umuminsoniy qadriyatlar metodologiyasi asosida rivojlanishidir. Ushbu vazifalarni muvoffiqiyatli xal etilishi kutubxonachilik fanini hozirgi axborot-kutubxona faoliyatini ulkan axborot industriyasining bir qismi sifatida qarash orqali, o'zini asosiy nazariy masalarini yangi sifat ko'rsatkichlarida xal etishga bog'liqdir.

### **Nazorat savollari.**

1. Kutubxonashunoslikni ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi xaqida nimalarni bilasiz?
2. XIX asrning boshlarida kutubxonashunoslik fanining paydo bo'lishi xaqida nimalarni bilasiz?
3. XX asrda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi xaqida nimalarni bilasiz?

### **3-MAVZU: KUTUBXONASHUNOSLIK FANI RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI**

#### **Reja:**

- 1. Kutubxonashunoslikning fan sifatidagi mohiyati.**
- 2. Kutubxonashunoslik fanining vazifalari.**
- 3. Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi.**

#### **Tayanch iboralar:**

Kutubxonashunoslikning fan sifatidagi mohiyati. Kutubxonashunoslik fanining vazifalari. Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi.

1. Kutubxonashunoslik g'oyalari davri. **Kutubxonashunoslik fani ilmiy** predmet sifatida o'zining genezisi va rivojlanish xarakteristikasiga ega. Uni o'rganish tarixiy yondoshishlikni talab etadi. Bu esa kutubxonashunoslikni paydo bo'lishi va asosiy shakllanish etaplarini o'rganish, nazariy g'oyalarni takliflar va farazlardan ilmiy bilimlarga aylanishi, ularni rivojlanish istiqbollari ko'ra olish imkoniyatini beradi

Butun dunyo miqyosida kutubxonashunoslikni tarixiy rivojlanishi hozircha yetarli darajada o'rganilgan. Chet davlatlarda, Rossiya Federatsiyasidan tashqari, kutubxonashunoslikning bu aspekti hozircha olimlarning diqqat markazida emas.

O'zbekistonda kutubxonashunoslikni rivojlanishining umumiy xarakteristikasi T.B.Yesimovning "Uzbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va tarakqiyoti" monografiyasi (Toshkent- 1994) va A.G.Kosimova va T.B.Yesimovning "Umumiy kutubxonashunoslik" (Toshkent- 1994. 272 b.), o'quv qo'llanmasida aks etgan. O'quv qo'llanma K.I.Abramova i N.S.Kartashovlarning "Bibliotekovedeniye. Obshiy kurs", ( Moskva-1988 g.). asosida yaratilgan.

Bundan tashqari A.I. Kormilitsin, M.M. Rasulov, S.X. Davlatovlarning "Kutubxonashunoslik ishining nazariyasi va tarixi" (Toshkent- 2003, latin. graf.) E.O. Oxunjanovning "Vatan kutubxonachiligi tarixi" (Toshkent- 2004) asarlarida O'zbekistonda kutubxonashunoslikning ba'zi bir masalalariga ham to'xtalib o'tilgan.

Kovalenko A.P., Umarov A.A., Rasulov M.M. tomonidan yaratilgan "Osnovi bibliotekovedeniya" o'quv qo'llanmasi (Toshkent-2008) kutubxonashunoslik fani bo'yicha keyingi yillarda yaratilgan asar bo'lib, unda O'zbekistondagi axborot-kutubxona sohasidagi o'zgarishlarni o'z ichiga olishi bilan birga, O'zbekistonda kutubxonashunoslik sohasidagi amalga oshirilgan ishlarga ham to'htalib o'tilgan.

Kutubxonashunoslik tarixi ikkita davrga bo'linadi.

1. Kutubxonashunoslik g'oyalari davri.

11. Kutubxonashunoslik fanining ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lishi va rivojlanish davri.

Ular o'z navbatida bir qancha davrlarni o'z ichiga oladi.

Jaxon kutubxonashunoslik fanining umumiy davrlashtirishi:

1. Kutubxonashunoslik g'oyalari davri

1.1. Qadimgi davr kutubxonashunoslik g'oyalari davri  
1.2. O'rta asrlar davri kutubxonashunoslik g'oyalari davri  
2. Kutubxonashunoslik fanining ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lishi va rivojlanish etapi.

2.1. Kutubxonashunoslik fanining paydo bo'lishi va shakllanishi (XIX)

2.2. XX asrda kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi

2.3. Kutubxonashunoslik fanining rivojlanish istiqboli davri (XXI asr) - umuminsoniy qadriyatlarni metodologik asoslari sifatidagi fan

1.1. Kutubxonashunoslik fani tarixi

Kutubxonashunoslik g'oyalari deganda kutubxona va kutubxonachilik ishlari haqidagi dastlabki, eng oddiy g'oyalar tushuniladi. Bu oddiy tushunchalar bo'lib, xali ilmiy bilimlar, tushunchalar darajasiga chiqmagan fikrlardir. Kutubxonashunoslik g'oyalari va kutubxonashunoslik fani o'rtasidagi aloqalar, kutubxonashunoslik fanini ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun asos sifatida xizmat qildi. Xronologik jihatdan kutubxonashunoslik g'oyalar tarixi ikki ming yildan ortiqroq davrni o'z ichiga oladi.

Kutubxonashunoslik g'oyalari kompleks ravishdagi obektiv sabab va sharoitlar natijasida paydo bo'ldi. Ular bevosita eramizdan avvalgi 11 minginchi yillarda paydo bo'lgan birinchi kutubxonalar bilan bevosita bog'liqdir.

Qadimgi dunyoda kutubxonalarini sonini ko'payishi natijasida sekin-asta ularni faoliyati haqidagi ma'lumotlar to'plana boshlandi. Keyinchalik ular haqidagi ma'lumotlarni to'plab taxlil qilish, kutubxonalar ishini tashkil qilish haqidagi eng yaxshi usullarni aniqlash va boshqalar haqida obektiv talablar paydo bo'la boshladi. Bu vazifalar kutubxonashunoslik g'oyalar sifatida qarala boshlandi.

Qadimgi dunyo kutubxonashunoslik g'oyalarida - hozirgi vaqtda kutubxona deb ataluvchi muassasalar haqidagi eng oddiy, elementar tushunchalar: tashkil etish, saqlash, tavsiflash, kataloglashtirish va boshqalar haqida fikrlar berilgan.

O'rta asrlar davrida kutubxonashunoslik g'oyalari o'ziga xos qarashlar bilan boyidi. Ushbu davrda G'arb mamlakatlari kutubxonachilik ishida cherkovning to'liq xukumronligi ostida bo'lsa, Sharq mamlakatlarida ayrim xukmdorlar saroyida va diniy muassasalar qoshida kutubxonalarini shakllanishi, ularni diniy yo'llanishda faoliyat yuritishga olib keldi.

Kutubxonalar "diniy-klerikal madaniyat"ni tarqatish o'chog'i sifatida qaraldi va va bunday yondoshish ularni ish mazmuni va shaklini belgilab berdi. Asosiy e'tibor kitob boyliklarini saqlash va ularni asrash, xisobini olib borish, joylashtirish, kataloglashtirishga qaratildi. Undan foydalanishga e'tibor kam qaratildi.

Markaziy Osiyo mintaqasida dastlabki kutubxonalar IV-VI asrlarda paydo bo'lgan. Markaziy Osiyo mintaqasida kutubxonalarini rivojlanishiga VIII asrdan boshlab Samarqanda yuqori sifatli qog'oz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi muxim ahamiyat kasb etdi. Ushbu davrlarda Sharqning buyuk allomalari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Axmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy va boshqalar faoliyat yuritdilar.

Abu Ali ibn Sinoning Buxoro amirining saroy kutubxonasi haqidagi estaliklari judda ham qiziq manba sanaladi: "Men -deydi olim, kitoblar saqlanadigan joyga kirdim. Ular bir qancha xonalardan iborat bo'lib, har bir xonada sandiqlarda kitoblar saqlanar edi. Bir xonada arab tilidagi kitoblar va she'riy kitoblar, boshqasida huquqshunoslikka oid kitoblar va shu tariqasida har bir xonada fanning qaysidir sohasiga oid kitoblar saqlanar edi. Men u yerda mendan oldin o'tgan ilm axli tomonidan yozilgan va bu yerda saqlanayotgan kitoblarni ro'yhatini o'qib chiqdim.

X asrlarda saroy kutubxonalarida adabiyotlarni klassifikatsiyalashning ba'zi bir usullari qo'llanila boshlandi va kutubxonalarda mavjud bo'lgan kitoblarning ro'yhatlari tuzilgan, kutubxona ichida esa mehnat taqsimoti yo'lga qo'yilgan.

G'arb mamlakatlarida ushbu davrlarda "yereticheskij" adabiyotlarni o'qishni taqiqlash ishlari keng avj oldi. O'qish man etilgan" otrechennix", "lojnonapisannqx" adabiyotlarni ro'yhatlari tuzildi.

Bu davrlarda kutubxonachilik g'oyalari, kitobsaqlovchilar uchun yaratilgan turli xil yo'riqnomalar, eslatmalar va nasixatlarda aks eta boshladi. O'rta asr kutubxonachilik g'oyalarini o'ziga xos xarakterli tomoni shundan iborat ediki, kutubxonalarga faqat tor doiradagi odamlar uchungina kitoblar to'planadigan joy sifatida qarash xos edi.

Kitob bosishni kafsh etilishidan keyin kutubxonachilik ishini boshqarish bo'yicha dastlabki bosma asarlar paydo bo'la boshladi. Ulardan dastlabkisi Fransiya kardinali Djuli Mazarini tomonidan kutubxona tashkil etish uchun taklif qilingan teolog va publitsist Gabriyelya Node (1627 y.)ning "Kutubxona tashkil etish bo'yicha maslahat" asari edi.

Kutubxonachilik g'oyalarini rivojlanishidagi sezilarli burilishlar Buyuk fransuz revolyusiyasi (1789-1794 yillar) davrda paydo bo'la boshladi. Kutubxonalarga "fuqoralar uchun maktab" sifatida qarala boshlandi va ular maktab, maktabdan tashqari ta'lim tizimini tashkil etishda muxim rol o'ynashi zarurligi qayd etila boshlandi. XVIII asrning oxiri-XIX asrning boshlarida jaxonda kutubxonashunoslikni fan sifatida shakllanishiga asosiy shart-sharoitlar paydo bo'ldi: yetarli darajada boy imperik bazalar yig'ildi, bir qancha muxim g'oyalar tasdiqlandi. Bularni barchasi yangi fanni asosini tashkil etishi mumkin edi.

**Kitob bosish-bo'yoqni bosma formadan qog'ozga o'tkazib, kitob, jurnal, gazeta va boshqa bosma mahsulotlari tayyorlanadigan ishlab chiqarish jarayonlari.**

"Kitob bosish" iborasi bosma kitob tayyorlash tarixi qaqida fikr yuritilganda ishlatiladi, **zamonaviy kitob bosishda esa poligrafiya termini** ancha keng tarqalgan.

Kitob bosishning o'tmishdoshi **ksilografik bosma bo'lib**, unda bosiladigan butun bir bet yozuv taxtaga o'yib qo'yilardi.

**11-asrdan boshlab Xitoyda kitobni qo'lda ko'chirishdan bosish usuliga o'tilgan.** Biroq, bu usul keng rivojlanmadi. Faqat taxminan **400 yil o'tgandan so'ng Yevropada harf terish shrifti ixtiro qilindi.**

O'sha davrda bir vaqtning o'zida bir necha mamlakatlar – **Germaniya, Niderlandiya, Italiya, Fransiya bir-biridan mustasno bir necha ustalar bitta muammo bosma mashina yaratish ustida ish olib borishgan.**

Hozirgi vaqtda tarixchilar bu muammoni birinchi marta **germaniyalik Iogann Gutenberg (1399-1468) hal qilganligini aytishadi.** Metall shriftlarni matritsalariga quyish qurilmasi ixtiro qilingandan so'ng Yevropaning ko'pgina shaharlarida kitob bosib chiqarila boshlandi.

**1464-yilda Rimda birinchi Kitob bosish stanogi o'rnatildi. 1470-yillarga kelib Fransiya, Niderlandiya, Shveysariya, Ispaniya va Angliyada kitoblar bosib chiqarila boshlandi, Venetsiya, Nyurnberg Kitob bosish ishlari bo'yicha yirik markazga aylandi.**

**1500-yillarga kelib Yevropaning 250 shahrida bosmaxona bo'lgan.**

Bosmaxona ishlarining rivojlanishi tufayli kitob umumiy siyosiy hayotda va madaniyatning rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

1600-yillarda birinchi gazeta, 1650-yillarda birinchi varaqa bosilib chiqdi.

Kitob bosishning keyingi rivojlanishiga litog'rafiya (toshbosma) (1798) va tekis bosma mashinasi (1811) ning ixtiro qilinishi sabab bo'ldi. 19-asr o'rtalari — 20-asr boshlarida Kitob bosish korxonalarida linotip, keyinroq rotatsion, ofset bosma mashinalar ishlatila boshlandi.

#### **Nazorat savollari.**

1. Kutubxonashunoslikni ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi xaqida nimalarni bilasiz?
2. XIX asrning boshlarida kutubxonashunoslik fanining paydo bo'lishi xaqida nimalarni bilasiz?
3. XX asrda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi xaqida nimalarni bilasiz?

#### 4-MAVZU: KUTUBXONASHUNOSLIK FANINING METODOLOGIYASI

##### Reja:

1. Kutubxonashunoslik fanining metodologiyasi.
2. Umumiy va xususiy metodlar. Kutubxonashunoslik fanining metodlari.
3. Kutubxonashunoslik fani bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish.

##### Tayanch iboralar:

Kutubxonashunoslik fanining metodologiyasi. Umumiy va xususiy metodlar. Kutubxonashunoslik fanining metodlari. Kutubxonashunoslik fani bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish.

**1. Kutubxonashunoslik fanining metodologiyasi.** Fan dunyo haqidagi nazariy jihatdan tizimlashgan bilimlar yig'indisi. Fanning asosiy vazifasi o'zi o'rganayotgan narsa va hodisalarning taraqqiyot qonunlarini ochib berishdan iborat. Insoniyat taraqqiyoti jarayonida vujudga keladigan har qanday fan o'z predmeti va tadqiqot usullariga ega. Har bir fan nazariy jihatdan tizimlashgan bilimlar yig'indisi sifatida tadqiqot jarayonida xilma-xil ilmiy usullardan foydalanadi.

Kutubxonashunoslik metodologiyasi deganda eng umumiy, boshlang'ich, bilishning asosiy tamoyillari va vositalari, nazariy faoliyatni tashkil etish va yaratish, shuningdek ushbu tizim haqidagi bilimlar tushuniladi.

Kutubxonashunoslikning yangi manbalari, metodologik asos sifatida quyidagilarni tavsiya etmoqda:

Bilish jarayonini o'rganishga yondoshgan dunyo falsafasi;

Mantiq ilmi;

Kutubxonashunoslikning xususiy qonunlari va tamoyillari

Har bir nazariyotchi va amaliyotchi o'z faoliyatida nafaqat o'zini kasbiy kutubxonachilik bilimlariga suyanishi, shu bilan birga kutubxonashunoslik metodologiyasining umumiy va xususiy tomonlaridan xabardor bo'lishi kerak.

Kutubxonashunoslikning umumiy metodologiyasida muxim o'rinni falsafa egallaydi. U tabiat, jamiyat va fikrlashning eng umumiy, asosiy qonuniyatlarini o'rganadi. Juda ulkan falsafiy bilimlar ichida kutubxonashunoslik uchun metodologik jihatdan eng muxim va ahamiyatlisi bu bilish nazariyasidir (gnoseologiya). Kutubxonashunoslik metodologik nuqtai nazardan, obektiv dunyoni "axborot-kutubxona faoliyati" deb nomlanuvchi universal bilish faoliyatining nisbatan uncha katta bo'lmagan bir bo'lagidir.

Dialektikaning asosiy qonunlari va tamoyillari, falsafiy kategoriyalari kutubxonashunoslik uchun metodologik jihatdan asosiy negiz sifatida ahamiyatlidir. Dialektika («tanlayman»— degan yunon so'zidan olingan)

a) "Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni" - dialektika qonunlari ichida markaziy o'rinni egallaydi. Bu qonunga muvofik har bir narsa bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va biri ikkinchisini istisno etuvchi qarama-qarshi tomonlarga, kuchlarga ega. Bu qarama-qarshi tomon va kuchlar o'rtasidagi kurash taraqqiyotning manbaini ifodalab, eskining yo'qolishi va yangining paydo bo'lishiga olib keladi.

Ma'lumki, narsalar turli-tumandir. Hamma tomonlari bilan aynan o'xshash bo'lgan ikki narsaning o'zi yo'q. Narsalarning tafovut darajasi ham bir xil emas: muhim va nomuhim tafovutlar mavjud.

Narsa va hodisalardagi tafovutlar qarama-qarshiliklar asosini tashkil etadi.

Ushbu qonun axborot-kutubxona faoliyati nazariyasi va amaliyotiga to'liq tadbiiq etiladi. Agar axborot-kutubxona faoliyati bo'lmasa, kutubxonashunoslik fani ham bo'lmaydi, yoki kutubxonashunoslik fanisiz axborot-kutubxona faoliyati hozirgi zamonaviy xolatga kela olmas edi. Lekin, ular qandaydir xolatda bir- biriga qarama-qarshidir, ya'ni kutubxonashunoslik- bu mavhum, axborot-kutubxona faoliyati-bu moddiy, bor bo'lgan faoliyatdir. Shu bilan birga ular

ular o'rtasida o'zaro faoliyat yuritadi, bir-biri to'ldiradi: axborot-kutubxona faoliyati kutubxonashunoslik g'oyalari bilan boyitiladi, kutubxonashunoslik fani esa axborot-kutubxona faoliyatining ilg'or amaliyoti bilan to'lib boradi.

b) "Miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni" -dialektikaning asosiy qonunlaridan biridir. Bu qonunning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida meyorini buzadi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi..

Miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni asosida kutubxonashunoslik va axborot-kutubxona faoliyatini xarakati va rivojlanishini tushuntirish mumkin. Kutubxonashunoslikda, barcha fanlar kabi, sifat o'zgarishlari nisbatan sekinlik bilan, har doim ham sezilarli bo'lmagan tarzda amalga oshadi. Bular miqdor o'zgarishi natijasida bo'ladi. Masalan, qadimda kutubxonalar sonini oshishi natijasida, kutubxonashunoslik g'oyalari paydo bo'lishiga olib keldi. Kutubxonashunoslik g'oyalari esa asta-sekin yangi sifat o'zgarishlariga, kutubxonashunoslikga o'tdi. Kutubxonashunoslikning keyingi taraqqiyoti esa shu qonun asosida bormoqda.

v) "Dialektikaning inkorni inkor qonunining" qonuniga muvofiq obektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi. Rivojlanish burama shaklda, ma'lum nisbiy takrorlanishlar asosida, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga qarab boradi.

Kutubxonashunoslikning tarixi, hozirgi xolati va istiqbolini, mashxur faylasuf V.F.Gegel tomonidan yaratilgan rivojlanish uchligi:- tezis- antitezis (qarshitezis) -sintez qonun asosida ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy kutubxonashunoslik fanimiz- bu taxminan 1917 yildan 1990 yillargacha bo'lgan kutubxonashunoslikning antitezisidir. Ertami, kechmi u sintez bosqichi bilan almashadi va axborot-kutubxona faoliyatida chuqur o'zgarishlarga olib keladi. Kelgusidagi rivojlanish bosqichlari hozirgi g'oyalarni inkor qilish asosida yangi g'oyalarni yaratadi. Lekin bu g'oyalar, yangi sifat o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, dialektika qonunlari kutubxonashunoslikning nafaqat tarixi, hozirgi xolati va istiqbolini tushuntirib beribgina qolmasdan, uni yanada ratsional rivojlantirishga undaydi.

Metodologik nuqtai nazardan kutubxonashunoslik uchun falsafiy kategoriyalar, ham muxim ahamiyatga ega. Falsafiy kategoriyalari — obektiv dunyo eng umumiy qonunlar taraqqiyotining in'ikosidir. Barcha falsafiy kategoriyalar obektiv dunyo qonunlari in'ikosi bo'lgani uchun obektiv mazmunga egadir; Falsafiy kategoriyalari ilmiy bilishda muxim metodologik vazifani bajaradi. Obektiv dunyo hodisalarining eng umumiy qonunlari harakatini o'rganib, bir tomondan, narsalarning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishga yordam beradi, ikkinchi tomondan, obektiv dunyodagi narsa va hodisalar haqida yangi bilimlar olishga va to'plashga sabab bo'ladi.

Ba'zi bir falsafiy kategoriyalarga to'xtalib o'tamiz:

Yakkalik — alohida sifat va miqdor aniqligiga ega bo'lgan narsa, hodisa va jarayondir.

Umumiylik- deganda obektiv reallikning barcha narsa yoki hodisalardagi obektiv mavjud bo'lgan xossalari va belgilarning majmui, ular o'rtasidagi aloqa munosabatlarning o'xshashligi tushuniladi;

Xususiylik -shunday narsa yoki hodisalar guruhidirki, ular ma'noda umumiy bo'lsa-da, lekin undan ham umumiyroq ma'noda boshqa bir guruhga kiradi va bu guruhda u alohidalik u yakkalikdir, butunning qismidir.

Mohiyat — hodisaning ichida yashiringan moddiy olamning turli-tuman hodisalarida yuz beradigan chuqur nisbiy barqaror aloqalarni ifodalaydigan voqelikning ichki tomonidir.

Xodisa - mohiyatning u yoki bu holda uchratilishini ifodalovchi obektiv voqelikning o'zgaruvchan, harakat xususiyatlariga, belgilariga boy bo'lgan tomonidir. Narsalarning mohiyatiga singib borish narsa va hodisalar rivojlanishining qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Kutubxonashunoslikning xususiy metodologiyasi kutubxonashunoslikning o'z

tamoyillari va axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etish va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlarini qayd etib o'tadi.

Kutubxonashunoslik tamoyillariga:

Bilimni, axborotni hamma uchun erkinligi;

Foydalanuvchilar qiziqishini ustunligi;

Axborot-kutubxona faoliyatini tizimlilik;

Axborot-kutubxona faoliyatida markazlashtirish va nomarkazlashtirishni birgalikda olib borilishi;

Axborot-kutubxona faoliyatini muvofiqlashtirish va kooperatsiyalash;

Axborot-kutubxona faoliyatini davlat-jamoatchilik xarakteri;

Axborot-kutubxona tizimlarini shakllantirish qonuniyatlari;

Axborot-kutubxona faoliyatini tizimli rivojlantirishning obektiv xarakteri;

Axborot-kutubxona muassasalarini birgalikdagi faoliyati –ularni shakllantirish va rivojlantirishni asosi sifatida;

Axborot-kutubxona tizimlarini dinamikligi va boshqalar.

Kutubxonashunoslikda muxim o'rinni tushunchalar-terminlar egallaydi.

## **2.Kutubxonashunoslik fanining metodlari( ilmiy usullari)**

Kutubxonashunoslikning ilmiy metodikasi – ushbu fan oldida turgan muammolarni o'rganish uchun foydalaniladigan usullar majmuasidir.

Usul — ilmiy bilishning tarkibii qismi bo'lib, uning obekti, tahlil mavzui, tadqiqot vazifalari, ularni hal etish uchun zarur bo'lgan vositalarni ifodalaydi.

Ilmiy usul ilmiy bilish jarayonida qo'llaniladigan mavhum bilish yo'llari hamda vositalarini ifodalaydi. Ilmiy bilish usuli inson amaliy faoliyati negizida yuzaga keladi.

Kutubxonashunoslik usullari foydalanilishiga ko'ra umumiy ilmiy va xususiy ilmiy usullarga bo'linadi. Hozirgi zamon ilmiy bilish jarayonida, shu bilan birga kutubxonashunoslikda quyidagi umumilmiy usullar keng qo'llaniladi:

Kuzatish — voqelikdagi narsa va hodisalarni muayyan maqsadga muvofiq qaratilgan hissiy bilish usulidir.

O'lchash — bilish jarayonida narsaning miqdor tavsifnomasini aniqlash usulidir.

Taqqoslash — bir narsa yoki hodisaning ikkinchi bir narsa yoki hodisadan farqli va o'xshash tomonlarini hamda ularning munosabatlarini o'rganish usuli hisoblanadi.

Eksperiment — tajribada sinab ko'rish orqali fanda hodisalarni bilish faoliyatida tadqiq qilish, o'rganish usuli hisoblanadi.

Biz ko'rib chiqqan bilish usullari deyarli bilimning empirik dalillarga xos bo'lgan usullardir. Obektni faqat tajribada emas, balki bevosita mavhum tafakkur yo'li bilan ham xosil qilish mumkin:

Abstraksiya (mavhum tasavvur)— hodisa, narsaning xossalarini, munosabatlarini taraqqiyot bosqichlarini fikran bilish usulidir.

Analizda - o'rganilayotgan narsa va hodisa, fikr - mayda bo'laklarga, ya'ni elementlarga bo'linadi va ular o'rtasidagi bog'lanishlar, o'zaro munosabat va ta'sir o'rganiladi.

Sintez - analizning natijalariga suyanib, narsa va hodisalarning bir butun sifatini o'rganadi. Sintez analiz natijasida fikran bo'lingan elementlarni qaytadan tiklash, ularni birlashtirish, ilgari yaxlitlikni fikran vujudga keltirish usulidir.

(masalan axborot-kutubxona faoliyati).

Induksiya va deduksiya aqliy xulosaning asosiy shakli bo'lib, bilish jarayonida ma'lumdan noma'lumga tomon bo'lgan fikr harakatini ifodalaydi.

Induksiya- ayrim fikriy bilishdan umumiy, xulosalar chiqarishda qo'llaniladigan muhokama usuli.

Deduksiya- umumiylikdan hususiylikka olib boruvchi mantiqiy usul. Modellashtirish - borliqni bilvosita o'rganishga asoslangan ilmiy usuldir. Modellashtirish asosida tadqiq qilinayotgan obekt bilan uning modeli o'rtasidagi o'xshashlik, muvofiqlik yotadi.



Tizimlash usuli - o'z ichiga muayyan tarzda o'zaro bog'langan va bir qadar yaxlitlikni tashkil etgan unsurlar majmuini o'rganishni oladi. Hozirgi ilmiy bilish jarayonida, murakkab obektlarni ilmiy bilishda bu usul keng qo'llanilmoqda. Bu usul asosida o'rganilayotgan yoki izlanayotgan obektning boshqa obekt bilan umumiy bog'lanishlari, munosabatlari ochiladi.

Aniqlik usuli - tadqiqot obektining xossalari, aloqalari, munosabatlarining ko'p qirrali birligi sifatida nazariy umumlashtirish vositasi hisoblanadi. Bu usul aniq hodisalar haqidagi barcha aloqalar va munosabatlarni o'z ichiga olgan voqelik haqidagi bilimni yuzaga chiqaradi.

Mavhumlik usuli - aniq voqelikning mohiyati haqidagi bilish vositasi hisoblanadi. Tafakkurning o'zini tasavvur vositasi bilan voqelikni bilish usuli deb qarash mumkin.

Tasavvur usuli - predmetni bilib olishning eng muhim usulidir. Tasavvur vositasi bilan muayyan munosabatdagi muhim xossa va munosabatlar mohiyati ochiladi. Tasavvur usuli voqelik hodisalarini chuqurroq, to'g'riroq aks ettiradi. Bu usul asosida tadqiq qilinayotgan obekt fikran tahlil qilinadi, mavhum ta'riflarga bo'linadi.

Aksiomatik usul - taqiqotning aksiomalarga asoslanib nazariy xulosalar chiqarish usulidir.

Gipotetik-deduktiv usul - bu usulning asosi aksioma emas, balki tajriba ma'lumotlari majmuidir. Gipoteza usuli tajriba orqali ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlanishi yoki noto'g'ri bo'lib chiqishi mumkin. Gipoteza ilmiy tadqiqot jarayonini ma'lum yo'nalishda yo'naltiradi, yangi-yangi dalillarni va ma'lumotlarni to'plashga yordam beradi.

Tarixiylik va mantiqiylik usuli - obektiv dunyo taraqqiyot jarayonini muhim xususiyatlarini bilish usulidir. Tarixiylik - narsa va hodisaning ro'y berish vaqti, davri, aniq vujudga kelishi, rivojlanishini bilish usulidir. Har bir xodisa tarixiy nuqtai nazardan, aniq tajriba asosiga bog'lab o'rganmoq zarur.

Mantiqiy usul- predmetning mazmunini nazariy shaklda tadqiq qilish usuli hisoblanadi. Bu usul tadqiqot obektining eng muhim aloqalarini bilib olishga imkon beradi.

Bilish jarayonida hosil bo'lgan bilimlarimiz aniq mazmunining

Istiqbollashtirish (oldindan ko'ra bilish, aytib berish) - qandaydir voqea yoki xodisalarni turli xil maxsus metodlardan foydalangan xolda miqdoriy baxolash yoki ma'lum bir muddatlardagi o'zgarishlarni ko'rsatib berish (masalan, 2020 yilga bo'lgan axborot-kutubxona faoliyatini rivojlanishi konsepsiyasi)

Tarkibiy-funksional usul - xodisa va jarayonlarni tizimli tahlil qilish orqali butun qismni tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganishdir. Bunda tarkibning har bir qismima'lum bir vazifaga ega bo'ladi.

Klassifikatsiya - ma'lum bir belgilarga ko'ra predmetlarni o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan sinflarga ajratish. Bunda har bir sinf o'zini ma'lum bir doimiy joyiga ega bo'ladi va o'z navbatida u ham mayda sinflarga bo'linadi. Klassifikatsiyalash usuliga kutubxonalarni tiplarga bo'lish, sistematsiyalash, predmetlashtirish va x.k. misol bo'ladi.

Kutubxonashunoslikda umumilmiy metodlar bilan birga xususiy metodlar ham keng qo'llaniladi. Ularni bir qanchasi umumilmiy metodlar sifatida potensial imkoniyatlarga ega, lekin hozircha keng qo'llanilmayapti. Boshqalari esa faqat ushbu sohadagina qo'llaniladi. Ularga qisqacha to'htalib o'tamiz:

Sotsiologik tadqiqot usullari. Kutubxonashunoslik tadqiqotlarida hozirda keng qo'llanilmoqda. Unga so'rovnomalar, intervyu kiradi. Sotsiologik tadqiqot metodlari yordamida xodisa va jarayonlar bo'yicha ijtimoiy fikr to'planadi. Kutubxonashunoslik tadqiqotlarida sotsiologik tadqiqot o'tkazish xajmini tasodifiy belgilash metodlari katta ahamiyatga egadir. Ushbu metodlar tadqiqotni reprezentativligini, ya'ni qamrab olinishni ta'minlaydi. Respondentlar sonini (tadqiqotda ishtirok etuvchilar soni) optimal xal etilishi matematik formula orqali, nomogrammlar va katta sonlar jadvallari yordamida xal etiladi.

So'rovnomalar. Bu so'rov o'tkazuvchilar o'rtasida obektiv va subektiv faktlar bo'yicha birlamchi axborotlarni to'plashdir. So'rovnomalar tadqiqotchi uchun zarur bo'lgan aniq faktlar, jarayonlar, xodisalar, shuningdek sabablar, rejalar, va xokozolar olish imkonini beradi. So'rovnomalar - "qayta aloqa" ni muxim kanalidir. So'rovnomalar natijalarini analiz qilish va ularni

bayon etishda tadqiqotchi obektiv bo'lishi muxim shartdir

Kontent-analiz usuli. Zamonaviy kontent-analiz usuli (mazmuni analiz qilish) xabarlarini (og'zaki, yozma, elektron), muallif xabariii, auditoriyani xabarlarini mazmuni va shakllarini, mazmuni auditoriyaga ta'sir ko'rsatish natijalarini o'rganadi.(U quyidagi savollarga jabob topishi kerak: Kim gapiryapti? Nima gapiryapti? Kimga gapiryapti? Qanday natijalar bilan?) Xabarlarda tadqiqotchi nuqtai nazaridan mazmunli birliklar (kuzatish birliklari) aniqlanadi va keyin ularni ishlatilishi darajasi belgilanadi. Bunday taxlil asosida tadqiqot boshlanishida olib chiqilgan faraz tasdiqlanadi yoki rad etiladi.

Miqdoriy usullar. Kutubxonashunoslik tadqiqotlarida miqdoriy usullar elementlari qo'llanilmoqda. Bu esa kutubxonashunoslik faniga matematikalashtirish tendensiyalarini kirib kelayotganligidan darak beradi. Shunga ko'ra kutubxonashunoslik sifat jixatidan sifatli-miqdorli fanlarga aylanmoqda, uni bilish potensialini orttiradi.

Statistik jadvallar. Kutubxonashunoslikda statistik jadvallarni qo'llash an'anaga aylangan.Jadvallardagi statistik ma'lumotlar birlamchi tadqiqotlar natijalarini aniq va yaqqol ko'rish imkonini beradi.

Indeklash usullari. Kutubxonashunoslik tadqiqotlarida indeklash metodlari (ko'rsatkichlar, ro'yhatlar) ham qo'llanilmoqda. Ular yordamida dinamik qatorlar absolyut raqamlarda, nisbiy va o'rtacha miqdorlar shaklida berilib, turli xil xodisalar va obektlarni (kitob o'qilish, fondni aylanishi, o'sish darajasi va x.k.) taqqoslanadi.

Korrelyatsion taxlil usuli. Kutubxonashunoslar tez-tez korrelyatsion taxlil metodiga murojaat qilmoqdalar. Agar jadvallar, grafiklar yordamida o'rganilayotgan omillar o'rtasidagi aloqalar borligi yoki yo'qligi aniqlansa, korrelyatsion taxlilda korrelyatsion bog'liqlik, ya'niy aloqalarni (axolini bo'sh vaqti miqdori va ularni kutubxona kitoblaridan foydalanishga sarflaydigan vaqt miqdori) shakllari va puxtaligi ( zichligi) o'rganiladi.

Miqdoriy (matematik) usullar. Kutubxonashunoslik predmetlari va xodisalarni bilishning qudratli vositasi xisoblanadi. Lekin uni absolyutlashtirish va maqsadga aylantirish kerak emas.

### **3. Kutubxonashunoslik ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish.**

Ilmiy izlanish- bu avvalom bor qat'iy belgilangan chegaralanishlar yoki ma'muriyatning nazoratidan xoli bo'lgan erkin fikrlashdir. Ilmiy –tadqiqot ishlarini tashkil etish deganda tadqiqotchi ko'zda tutgan natijalarga erishish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazishning asosiy bosqichlarni ketma-ketligiga rioya qilgan xolda amalga oshirishi nazarda tutiladi.

Ilmiy ishlarni tashkil etish bosqichlari oddiy: “muammo va uni xal etish”, shuningdek uch bosqichli: “tadqiq etish-ishlab chiqish-joriy etish” bo'lishi mumkin. Ko'pincha maydalashtirilgan yondoshuvlar ham uchrab turadi: “muammo-faraz-isbotlash-nazariyani yaratish-xulosalar va amaliy tavsiyalar”. Amaliyotda kutubxonashunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun quyidagi tashkiliy tuzilma eng qulay xisoblanadi.

1. Ilmiy muammoni aniqlash va uni shakllantirish
2. Texnik vazifani ishlab chiqish va tasdiqlash
3. Ilmiy tadqiqot dasturini ishlab chiqish
4. Ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish
5. Ilmiy- tadqiqot ishlari natijalarini tadbiq etish

#### **Nazorat savollari.**

1. Kutubxonashunoslikni ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi xaqida nimalarni bilasiz?
2. XIX asrning boshlarida kutubxonashunoslik fanining paydo bo'lishi xaqida nimalarni bilasiz?
3. XX asrda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi xaqida nimalarni bilasiz?

## **5-MAVZU:KUTUBXONASHUNOSLIK FANINING BOSHQA FANLAR BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI**

### **Reja:**

- 1. Ilmiy bilimlar tizimida kutubxonashunoslik fanining o‘rni(statusi).**
- 2. Kutubxonashunoslik fani va kutubxonachilik-bibliografik va axborot fanlari.**
- 3. Kutubxonashunoslik va ilmiy-tadiiy fanlar. Kutubxonashunoslik va ijtimoiy fanlar.**

### **Tayanch iboralar:**

Ilmiy bilimlar tizimida kutubxonashunoslik fanining o‘rni(statusi). Kutubxonashunoslik fani va kutubxonachilik-bibliografik va axborot fanlari. Kutubxonashunoslik va ilmiy-tadiiy fanlar. Kutubxonashunoslik va ijtimoiy fanlar.

### **1. Ilmiy bilimlar tizimida kutubxonashunoslik fanining o‘rni (statusi).**

Kutubxonashunoslik statusi deganda, uni ilmiy bilimlar tizimidagi, jamiyatdagi ahamiyati, shuningdek fanlar tizimidagi o‘rni tushuniladi. Fanlarni ijtimoiy, tabiiy-ilmiy va texnika fanlariga bo‘linishida kutubxonashunoslik ijtimoiy fanlar sinfiga mansubdir. Hozir bu qarash butun dunyoga tarqalmoqda.

Kutubxonashunoslik fani haqidagi shunga o‘xshagan qarashlar- jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar unga ta’sir ko‘rsatmaydi, chunki u formal-texnika fani deb xisoblovchilar, shuningdek kutubxonani tashkil etish masalalarini jamiyatni rivojlanishi bilan bog‘lanmaydi deb xisoblovchilar ham bor.

Kutubxonashunoslikni ijtimoiy fanlar tizimiga kiritilishi o‘zini mustaxkam asoslariga egadir. Kutubxonashunoslikni rivojlantirishda-eng asosiy, hal qiluvchi yo‘nalishi, bu umuminsoniylik, ma’naviy xarakterga orentatsiya qilish xisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda butun dunyoda kutubxonashunoslik gumanistik xarakterdagi fan sifatida qaralmoqda.

Kutubxonashunoslikning gumanitar yo‘nalishi, hozirgi kunda bu sohada matematika, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, yangi axborot texnologiyalari bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni rolini inkor etmaydi. Lekin, bu uni aniq yoki texnika fanlariga aylantirmaydi. Mustaqil ijtimoiy fan sifatida kutubxonashunoslik, o‘zini ma’lum bir nazariy bilimlar tizimiga ega bo‘lib, ularni ma’lum bir xayotiy soxada, aniqrog‘i, axborot-kutubxona faoliyatida qo‘llaydi. Shuningdek, jamiyatda, bu bilimlar shu sohadagi muammolarni xal qila oladi, ushbu muammolar bilan kutubxonashunos-olimlar shug‘ullanishi kerak, boshqa soha vakillari emas degan fikrlar mavjud. Kutubxonashunoslar yetarli darajada maxsus usullar, amaliy ishlar, nazariyalar, texnologiyalarga egadirlar. Bularni barchasi axborot-kutubxona amaliyoti asosida mavjuddir.

Kutubxonashunoslik fanining umumiy xarakteristikasi statusida muxim o‘rinni, kutubxonashunoslik fanining obektining ko‘p elementli ekanligidan kelib chiquvchi, fanlararo tarkibga ega ekanligidir. Kutubxonashunoslik boshqa fanlardan aloxida, ajralgan xolda faoliyat ko‘rsatmagan va ko‘rsata olmaydi ham.

O‘zini mustaqil fan sifatida ahamiyatini yo‘qotmagan xolda u fanlararo boy aloqalarga ega. Zarur xolatlarda ,o‘zni masalalarini xal etishda boshqa fanlarning tushunchalari, nazariyalari, prinsiplari, metodlari, faktik materiallari va boshqalardan foydalanadi. Fanlararo sintezni amalag oshishi natijasida kutubxonashunoslik va boshqa fanlar o‘rtasida bilimlar almashinadi. Ba’zida boshqa fanlar tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlar, uni ijodiy rivojlantirish natijasida oddiy, tushunarli ravishda o‘zlashtiriladi.

### **2. Kutubxonashunoslik fani va kutubxonachilik-bibliografik va axborot fanlar.**

Kutubxonashunoslik fani bibliografiyashunoslik, kitobshunoslik, informatika fanlari bilan juda yaqin aloqaga egadir. Shuningdek kutubxonashunoslik va arxivshunoslik fanlari uchun ichki aloqadorlik xarakterlidir. Ushbu fanlarni kelib chiqishi va yaqinligini yuqori darajasi ularni birlashtiradi.

*Kutubxonashunoslik va bibliografiyashunoslik*

Bular –mustaqil, bir-biriga yaqin, bir-biri bilan yaqin aloqada bo‘ladigan va bir-birini boyitadigan fanlardir. Bibliografiyashunoslik kutubxonashunoslik fanini ilmiy-nazariy potensialini sezilarli darajada kengaytiradi. U bibliografik informatsiya ilmiy tushunchasidan foydalanadi, Bibliografiyasiz kutubxona ishining ko‘pgina ishlarini amalga oshirib bo‘lmaydi, masalan: fondlarni komplektlash, axborot-qidiruv tizimlarini ishlab chiqish, kutubxona fondini o‘rganish, foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishda tavsiya bibliografiyasidan foydalanish, yangi adabiyotlar haqida axborot berish va boshqalar.

Bibliografiya ma‘lum darajada kutubxonalar orqali tarqaladi. Shuningdek bibliografiya nazariyasi-bibliografiyashunoslik rivojlanadi. U o‘z navbatida kutubxonashunoslik fani tamoyillari, nazariyasi, usullari, tushunchalaridan foydalangan xolda uning ilmiy-nazariy potensialiga suyanadi. Ushbu fanlarnibir-biriga yaqinlashtirish, olimlar oldida turgan muxim vazifalardan biridir.

#### *Kutubxonashunoslik va kitobshunoslik*

Kitobshunoslik-kutubxonashunoslik bilan yaqin, bir-biriga bog‘langan ilmiy fan. Lekin ko‘pgina kitobshunos olimlar kutubxonashunoslikni, kitobshunoslik fanini tarkibiy qismi sifatida qarashadi.

Kitobshunoslik, kitobshunos olimlarni bergan ta‘rifiga ko‘ra kitob haqidagi barcha fanlarni sun‘iy konglomerati, ya‘ni quramasidir. Kutubxonashunoslik fani kitobni o‘zini emas, balki axborotni saqlovchi elementlardan biri -nashr shakl sifatidagi xolati, mazmuni qiziqtiradi. Kutubxonashunoslar o‘z faoliyatlarida ushbu fanning asosiy tushunchalari: kitob, kitobat ishi, nashriyot, kitob tarqatish va boshqadan foydalanadilar.

Kitobshunoslik va kutubxonashunoslik fanlari kitobxonlik deb ataluvchi tadqiqot sog‘asida bir-biriga juda yaqin aloqada bo‘ladi. “Kitobxon”, “o‘qish” tushunchalari kutubxonashunoslikdagi muxim tushunchalari bo‘lsada, ular tor ma‘noda ishlatiladi. Kitobni bilish, uni ma‘nosini, maqsadi va qanday kitobxonlar guruxiga mo‘ljallanganligi- bu kutubxonachining kasbiy faoliyatidir. Ba‘zi bir kutubxonachilik tadqiqotlari konsepsiyalarini ishlab chiqishda kitoblarni ijtimoiy xodisa sifatida rivojlanishining umumiy qonuniyatlari katta rol o‘ynaydi.

Kitobshunoslar o‘z navbatida kitobxonlar, ularni qiziqishlari, axborotga bo‘lgan talablari, aloxida nashr turlaridan foydalanish, aniq nashrlar va boshqalar haqidagi nazariy xulosalar va empirik ma‘lumotlardan foydalanadilar. Kitobshunoslik va kutubxonashunoslik fanlarini juda ham yaqinligi, ushbu fanlarni yagona fan deb qarash yoki biri ikkinchisini tarkibiga kiradi deb xisoblashga xech qanday asos yo‘q.

#### **Kutubxonashunoslik va informatika**

Kelib chiqishi bo‘yicha kutubxonashunoslik “ informatsiyani asoschisi” xisoblanadi. Lekin shunday davr bo‘ldiki, informatika kutubxonashunoslikni egallash, uni yutib yuborishga xarakat qildi. Kutubxonashunoslik va bibliografiyani informatikani bir usullari deb xisoblab, uni mustaqil bilim sohasi deb xisoblamadi.

Informatika keng ma‘noda –fundamental ilmiy fan bo‘lib, bir oyektni boshqa bir obektda namoyon bo‘lishi natijalarini, jamiyatda, tabiatda va texnik qurilmalardagi barcha turdagi axborotlarni ishlab chiqish, qayta ishlash, saqlash va tarqalishini o‘rganuvchi bilimlar tizimidir.

Tor ma‘noda esa-bu turli xil ilmiy-texnika axboroti xizmati faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy informatika. Kutubxonashunoslik va amaliy informatika fanlarini o‘zaro hamkorligi kelib chiqishi bir bo‘lgan, bir-biriga yaqin, teng, ikkala tomon ham bir-biriga foyda keltiruvchi fanlar sifatida qadrlanadi.

Informatika tufayli kutubxonashunoslar jamiyatni axborotlashtirish va o‘z fanlarining nazariy va amaliy tomonlarida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish zarurligini anglab yetmoqdalar.Hozirgi kunda kutubxonashunoslik fanining ilmiy tushunchalariga “ axborot”, “axborotlashtirish”, “kompyuterlashtirish” va boshqa tushunchalar kirib bormoqda. Fanning o‘zi esa yangi yo‘nalishlarga o‘tish bosqichini tugallamoqda. Kutubxonachilik ishi endi axborotlashtirish industiriyasining bir soxasi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Hozirda kutubxonashunoslik va amaliy informatika fanlarining o‘zaro aloqalarida integratsiya tendensiyasining kuchayishi xolati ko‘rilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda “kutubxona-axborot fanlari” tushunchasi qo‘llanilishi bu tasodif emas. Kutubxonashunoslik va amaliy informatika fanlarining o‘zaro aloqa jarayonlarining rivojlanishi, bu inkorni inkori qonuniyatiga ko‘ra, yaqin kelajakda ularni o‘zaro aloqalari integratsiyalash jarayonida yangi bir asosda faoliyat yuritishga olib keladi.

Kutubxonashunoslik fanini fundamental informatika faniga bo‘lgan munosabatiga kelsak, fundamental informatika kutubxonashunoslik fani uchun umumlashtiruvchi fan sifatida qaralishi, uning qonuniyatlari, tamoyillari, kategoriyalaridan kutubxonashunoslik fani axborot- kutubxona faoliyati uchun xarakterli bo‘lgan axborot jarayonlarini o‘rganishda tobora ko‘proq foydalanishi kerak.

Shunday qilib kutubxonashunoslik kelib chiqishi bir bo‘lgan fanlar bilan o‘zaro aloqalarini nisbatan yuqor darajada doimiy va muvofiqlashgan deb xarakterlash mumkin. Yaqin kelajakda kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik, kitobshunoslik, amaliy informatika fanlari sohasida jiddiy o‘zgarishlar bo‘lishi uchun bir qator asoslar mavjud. Yuqoridagi fanlar yangi, yana ham umumiy nazariy asoslarga ega bo‘lgan fan-fundamental informatika asosida o‘z ilmiy bilimlarini qayta quradilar.

### **3. Kutubxonashunoslik va ijtimoiy fanlar.**

Kutubxonashunoslik boshqa ilmiy fanlarga: madaniyatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, iqtisod, matematika va boshqalar bilan ham judda yaqin faoliyat olib boradi.

#### *Kutubxonashunoslik va madaniyatshunoslik*

Kutubxonashunoslik umuminsoniyat madaniyatini tarkibiy qismini o‘rganar ekan, ushbu madaniyatni bir qismi sifatida, u madaniyatshunoslik fani bilan uzviy bog‘langandir. Madaniyatshunoslik fani ma‘naviy rivojlanish qonuniyatlarini murakkab bir xodisa sifatida, uni turli soxalari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganuvchi fandir.

Madaniyatshunoslikning umumiy qonuniyatlariga ko‘ra kutubxonachilik nazariyasi va amaliyoti jamiyatning madaniy xayotining bir sohasi sifatida qaraladi va shu asosda o‘rganadi. Madaniyatshunoslik uchun jamiyatning umumiy va uni boshqa qatlamlarini madaniy rivojlanishi, aholini madaniy ehtiyojlarga bo‘lgan talablarini rag‘batlantirish va ularni samarali ravishda qondirish vositalari, har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirishning optimal yo‘llarini izlash birinchi darjadagi ahamiyatga egadir. Bularni barchasi madaniyatshunoslik fani orqali kutubxonashunoslik uchun ham ahamiyatlidir.

Madaniyatshunoslik fani uchun kutubxonashunoslik madaniyatning yirik sohasi bo‘lgan axborot-kutubxona faoliyati haqida faktografik va nazariy axborot beruvchi muxim manba sifatida ahamiyatlidir. Aytish mumkinki, axborot-kutubxona faoliyatiga qarab u yoki bu mamlakatning madaniy rivojlanish darajasiga baxo berish mumkin.

#### *Kutubxonashunoslik va sotsiologiya*

Kutubxonashunoslik fanida sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya fanlari erishgan yutuqlardan va bu fanlarning ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanish an‘anasiga deyarli bir asr bo‘lib qoldi.

Kutubxonashunoslik fanida ijtimoiy psixologiyaning nazariyalari va usullaridan, ayniqsa so‘rovnoma, intervyu va shuningdek guruxli eksperiment usullaridan faol foydalanilmoqda. Ular asosida yirik va lokal sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazildi. Bu tadqiqotlar axolini barcha qatlamlari: bolalar va yoshlar, maxalliy millat ayollari, olimlar va mutaxassislarni axborotga bo‘lgan talablarini qondirishda, umuman ularni madaniy darajasini oshirishda, kutubxonalar, kitob va o‘qishning o‘rnini belgilashga qaratilgan edi.

Kutubxonashunoslikda nisbatan yangi bo‘linma-kutubxona sotsiologiyasi tashkil topdi. Kutubxonalar va kutubxonachilik ishini faoliyatini sotsiologik taxlil qilish, kitobxonlik qiziqishlari va talablarini tabiatini, o‘qishni jamiyat tizimidagi o‘rnini belgilash va uni insonni ma‘naviy dunyosini shakllantirishdagi rolini belgilash imkonini beradi.

#### *Kutubxonashunoslik va iqtisodiyot*

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kutubxonashunoslik va iqtisodiyot fanlari o'rtasida aloqalar paydo bo'la boshladi va ular an'anaga aylana boshlandi. Kutubxonachilik ishi iqtisodiyoti muammolari shakllana boshlandi va ular asta –sekin dolzarb ahamiyatga ega bo'la boshladi.

Kutubxonachilik ishi iqtisodiyotni noishlabchiqarish sohasi va madaniyat iqtisodiyoti sifatida qarala boshlandi. Iqtisodiy fikrlashning ta'siri natijasida kutubxonashunoslikda, kutubxonachilik mehnatini iqtisodiy tabiati, , uni iqtisodiy baholash, kutubxonachilik xizmatlaridan foydalanishni iqtisodiy aspektlari, kutubxonachilik ishida moliyalashtirish va mexnatga haq to'lash, kutubxonalarni moddiy-texnika ta'minoti kabi masalalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazila boshlandi.

“Kutubxona marketingi” tushunchasini bildiruvchi tadqiqot yo'nalishi paydo bo'ldi, kutubxonachilik xizmati ko'rsatishda pullik va pulsiz xizmat ko'rsatish masalalari xal bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini o'tilishi natijasida kutubxona marketingi sohasidagi tadqiqotlar faollashdi. Bu esa axborot, axborot xizmatini oddiy tovar, maxsulot sifatida qarashga e'tibor ko'proq qaratila boshlandi. Bu esa umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan huquqqa, ya'niy axborotni xech qanday to'siqsiz olishga zid xolatdir.

#### *Kutubxonashunoslik va boshqarish fani*

Kutubxonashunoslikni boshqarish fani bilan o'zaro aloqalari tarixi deyarlik bir asrga yaqinlashib qolmoqda. Ushbu davr mobaynida kutubxonashunoslik fanida boshqarish fanining asosiy konsepsiyalarini o'ziga singdirib ldi va u 1969 yildan boshlab mustaqil bo'lim “ Kutubxonachilik ishini tashkil etish va boshqarish”, 2000 yildan boshlab esa “Kutubxonachilik ishida Menejment va marketing” nomi bilan faoliyat yuritib kelmoqda. Respublikamizda esa “ O'zbekistonda kutubxonachilik ishini boshqarish” fan predmeti ishlab chiqilgan.

Quyidagi muxim muammolar: kutubxonachilik ishi va kutubxonani boshqarish mazmuni, kutubxonachilik ishini boshqarish usullari, boshqarish texnologiyalari, boshqaruv mexnatini ilmiy asosda ashkil etish, boshqaruv stili, boshqaruv samaradorligi va boshqalar.

#### *Kutubxonashunoslik va pedagogika*

Kutubxonashunoslik fanida (bizda) barcha davrlarda pedagogik yo'nalish kuchli bo'lgan. Bu esa uni pedagogika tarkibiga kirishi uchun sabab bo'lgan. Xolubki bunga xech qanday asos yo'q. Kutubxonashunoslik fanini kutubxonachilik xizmati, xususan bolalar va o'smirlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan bo'linmalari pedagogik g'oyalar bilan chuqur sug'arilgan. Kitobxonni axborotga bo'lgan talabini qondirishda individual yondoshish tamoyillari, kitobxonlarni tabaqalashtirish t amoyillari, uzluksiz ta'lim va mustaqil ta'lim va boshqalar pedagogik yo'nalishga egadir.

Kutubxonashunoslik ning pedagogik bilimlar bilan ijodiy assimiliyasi ( birlashib ketishi) ning muxim natijasi sifatida kutubxonashunoslikda, kitobxonlar bilan kutubxona-bibliografik va axborot ishlari asoslarini o'rganuvchi mustaqil bo'linma “Kutubxonachilik pedagogikasi” paydo bo'ldi.

#### *Kutubxonashunoslik va psixologiya*

Psixologiya fani kutubxonashunoslikni, kutubxonachilik ishidagi eng muxim elementlar bo'lgan kitobxona va kutubxonachi haqidagi nazariy qarashlar bilan boyitadi. Shuningdek u kutubxonachilik xizmatining barcha jarayonlarining psixologik asoslaydi.

Kutubxonashunoslik uchun umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, injenerlik psixologiyasi( kutubxonachining exm bilan o'zaro aloqasi) katta ahamiyat kasb etadi. Kutubxonashunoslikda “Kutubxona psixologiyasi” bo'linmasi tashkil etilgan bo'lib, uning vazifasi kutubxonachilik ishining psixologik asoslari o'rganishdir.

#### *Kutubxonashunoslik va matematika*

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, avval chet el kutubxonashunoslik fanida, so'ngra esa bizda matematika bilan aloqalar kuchaya boshlandi. Bu jarayon ijtimoiy fanlarni matematikalashtirish va kutubxonachilik ishini kompyuterlashtirish an'anasi bilan bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy kutubxonashunos-tadqiqotchi va kutubxonachi-amaliyotchi zarur matematik fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Xolubki u aslida kasbi bo'yicha gumanitardir.

Shu bilan birga kutubxonashunoslikni matematika bilan o'zaro aloqadorligi ma'lum bir chegaralanishga egadir: birinchidan, faqat amaliy matematik qo'llaniladi, butun matematika emas; ikkinchidan, kutubxonachilik ishining barcha xodisalari, jarayonlari, va obektlarini matematika vositalari yordami bilan yoritib bo'lmaydi; uchinchidan kutubxonashunoslik-ijtimoiy, gumanitar fan bo'lib, matematik usullar muxim rol o'ynaydi, lekin asosiy emas.

Shunday qilib, kutubxonashunoslik yuqori statusga ega bo'lgan fan sifatida xarakterlanadi va u ijtimoiy fanlar bilan keng o'zaro aloqada bo'ladi. Shu bilan birga tabiiy-ilmiy va texnika fanlari bilan ham. Ushbu status nafaqat o'zini ilmiy xarakteri bilangina emas, balki rasmiy, formal xarakter kasb etadi. Dunyoning har bir rivojlangan mamlakatlarida, shuningdek O'zbekistonda ham kutubxonashunoslik ilmiy va o'quv fani sifatida va davlat tomonidan tashkil etilgan oliy va o'rta maxsus ta'lim statusiga egadir. Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlan

#### **Nazorat savollari.**

1. Kutubxonashunoslikning ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi xaqida nimalarni bilasiz?
2. XIX asrning boshlarida kutubxonashunoslik fanining paydo bo'lishi xaqida nimalarni bilasiz?
3. XX asrda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi xaqida nimalarni bilasiz?

## **6- MAVZU: KUTUBXONALARGA METODIK RAHBARLIKNI TASHKIL ETISH MASALALARI**

### **Reja:**

1. **Kutubxonalarda metodik rahbarlikning tashkil etilishi**
2. **A.Navoiy nomli O'zbekiston milliy kutubxonasi uslubiy rahbar sifatida**
3. **Axborot kutubxona markazlarida metodik rahbarlik kilish masalalari**

### **Tayanch iboralar:**

Kutubxonalarda metodik rahbarlikning tashkil etilishi. A.Navoiy nomli O'zbekiston milliy kutubxonasi uslubiy rahbar sifatida, Axborot kutubxona markazlarida metodik rahbarlik kilish masalalari

O'zbekistonda kutubxonalarga metodik rahbarlikning tashkil etilishi hozirgi vaqtda kutubxona xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish, ularda kasbga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, uning maqsad va vazifalarini anglab yetishga yordam berishdir. Metodik faoliyat kutubxona- chilarida ijodiy fikrlashga yordam berishi, o'z vazifalarini bajarishda mustaqil bo'lishni, ayni paytda javobgarlik hissini tarbiyalashi lozim. Metodik rahbarlikni faollashtirish kutubxonachilik ishida yangiliklarni joriy etishni boshqarish tizimini tarkib toptirish ishi bilan bog'liqdir. Unga metodik markazlarning yangiliklarni qidirib topish va barpo etishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari, shuningdek, kutubxonachilarni o'qitish va ularning kutubxonachilikka doir yangi bilimlarni o'zlashtirishla- riga yordam berish bo'yicha pedagogik faoliyat asos bo'ladi Yuqorida zikr kilingai ishlar metodik rahbarlik markazlari sistemasi orqali amalga oshiriladi. Kutubxonalarga metodik rahbarlik qilish tizimi idoraviy va sohaviy hududiy prinsiplar bo'yicha tashkil topgandir. Har bir idora va soha kutubxonalari ma'muriy-hududiy prinsipga ko'ra respublika, viloyat, tuman, shahar kutubxonalar metodik markazlarini tashkil etadi. Masalan, O'zbekiston Madaniyat vazirligiga qarashli kutubxonalarning metodik markazlari A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi va Respublika Davlat bolalar kutubxonalari, viloyat davlat kutubxonalariga,

ya'ni respublikadagi 13 ta kattalar, 12 ta bolalar va 6 ta ko'zi ojizlarning viloyat kutubxonalariga metodik rahbarlikni amalga oshiradilar. Viloyat kutubxonalari respublikadagi 199 ta Markaziy tuman va shahar kutubxonalariga, ular esa markazlashtirilgan kutubxonalar tizimi tarkibiga kirgan 6568 ta filial va sistemaga kirmagan 78 ta ommaviy davlat kutubxonalariga metodik rahbarlikni amalga oshiradi. Xuddi shu tarifa boshqa idora va sohalarga karashli kutubxonalarining metodik rahbarlik sistemasi ish olib boradi. O'zbekistonda Toshkent Davlat universitetining ilmiy kutubxonasi — respublikamizdagi turli idoralarga qarashli 43 ta oliy o'quv yurti va 52 ta o'rta maxsus uquv yurtlari kutubxonalariga metodik rahbarlikni amalga oshiradi.

Respublikada ilmiy-texnika kutubxonalari uchun Respublika ilmiy texnika kutubxonasi (O'zbekiston ilmiy-texnika axboroti ilmiy-tadqiqot institutiga qarashli); sog'liqni saqlash kutubxonalari uchun — O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika ilmiy-tibbiy kutubxonasi; maktab kutubxonalari uchun O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining respublika ilmiy-pedagogika kutubxonasi; kasaba uyushmalari kutubxonalari uchun O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Kengashining Respublika tayanch kasaba uyushma kutubxonasi metodik rahbarlikni amalga oshiradi. Respublikada metodik ishlarni O'zbekiston Madaniyat vazirligi huzuridagi Idoralararo kutubxonachilik davlat komissiyasi muvofiqlashtiradi. A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi qoshidagi Idoralararo kutubxonachilik kengashi uning ishchi organi hisoblanadi. Metodik rahbarlikning maksadi kutubxonalar ishi darajasini oshirish va barcha kutubxonachilik jarayonlariga faol ta'sir ko'rsatib, "fan, madaniyat hamda ishlab chikarish zaruratini hisobga olgan holda barcha kutubxonachilik sohasidan yanada to'larok va unumliroq foydalanishga yordam berishdir. Shu maqsadda metodik rahbarlik quyidagi masalalarni hal etishi lozim: 1) kutubxonalar tashkiliy-metodik yordam ko'rsatish (aholiga kutubxonachilik xizmatini uyushtirish, kutubxona fondlarini shakllantirish, kutubxonalarda mexnatni ilmiy asosda tashkil etish va xokazo); 2) yangiliklarni, ilg'or kutubxonachilik tajribalarini o'rganish va tarqatish; 3) kutubxonachi kadrlar malakasini oshirish. Bu vazifalarni amalga oshirish metodik faoliyatning uch asosiy yo'nalishini belgilab beradi. Ilmiy-metodik ishlarni kutubxona ishiga rahbarlik qiluvchi organlar va ilmiy-metodik markazlar amalga oshiradi

O'zbekistonda shunday asosiy ilmiy-metodik markaz A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. Bu kutubxona respublikada kutubxonachilik, bibliografiyachilik va kitobchilik bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining markazi sifatida O'zbekistondagi boshqa tarmoqlar metodik markazlari faoliyatini muvofiklashtiradi. Mazkur kutubxona respublikadagi metodik markazlar faoliyatini mustaxkamlash va ularga yordam berish ishlarini uyushtirish maqsadida ilmiy-amaliy konferensiyalar, kengashlar, seminarlar uyushtiradi, kutubxonalar faoliyatini o'rganish, metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar sistemasini yaratish, ilg'or kutubxonachilik tajribalarini aniqlash, o'rganish va joriy etish, kutubxona xodimlari malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi. Keyingi vaqtlarda idoralararo xamkorlik asosida joylarga chikish ishini uyushtirish tajriba kilib ko'rilmogda. Masalan, Davlat kutubxonasi brigadasida

O'zbekiston kasaba uyushmalari respublika kengashining tayanch kutubxonasi, respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi va boshqa kutubxonalar xodimlari qushilib, viloyat kutubxonalarida kutubxonalararo abonement ishini o'rganish bo'yicha joylarga borish ishi uyushtirilmogda. Mazkur tadbir idoralararo o'zaro yordam va hamjihatlikning samarali usuli bo'lib, bu tegishli masalalarga doir barcha muammolarni o'sha joyning o'zida hal etishga, tarmok; mutaxassislari bilan yaqindan aloqa o'rnatishga yordam beradi, o'rinsiz yozishlarga chek quyadi. A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi tomonidan chiqariladigan «O'zbekiston kutubxona ishiga oid metodik qo'llanmalar sistemasini» — degan reja tadbiriga muvofik, metodik markazlar xilma-xil ko'rsatma materiallarini, muhim sanalarga bag'ishlangan qo'llamalarni, ilg'or kutubxonalar ish tajribalari bayoni, hozirgi zamon o'zbek va klassik adabiyot vakillari asarlarini targ'ib qilishga oid materiallarni, shuningdek turli kategoriyadagi kutubxona xodimlari uchun seminar mashg'ulotlarining dasturlarini nashr etib, joylarga tarqatadilar. Respublikadagi davlat kutubxonalarining bosh metodik markazi bo'lgan A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining ilmiy-metodik va funksional bo'limlari har yili 30 nomda metodik qo'llanmalar



nashr etib, joylarga tarqatish uchun viloyat kutubxonalariga jo'natadi. Kutubxonaning ilmiy-metodik bo'limi ikki yilda bir marta viloyat kutubxonalarini tuzgan metodik qo'llanmalar obzorini tayyorlaydilar. Unda viloyat kutubxonalarining metodik nashrlari tahlil qilinib, ularni yaxshilash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Metodik markazlarning ilmiy-metodik ishlar sifatini yaxshilash va uni yanada takomillashtirishda, ular faoliyatini demokratlashtirishda respublika va viloyat kutubxonalarini direktorlari kengashlarining tashkil etilishi muxim ahamiyatga egadir. A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi huzuridagi idoralarda viloyat kutubxonalarini direktorlari Kengashi har xil tarmoqqa karashli viloyat metodik markazlar faoliyatini yagona maqsad yo'lida muvofiqlashtirishni ta'min etsa, viloyat kutubxonalarini sistemalarini direktorlari Kengashi Madaniyat vazirligi sistemasidagi ommaviy davlat kutubxonalarining hamjihat ishlashini ta'minlaydi. A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi kutubxonachilarning xodimlar malakasini oshirish masalasiga katta e'tibor bermokda. Rejali ravishda tashkil etilayotgan respublika, viloyat va tuman miqyosidagi seminarlar, amaliy konferensiyalar, stajirovkalar va ilg'or tajriba maktablarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar malaka oshirishning eng ta'sirchan shakllaridir. Bu soxada madaniyat xodimlarining malakasini oshirish fakulteti katta ishlar olib bormokda. U respublika davlat kutubxonasi bilan hamkorlikda barcha markazlashtirilgan tizimlar direktorlarining malakasini oshirishga muvaffaq bo'lmokda.

Respublikada kutubxonachilarning kadrlar malakasini, ularning kasbiy mahoratini oshirish ishiga asosan metodik markazlardagi metodistlar, metodik bo'lim mudirlari keng jalb qilinadi. Ular ko'pincha respublika miqyosida uyushtiriladigan seminarlar, kengashlar va ilmiy-amaliy konferensiyalarga chaqirilib, davlat kutubxonasi bazasida malaka oshiradilar. Bunday tadbirlar metodik markazlardagi rahbar kadrlarning bilim darajasini davr talabi darajasiga ko'tarishga va kutubxonalar ishining yaxshilanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekistonda davlat kutubxonalariga metodik rahbarlik qilish sistemasidagi yana bir muxim bosqich viloyat kutubxonalaridir. Viloyat kutubxonasi ilmiy universal kutubxona bo'lib, ilmiy-metodik ishlarni muvofiqlashtiruvchi markaz, shuningdek, barcha viloyat kutubxonalarini uchun kutubxonalarda abonement markazi vazifasini o'taydi. Viloyat kutubxonalarini respublika ilmiy metodik markazlari tavsiyalari va boshqa metodik materiallarni o'z hududi kutubxonalarini ishiga joriy etishga yordam berishi, xuddagi Markaziy kutubxonalar ishini tashkil qilishi, ularning mahalliy va milliy xususiyatlariga bogliq bo'lgan muammolarini ishlab chikish hamda ilg'or kutubxonachilik tajribalarini aniklash, o'rganish, umumlashtirish va ularni tarqatish asosida viloyatdagi barcha kutubxonalar ish darajasini ko'tarishga erishishi lozim.

Viloyat kutubxonalarini metodik ishlarida kutubxonalar faoliyatini o'rganish va tahlil qilish, kundalik muammolariga yordam berish maksadida joylardagi kutubxonalariga bevosita chiqish asosiy o'rin egallaydi. Hozirgi vaqtda respublikamizdagi viloyat kutubxonalarini har yili o'rta xisobda mingdan ortiq shunday chiqishlar tashkil kilib, ulardan deyarli yarmisi davlat kutubxonalarini, qolganlari esa kasaba uyushmalari, jamoa xo'jaligi va boshqa idoralarga qarashli kutubxonalarini ko'rish uchun uyushtirilgan edi. Mazkur chiqishlarni maqsadga qarab ajratadigan bo'lsak, ulardan 30 foizi kutubxonalar ishini o'rganish va ularga amaliy yordam berishga, 25 foizi tuman va shahar seminarlarini tashkil kilish va qatnashishga, 20 foizi viloyat madaniyat boshqarmasi va boshqa yuqori tashkilotlarniig topshiriqlarini bajarish uchun, 25 foizi kutubxonalarining ilg'or ish tajribasini o'rganish, topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish, ilg'or tajriba maktablarini tashkil etish kabi masalalarga to'g'ri kelishini ko'ramiz. Viloyat kutubxonalarida metodik raxbarlikni tashkil etishda kuratorlik tajribasi keng yoyilgan. Masalan, Samarkand viloyati kutubxonasida har bir tumanga kuratorlik guruhi birkutilgan bo'lib, ulari shu tuman kutubxonalariga doimiy ravishda, reja asosida metodik yordam ko'rsatadilar, joylardagi metodistlar faoliyatini muttasil o'rganib boradilar. Andijon, Xorazm, Farg'ona va Toshkent viloyat kutubxonalarining funksional bo'limlari xodimlari metodik ishlarga faol qatnashadilar. Kutubxonalar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlash, nashr etish va ularni joylarga tarqatish metodik rahbarlikning muhim yo'nalishidir. Viloyat kutubxonalarini bu sohada muayyan yutuqlarga erishganlar. Ular har yili 100 dan ortiq; metodik materiallar nashr etmoqdalar. Farg'ona, Buxoro, Samarkand, Andijon viloyat kutubxonalarida, shuningdek

Qoraqalpog'iston respublika kutubxonasida bu sohadagi ishlar yaxshi tashkil qilingan. Viloyat kutubxonalari faoliyatida metodik raxbarlik kilishning kutubxonalar faoliyatini o'rganish, ilg'or tajribalarni aniklash, o'rganish, yoyish va joriy etish, kutubxonalar faoliyatini tahlil qilish, ilg'or tajriba maktablarini tashkil etish va ularni ommalashtirish kabi yo'nalishlari keng o'rin olgan. Shunday kilib, viloyat kutubxonalari tomonidan metodik rahbarlik sistemasining yanada takomillashtirilishi aholiga kutubxonachilik xizmati ko'rsatishni yaxshilashga va kitob targ'ibotining g'oyaviy-siyosiy va nazariy saviyasini oshirishga yordam beradi. O'zbekiston ommaviy davlat kutubxonalariga metodik rahbarlik qilish sistemasida tuman, shahar markaziy kutubxonalari juda muhim ahamiyatga egadir. Markazlashtirilgan kutubxonalar sistemasining tashkil etilishi amalda shahar va tuman kutubxonalariga tashkiliy va metodik rahbarlik kilish birligini mus- taxamladi. U endi yagona organ — markaziy kutubxona orqali ma'muriy-tashkiliy tadbirlar bilan mustahkamlanadigan, har qanday metodik qaror amalga oshiriladigan bo'ldi. Jumladan, Markaziy kutubxonaning tashkiliy metodik bo'limi sistema bo'yicha quyidagi asosiy ishlarni amalga oshiradi: MKS rahbarlari bilan birgalikda sistemaning joriy va istiqbolli vazifalarini belgilashda ishtirok etadi, rejalar, qabul qilingan qaror va metodik tavsiyalarning bajarilishini ta'minlaydi, kutubxonachi kadrlarni ukitish, malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi;

— filial-kutubxonalarining amaliy faoliyatiga yordam beradi:

— MKS bo'linmalari va filial-kutubxonalar ishini tahlil qiladi, ilg'or tajribalarni aniqlash, o'rganish va joriy etishni tashkil kiladi, eng yaxshi

filial-kutubxonalar negizida ilg'or tajriba maktablarini vujudga keltiradi;

— tuman, shahar MKS kutubxonalari orasida o'zaro musobaqa tashkil etadi va ularning natijalarini aniqlashda ishtirok kiiladi;— boshqaa sistema va idoralarning metodik markazlari bilan metodik ishlarni muvofiklashtiradi (MKS ishini tashkil qilish. Ko'rsatmalar va hisob shakllari, tuzatilgan va to'ldirilgan 2- nashri.— T., 1989, 107-bet). 1990 yilda respublikada 199 ta MKS ish olib bortan bo'lib, ulardagi 188 ta markaziy kutubxona 6568 ta filial kutubxona metodik yordam ko'rsatadi. Markaziy kutubxonalar metodik raxbarlikni amalga oshirishda viloyat, respublika darajasidagi metodik markazlar ko'rsatmalari va tavsiyalariga suyanadi xamda ularning tatbiq qilinishiga yordam beradi. Metodik rahbarlik ishi umuman kadrlar malakasini, xususan metodist kadrlar malakasini oshirishni, ularni tayyorlashni va qayta tayyorlash sistemasini takomillashtirishii takozo etadi. Bu borada ishlayotgan xodimlarga madaniyat xodimlari malakasini oshirish fakultetida metodist kadrlar uchun kurslar ochish, respublikadagi mavjud kutubxonachi kadrlar tayyorlaydigan texnikumlar va A. Kodiriy nomidagi Toshkeit Davlat madaniyat instituti kutubxonachilik fakultetida kutubxonachi-metodistlarning maxsus guruxini qo'shimcha ixtisos bilan tayyorlashga o'tish zarur. Bu amalda )hech qanday qo'shimcha sarf-xarajatni talab etmaydigan tadbirlar bo'lib, metodist kasbiga layokati bo'lgan talabalardan maxsus ajratilib (15—20 kishi), ularga III— IV kurs mobaynida «Metodist-pedagog» ixtisosligi bo'yicha maxsus kurslar (jami — 184 soat) sikli O'qitiladi va ular zarur joylarga ishga yo'llanadi. Kutubxonachi kadrlarni, ayniqsa metodistlar mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish sistemasini takomillashtirish, kutubxonachilik ishiga, unga raxbarlik qilishga mahalliy hokimiyat, kasaba uyushmalar ) madaniy-maishiy xarajatlarga ajratilgan. Jamoa xo'jaligi— tarix muzeyi filiali bilan katta madaniyat saroyi, madaniyat uyi, yozgi madaniyat uyi, 3 ta kinoteatr, ko'chma kinoqurilma, ferma va dala shiyponlaridagi 35 ta qizil burchaklar, 10 ta kutubxona, shu jumladan 5 tasi Xonqa Markazlashgan kutubxona tizilmasining filial kutubxonasi, 4 ta maktab kutubxoiasi, bitta hunar-texnika bilim yurti kutubxonasi, 3 ta o'rta va bitta 8 yillik maktablar, kishloq xo'nar-texnika bilim yurti, 6 ta bolalar bog'chasi, 2 ta kasalxona, dorixona, davolash shifoxonasi, 5 ta medpunkt, stadion, sport kompleksi, 8 ta magazin, maishiy xizmat ko'rsatish kombinata, aloqa korxonasi, «Bilim» jamiyati bulimi, yodgorliklarni ^imoya kilish jamiyati, ko'ngilli kitobsevarlar jamiyati, chet mamlakatlar bilan do'stlik jamiyati va boshqalar har tomonlama madaniy-maishiy xizmat ko'rsatadi. Bu muassasalar va tashkilotlar ishi madaniy-maishiy kompleksning - muvofiqlashtiruvchi kengashi rahbarligi ostida yagona reja bo'yicha amalga oshiriladi.

Kengashning kutubxonachilik seksiyasi 10 ta kutubxonani birlashtirib, madaniy-maishiy kompleksda faol ish olib boradi. Ko'pincha kutubxonalar, kompleksning aholiga madaniy xizmat ko'rsatishning yagona rejasini kutubxonachilik ishining o'ziga xos shakllari bilan — bibliografik obzorlar, kitob ko'rgazmalari, kitobxonlar konferensiyalari, she'riyat kechalari, adabiy munozaralar, «Kitob kunlari», «Axborot kunlari», «Mutaxassislar kuni» va boshqa tadbirlar bilan to'ldiriladi. Kompleks tarkibidagi qishloq; kutubxonalarining bosh maqsadi — qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishga yordam berishdir. Paxtakorlar, chorvadorlar, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi mutaxassislariga kutubxonachilik xizmati ko'rsatish, dastavval ularni fan yutuqlari va ilgor tajribalarni yoritib beradigan, mehnat unumdorligini oshiruvchi yangi kitoblar haqidagi ilmiy-texnika axboroti bilan o'z vaqtida, zudlik bilan ta'minlashdan iborat Kutubxonalarda o'tkaziladigan an'anaviy-axborot tadbirlarida, jumladan, axborot kunlari, mutaxassislar kuni, ochik adabiyotlar kuni ma'lum mavzudagi ko'rgazmalar, bibliografik obzorlarda ayrim mehnat jamoalari oldida turgan ijtimoiy-iktisodiy vazifalar to'g'risida va umuman, viloyat, respublikada agrosanoat taraqqiyotiga xos mavzular aks etishi zarur. Masalan, «Intensivlash— paxtachilikni barqaror rivojlantirishning garovi», «O'zlashtirilgan sug'oriladigan yerlarda paxtachilikni rivojlantirish», «Kishloq xo'jaligi ekinlari agrotexnikasi», «Sut yetishtirishning sanoat texnologiyasi», «Chorvachilik fermalariga veterinariya xizmati ko'rsatish», «Sanoat asosida ozuqa tayyorlash» va hokazo. Kutubxonachi kompleksning barcha bo'linmalariga O'z ta'sirini o'tkaza borib yakka tartibda, guruhlar bo'yicha va ommaviy shaklda axborot ishlarini tashkil qilish imkoniga ega bo'ladi. Birinchi navbatda, yakka tartibdagi axborot bilan mutaxassislar qamrab olinadi. Yakka tartibdagi axborotni kompleksdagi markaziy kutubxona amalga oshiradi, chunki kitobxonlarga yangi adabiyotlar to'g'risidagi to'la ma'lumot kerak bo'ladi. Kompleksda markaziy kutubxona tomonidan chiqarilgan, yagona kitob fondiga kelib tushgan adabiyotlarning axborot ro'yxatidan aholini ommaviy ravishda xabardor qilishda mahalliy matbuotni jalb qilish qulay. Ilgor ishlab chikarish tajribalari, qishloq; xo'jaligi fani va amaliyoti yutuqlari tug'risidagi axborot va adabiyotlar bilan qishloq xo'jalik xodimlarini muntazam ta'minlab turishda ommaviy, maxsus kutubxonalar va ilmiy-texnika axboroti kutubxonalari bilan bevosita aloqa o'rnatmay turib xamkorlik qilish mumkin emas. Shu maqsadda, har bir tumanda qishloq xo'jaligi targ'iboti va ilmiy-texnika axborotiga yordam kengashlari barpo qilinib, ular xalk; deputatlari tuman kengashlari va hokimiyat qoshidagi ilmiy-texnika axboroti davlat komiteti, texnika axboroti kabineta, «Selxoztexnika» birlashmasi, melioratsiyalash va sug'orish texnikasi respublika ilmiy tadqiqot instituti filiali, respublika ixtirochilar va kashfiyotchilar jamiyati bo'linmasi, ilmiy-texnika jamiyati vaboshqalar.

#### **Nazorat savollari.**

1. Kutubxonashunoslikning ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi xaqida nimalarni bilasiz?
2. XIX asrning boshlarida kutubxonashunoslik fanining paydo bo'lishi xaqida nimalarni bilasiz?
3. XX asrda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi xaqida nimalarni bilasiz?

### **2-modul Aholiga kutubxona xizmati ko'rsatishning tashkil qilinishi**

#### **7 - MAVZU: KUTUBXONACHILIK ISHINI TASHKIL ETISH PRINSIPLARI VA UNING FUNKSIYALARI**

##### **Reja:**

1. O'zbekistonda kutubxonachilik ishini tashkil etishning prinsiplari
2. Kutubxonachilik tizimini tabaqalashtirilgan asosida tashkil etish.
3. Kutubxonalarning asosiy funksiyalari

### **Tayanch iboralar:**

O'zbekistonda kutubxonachilik ishini tashkil etishning prinsiplari. Kutubxonachilik tizimini tabaqalashtirilgan asosida tashkil etish. Kutubxonalarning asosiy funksiyalari

O'zbekistonda amalga oshiriyotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi tub qayta qurish va yangilanishlar bevosita kutubxonachilik ishi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Kitob fondida juda katta ruhiy boyliklarni jamlagan kutubxonalar jamiyatga xizmat qilishi, uning turli jabhalariga fan, maorif, madaniyat, ishlab chiqarishni rivojlantirishga har tomonlama yordam berishi zarur. O'z navbatida jamiyat unda ro'y berayotgan hodisalar kutubxonalar faoliyatiga ta'sir qiladi. Bu ta'sir biron bir aniq tarixiy davrga xos ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda namoyon bo'ladi. Respublika mustaqilligini mustahkamlash maqsadida kutubxonalar o'zining asosiy diqqatini jamiyatni demokratlashtirish, xalqning milliy madaniyatini tiklash, shaxsning ijodiy imkoniyatlarini ochish, kishilarning siyosiy va fuqarolik faolligini o'stirish kabi ijtimoiy muhim maqsadlarga qaratishlari lozim. Mana shundan kelib chiqib, O'zbekistonda kutubxonachilik ishining tashkil etishning qo'yidagi asosiy prinsiplarini qayd etish mumkin.

- 1) Kutubxonaning ommabopligi va uning ishini demokratlashtirish;
- 2) Kutubxonalar faoliyatini insonparvarlik yo'nalishida olib borish;
- 3) Kutubxonachilik ishining davlat xarakteri;
- 4) Mustaqil kutubxonachilik siyosatini yuritish;
- 5) Kutubxonachilik tizimini tabaqalashtirish asosida tashkil etish;
- 6) Kutubxonalarni tashkil etish va uning faoliyatida keng jamaotchilikning ishtirok etishi;

#### **1. Kutubxonalarning ommabopligi va uning ishini demokratlashtirish**

Kutubxonalarning ommabopligi Mamlakatda kutubxonachilik ishini tashkil etishning eng muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Kutubxonalardan foydalanishning bepulligi, kutubxona shaxobchalarini aholiga yaqinlashtirish, kitob targ'iboti va aholiga xizmat ko'rsatishda faol, shakl va metodlarni qo'llash, kitobxonlar uchun kutubxonada qo'layliklar yaratish kutubxonalarning hammabopligini amalga oshirish shartlari hisoblanadi. Kutubxonalar ishi samaradorligining asosiy mezonini va bosh vazifasi kutubxonachilikning ommaboplik prinsipini amalga oshirish hisoblanadi. Bu prinsipga binoan O'zbekiston fuqarolariga respublika kutubxonalardagi mavjud axborot manbalaridan baravar darajada erkin foydalana olish huquqi va imkoniyati ta'minlanishi zarur. Shu bilan birga kitobxonlar bevosita yoki kutubxonalararo abonement orqali barcha kutubxonalar fondidan bema'lol foydalanishi; kutubxonalar fondidagi ularni qiziqtirgan hujjatlarni erkin va hech qanday ta'qiqlashsiz tanlash; kutubxonachilik xizmatining barcha asosiy turlari bo'yicha bepul foydalanish xuquqiga egadirlar.

#### **2. Kutubxonalar faoliyatini insonparvarlik yo'nalishida olib borish.**

Jamiyatdagi insonparvarlik jarayonlari kutubxonalardan shaxsga bo'lgan e'tiborni ko'chaytirishni, ayniqsa uning umummadaniy darajasini ko'tarishni talab etadi, bu jamiyatning ruhiy, ma'naviy va axloqiy quvvatini yangilash zaruriyatidan kelib chiqadi. Shu munosabat bilan o'qishning, uni tushunishning an'anaviy, jahon madaniyati hodisalari bilan muloqat qilish usuli sifatidagi ahamiyati tiklanishi zarur. Mustaqillik sharoitida kutubxonalarning vazifasi-umuminsoniy xazinalarning saqlovchisigina bo'lmay, balki milliy xotira fondi ham bo'lishidir. U kutubxonalarning avloddan avlodga o'tib kelayotgan funksiyasi- fondini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Fondlar samarasining bosh mezonini- nashrlarning ommabopligidir, uning darajasi esa jamiyatning axborotga, kitobga bo'lgan talabining qondirilishidir. Milliy merosning saqlanishida, avlodlarning jonli aloqasini amalga oshirishda, qadimgi madaniyatning qayta tiklanishida, milliy tilning rivoj topishida kutubxonalarning roli juda kattadir.

Kishining o'zgarayotgan olamni tushunishiga va unda to'g'ri yo'l topa olishiga yordam bera borib, kutubxona unga umumbashariy masalalarini tushunishiga imkon beradi, uning ijodiy imkoniyatlarining ochilishiga ko'maklashadi. Ilmni oshirishdagi bilimlarni egallash shaxsning o'zligini anglashiga xizmat qiladi, Kutubxonalar faoliyatining insonparvarlik yo'nalishi shaxsning yangi kompyuter madaniyatini qabul qilishga tayyorlanishiga yordam beradi, ilmiy-texnika taraqqiyotining inson qalbining birligini barbod etishga olib boruvchi kishilarning dag'al, ma'naviy qashshoq tipini tarkib toptirish kabi salbiy ta'sirini bekor qiladi.

### **3. Kutubxonachilik ishining davlat xarakteri.**

O'zbekistonda kutubxonachilik ishiga davlat rahbarligida amalga oshiriladi. Boshqarishning davlat- jamoatchilik organlari kutubxonachilik xizmatiga bo'lgan talablarni hisobga olgan holda kutubxonachilik xizmati ko'rsatishning samarali tizimini barpo etishga zarur mablag'lar bilan ta'minlash, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti rejalari va byudjetlarni ko'rib chiqishda kutubxonalar ehtiyojini himoya qiladi va ularni maqsadga muvofiq ta'minlashga erishadi, kutubxonachilik ishi rivojiga ajratilgan mablag'larni to'la va samarali ishlatishga yordam beradi, kutubxonalar va ularni boshqarish organlari tashabbusini manfaatdorligini oshiruvchi yangi xo'jalik mexanizmini yaratish ishlari bilan shug'ullanadi.

Kutubxonachilik ishini boshqarishning davlat-jamoatchilik organlari kutubxonachilik qurilishining huquqiy va normativ asoslarini shakllantiradi, kutubxonachilik qonunlari va tegishli huquqiy

hujjatlarning mukammal tizimini ishlab chiqadi.

### **4. Mustaqil kutubxonachilik siyosatini yuritish.**

Bu yangilanish davridagi kutubxonalar eng muhim prinsiplaridan biri bo'lib, u mehnat jamaosi qatnashuvida o'z dasturini qabul qilish va uning bajarilishini ta'minlash; boshqarish jarayonida o'zini-o'zi rivojlantirish tizimi sifatidagi imkoniyatlarni amalga oshirish, iqtisodiy mustaqillik va huquqiy kafolat kabi kutubxonachilik siyosatini yuritishni taqozo etadi. Bu printsipga ko'ra kutubxonalar mavjud xarajatlar doirasida o'z xodimlari miqdori va kutubxona tuzilishini aniqlashga, ularning ustavida hamda kutubxonachilik ishini rivojlantirishning umumrespublika va xududiy dasturida qayd qilingan maqsad va funksiyalarga muvofiq faoliyatning aniq yo'nalishlari va shakllarini belgilashga huquqlidir.

Davlat kutubxonalari ommabop kutubxona tarzida barcha uchun ochiq bo'lishi va asosiy kutubxonachilik xizmatini bepul amalga oshirmoqlari lozim. Ular turli yo'llar bilan kelib tushadigan harajatlardan, eng avvalo respublika va mahalliy byudjetlardan, o'z xizmati evaziga tushgan mablag'lar, jamoatchilik tashkilotlari harajatlari, jamoa va shaxsiy hayr- ehsonlar hisobidan mablag' bilan ta'minlanadilar.

Tub iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi va yangi ishlab chiqarish munosabatlarning shakllanishi jarayonida xilma-xil tijorat kutubxonalari paydo bo'ladi. O'zini -o'z mablag' bilan ta'minlash prinsipiga amal qilib, bunday kutubxonalar pullik kutubxonachilik- axborot xizmati shakllarini kengaytirishdan manfaatdor bo'ladi.

### **4. Kutubxonachilik tizimini tabaqalashtirilgan asosida tashkil etish.**

Kutubxonachilik ishini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi kutubxonalarning o'zaro hamkorligini ko'chaytirish, ixtisoslashtirish, ular faoliyatini barcha sohalarda muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish hisoblanadi. Respublika mustaqilligi, hududiy xo'jalik hisobini joriy etish va mahalliy kengashlar huquklarining kengaytirilishi, o'z ishlarini rivojlantirishda kutubxonalar mustaqilligining kuchayishi kutubxona tizimi birligi va butunligini amalga oshirish masalasini yangicha yechishni talab qiladi.

Hozirgi sharoitda kutubxona tarmog'i juda o'zgaruvchan bo'lishi tabiiydir. Kitobxon va uning qiziqishi hududiy kutubxonachilik tizimlarini tartibga solish va uni yanada taraqqiy ettirishda asosiy omil bo'lib qoladi.

Masalan, kutubxonalarning tuzilgan maqsadlari bo'yicha( kutubxona-qiroatxona, kulb- kutubxona, kutubxona- muloqot markazi, oilaviy o'qish kutubxonasi) fondlarning mavzui, tarkibi bo'yicha (tarixiy adabiyotlar kutubxonasi, san'at materiallari bo'yicha kutubxona) kabi tabaqalashtirilgan yangi tiplari taraqqiy etadi.

## **6. Kutubxonalarini tashkil etish va ularning faoliyatida keng jamoatchilikning ishtirok etishi.**

Kasbiy o'zini-o'zi boshqarishning Respublika organi (Qurultoy kutubxonachilik ishi bo'yicha qonunlar loyihasini ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi yoki Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir.

Kutubxonachilik ishini boshqarishda jamoatchilik o'zining saylanma-vakillik organlari orqali, shuningdek kutubxonalar va kutubxona xodimlarining ko'pchiligi kasbiy jamoatchilik birlashmalari kutubxonalar ishi bilan bog'liq manfaatdor shaxslar orqali ishtirok etadi.

### **Kutubxonaning asosiy funksiyalari**

Kutubxonalarining bir-biriga bo'ysunadigan funksiyalarini quyidagi tartibda tavsiflash mumkin;

1. **Bosh** (kutubxonaning mohiyatini belgilab beruvchi) funksiyalar- xotira, axborot-kommunikativ (aloqa uchun xizmat qiladigan) funksiyalar;
2. **Asosiy** funksiyalar-o'qishga, kasbiy-ishlab chikarishga, ilmiy ishga, mustaqil bilim olishga yordam beruvchi funksiyalar;
3. **Hosila funksiyalari**- ma'rifiy, tarbiyaviy, ishlab chiqarish funksiyasi

### **Nazorat savollari:**

1. O'zbekistonda kutubxonachilik ishini tashkil etishning prinsiplari haqida nimalarni bilasiz?
2. Kutubxonachilik tizimini tabaqalashtirilgan asosida tashkil etish haqida nimalarni bilasiz?
3. Kutubxonalarining asosiy funksiyalari haqida nimalarni bilasiz?

## **8-MAVZU: KUTUBXONA-AXBOROT MUASSASALARINING ASOSIY TIPLARI VA HILLARI**

### **Reja:**

1. "Kutubxonalar tipologiyasi" tushunchasi va nazariyasini rivojlanishi.
2. O'zbekistonda kutubxona-axborot muassasalarining asosiy tiplari va turlari.
3. O'zbekistondagi maxsus kutubxona-axborot muassasalari

### **Tayanch iboralar:**

"Kutubxonalar tipologiyasi" tushunchasi va nazariyasini rivojlanishi. O'zbekistonda kutubxona-axborot muassasalarining asosiy tiplari va turlari. O'zbekistondagi maxsus kutubxona-axborot muassasalari

### **1. "Kutubxonalar tipologiyasi" tushunchasi va nazariyasini rivojlanishi.**

Kutubxonashunoslikda ko'pgina vazifalarni xal etishda ikkita bir-biriga yaqin bo'lgan metodlardan-klassifikatsiyalash va tipologiyalashdan foydalaniladi. Klassifikatsiyalash va tipologiyalash o'rtasidagi chegaralar shartlidir. Shunga qaramasdan klassifikatsiyalash deganda o'rganilayotgan obektni miqdoriy jihatdan guruxlarga ajratish tushunilsa, tipologiyalashda esa-sifatiga qarab qarab ajratish tushuniladi.

Tipologiyalashning zarurati bir xil bo'lmagan kutubxonalarini bir tartibga solish zarurati bilan paydo bo'ladi, yoki ularni qandaydir qonuniyatlar asosida bunday bir xil bo'lmaganlikni o'rganish zaruratidan kelib chiqadi. Tipologiyalash jarayonida mazmunli taxlil qilish asosida o'rganilayotgan kutubxonalarini o'xshash va har xillik jixatlari aniqlanadi va ularni identifikatsiyalash –ya'niy bir xillikka olib keluvchi usullari aniqlanadi.

Kutubxonalarini tipologiyalashni asosiy sifat o'lchovi sifatida "tip" va "tur" degan tushunchalar qabul qilingan bo'lib, ular namuna, model, turli xil degan ma'nolarni bildiradi va kutubxonalarini tegishli guruxlariga mansub bo'lgan ma'lum bir belgilarga ega bo'ladi. Shuning uchun ma'lum bir yetakchi belgilariga ko'ra guruxlarga ajratishni tiplarga ajratish deb ataladi,

keyingi maydalashtirish jarayonidagi ajaratish esa tur va kichik tur deb ataladi.

Tipologiyalash jarayonida bir vaqtni o'zida ikkita -nazariy va amaliy masalalar xal etiladi. Birinchi masala kutubxonalarni faoliyat ko'rsatishi va tipologik jixatdan rivojlanishini obektiv qonuniyatlarini ochish maqsadida ularni faoliyatini xarakterlovchi faktorlarni to'plash va taxlil qilish ishlari ya'niy-nazariy masalalardir.

Kutubxonalarni tipologiyalashning amaliy masalalar esa, ularni faoliyatlarni tashkil etish va rivojlantirish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqishdir.U kutubxonalarni tipologik xarakteristikasidan kelib chiqqan xolda ularni vazifalarini, funksiyalarini, aloqalarini, munosabatlarini, tashkiliy darajalarini aniqlash imkonini beradi va ular kutubxonalarni samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarurdir. Kutubxonalarni tiplari va turlarini xisobga olgan xolda maqsadga muvofiq ravishda ularni fondini tarkibi va tuzilishini, kitobxonlar so'rovlarni qondirilishini, kutubxonalarni sohalarga ajratish va o'zaro aloqalariga asoslanuvchi tizimlarni qurish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, kutubxonachilik ishini samarali boshqarish va boshqalar amalga oshiriladi.

Kutubxonalarni ilmiy jihatdan tipologiyalash masalalari nazariy jixatdan kutubxonashunoslikda hozircha ishlab chiqilmagan.Lekin ko'pchilik olimlar quyidagi kutubxona turlarini qayd etganlar: milliy, ommaviy, o'quv, akademik, maxsus.

XX asrning 20-yillarida dastlab kutubxonalar uchta tipga: ommaviy, ilmiy, maktab kutubxonalari bo'lingan.

30-yillarga kelib M.A.Potapov kutubxonalarni ommaviy va ilmiy kutubxonalarga bo'linishiga qarshi chiqqan. Va u kutubxonalarni kitob fondiga ko'ra universal va maxsus bo'lishni taklif etgan.

40-yillarda I.M.Frumin kutubxonalarni ommaviy va ilmiy kutubxonalarga bo'lishga qaytadi. Guruxlash asosi sifatida kitobxonlarni so'rovlarni: umumta'lim, ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, o'quv so'rovlarni olgan.

50-60 yillarda O.S.Chubaryan kutubxonalarni tabaqalashtirishni kitobxonlarga mo'ljallanganlikka qarab ajratgan: ommaviy va ilmiy va maxsus. Bunga qo'shimcha sifatida ikkinchi belgilari bo'yicha, mintaqaviy va idoraga mansublikka qarab ajratishni taklif qilgan.

70-90 yillarda kutubxonalarni tipologiyasi muammosiga bag'ishlangan maxsus munozaralar bo'lib o'tdi. Naimjada kutubxonalar ommaviy va ilmiy, umumiy va maxsus, universal va maxsus, ommaviy va idoralar, ilmiy va bolalarga bo'lindi. Tadqiqotchilar kutubxonalarni tiplarga ajaratishda qanday belgilar asosiy va qanday belgilar ikkinchi darajali belgilar bo'lishi kerak degan yagona bir to'xtamga kela olmadilar

YUNESKO kutubxonalarni quyidagi klassifikatsiyasini taklif etadi:

1. Milliy kutubxonalar
2. Oliy o'quv yurtlari kutubxonalari
3. Yirik universal hamma foydalanishi mumkin bo'lgan kutubxonalar
4. O'quv kutubxonalari
5. Maxsus kutubxonalar(Ilmiy-tadqiqot institutlari,jamoat tashkilotlari, idoralar, kasaba uyushmasi, muzeylar va boshqalar)
6. Ommaviy hamma foydalanuvchi (yoki xalq) kutubxonalar.

Ko'rinib turibdiki, bu yerda ham kutubxonalar yagona ilmiy asoslangan belgilar bo'yicha tiplarga ajaratilmagan.

Shunday qilib kutubxonalarni tiplarga ajratishda turli xil qarashlar mavjud. Bir xillari asosiy, yetakchi belgi sifatida kitob fondini tarkibi deb xisoblasa, ikkinchisi esp kitobxonlar so'rovlari yetakchi deb xisoblaydi, uchinchisi esp axborotga bo'lgan talabni, to'rtinchisi esa kitobxonlarni kutubxona murojaat qilishdan maqsadini, motivatsiyasini asosiy belgi deb xisoblaydi.

Shuning uchun biz tiplarga bo'luvchi belgilarga to'xtalib o'tamiz

Ular turlicha bo'lishi mumkin:

- Maqsadiga ko'ra,
- foydalanuvchilar kontengenti bo'yicha,

- mavzusi bo'yicha,
- fondni tarkibi va xajmi bo'yicha,
- mansubligi bo'yicha,
- faoliyat ko'rsatishi bo'yicha,
- yuridik mustaqilligi bo'yicha,
- kutubxonalar tizimidagi o'rni va faoliyati statusi bo'yicha,
- foydalanish darajasi bo'yicha va x.k.

Yuqoridagi belgilar bo'yicha turli tiplar, turlar va kichik turlarga ajratish mumkin. Shunga ko'ra har bir kutubxona bir vaqtning o'zida turli klassifikatsiyalashda bo'lishi mumkin.

## **2.O'zbekiston axborot-kutubxona muassasalarining asosiy tiplari va turlari.**

Axborot-kutubxona tizimi yagona tashkiliy va uslubiy ta'minot asosida faoliyat ko'rsatuvchi axborot-kutubxona muassasalari majmuidir. Axborot-kutubxona muassasasi mustaqil muassasa bo'lishi yoxud korxonalar, muassasa yoki tashkilotning tarkibiy bo'linmasi bo'lishi mumkin.

Axborot-kutubxona muassasalariga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Milliy kutubxonasi;

axborot-kutubxona markazlari;

axborot-resurs markazlari;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari;

boshqa kutubxonalar (fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, tijorat tashkilotlarining kutubxonalari).

Axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarining mazmuni va belgilangan maqsadiga ko'ra universal hamda maxsus axborot-kutubxona muassasalariga bo'linadi.

Universal axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarini bilimning turli sohalari bo'yicha shakllantiradi va turli toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

Maxsus axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarini bilimning bir yoki bir necha turdosh sohalari bo'yicha shakllantiradi va ayrim toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi

O'zbekiston Milliy kutubxonasi milliy va jahon madaniyatini, fani va ta'limini rivojlantirish manfaatlarini ko'zlagan holda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi umumdavlat universal axborot-kutubxona muassasasidir.

### **O'zbekiston Milliy kutubxonasi:**

axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

axborot-kutubxona fondini shakllantiradi, uning but saqlanishini ta'minlaydi hamda foydalanuvchilarga milliy va xorijiy nashrlarning eng to'liq to'plamini taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini, shuningdek dissertatsiyalarning ko'chirma nusxasini oladi;

O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning davlat bibliografik hisobini yuritadi;

elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-uslubiy faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;

noyob va alohida qimmatli axborot-kutubxona resurslarini but saqlash, konservatsiyalash va restavratsiya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi;

yig'ma elektron katalogni shakllantiradi va yuritadi;

axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.



O‘zbekiston Milliy kutubxonasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi to‘g‘risidagi **nizom** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

#### **Axborot-kutubxona markazlari**

Axborot-kutubxona markazlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxona muassasalaridir.

Axborot-kutubxona markazlari:

axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta‘minlaydi;

elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

tegishli hududda chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini oladi;

bibliografik, ilmiy-uslubiy va madaniy-ma‘rifiy ishlarni bajaradi;

tegishli hududda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularni tashkiliy-uslubiy jihatdan ta‘minlashni amalga oshiradi;

yig‘ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;

axborot-kutubxona resurslaridan o‘zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

tegishli hududda axborot-kutubxona muassasalarining depozitar saqlanadigan axborot-kutubxona resurslarini to‘plashni amalga oshiradi va ularning hisobini yuritadi.

Axborot-kutubxona markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Axborot-kutubxona markazlarining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

Axborot-kutubxona markazi to‘g‘risidagi namunaviy nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

#### **Axborot-resurs markazlari**

Axborot-resurs markazlari davlat ta‘lim muassasalari huzurida tashkil etilgan, o‘quvchi yoshlarning, shuningdek aholining axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxona muassasalaridir.

Axborot-resurs markazlari:

Ta‘lim muassasasining ixtisoslashuviga muvofiq asosan ilmiy-ta‘limga oid mazmundagi axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta‘minlaydi;

elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

shaxsning ma‘naviy boy va barkamol ijodiy o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratgan holda o‘zidagi va o‘zidan uzoqdagi axborot-kutubxona resurslaridan foydalanish asosida O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosidan foydalanuvchilarni bahramand etadi;

axborot-kutubxona resurslaridan o‘zaro foydalanishni ta‘minlaydi;

boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

yig‘ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;

madaniy, ta‘lim, axborot dasturlari va loyihalarini hamda boshqa dasturlar va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta‘lim, ilmiy muassasalar va arxivlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, milliy madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Axborot-resurs markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Axborot-resurs markazlarining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

Axborot-resurs markazi to‘g‘risidagi namunaviy nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

**3. O‘zbekistondagi maxsus kutubxona-axborot muassasalari.** “Maxsus kutubxona” atamasi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, qandaydir predmet yoki xodisaga, mutaxassislikka

nisbatan “alohida” degan ma’noni bildiradi. Maxsus kutubxonalar XX asrning boshlarida maxsus gurux sifatida shakllandi. Bu vaqtda fanlarni bo‘linish davri (differenziatsiyalanish) tugayotgan va birlashish ya’niy integratsiya davri boshlanayotgan davr edi.

Maxsus kutubxonalarining ijtimoiy ijtimoiy vazifasi-kasbiy o‘qishni- ya’niy mutoalaani tashkil etishdir. Kasbiy o‘qish fondni komplektlash sohasini, kitobxonlar kontengegtini, ishlarni tashkil etishning shakl va usullarini aniqlaydi.

Maxsus kutubxonalar o‘z fondalarini o‘zlari xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot, muassasa, ishlab chiqarish korxonasi sohasi bo‘yicha komplektlaydi. Komplektlash obekti sifatida kitoblar, vaqtli va davomli nashrlar, standartlar, kashfiyotlarni tavsiflari, ma’muriy-idoraviy nashrlar, xisobotlar, chizma-konstruktorlik va loyixaviy xujjatlar, shuningdek nashrlarning maxsus turlari-kartografik, musiqa-notalari, audiovizul nashrlar bo‘lishi mumkin.

Maxsus kutubxonalar-nafaqat xujjatli fondlarni saqlovchi joy, balki xujjatli-axborot kommunikatsiya markazi, keyingi vaqtlarda esa elektron kommunikatsiya markazi hamdir. Shuning uchun ushbu kutubxonalar faoliyati favat bibliografik ma’lumotlarni qidirish va birlamchi xujjatlarni yetkazib berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ular faoliyatida faktografik axborotlarni yetkazib berish ushbu faoliyatda muxim o‘rinni egallaydi. Masalan, maxalliy ishlab chiqarish va savdo haqidagi ma’lumotlarni bilish kutubxona xodimidan maxsus bilimlarni talab etadi.

Olimlar va mutaxassislarni axborotga bo‘lgan so‘rovlarining mazmuniga ularni kasbiy faoliyati ta’sir ko‘rsatadi, ularni kutubxona resurslariga bo‘lgan talablarning aniqlanishi esa mavzuli yo‘nalish orqali belgilanadi. Shuning uchun maxsus kutubxonalar bir- biri bilan avvalo bilim sohalari bo‘yicha farq qiladi.

Maxsus kutubxonalarini uchta asosiy guruxga ajratish mumkin: ijtimoiy-ilmiy (gumanitar), tabiiy-ilmiy va amaliy soxa. Keyingi bo‘linish maxsus kutubxonalarini fan tarmoqlari va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan fondlarni tashkil etishga qarab amalga oshiriladi (astronomik va geologik, geografik va kartografik, tarixiy va san’atshunoslik, yuridik, meditsina, qishloq xo‘jaligi, texnika va x.k).

Maxsus kutubxonalarini tabaqalashtirishning muxim belgilaridan biri kutubxona mansub bo‘lgan tashkilotning ish faoliyati xisoblanadi. Shunga asosan ilmiy, o‘quv, ishlab chiqarish va boshqaruv kutubxonalari ajratiladi. Shuningdek boshqa belgilar bo‘yicha ham guruxlarga ajratish mumkin. Masalan, kutubxonalarini statusi bo‘yicha- respublika, soha bo‘yicha markaziy, regional, bosh kutubxona, shoxobcha. Adabiyotlar turi bo‘yicha - (patent kutubxonasi), abonentlarga xizmat ko‘rsatish kategoriyasi bo‘yicha (ko‘zi o‘jizlar kutubxonasi).

O‘zbekiston xududida maxsus kutubxonalar XIX asrning ikkinchi yarmidan paydo bo‘la boshladi va ular ma’lum gurux kishilariga xizmat ko‘rsatar edi. Ular dastavval Samarqand va Toshkent shaxrida faoliyat yuritdilar. Bu tipdagi kutubxonalar avvalo ilmiy-texnik jamiyatlar qoshida tashkil etildi va rus axolisiga xizmat ko‘rsata boshladi. Ulardan faqat ilmiy va injener-texnik xodimlar, ma’muriyat va ilmiy muassasalar vakillarigina foydalanishgan.

O‘zbekistondagi eng yoshi ulug‘ maxsus kutubxonalar- O‘zbekiston FA Astronomiya instituti kutubxonasi( 1873 y.), Samarqand viloyatidagi lalmi tuproqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasi (1913 y.), O‘zbekiston Davlat madaniyat va san’at muzeyi ilmiy-ma’lumot kutubxonasi (1911y.Samarqand) xisoblanadi.

Respublikadagi yirik maxsus kutubxonalar quyidagilardir:

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining asosiy kutubxonasi;

Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi;

Respublika ilmiy meditsina kutubxonasi;

Markaziy ilmiy qishloq xo‘jaligi kutubxonasi.

Ushbu kutubxonalarining fondi million nusxadan oshib ketgan.

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining sosiy kutubxonasi 1933 yilda tashkil etilgan.Uni tarixi respublikadagi ilm-fanni rivojlanishi bilan uzviy bog‘langan.Ushbu kutubxona akademik kutubxonalar tarmog‘ini boshqaradi. Uni tarkibiga 30 ga yaqin ilmiy-tekshirish institutlarini kutubxonalar kiradi.

Maxsus kutubxonalar ichida asosiy o‘rinlardan biri texnika kutubxonalaridir. Texnika kutubxonalarida eng ko‘p tarqalganlari ishlab chiqarish korxonalarini va birlashmalari qoshidagi kutubxonalarini xisoblanadi. Ularni fondida salmoqli o‘rinni jurnallar, texnik xisobotlar, ma‘muriy-idoraviy nashrlarning ba‘zi bir xillari, standartlar, chizma-konstruktorli xujjatlar va boshqalar tashkil etadi. Ular kutubxonalariga zudlik bilan ilmiy-texnika xujjatlari haqida axborot berish imkonini beradi. Texnika kutubxonalarida asosan keyingi yillarda chop etilgan adabiyotlar bo‘ladi. Chunki texnikaga oid adabiyotlar juda tez eskiradi.

Respublika texnika kutubxonalarida ichida yetakchi o‘rinni 1957 yilda tashkil etilgan, 2 milliondan ortiq kitob fondiga ega bo‘lgan Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi tashkil etgan. Hozirda ushbu kutubxona Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tarkibiga kirgan.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash axoliga meditsina xizmati ko‘rsatish tizimida 286 ta maxsus kutubxonalar mavjud bo‘lib, ular tarkibiga 12 ta viloyat meditsina kutubxonalarini, meditsina ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy va o‘rta maxsus o‘quv muassasalari, davolash-profilaktika muassasalari, kasalxonalar qoshidagi kutubxonalar kiradi

Respublikada Qishloq xo‘jaligi sohasiga oid maxsus kutubxonalarini kamchilikni tashkil etadi. Ularni jami -27 ta. Ushbu kutubxonalarini asosan ilmiy-tadqiqot institutlari, tajriba uchastkalari, oliy o‘quv yurtlari va kollejlari, umuman Respublika qishloq va suv xo‘jaligi vazirligiga qarashli bo‘lgan kutubxonalardir.

“O‘quv kutubxonasi” atamasi kutubxonashunoslikda uzoq vaqtdan beri qo‘llanilib kelinayotgan atamadir. O‘quv kutubxonasi deganda o‘quv jarayoni davomida paydo bo‘ladigan foydalanuvchilarni axborotga bo‘lgan talablarini qondiruvchi kutubxonalar tushuniladi. Ushbu kutubxonalarini quyidagi guruxlarga bo‘lish mumkin: oliy o‘quv yurtlari kutubxonalarini (universitetlar, akademiyalar, institutlar), kollej, akadem litsey kutubxonalarini, maktab kutubxonalarini. O‘quv muassasalari kutubxonalarini o‘quvchilarni tarbiya va ta‘lim olishlariga yordam berishga mo‘ljallangan. O‘quv jarayonini ta‘minlash ularni eng muxim ijtimoiy vazifasi va o‘ziga xos belgisi xisoblanadi. Ular universal mazmundagi fondga ( maktab , universitet kutubxonasi), shuningdek o‘quv yurtining sohasiga mos ravishdagi fondga, shuningdek ko‘p nusxadagi o‘quv adabiyotlariga ham egadir.

O‘quv kutubxonalarini nafaqat o‘quv jarayoninigina qondiribgina qolmasdan, balki ular tarbiyaviy funksiyani, shuningdek ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarishga oid talablarni ham bajaradi.

“Boshqarma kutubxonasi” atamasi maxsus kutubxonalarini yana bir turi sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu kutubxonalar boshqaruv faoliyati jarayonida paydo bo‘ladigan axborotga bo‘lgan talablarni qondiradi. Boshqaruv kutubxonalarini quyidagi guruxlarga bo‘lish mumkin: davlatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari kutubxonalarini (Oliy Majlis (Parlament), Prezident kutubxonasi), maxalliy va o‘z o‘zini boshqarish organlari (xokimiyatlar, maxalla qo‘mitalari), sud organlari va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti apparati kutubxonasida 2600 dan ortiq kitoblar mavjud bo‘lib, kutubxona har yili 40 ta nomdan ortiq respublika, 26 viloyat va 36 nomdagi chet el gazetarini, respublika va chet ellarda chop etiladigan 98 nomdagi jurnallarni oladi. Kutubxona cheklangan kitobxonalar kontingentiga Prezident ma‘muriyati va O‘zbekiston Respublikasi xukumati apparati xodimlariga xizmat ko‘rsatadi (600 ga yaqin odamga).

Maxsus kutubxonalarini alohida guruxi sifatida ko‘zi o‘jizlar kutubxonalarini xisoblanadi. Respublika markaziy ko‘zi o‘jizlar kutubxonasi va yettita viloyat ko‘zi o‘jizlar kutubxonalarini -ko‘zi o‘jiz kitobxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi Respublikadagi eng yirik kutubxonalar xisoblanadi. Ushbu kutubxonalar O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligiga qarashlidir. Ular bo‘rtma-nuqtali (**reliefno-tochechnim**) shrifta chop etilgan nashrlar va plastinka va magnit lentalariga yozilgan kitoblar saqlanadigan davlat saqlovxonasi, shuningdek ko‘zi o‘jizlar uchun nashrlarning depozitar kutubxonasi hamda tiflogiya (ko‘zi o‘jizlar xayoti va faoliyati haqidagi fan) adabiyotlari kutubxonasi xisoblanadi. Hozirda 23 ta shaxar va 29 ta rayon kutubxonalarini ko‘zi o‘jiz kitobxonalariga xizmat ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar turi bo'yicha maxsus kutubxonalar guruxiga Respublika patent idorasining Respublika patent kutubxonasi kiradi. RPK – O'zbekistondagi ixtirolar bo'yicha 50 ta davlatning, Butun jaxon intellektual mulk tashkiloti, Yevropa va Yevroaziya patent idoralari xujjatlar to'liq saqlanadigan yagona patent bosh fondi xisoblanadi. Kutubxonada 21 milliondan ortiq patent xujjatlari mavjud bo'lib, ularning 6 millioni kompakt optik disklardadir

Respublikada kasaba uyushmalari kutubxonalari tarmog'i keng tarqalgan bo'lib, ular korxonalar va tashkilotlarning tarkibida bo'lib, aniq bir mexnat jamoasiga adabiyotlar bilan xizmat ko'rsatadi. Ushbu kutubxonalarni fondi universal xisoblanadi. Lekin ular o'z fondlarini komplektlashda xizmat ko'rsatayotgan korxonaning soxasi, unda mexnat qiluvchilarning tarkibi, hamda kasaba uyushmasining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga oladilar.

Shuningdek kasaba uyushmalari tarmog'ida statsionar (doimiy, bir joydagi) kutubxonalar ham mavjud bo'lib, ular kasaba uyushmasi klublari, madaniyat uylari va saroylari hamda ishlab chiqarish korxonlari xududida joylashgan bo'lishi mumkin. Baxtga qarshi bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'pgina korxonlarning yopilishi munosabati bilan bu turdagi kutubxonalarning soni kamayib bormoqda.

Ushbu turdagi kutubxonalar kasalxonalar qoidasidagi bemorlar uchun kutubxonalar, dam olish uylari, sanatoriyalar, qamoqxonalalar, xarbiy qismlar va ofitserlar uylari qoshidagi kutubxonalar kiradi.

Shuningdek turli xil diniy tashkilotlarning kutubxonalar tarmog'i rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda 15 diniy konfessiyalar mavjud bo'lib, ularni bir qanchasi O'zbekiston uchun noan'anaviy xisoblanadi.

Keyingi yillarda milliy-madaniy markazlar, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari bo'limlari, "Mahalla", "Umid", "Ustoz", "Sog'lom avlod uchun", "Yoshlar ittifoqi" va boshqa jamoat tashkilotlari va fondlari qoshida kutubxonalar tashkil etilmoqda.

Axolini ijtimoiy faolligini o'sishi natijasida turli xil yangi jamoat kutubxonalari turlari paydo bo'lishi mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. "Kutubxonalar tipologiyasi" tushunchasi va nazariyasini rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbekistonda kutubxona-axborot muassasalarining asosiy tiplari va turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekistondagi maxsus kutubxona-axborot muassasalari haqida nimalarni bilasiz?

### **9-MAVZU: KUTUBXONA- AXBOROT FAOLIYATINI BOSHQARISH TIZIMI**

#### **Reja:**

1. "Kutubxona- axborot faoliyati" - tizim sifatida.
2. "Kutubxona- axborot faoliyati" ijtimoiy-madaniy tizimning tuzilmasi, asosiy qirralari. Uning maqsad va vazifalari
3. "Kutubxona- axborot faoliyati" ni tizim sifatida rivojlanishining o'ziga xosligi va qonuniyatlari

#### **Tayanch iboralar:**

"Kutubxona- axborot faoliyati" - tizim sifatida. "Kutubxona- axborot faoliyati" ijtimoiy-madaniy tizimning tuzilmasi, asosiy qirralari. Uning maqsad va vazifalari. "Kutubxona- axborot faoliyati" ni tizim sifatida rivojlanishining o'ziga xosligi va qonuniyatlari

Boshqaruv –jamiyat hayotining muxim shartlaridan biridir. Odamlarning birgalikdagi faoliyatini ishlab chiqarish korxonalariga, turli muassasalar jamoasiga, boshqaruv organlariga birlashtirmasdan tashkil etish mumkin emas. Har qanday moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish soxasi ma'lum bir tashkillashtirish, qonun-qoidalar, mehnat taqsimoti, odamni jamoadagi o'rni va vazifasini belgilashsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bularni barchasi boshqaruv orqali amalga oshiriladi. Mana shuning uchun ham har qanday davlatda maxsus jamoatchilik

instituti va boshqaruv organlari tashkil etiladiki, ular jamiyatga, halq xo'jaligini turli soxalariga, mehnat jamoalariga maqsadga yo'naltirilgan xarakatni amalga oshiradilar.

Boshqaruvning asosiy vazifasi odamlarni mehnat jamoalaridagi birgalikdagi faoliyatini, ularni o'zaro hamkorligini tashkil etishdir.

Boshqaruvni jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini, iqtisodiyot qonunlarini bilmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Faqat qayd etilgan qonun va qonuniyatlardan foydalanib u yoki bu soxaga, korxonaga, muassasa jamoasiga ta'sir ko'rsatish, paydo bo'lgan qarama-qarshiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, obektiv imkoniyatlarga qat'iy amal qilgan xolda real siyosat olib borish mumkin.

Ilmiy boshqaruv – bu odamlarga, jamiyat yoki uning alohida soxalariga, mehnat jamoalariga obektiv qonun va qonuniyatlarni tushungan xolda, ularni optimal faoliyat ko'rsatishlari, rivojlanishlari va ko'zlangan maqsadga erishishlari uchun tizimli, maqsadga muvofiq ravishda ta'sir ko'rsatishdir. Ilmiy boshqaruv, boshqaruv fani tomonidan ishlab chiqilgan qonuniyatlarga asoslanadi.

Boshqaruv fani- ijtimoiy fanlarni bir soxasi bo'lib, uni asosiy vazifasi jamiyatni, ishlab chiqarishni va ma'naviyat soxasini boshqarish xaqidagi nazariy bilimlarni sistemalashtirishdan iborat. Boshqaruv fanining maqsadi - boshqaruv jarayonini tavsiflash, tushuntirish, hamda boshqaruv fani tomonidan yaratilgan qonun va qonuniyatlarga asoslangan holda uning natijalarini bayon etishdan iboratdir. Boshqaruv fani vazifalariga boshqaruv organlari faoliyatini prinsiplari, funksiyalari, metodlari va tuzilmasining nazariy asoslash kiradi.

Boshqaruv fani quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- boshqaruv nazariyasi;
- boshqaruv subekti va obektini tashkillashtirish ishlari;
- boshqaruv ta'sir ko'rsatish usullarini yaratish;
- boshqaruv jarayoni;
- boshqaruv tizimida mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish.

Boshqaruv mazmuni deganda xarakat dasturini ishlab chiqish, uni zarur moliyaviy, moddiy va kadrlar resursi bilan ta'minlash, umumiy vazifalarni bo'linmalar o'rtasida taqsimlash, jamoa kuchlari va xarakatlarini birlashtirish va ularni faoliyatlarini boshqarish hamda quyilgan vazifalarga mos kelishini nazorat qilish tushuniladi. Boshqaruv - maqsadni belgilashdan boshlanadi. Maqsadni belgilash bir qancha sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Avvalo, qo'yilgan maqsadga erishish uchun jamiyatdagi mavjud obektiv sharoitlar, ya'ni qanday moddiy, moliyaviy va boshqa imkoniyatlar mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

Boshqaruv funksiyasini amalga oshirish uchun mamlakatda davlat tomonidan mahsus apparat, davlat boshqaruv organlari tashkil etiladi. Davlat boshqaruv doimiy ravishda hayotga mamlakatning Konstitutsiyasi va qonunlarini, hamda qonun aktlarini, davlat tomonidan chiqarilgan qarorlarni joriy etish ishlarini amalga oshiradi. Boshqaruv faoliyatining asosiy o'ziga hosligi, uni doimiy va uzluksiz ravishda o'ziga bo'ysunuvchi obektlar faoliyatiga raxbarlik qilishda namoyon bo'ladi. Davlat boshqaruv jarayonida, yuqori davlat boshqarvidan boshlab, qo'yi boshqaruv organlarida tashkiliy munosabatlar paydo bo'ladi. Davlat boshqaruviga xos bo'lgan hususiyat, bu tizimning xar bir qismini va ular orasidagi munosabatlarni tashkil etilganligidir.

Har qanday boshqaruv, boshqaruv subekti va boshqaruv obektlaridan tashkiltopadi. Boshqaruv subekti- bu boshqaruvni amalga oshiruvchi va rahbarlar va boshqaruv apparati hodimlari hisoblanadi. Boshqaruv obekti esa, boshqariluvchi odamlar, mehnat jamoalari va jamiyatdir.

Boshqaruv , boshqaruv subekti tomonidan ketma- ketlikda amalga oshiriladigan operatsiyalardir. Bularga:

- qarorlarni tayyorlash va qabul qilish (qonunlar, normativ aktlar, qoidalar va x.k.);
- qarorlarni bajarilishini ta'minlash;
- qarorlarni bajarilishini tahlil qilish va natijalarini baholash.

Samarali boshqarishni tashkil qilish uchun tizim komponentlari va tashki omillar bilan muntazam ravishda axborot almashib turish zarur. Axborot boshqaruv subektiga tizimni holati

haqida axborot beradi, maqsad va vazifalarni bajarilishiga to‘g‘ri yondoshgan holda boshqaruv qarorlarini bajarilishini ta‘minlaydi.

Boshqaruvda muxim rolni tashqi omillardagi, iqtisoddagi, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni hisobga olib borish o‘ynaydi. Kutubxonachilik ishida tashki omillarga nashriyotlar, kitob savdosi tashkilotlari, ilmiy- axborot organlari, kutubxonachilik jihozlari ishlab chiqaruvchi muassasa va tashkilotlar, elektron aloqa vositalari va boshqalar kiradi. Ular bilan o‘zaro munosabatlar qonunlar, nizomlar, boshqa normativ aktlar orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, boshqaruv qarorini qabul qilishda faqat kutubxonachilik ishini kichik tizimlari va elementlarini holatini hisobga olmasdan, ularga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi tashki omillarni ham e‘tiborga olish zarur.

2. “Kutubxona-axborot faoliyati” ijtimoiy madaniy tizim. Uning asosiy qirralari, maqsad va vazifalari.

“Kutubxona-axborot faoliyati” –Murakkab ijtimoiy –madaniy tizim bo‘lib, u bir-biri bilan mastahkam bog‘langan hamda o‘ziga xos xususiyat va rivojlanish qonuniyatlariga ega bo‘lgan kichik tizimlardan tashkil topgan.

Kutubxona-axborot faoliyati tizimi bevosita respublikamizning iqtisodiy, ijtimoiy madaniy ma‘rifiy sohalariga, ilm-faniga ishlab chiqarishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatilgan sohadir. Albatta bu ta‘sir darrov sezilmasada, lekin yillar o‘tishi mobaynida o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Kutubxona-axborot faoliyatini rivojlanish qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlariga o‘tishdan avval bu tizimni tashkil etuvchi tarkibiy tizimchalari, ularni tizimdagi vazifalari haqida biroz to‘xtalib o‘tamiz.

Kutubxona-axborot faoliyati oltita tarkibiy kichik tizimdan tashkil topgan bo‘lib, bular:

- \* Kutubxona - axborot muassasalari tarmoqlari;
- \* Kutubxona-axborot muassasalari fondlarini komplektlash;
- \* Kutubxona – axborot xizmatini tashkil etish;
- \* Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish.
- \* Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish;
- \* Ilmiy- uslubiy ishlardir.

Kutubxona-axborot faoliyatini bugungi ahvoli ushbu tarkibiy qismlarni hozirgi holati, rivojlanganligiga bevosita bog‘liqdir. Yuqoridagi tarkibiy qismlarning birontasini boshqalardan orqada qolib ketishi, kutubxona-axborot faoliyatini umumiy rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Kutubxona-axborot faoliyatida kutubxona va axborot muassasalari tarmoqlari tizimi asosiy tizimlardan biridir. Ma‘lumki nafaqat respublikamizda balki ko‘pgina rivojlangan mamlkatlarda ham kutubxonalar bir qancha tarmoqlarga bo‘lingan bo‘lib, bu ularni turli idora va tashkilotlarga qarashligidan dalolat beradi. Bizda kutubxonalarining bir qancha tarmoqlari mavjud bo‘lib, ularni boshqarish ishlari ham shu tarmoqlarning yuqori boshqaruv organlari orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi kutubxonalarini Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, OUMTVning o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi markazi, maktab va maktabgacha ta‘lim vazirligi ixtiyoriga o‘tkazish yo‘li bilan oliy va o‘rta mahsus ta‘lim muassasalari va umumta‘lim maktablari huzurida axborot-resurs markazlari tuzildi. Viloyatlar ilmiy-universal kutubxonalarini negizida idoraviy jihatdan O‘zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligiga buysunuvchi axborot-kutubxona markazlari tashkil qilindi.

Bundan tashqari deyarlik har bir sohaning o‘z kutubxonaa tarmoqlari mavjud: Sog‘likni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Mudofa vazirligi va hokazo.

Bu idora va tashkilotlarning kutubxonalar tarmog‘ining rivojlanganligi turli darajada bo‘lib, kutubxonalarining vazifasi shu idora va tashkilotlarni asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda qaraladi.

Shunga ko‘ra barcha kutubxona tarmoqlari bir tomondan jamiyat a‘zolarini umum madaniy va kasb-hunariga oid axborotga bo‘lgan talablarini, bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishni qondirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan ushbu kutubxona qaysi idora va tashkiltga qarashli bo‘lsa shu tashkilotning oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalarini bajarishga xizmat qiladi.

Ko‘rinib turibiki, har qanday kutubxonaning faoliyati jamiyat a‘zolarini u yoki bu turdagi axborotga bo‘lgan talablarini qondirishga qaratilgan, lekin ular o‘z vazifalarini o‘zlari buysunadigan idora va tashkilotlarning vazifalaridan kelib chiqqan holda tashkil etadilar. Shu bilan birga kutubxonalarni faol faoliyat ko‘rsatishi shu xududda istiqomat qiluvchi fuqarolarning kutubxona xizmatiga va axborotga bo‘lgan talab va qiziqishlariga ham ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Kutubxona-axborot faoliyatida kutubxonalar-fondini komplektlash tizimi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda har bir kutubxona va axborot muassasasi o‘z oldiga qo‘ygan vazifasidan kelib chiqqan holda kutubxona fondini yoki axborot resurslarini yaratadi. Kutubxonafondini komplektlash kichik tizimining faoliyati ko‘p jihatdan mamlakatda kitob nashr etish ishlari, axborotning boshqa turlarini yaratilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga kutubxona xodimlarini ushbu kutubxonaning asosiy vazifasini qanday tushunishiga, kitobxonlarni qiziqishlarni o‘rganish darajasiga ham bevosita bog‘liqdir. Shuningdek kutubxona fondini komplektlash ishlarida, umuman kutubxona va axborot muassasasining faoliyat ko‘rsatishiga kutubxonaning iqtisodiy-moliyaviy ahvoli ham jiddiy rol o‘ynashini ta‘kidlab o‘tish lozim deb o‘ylaymiz.

Kezi kelganda shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerak, barcha turdagi kutubxonalarni moliyaviy ta‘minlanish jihatidan mustaqil va nomustaqil kutubxonalarga bo‘lish mumkin. Mustaqil kutubxonalar o‘z mablag‘lariga ega bo‘lgan, o‘zlarini hisob raqamlari orqali moliyaviy-xo‘jalik ishlarini o‘zlari yuritadigan kutubxonalarga aytiladi. Milliy kutubxonalar, alohida tarmoq kutubxonalari, respublika ilmiy-universal kutubxonalari kiradi. Qolgan kutubxonalar nomustaqil kutubxonalar hisoblanib, o‘zlari bo‘ysinadigan idora va tashkilotlarni moliyaviy ahvoliga bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan olib qaralganda kutubxona fondlarini komplektlash har xil bo‘lishi tabiiydir.

Kutubxona-axborot xizmati kichik tizimi xam kutubxona-axborot faoliyati tizimidagi tizimchalardan biridir. Hozirda kutubxonalar va axborot muassasalarida iste‘molchilarga xizmat ko‘rsatish birlamchi hujjatlar kitob, jurnal, gazeta va boshqa axborot manbalari, bibliografik materiallar bilan yakka tartibda va guruhga xizmat ko‘rsatish, kutubxonani o‘zida va undan tashqarida amalga oshirilmoqda. Bevosita xizmat ko‘rsatish kutubxonaning o‘zida aboniment va o‘quv zallari orqali amalga oshrilsa, nostatsionar xizmat ko‘rsatishda, ko‘chma kutubxonalar, kitob berish shakllari orqali amalga oshirilmoqda.

Kadrlar tayrlash va qayta tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi o‘z ichiga oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlarida kutubxonachilik sohasi uchun kadrlar tayyorlash, ularni malakasini oshirish, yirik kutubxonalarda tashkil etiladigan seminarlar, stajirovkalar, davra suhbatlarini oladi.

Ushbu tizim faoliyati kutubxonachilik ishi tizimini yana bir kichik tizimi, ilmiy- tadqiqot tizim bilan bog‘liqdir. Tizim o‘ziga oliy o‘quv yurtidagi kafedralarni, yirik kutubxonalarni ilmiy-tadqiqot bo‘limlarini qamrab oladi.

**Ilmiy-uslubiy ta‘minlash kichik tizimiga, respublika tarmoq ilmiy kutubxonalari, axborot-kutubxona markazlari uslubiy xizmati, yirik soha kutubxonalari uslubiy xizmat ko‘rsatish bo‘limlari kiradi.**

**Kutubxona-axborot faoliyati global maqsadga: insonni ahborotni erkin olishini ta‘minlash, odamlarni vatan va jahon madaniyati durdonalari bilan tanishtirish, aholini doimiy ravishda o‘sib boradigan axborotga va ma‘naviyatga bo‘lgan talablarini qondirishdan iboratdir. Murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lgan kutubxona-axborot faoliyati tizimining kichik tizimlari o‘z navbatida o‘zlarining tizim bajaradigan alohida vazifalariga egadir. Chunonchi, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash kichik tizimi-sohaga uchun yuqori malakali mutaxassislar yetishtirishni amalga oshiradi. Fondni komplektlash va tashkil qilish kichik tizimi esa kutubxona uchun zarur bo‘lgan nashr maxsulotlari va axborot materiallari bilan ta‘minlash ishlarini amalga oshiradi. Muhimi, yuqoridagi kichik tizimlarni rivojlanishi zarur. Shunda kutubxona-axborot faoliyati o‘z oldidagi vazifalar to‘liq bajariladi.**

**Kutubxona-axborot faoliyati tizimini rivojlanishining qonuniyatlari va o‘ziga xos tomonlari mavjud. Avvalo qonuniyat tushunchasiga to‘xtalib o‘tamiz.**



**Qonuniyat- bu tabiatda va jamiyatdagi xodisalar o'rtasidagi mavjud obektiv aloqalarni qaytarib turilishidir. Kutubxona-axborot faoliyatida esa, tarkibiy qismlar o'rtasidagi, hamda kutubxona-axborot faoliyati tizimi va jamiyat o'rtasidagi aloqalardir.** Keyingi yillarda bu sohadagi ilmiy fikrlarini jamlagan holda ularga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Kutubxona-axborot faoliyatining rivojlanishidagi asosiy qonuniyatlardan biri bu – kutubxona va axborot muassasalarining o'zaro hamkorlik qilishi qonuniyatidir. Bu qonuniyatga ko'ra kutubxonalar va axborot muassasalari o'zlaridagi axborot resurslaridan iste'molchilarni foydalanishini amalga oshirish uchun turli xil yo'llar bilan birgalikda harakat qilishlari lozimdir. Haqiqatdan ham tarixga nazar tashlasak, uzoq yillar mobaynida aholini axborotga va ma'naviyatga bo'lgan talabini qondirish uchun kutubxonalar va axborot muassasalari bir birlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatib kelgalar va kelmoqdalar.

Ikkinchi qonuniyat - bu Kutubxona-axborot faoliyati tizimida to'plangan axborotlardan foydalanishni ijtimoiy samaradorligini oshirishdir. Bu qonuniyatga ko'ra kutubxona-axborot faoliyati tizimi va uning alohida qismlari, shu jumladan kutubxonalar, o'z fondlarida to'plagan axborotlarni butun jamiyat va alohida iste'molchining qiziqishlarini maksimal darajada, doimiy ravishda qondirishga harakat qilishidir.

Kutubxonachilik ishining uchinchi qonuniyati bu – kutubxona-axborot faoliyatining dinamikligi ya'ni o'zgaruvchanligidir. Kutubxona-axborot faoliyati qotib qolgan tizim emas u doimo o'zgarib, rivojlanib boradigan tizimdir. Bu holat bugungi kun amaliyotida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Misol tariqasida yigirmanchi asrdagi kutubxona-axborot faoliyatining rivojlanish jarayonini ko'rish kifoyadir. Kutubxona-axborot faoliyatini axborotlashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Yangi axborot texnologiyalari, elektron ma'lumot bazalarini tashkil etish va ulardan foydalanish ishlari, kutubxonalarni o'zaro hamkorligini tarmoq texnologiyalari orqali amalga oshirish ishlari, jahon kutubxonachilik jarayoniga va jahon axborot ayrboshlash jarayoniga kirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bularni barchasi kutubxonachilik ishini dinamik rivojlanayotganligini, zamonaviy talablarga javob beruvchi taraqqiyot yo'lidan ketayotganligini bildiradi.

To'rtinchi qonuniyat- bu - kutubxona-axborot faoliyatini demokratlashtirish. Bu qonuniyatga ko'ra kutubxona-axborot faoliyati nafaqat uzluksiz ta'lim va mustaqil ta'limni amalga oshiruvchi, shaxsni dunyoqarashini va tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy vositagina emas, balki barcha fuqarolarni ularni ijtimoiy holatidan, millatidan irqidan, siyosiy qarashidan qat'iy nazar axborot bilan ta'minlovchi demokratik manbaligi qayd etiladi. O'zbekiston respublikasining Konstitusiyasida fuqarolarning axborot manbalaridan foydalanish huquqlari mavjudligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Kutubxonachilik ishining demokratlashtirish qonuniyati kutubxona va axborot muassasalari tarmoqlari tizimini tashkil etish, asosiy kutubxona – axborot xizmati ko'rsatish ishlarini bepul amalga oshirishni ta'minlaydi. Kutubxona-axborot faoliyatini demokratlashtirish qonuniyati bu sohani boshqarishning ba'zi jihatlarida o'z aksini topmoqda, chunonchi kutubxonachilik jihatlar va assotsiatsiyalar faoliyatini faollashganligida, kutubxona rahbarlarini o'z kitobxonlari oldida muntazam ravishda xisobotlar berishda, kutubxonadan foydalanuvchilarga yanada samarali xizmat ko'rsatishni tashkil etish ularni talab va qiziqishlarini muntazam ravishda o'rganib borishda va hokazolarda namoyon bo'lmoqda.

Kutubxona-axborot faoliyatidagi beshinchi qonuniyat - bu milliy davlatchilik va baynalmilalchilikni dialektik birlik qonuniyatidir. Bu qonunga ko'ra har bir mamlakatdagi kutubxona-axborot faoliyatida shu mamlakatning o'ziga hos xususiyatlari aks etadi. Shu bilan birga unda umuminsoniy qadriyatlar va jahonda erishilgan ilm-fan, madaniyat, san'at yutuqlari kutubxona axborot faoliyati orqali o'zida aks etgani uchun ham baynalmilaldir.

Oltinchi qonuniyat - bu Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishda yakka tartibda yondoshishni avzalligi qonuniyatidir. Bu qonuniyatga ko'ra kutubxonalar va axborot muassasalarining asosiy vazifasi odamlarni ma'naviyatiga va axborotga bo'lgan talablarini ularga yakka tartibda yondoshgan holda qondirishdan iborat bo'lishi kerak. Bu qonuniyat kutubxona-axborot faoliyat tarixining barcha davrlarida asosiy prinspl bo'lib kelgan.



Yettinchi qonuniyat- kutubxona-axborot faoliyati jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan bog'liqligi va jamiyatning rivojlanishining umumiy qonuniyatlariga bo'ysunishidir. Kutubxona-axborot faoliyatini rivojlanish tarixida biz, jamiyat hayotining iqtisodiy sharoitlari o'zgarishlarida, siyosiy qaytako'rishlarda kutubxona-axborot faoliyati ham o'zgarib borishini ko'ramiz. Buni yorqin misoli keyingi yillardagi o'zgarishlardir. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tish, siyosiy mafkuraviy, ma'naviy va madaniy o'zgarishlar yuz berayotgan davrda, kutubxona-axborot faoliyati ham o'zgarib bormoqda. Kutubxona-axborot muassasalariga xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi, o'z kitob fondida yuridik va jismoniy shaxslarni foydalanishini shartnoma asosida tashkil etish, pullik xizmat turlarini joriy etish, chet ellardagi muassasa va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi qilish va boshqa ishlar uchun keng yo'l ochib berildi. Shu bilan birga mamlakatimizdagi demokratik islohotlar ham kutubxona-axborot faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, kutubxonalariga o'z ishi mazmunlarini o'zlari belgilashi, kutubxona tarmog'ini markazlashtirishdan nomarkazlashtirish tarafdagi qarab borayotganlik, turli cheklashlarni bekor qilinishi shundan dalolatdir.

Yana bir muxim qonuniyatlardan biri- kutubxona-axborot faoliyatining proporsional rivojlanishi qonuniyatidir. Bu qonuniyat kutubxona-axborot faoliyatining barcha kichik tizimlarini proporsional ravishda rivojlanishi zarurligini qayd etadi. Busiz soxa to'liq va samarali faoliyat ko'rsata olmaydi masalan, biron bir kichik tizimni orqada qolishi masalan, fondni komplektlash yoki kadrlar tayyorlash tizimining orqada qolishi tezda butun tizim faoliyatida namoyon bo'ladi, uning samarali faoliyat ko'rsatishini pasaytiradi, kitob va axborot bilan xizmat ko'rsatishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Kutubxona-axborot faoliyatining yuqorida qayd etib o'tilgan qonuniyatlari bilan birga o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir. Kutubxona-axborot faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning faoliyati asosida odamlarning qiziqishlari yotishidir. Jamiyat, jamoat va shaxsiy qiziqishlar kutubxona-axborot faoliyati xolatiga va uni tizim sifatida rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatadi.

Kutubxona-axborot faoliyatining xarakterli tomonlaridan yana biri kutubxona xodimlarining turli xildagi qiziqish va talablarga ega bo'lgan axolining qatlamlari bilan, mehnat jamoalari, aniq va potensial kitobxonlar bilan bevosita aloqada bo'lishidir. Shuning uchun ham klar iste'molchilarning kitob va axborotga bo'lgan talablari motivlarini o'rganish va ularni maksimal darajada qondirishga harakat qiladilar.

Kutubxona-axborot faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatilgan yana bir o'ziga xosligi bu har bir mamlakatni madaniyatini rivojlanganligi, aholini ma'naviy so'rovlarini darajasidir. Aholini madaniyati qanchalik yuqori, ma'naviyati yuksak bo'lsa kutubxonachilik ishi ham intensiv ravishda rivojlanadi. Shu bilan birga kutubxona-axborot faoliyatining rivojlanishi shu mamlakat fuqarolarini madaniy-ma'naviy va intellektual rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kutubxona axboro faoliyatining rivojlanishida jamoatchilikni faol ishtirok etishi uning rivojlanishining zarur shartlaridan biridir. Chunki, kutubxona kutubxona-axborot faoliyatida amalga oshirilayotgan barcha ishlarning oxirgi natijasi, jamiyat a'zolarininn kitob va axborotga bo'lgan talablarini qondirishdan iboratdir. Jamiyat a'zolarini faolligi esa kutubxona-axborot faoliyati zamon talablariga mos holda tashkil etishga undaydi.

### **Mavzu bo'yicha asosiy tushuncha va atamalar**

**Qonuniyat-** Bu tabiatda va jamiyatdagi xodisalar o'rtasidagi mavjud obektiv aloqalarni qaytarib turilishidir. Kutubxona-axborot faoliyatida esa, tarkibiy qismlar o'rtasidagi, hamda kutubxonachilik ishi va jamiyat o'rtasidagi aloqalardir.

**Kutubxona va axborot muassasalarining o'zaro hamkorligi qonuniyati -** Bu turli kutubxonalarini va axborot muassasalarini iste'molchilarga xizmat ko'rsatish uchun turli xil usullar bilan o'z resurslarini tabiiy birlashtira olish xususiyati.

**Kutubxona-axborot faoliyati tizimida yig'ilgan axborotlardan ijtimoiy foydalanish samaradorligini maksimum darajaga yetkazish qonuniyati –** Bu kutubxona-axborot faoliyati

tizimi va uni tarkibiy bo'linmalari, shu jumladan kutubxonalar ham doimiy ravishda o'z fondlarida yig'ilgan axborotlardan jamiyat va alohida iste'molchi qiziqishlariga ko'ra foydalanish natijalarini samaradorligini oshirishga qaratishdir .

Kutubxona-axborot faoliyatining dinamikligi (rivojlanib boruvchanlik) qonuniyati. Bu kutubxona-axborot faoliyati tizimini qotib qolgan tizim emas, balki dinamik, rivojlanib boruvchi tizim ekanligini bildiradi.

Kutubxona-axborot faoliyatini demokratlashtirish qonuniyati– Bu qonuniyatga ko'ra kutubxona-axborot faoliyati faqat shaxsni uzluksiz ta'lim olishga va o'z-o'zini rivojlantirish, o'z imkoniyatlarini ochishvositasigina emas, balki barcha fuqarolarni, ularni irqidan, dinidan, siyosiy qarashidan, ijtimoiy holatidan, jinsidan qat'iy nazar axborot bilan ta'minlovchi demokratik vositadir.

Kutubxona-axborot faoliyatida milliy davlatchilik va baynalmilallikning dialektik birligi qonuniyati – Bu har bir mamlakatning kutubxona-axborot faoliyati o'ziga xos xususiyatlariga ega. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar va jahon fani, madaniyati, san'ati, kutubxonachilik ishida yutuqlarni o'zida aks ettirgani uchun baynalminatligini bildiradi.

Kutubxona-axborot xizmatida individual yondoshishning avzalligi qonuniyati– Bu qonuniyatga ko'ra, kutubxona va axborot muassasalarining asosiy ishi odamlarni ma'naviyati va axborotga bo'lgan talablarini shaxsga individual yondoshgan holda qondirishdir. Bu qonuniyat butun kutubxona-axborot faoliyati tarixi davomida asosiy prinspl bo'lib kelgan.

#### **Nazorat savollari:**

1. Rivojlanish qonuniyati nima?
2. Kutubxona-axborot faoliyati qonuniyatlari qanday elementlar o'rtasidagi aloqalarda namoyon bo'ladi.?
3. Kutubxona-axborot faoliyatining dinamikligi (rivojlanib boruvchanlik) qonunini ta'riflang?
4. Kutubxona-axborot faoliyatini demokratlashtirish qonunining asosiy mazmunini ko'rsatib bering?
5. Kutubxona-axborot faoliyati tizimi ijtimoiy-madaniy tizim sifatida qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega

## **10-MAVZU: KUTUBXONA –AXBOROT MUASSASALARINING TASHKILY TUZILMASI**

### **Reja:**

- 1. Kutubxona-axborot muassasalarining tashkiliy tuzilishi, bo'lim turlari.**
- 2. Turli kutubxonalarni tuzilishi.**
- 3. Axborot-kutubxona markazlari va ularni tuzilmasi.**
- 4. Axborot-resurs markazlari va ularni tuzilmasi.**

#### **1. Kutubxona-axborot faoliyati muassasalarining tashkiliy tuzilishi, bo'lim turlari.**

Axborot-kutubxona muassasalarining tashkiliy tuzilishi deyilganda undagi bo'linmalar yig'indisi, ularning birgalikdagi tobeligi va o'zaro munosabatlari, ular o'rtasidagi vazifalarni taqsimlanishi tushuniladi. Tashkiliy tuzilish kutubxona va axborot muassasasining turi va uning vazifalari, kitob fondining xajmi, xarakteri va boshqa omillarga bog'liq. Kutubxona bo'limlarini turli maqsadda- kitobxonlarning turli guruxlariga xizmat ko'rsatish maqsadida, bosma va boshqa turdagi materiallarni har xil turlari bilan ishlash yoki adabiyotlarning ayrim soxasini targ'ib qilish va boshqa maqsadlarda tashkil qilish mumkin.

Yirik kutubxonalarda kutubxona bo'limlari to'rt turga bo'linadi:

1. Kitobga ishlov berish yoki kitobxonlarga xizmat ko'rsatish jarayonida ayrim vazifalarni bajaradigan funksional (vazifali) bo'limlar.
2. Bosma va boshqa turdagi materiallarning maxsus turlarini to'ldirish va ularga ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan barcha vazifalarni bajaruvchi kompleks bo'limlar.

3. Kitobxonlarga fan soxalar yoki san'atning ma'lum soxasi bo'yicha adabiyotlar bilan xizmat ko'rsatuvchi soxaviy bo'limlar.

4. Kutubxonaning o'z shoxobchalariga xizmat ko'rsatuvchi tarmoq bo'limlar.

Shuningdek yirik kutubxonalarda ma'muriy- xo'jalik va yordamchi bo'limlar ham mavjud bo'ladi.

Funksional bo'limlarga – komplektlash, ishlov berish, kitob saqlash, bibliografiya, xizmat ko'rsatish, o'quv zali, abonement, ommaviy ishlar, kutubxonalararo abonement bo'limlari kiradi.

Kompleks bo'limlarga- noyob kitoblar, qo'lyozmalar, chet el adabiyotlari, musiqa-nota bo'limlari kiradi.

Soxaviy bo'limlarga – texnika va patent adabiyotlari, qishloq xo'jaligi, san'at bo'limlari kiradi.

Tarmoq bo'limlariga – ilmiy- uslubiy, ilmiy- tadqiqot, marketing , nashriyot, kitob almashuv fondi, madaniyat va san'at bo'yicha axborot bo'limlari kiradi.

Ma'muriy –xo'jalik bo'limlariga – kotibiyat, xisobxona, devonxona, kadrlar bo'limi kiradi.

Yordamchi bo'limlarga –bosmaxona, muqovalash ustaxonasi, durodgorlik ustaxonasi, fotolaboratoriya, kompyuter xonasi kiradi.

Amaliyotda turli xil kutubxona tuzilishlari uchraydi. Ularning asosiylari: guruxli, lingvistik ( til bo'yicha), shakliy, soxali, funksional ( vazifali) va kombinatsiyalangan (qurama).

## **2. Turli tipdagi kutubxonalarning tuzilishi. Universal ilmiy kutubxonalar.**

O'zbekistonda bu tur kutubxonalari uchun hozircha yagona namunaviy ustav yaratilmagan. Har bir kutubxonaning o'zini vaqtinchalik ustavi mavjud bo'lib, ular o'z imkoniyatlari, shart – sharoitlaridan kelib chiqqan xolda tashkil etilgan. Shuning uchun ham universal ilmiy kutubxonalardagi bo'limlar turlicha bo'lishi mumkin. Lekin faoliyat yurtishi bo'yicha bir- biriga o'xshash ishlar bajarilishi munosabati bilan ko'pincha ulardagi bo'limlar bir xil bo'ladi. Muxim bo'limlar faoliyati bilan tanishamiz:

**Komplektlash bo'limi-** turli manbalardan: kutubxona kollektori, kitob dukoni, obuna nashrlari va boshqalardan kelgan bosma nashrlar va boshqa materiallarning asosiy nusxalari bilan shug'ullanadi, yangi kelgan kitob va boshqa materiallarni xisobini olib boradi. Bo'limda kitob almashish sektori, xorijiy adabiyotlar bilan shug'ullanuvchi aloxida sektor yoki mustaqil xorijiy adabiyotlar bilan komplektlovchi bo'lim bo'lishi mumkin.

**Ishlov berish va kataloglar bo'limi** fondlarni o'zlashtirish va ularni kataloglarda yoritishni ta'minlaydi. Yangi keltirilgan adabiyotlarning hajmiga qarab kataloglashtirish, klassifikatsiyalash va kataloglar tizimi, texnik ishlov berish va ba'zan esa guruxli ishlov berish sektorlari ajratiladi. Kichikroq kutubxonalarda esa fondlarni komplektlash va ularga ishlov berish vazifasi bitta bo'lim tomonidan bajariladi.

**Kitob saqlash bo'limi** bosma nashrlar va boshqa materiallarning asosiy fondini saqlash uchun, hamda o'quv zallarida foydalanish, kutubxonalararo abonement bo'yicha berishni amalga oshiradi. Ba'zan bo'lim qoshida adabiyotlarni restavratsiya (ta'mirlash), noyob kitoblar va qo'lyozmalar sektori tashkil qilinadi.

**Xizmat ko'rsatish bo'limi** o'quv zali, abonement, kutubxonalararo abonement ishlarini tashkil qiladi. Bo'lim qoshida ommaviy ishlar sektori ishlab turadi. Ba'zi kutubxonalarida bunday yig'ma bo'lim yo'q. O'quv zali, abonement, kutubxonalararo abonement uchta mustaqil bo'lim sifatida faoliyat ko'rsatadi.

**Xorijiy adabiyotlar** bo'limi xorijiy tillardagi adabiyotlarni to'plash va ulardan foydalanishni targ'ib qilish maqsadida tashkil etiladi. Yirik universal ilmiy kutubxonalarda bu kompleks bo'lim xisoblanib, o'z fondini to'ldirish (komplektlash bo'limining yordamida va nazorati ostida), ishlov berish, saqlash va kitobxonlarga foydalanish uchun abonement va o'quv zallariga berish ishlari bilan shug'ullanadi.

**Milliy adabiyotlar bo'limi** respublika kutubxonalarida tashkil qilinadi.

**Bibliografiya bo‘limi** bibliografik ishlarning barcha turlari: axborot va ma’lumot, o‘lkashunoslik, tavsiya bibliografiyasi bilan shug‘ullanadi, retrospektiv bibliografik qo‘llanmalar tuzadi.

Respublika kutubxonalarida, patent va texnika adabiyotlari bo‘limi, qishloq xo‘jaligi xodimlariga yoki boshqa soxa mutaxassislariga xizmat ko‘rsatuvchi **soxali bo‘limlar**, san‘atning barcha turlari, jumladan musiqa-nota adabiyotlarini targ‘ib qilish bilan shug‘ullanuvchi **san‘at bo‘limi** ham bo‘lishi mumkin.

**Ilmiy-uslubiy bo‘lim** respublika va viloyatda uslubiy ishlarni tashkil etadi.

**Ilmiy-tadqiqot bo‘limi** asosan respublika kutubxonalarida bo‘lishi kerak. Uning vazifasi kutubxonashunoslik va bibliografiyashunoslik fanining dolzarb masalalarini ishlab chiqish, ushbu mavzu bo‘yicha respublika miqyosidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini muvoffiqlashtirish va natijalarni amaliyotga joriy etishdan iboratdir. Hozirda bu bo‘limlar marketing tadqiqotlari bo‘limi deb ham nomlanmoqda.

**Madaniyat va san‘at bo‘yicha axborot bo‘limi**, rahbar xodimlar, ilmiy xodimlar va mutaxassislarni madaniyat muassasalaridagi ilg‘or tajribalar, yangiliklar, yutuqlar to‘g‘risidagi axborot bilan muntazam ta‘minlab turadi.

Depozitarlar (kam foydalaniladigan adabiyotlar fondi) vazifasini bajaruvchi kutubxonalarda – **depozitar bo‘limi**, shuningdek **almashuv – rezerv** fondlari sektori va boshqalar tashkil etilishi mumkin.

**Oliy ta‘lim muassasalari kutubxonalarining tuzilishi.** O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim muassasalari kutubxonalarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta‘minlashni tashkil etish to‘g‘risida” 2006 yil 20 iyundagi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2006 yil 29 dekabr 299- sonli buyrug‘iga binoan “Axborot- resurs markazlariga” (keyingi o‘rinlarda ARM deb ataladi) aylantirildi. Buyruqqa ilova tarzida “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarining axborot- resurs markazlari to‘g‘risida namunaviy Nizom”, “Axborot-resurs markazidan foydalanish Qoidalari”, “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalari axborot-resurs markazlari fondlarini shakllantirish haqida Nizom”, “Nashrlar va boshqa hujjatlarni ARM fondi xisobidan chiqarish tartibi”, Axborot-resurs markazlarini guruxlarga ajratish mezonlari va tartibi, guruxlarni namunaviy shtatlar jadvali va mehnatga xaq to‘lash Yagona tarif setkasi bo‘yicha lavozim razryadlari belgilab berildi ( 1-Ilovada ular tulik keltirilgan).

#### **Oliy ta‘lim muassasalari qoshidagi ARMLarda quyidagi bo‘limlar mavjud:**

Ilmiy- metodik bo‘lim;

Qabul qilish, komplektlash va kataloglashtirish bo‘limi;

Adabiyotlar va elektron axborot resurslar bo‘limi ( o‘quv zali va mediateka bilan birga);

Marketing va axborot xizmati ko‘rsatish bo‘limi;

Fondni saqlash bo‘limi;

Axborot texnologiyalari bo‘limi.

Mehnatga xaq to‘lash kategoriyasi bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari ARMLari 1-chi va 2-chi kategoriyalarga bo‘linadilar.

O‘rta maxsus kasb-xunar ta‘limi muassasalari qoshidagi ARMLarda quyidagi bo‘limlar mavjud:

Elektron axborot resurs texnologiyalari bo‘limi;

Bosma adabiyotlar va elektron resurlari bo‘limi;

Axborot resurslarini qabul qilish va fondlarni shakllantirish bo‘limi;

Axborot-resurs markazi filiali.

O‘zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligiga bo‘ysunuvchi axborot- kutubxona markazlarida quyidagi bo‘limlar mavjud:

Ilmiy- uslubiy bo‘lim

Axborot va kutubxonachilik xujjatlarini komplektlash bo‘limi

Axborot va kutubxonachilik xujjatlarini kataloglashtirish va qayta ishlash bo‘limi;  
Axborot- bibliografik bo‘lim;  
bo‘lim qoshida:  
o‘lkashunoslik axboroti shu‘basi;  
xuquqiy axborot shu‘basi.  
Iste‘molchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi;  
bo‘lim qoshida:  
Umumiy o‘quv zali shu‘basi;  
Kompyuter zali (elektron o‘quv zali, internet markazi)  
Yoshlar bilan ma‘naviy va ma‘rifiy ishlar shu‘basi;  
Abonement va kutubxonalararo abonement shu‘basi.  
Axborot texnologiyalari bo‘limi;  
Axborot va kutubxonachilik xujjatlarini saqlash bo‘limi.  
Mustaqil Hamdo‘stlik Davlatlarida va ko‘pchilik chet el Universitet kutubxonalarining tashkiliy tuzilishi quyidagicha:

- **Fundamental**, ya‘niy asosiy (ilmiy) kutubxona. Ilmiy ishlarga oid barcha adabiyotlar bu kutubxonada jamlanadi, professor-o‘qituvchilar, aspirantlar va yuqori kurs talabalari uchun o‘quv zali va abonement, bibliografik axborot tashkil qilinadi, bibliografik qo‘llanmalar tuziladi;

- **Fakultet kutubxonasi** – talabalar va o‘qituvchilarning o‘quv ishlari uchun zarur bo‘lgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari, muxim joriy materiallar hamda ma‘lumot nashrlari, soxalari bir-biriga yaqin bo‘lgan bir va bir necha fakultetlarga xizmat ko‘rsatuvchi kutubxona. Ba‘zan bu kutubxona fakultet soxasi bo‘yicha to‘laroq materiallar bilan to‘ldiriladi va fundamental kutubxonaning soxali filiali bo‘lib qoladi;

- **Kafedra yoki kabinet kutubxonasi**. Kafedra ixtisosligiga oid muxim nashrlarni to‘playdi. Unda odatda abonement bo‘limi bo‘lmaydi. Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish kafedra loabaranti tomonidan amalga oshiriladi.

- **O‘quv kutubxonasi** ( o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv fondi kutubxonasi) talabalar soniga mos bo‘lgan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini ko‘p nusxada to‘playdi. O‘quv kutubxonasini ajratilishi talabalar o‘rtasida o‘quv materiallarini rejali va tejab taqsimlash imkonini beradi

### **3-Modul. Kitobxonlar bilan ishlash metodikasi va adabiyotlar targ‘iboti masalasi**

#### **11-Mavzu: KUTUBXONACHI KADRLARNI TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH MASALALARI**

##### **Reja:**

- 1. Kutubxonachilik sohasi bo‘yicha oliy va o‘rta maxsus ma‘lumotli kadrlarga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar.**
- 2. Oliy va o‘rta maxsus ma‘lumotli kutubxonachi kadrlarni tayyorlashning ahvoli va muammolari.**
- 3. Respublikamizda axborot-kutubxona muassasalari xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlashning xozirgi ahvoli va muammolari.**
- 4. Malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarida yangi pedagogik texnologiyalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari**

Kutubxonachilik ishining rivojlanishi kutubxonachi kadrlar tayyorgarlik darajasi va sifatiga bog‘liqdir. O‘zbekistondagi oliy ta‘lim tizimi, jumladan kutubxonachilar tayyorlash tizimi ham

eskirib qolgan usullar va uslublar asosida rivojlana olmaydi. Yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiiq qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, kadrlar tayyorlash sohasida yangi yondoshuvning paydo bo'lishiga va ta'lim tizimining samarali bo'lishiga katta imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatimizdagi va chet ellik ko'plab mutaxassislarning fikricha, bugungi kunda oliy ta'lim mussasalarini tugallayotgan bitiruvchilar hozirgi kunda foydalanayotgan va besh yil keyin kutubxona-axborot tizimlarida foydalanishga mo'ljallanayotgan barcha turdagi dasturiy-texnik vositalardan foydalana olishi lozim.

Oliy kasbiy ta'lim, mutaxassislar tayyorlashning asosiy bo'g'inlaridan biridir va u har bir davlatning an'analari va o'ziga xos xususiyatlari asosida shakllanadi. O'zbekistonning jahon axborotlar fazosiga faol kirib borishi Respublika hayotining barcha sohalarida o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi, jumladan axborot texnologiyalarini tadbiiq qilishga katta e'tibor berila boshlandi. Kutubxonalarning ta'lim tizimidagi o'rni va mavqei hamda bajaradigan vazifalari, elektron kutubxonalar, kutubxonalarni avtomatlashtirish to'g'risidagi bir qator maqolalar respublikaning vaqtili matbuotida va ilmiy jurnallarda e'lon qilindi. Bu holat respublika jamaotchiligining kutubxonachilik ishiga befarq emasligini ko'rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida kutubxonachi kadrlar tayyorlashda bir qator yutuqlarga erishildi.

-Kutubxona-axborot faoliyati ta'lim yo'nalishi bo'yicha "Davlat ta'lim standarti" ishlab chiqildi va o'quv jarayoniga tadbiiq qilindi.

-Yangi o'quv rejasiga mos ravishda, o'quv amaliyotiga kiritilgan yangi fanlarning o'quv dasturlari ishlab chiqildi.

Axborot tizimlari va tarmoqlari, xalqaro MARC formatlar, avtomatlashtirilgan kutubxona – axborot tizimlari kabi bir qator yangi fanlar o'quv amaliyotiga joriy qilindi. Yangi o'quv dasturlarida yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalariga keng o'rin ajratildi. Yangi o'quv dasturlari asosida barcha professor – o'qituvchilar o'z ma'ruza matnlarini yangiladilar;

- Talabalar bilimni baholashning yangi takomillashtirilgan usuli joriy qilindi;
- Kutubxonachilik ishi bo'yicha bir qator o'quv qo'llanmalari va uslubiy ko'rsatmalar chop qilindi.
- Kutubxonachi kadrlar tayyorlashda o'ta zarur bo'lgan bir qator davriy nashrlarga obuna bo'lindi va kerakli kitoblar qo'shni davlatlardan sotib olindi;
- Kutubxonachilar tayyorlashga mo'ljallangan respublikamizdagi yagona fakultetning moddiy texnik ba'zasini mustaxkamlashga e'tibor berildi, jumladan, fakultetda amaliy – laboratoriya mashg'ulotlarini olib boorish uchun kompyuterlashtirilgan sinf tashkil qilindi. Mazkur kompyuterlashtirilgan sinf lokal tarmoqqa birlashtirilgan bo'lib u internet tarmog'iga ulanish imkoniyatiga ega;
- Fakultet talabalari uchun internet resurslaridan bepul foydalanish imkoniyatlari yaratildi;
- Rivojlangan mamlakatlardagi kutubxonachilik sohasida pedagogik faoliyat olib boruvchi professorlarning O'zbekistonga tajriba almashish va ma'ruzalar o'qish maqsadida taklif qilinishi ham kutubxonachilik ta'limotidagi ijobiy ishlardan biri bo'ldi. Germaniyaning Leypsik shahridagi "kutubxonachilik va informatsiya" institutining professori Detmar Kummerning "kutubxona axborat faoliyatini boshqaruv" fakultetida o'qigan ma'ruzalari faqat talabalar uchungina emas balki O'zbekistonlik professor – o'qituvchilar uchun ham foydali bo'ldi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy Kutubxonasi tashabbusi bilan har yili o'tkazilayotgan "Betgerxonlik " davra – suhbatining 2005 yildagi "kutubxonachi kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish" mavzusiga bag'ishlandi. Odatdagidek davra suhbatiga kutubxonachilik sohasida tadqiqot olib boruvchi olimlar, yirik kutubxonalarning rahbarlari, mutaxassislar va Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutining professor – o'qituvchilari, magistrleri va aspirantlari taklif qilindi.

Davra suhbatini Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Kutubxonasining direktori, sotsiologiya fanlar doktori A.A.Umarov o‘zining kirish so‘zi bilan ochib berdi. Davra suhbatida kutubxonachi amaliyotchilar tomonidan so‘zga chiqqan, milliy kutubxona direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari I.Z.Maminova, Respublika Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasi direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha muovini D.Qudratova, yoshlar axborot resurslar markazi rahbari L.B.Gorbunovalar zamonaviy kutubxonachiga qanday talablar qo‘yilmoqda, kutubxonachilik amaliyotiga bugungi kunda juda zarur bo‘lgan kutubxonachi bibliograflar qanday bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishligi to‘g‘risidagi o‘z fikrlarini bayon qildilar. Davra suhbatida A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instuti “kutubxona – axborot faoliyatini boshqaruv” fakultetining kafedra mudirlari t.f.d professor M.Z.Yoqubova, p.f.n, professor E.Y. Yuldoshev p.f.n, dotsent M.H.Mahmudovlar va fakultetning yetakchi dotsentlari A.SH.Muhammadiyev, I.V.Dolgoplova, A.P.Kovalenka hamda fakultet dekan o‘rinbosarlari Q.Qodirov va M.Matmurodovlarning kutubxonachi kadrlar tayyorlash jarayoni to‘g‘risidagi fikrlari tinglandi va muhokama qilindi.

Davra suhbatini tashkil qilish jarayonida Milliy kutubxonaning “ilmiy va marketing tadqiqotlari” bo‘limi tomonidan “kutubxonachi kadrlar tayyorlashning ahvoli va kutubxonachi kadrlarga qo‘yiladigan talablar” mavzusida so‘rov o‘tkazildi. Davra suhbatida mazkur bo‘lim mudiri dotsent U.Karimovning so‘rov natijasida olingan natijalar to‘g‘risidagi axboroti tinglandi. Toshkent shaxridagi 10 ta yirik kutubxonalardan olingan “kutubxonachi kadrlar tayyorlash sifati va tayyorgarlik darajasi” to‘g‘risidagi ma‘lumotlar qizg‘in bahs munozaralarga sabab bo‘ldi.

Davra suhbatida ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash to‘g‘risida ham fikrlar bildirildi. Professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish uchun MDH dagi yirik kutubxonalar va maxsus oliy o‘quv yurtlari imkoniyatlaridan foydalanish taklifi o‘rtaga tashlandi.

Davra suhbatini yakunida, Milliy kutubxonaning ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari I.Z.Maminova tomonidan davra suhbatida taklif qilingan tavsiya va takliflar umumlashtirildi, tegishli xulosalar chiqarildi hamda o‘quv jarayonida davra suhbatini natijalaridan unumli foydalanish tavsiya qilindi. Ma‘ruzalar, ma‘ruzalar tezislari va maqolalar mualliflar tomonidan taqdim etilgan shaklda to‘plamga kiritilgan.

O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining o‘ziga xos yo‘lini tanlashi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etilishini zarur qilib qo‘ydi.

Jamiyat taraqqiyotida asta – sekinlik bilan kutubxonalar mavqeining tiklana borishi, aholisining axborotlarga, kitob, gazeta, jurnallarga bo‘lgan ehtiyojini orta borishi kutubxona xodimlarining zukko, bilimdon bo‘lishlarini taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida 17 mingga yaqin ommaviy universal, maxsus, turli tashkilotlarga qarashli kutubxonalar faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Kutubxonachi kadrlarning soni 23 ming kishini tashkil etadi, ulardan 26% oliy maxsus ma‘lumotga, 47% o‘rta maxsus ma‘lumotga ega.

1975 yili Respublika Madaniyat xodimlarining malakasini oshirish institutining tashkil etilishi yiliga 450-500 ta kutubxona xodimlarining malakasini oshirganligi, 1987 yilga kelib bu institut respublika Madaniyat xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutiga aylantirilganligi va yiliga 1000-1200 ta kutubxona xodimlarini malakasini oshirganligi bizga ma‘lum.

1992 yilga kelib Respublika Madaniyat xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti tugatilib kutubxona, klub xodimlarining malakasini oshirish A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutiga, musiqa yo‘nalishi xodimlari, musiqa maktablari o‘qituvchilarini malakasini oshirish M.Uyg‘ur nomidagi teatr-san‘at institutiga malaka oshirish fakultetlari sifatida taqsimlab berildi.

Xozirgi kunda kutubxona xodimlarini malakasini oshirish bilan A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutining malaka oshirish fakulteti shug‘ullanib kelmoqda. Ushbu fakultet

kutubxona xodimlarini tabaqalashtirib o'qitishga, o'quv rejalarini zamon talablaridan kelib chiqib yangilashga, darslarga nazariyotchi professor o'qituvchilari bilan birga amaliyotchilarni taklif etishga harakat qilmoqda. Bu kutubxona xodimlarining malakasini oshirish ancha sifatli amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Kutubxonachi kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Kutubxonachi kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yangicha tarkib, mazmun asosida tashkil qilish hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish, e'tiborni qaratish;
- Kutubxonachilik sohasi bo'yicha malakali o'qituvchi – mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan muntazam to'ldirib borish;
- A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi qoshida kutubxonalar rahbar xodimlari malakasini oshirish kurslarini tashkil etish;
- Kutubxonalarda faoliyat olib borayotgan kutubxona xodimlarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini ishlab chiqish;
- Bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tilishi munosabati bilan kutubxonalarga menejment, marketing asoslarini pishiq puhta o'rgatish;
- Zamon talablaridan kelib chiqqan xolda professional trening ilg'or texnologiyani ishlab chiqish, yaratish va amaliy o'zlashtirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy" dasturida ta'lim tizimining hamma jabhalari bo'yicha kadrlar tayyorlashning mezonlari belgilab berilgan. Maqsad barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ko'proq bilimli bo'lishlarini ta'minlash, zamonaviy axborot texnologiyalar talablaridan kelib chiqqan xolda mukammal bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi belgilab berildi. Ana shu vazifalardan kelib chiqqan xolda "KAFB" fakulteti jamoasi qator ishlarni amalga oshirdilar.

Jamiyatimizning taraqqiyoti, kelajagi avvalo bilimli yoshlarning bugungi kunda olayotgan bilim saviyasiga bog'liq. Turli soha mutaxassislarni tayyorlashda kitob va uning vositasida olinayotgan bilim muhim ahamiyatga ega. Kitobni yig'uvchi, uni saqlovchi, turli toifa kitobxonlarga yetkazib beruvchi kutubxonachi xodimlar mehnati ko'zga ko'rinmas, o'lchab bo'lmas qadr-qimmatga egaligini hamma biladi. Respublikamizda hozirgi kunda 17 mingdan oshiq turli tizimdagi kutubxonalar mavjud bo'lib aholiga beminnat kutubxonachilik, axborot – bibliografik xizmatni ko'rsatmoqda. Birgina Madaniyat vazirligi tizimida 5748 ta kutubxona mavjud. Agar shularni nazarda tutib fikr yuritadigan bo'lsak, hali oldimizda amalga oshiradigan vazifalar ko'p, ya'ni hamma tizimdagi kutubxonalarni oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash uchun kerakli sharoitlarni yaratishimiz zarur. Ammo, hozirgi kunda kutubxonada faoliyat ko'rsatayotgan fidoiy kutubxonachilarning ko'pchiligi, pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan kadrlarni tashkil etadi. Kelgusida jamiyatning kutubxonachi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji yanada oshdi.

Fakultetimiz 1991 -2005 yillarda respublika kutubxonalari uchun 2900 ga yaqin mutaxassis tayorladi, shulardan aksariyat qismi kutubxonalarda ishlamoqdalar. Imtiyozli bitirgan talabalarimiz ham qayerda oylik maosh yuqori bo'lsa, o'sha sohaga o'tib ketyaptilar. Sirtqi bo'limni bitirayotganlarning ko'pi esa mansab yoki unvonini oshirish uchungina, diplomga ega bo'lish maqsadida institutni bitirib ketayotganlarni tashkil etadi. Bugungi kunda fakultetimizni bitirayotganlar an'anaviy bilimlar bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida ham mukammal bilimga ega bo'lmoqda. Kompyuterni bilishi, bilimni bo'lishi yaxshi, ammo bu ham ularga kutubxonalarda oylik maoshning kamligi sababli kadrlarning 80-100 ming maoshlik axborot markazlariga va boshqa tashkilotlarga ketib qolish hollari uchramoqda. Bugungi kunga kelib kunduzgi bakalavr bo'limida 22 ta, sirtqi bo'limda 75 ta magistraturada 3 ta mutaxassis tayyorlanmoqda, 75 ta sirtqi bo'lim talabalaridan 45 tasi kutubxonalarda mehnat qilish bilan birga ta'lim olmoqda. Hozirgi vaqtda fakultetimizda talabalarga 4 ta professor, 11 ta dotsent, 21 ta kata o'qituvchi va o'qituvchilar nazariy va



amaliy bilim berib kelmoqdalar. Professor-o'qituvchilarimiz xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy konferensiyalarda, seminarlarda, anjumanlarda faol ishtirok etib kelyaptilar. Ilmiy – universal kutubxonalar va maktab kutubxonolari uchun alohida-alohida “klassifikatsiya jadvallari”, lotin imlosidagi “avtor jadvali”, “kutubxonashunoslik ishi nazariyasi va tarixi”, “kutubxona fondlarini tashkil etish”, “hujjat fondlari”, “vatan kutubxonachiligi tarixi”, “kutubxonashunoslik” darsligi (kollejlarda uchun), “Informatika”, “Madaniy-marifiy muassasalarda texnika vositalaridan foydalanish” ga oid o'quv adabiyotlari nashrdan chiqdi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi bilan hamkorlikda 40 ga yaqin nomda o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash va muharrirlik qilish ishlarini ham o'qituvchilarimiz ham to'la o'z qo'liga oldi. Joylarga borayotganlar uchun esa ish joyi yetarli emas, band, ular o'rta maktabni bitirganlar va boshqa soha mutaxassislari bilan band. Fakultetimizda kadrlar tayyorlashdagi ayrim muammolar haqida aytadigan bo'lsak, shu kungacha tayyorlangan nomzodlik ishlarining himoyasini tezlashtirish, buning uchun institutimiz qoshida maxsus ixtisoslashgan kengash tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

## **12-MAVZU: Kitobxonlarni o'rganish metodikasi**

### **Reja:**

#### **1. Kitobxonlar qiziqishini o'rganish usullari.**

#### **2. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning maxsus metodlari.**

**Statistik metod, kuzatish metodi, suhbat metodi, anketa va intervyu metodlari, eksprement metodi.**

Kitobxonlarning qiziqishini o'rganish usullariga asosan bevosita o'qish jarayonida ro'y beradigan ko'rinishlarni bilish usuli kiradi. Metodika muayyan aniq jarayonda qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni umumlashtirish, qayta ishlashning ma'lum sistemali tartibidir. Kutubxonachilar kitobxonlar haqidagi ma'lumotni olish texnikasini ko'r-ko'rona qabul qilmasliklari kerak. Zero, metodni tanlash hamma vaqt qo'yilgan vazifaning maqsadiga hamda uning xarakteri, yo'nalishi, mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Kitobxonning qiziqishini o'rganish, qachonki uning barcha metodlari kitobxon psixologiyasida, kutubxonachilik amaliyotida kitob savdosi va boshqa sohalarda teng qo'llanish mumkin bo'lsagina obektiv bo'ladi. Barcha hodisalarning mohiyatini bilishda dialektika predmetni boshqa predmetlar bilan aloqador tomonlarini o'rganishni hisobga olishni talab qiladi.

Qiziqishni o'rganishdagi bu umumiy prinsplar kitobxonni atroflicha va teran o'rganish prinsplari asosida oydinlashadi. Shunday qilib, obektivlik ongli tanlash metodi bilan uyg'unlashib, kitobxonlar qiziqishi prinsipi bilan muvofiqlashdi. Har qanday izlanishga xulosa yasashda obektivlik alohida ahamiyatga ega. Faqat shunda natijaning ilmiyligi, kitobxonlar qiziqishining o'sib borishi, o'qish xarakteri haqida xulosaga kelish mumkin. Haqiqatni bilish va tubdan o'zgartirishda dialektik materializm asosiy metod hisoblanadi. Unga nisbatan sotsiologik metodlar xususiy bo'lib, sotsiologiyaga nisbatan kitobxonlar qiziqishini o'rganish xususiydir. Ta'kidlaganimizdek, kutubxonalarda kitobxonlar qiziqishi bir necha bosqichda o'tadi.

Kutubxona xizmat qiladigan tumanning aholisini o'rganishni mohiyat e'tibori bilan sotsiologik tadqiqot desa bo'ladi. Chunki, kitobxon gruppasini o'rganish borasida esa shaxsning psixologiyasini, ayrim kitobxonni o'rganish borasida esa shaxsning psixologiyasini tadqiq qilishi kerak. Kitobxonlar bilan ishlash jarayonida kutubxonachi ularning xar biri haqida ma'lumot to'playdi, o'qishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida barcha kitobxonlarning o'qishi haqida hulosa chiqaradi.

Kitobxonlar qiziqishini o'rganishda quyidagi: mantiqiy usullar, statistik, kuzatish, suhbat, kallektiv bo'lib muhokama qilish, anketa, eksprement va boshqa metodlardan foydalaniladi.

Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning maxsus metodi u yoki bu umumiy metodlardan, kutubxonaning o'ziga xos xususiyatiga qarab, ma'lumotlarni xisobga olish vositasi sifatida foydalanadi.

Kutubxonada ma'lumotni xisobga olish asosan statistika yo'li bilan: kutubxonani ishini hisobga olish, kitobxon va kitob formulalarini to'ldirish va boshqa yo'llar bilan amalga oshiriladi. Ayrim hollarda, vaziyat taqozosi bilan maxsus metodlar kitobxon qiziqishini o'rganishning xususiy metodi bo'lib kelishi ham mumkin.

Xususiy metodga kitobxon va kitob formulalarini, spravka, bibliografiya ishlarini, talabnoma qog'ozini tahlil qilish kabi jarayonlar kiradi. Kitobxon qiziqishini o'rganishda metodni to'g'ri tanlash hamda foydalanishda u yoki bu metodni o'ziga xos xususiyatini xisobga olish lozim. Shu va shunga o'xshash sabablarga ko'ra kitobxonlar qiziqishini o'rganishda turli metodlardan foydalanishadi. Ayrim-ayrim metod yordamida har doimo ham kitobxon qiziqishiga doir ma'lumotlarni to'liq to'plashga erishib bo'lmaydi. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishda umumiy va maxsus metodlardan birgalikda foydalanilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

### **Statistik metod**

Statistik metod kitobxonlar qiziqishini o'rganishning yana bir muhim metodlaridandir. Uning asosiy qonuniyati ommada uchraydigan tasodifiy xollarni aniq va zaruriy munosabat bilan taqqoslash. Bu metod yordamida kitobxonlar miqdori va ularga berilgan kitoblar, kutubxonaga qatnashlar, kitobxon talablaridagi o'zgarishning xarakteri kuzatiladi.

Revolyusiyaga qadar kutubxonachilar kitobxonlarni statistik ma'lumotlarga asoslanib o'rganar edilar.

Statistik metod asosan raqamlarni tahlil qiladi. Raqamlarni tadqiq va tahlil etish asosida kutubxonani faoliyatiga xarakteristika berish uning o'ziga xos xususiyatidir. Bu metod asosida olingan faktik ma'lumotlar yordamida kelgusida qaysi tarmoq targ'ibotiga ko'proq e'tibor berish zarurligi aniqlanadi.

Statistik kundalikda kutubxonaga yozilgan yangi kitobxonlar tarkibi haqidagi ma'lumotlar – ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, partiyaviyligi, yoshi, kutubxonani tomonidan bir kunda berilgan kitoblar, bryoshuralar va jurnallar miqdori haqidagi ma'lumotlar kutubxonani klassifikatsiyasi bo'limlariga qarab taqsimlangan holda qat'iy tartibda boradi. O'ning o'zida kitobxonlar tarkibi va berilgan kitoblarning xarakterini o'zida ifodalovchi umumiy yakun chiqarildi. 12 oy ichida to'plangan raqamlarni umumlashtirish kutubxonaning yil davomida amalga oshirgan faoliyatini ko'rsatib beradi.

Kitobxonlar qiziqishini o'rganishda respublikamizdagi ko'pgina kutubxonalar bu usuldan samarali foydalanayotganining shohidi bo'lmoqdamiz. Berilgan kitoblar yakunidan kelib chiqib kitob fondining barcha bo'limlaridan qanchalik foydalanilganligi tahlil qilindi. Kelgusida qaysi fan tarmoqlari targ'ibotiga e'tibor berish lozimligi aniqlandi.

### **Kuzatish metodi**

Kitobxonlar bilan ishlash kutubxonachilardan alohida kuzatuvchanlik va sezgirlikni talab etadi. Kuzatish metodi kutubxonalarda kitobxon qiziqishini o'rganish usulining asosini tashkil etadi. Bu metod - kutubxonachilik tajribasida yangi ish emas. Tajribali kutubxonachi o'qish xarakterini kuzatib kitobxonning ma'naviy o'sishidagi siljishlarni aniqlay bordi. O'qishi kuzatiladigan kitobxonlarning formulalariga alohida belgi qo'yiladi. Kuzatish ma'lum belgilangan muddatda amalga oshiriladi. Kuzatish bir yilga yoki undan ko'proq muddatga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Kuzatish metodi asosida kitobxonlar qiziqishini o'rganish ko'p mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Kuzatish suhbatni to'ldiradi, suhbatning natijalarini to'g'ri yoki noto'g'riligini tasdiqlaydi, shuningdek, kitobxon bilan yangidan suhbat qurish uchun material beradi.

Kuzatishni boshqa metodlardan ajratilgan holda qo'llanish mumkin emas. Shuning uchun ham u asosan suhbat metodi bilan birgalikda bir butunlikda qo'llaniladi.

Kuzatish natijalarini kutubxonachi sistemali ravishda, alohida yozib borishi lozim. Ma'lum belgilangan muddatdan so'ng to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Tahlil va o'rganish natijalari umumlashtirilib, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar belgilab olinadi.

### **Suhbat metodi**

Kutubxonachining kitobxonni kutubxonaga a'zo qilish chog'ida suhbat alohida ahamiyatga ega. Unda kitobxonni o'rganish hamda u bilan kelgusida olib boriladigan ishlarning yo'nalishi aniqlanadi.

Kutubxonachi kitobxonni kutubxonni kutubxonaga a'zo qilar ekan, uning formulyarini yoki anketasini to'ldirish bilan dastlabki ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bu suhbat keyinchalik uning o'qishiga rahbarlik qilish hamda kitobxon qiziqishini aniqlash imkoniyatini beradi. Suhbat kitobxonni tarbiyalash va uning qiziqishlarini o'rganish usuli sifatida amalga oshiriladi.

Suhbatning muvaffaqiyatli kechishi asosan kutubxonachining mahoratiga bog'liqdir. Suhbat uchun avvaldan reja tuziladi. Lekin uning yo'nalishi suhbat davomida o'zgarib turishi mumkin. Suhbatning muvaffaqiyatli chiqishi uning qanchalik qizig'in va jonli o'tishiga bog'liq.

Respublikamizdagi ko'pgina kutubxonalar suhbat metodidan o'rinli foydalanmoqdalar: masalan kitobxonlar qiziqishi Samarqand viloyat Payariq markaziy kutubxonasida, Farg'ona viloyat, Quvasoy markaziy shaxar kutubxonasi va uning filiali mutahassislar bilan suhbatlashish asosida o'rganilmoqda. Farg'ona va Quvasoy markaziy kutubxonalarida ham sanoat, meditsina xodimlari, ekonamistlar va o'qituvchilar qiziqishi ancha intensive o'rganilmoqda.

Kundalik tajribada suhbat metodi keng qo'llanilmoqda ammo suhbatning natijalari barcha kutubxonalarda keng amalga oshirilayotgani yo'q. natijada tahlil qilish hamda umumlashtirish imkonini beradigan material kutubxona hujjatlaridan tashqarida keraksiz bo'lib qolib ketmoqda.

### **Anketa va intervyu metodlari**

Kitobxonlar qiziqishini o'rganishda anketa va intervyu metodlari ham keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. U bevosita statistic metod bilan bog'langan. Intervyu – og'zaki so'rash, anketa – yozma so'rashdir. Bu usullar ayniqsa sotsiologik tadqiqotlarda ommaviy tarzda qo'llaniladi.

“Katta bo'lmagan shaxarlar hayotida kitob va o'qish” izlanishida 300 ming aholisi bo'lgan shaharda kitobxon qiziqishi intervyu orqali so'raldi. “Hozirgi o'quvchilarning badiiy qiziqishi” temasida o'tkazilgan izlanishida esa 11000 maktab o'quvchisi anketa yordamida so'raldi.

Bu usullarning afzal tomoni shundaki, bu usullar vositasida ommaning qiziqishi xaqida yetarli ma'lumot olish mumkin, biroq ular qiziqishining shakllanishi va taraqqiyoti haqida bu manbalar orqali asosli xulosaga kelib bo'lmaydi. Xozirgi kunda ilmiy-tadqiqot ishlarida ham og'zaki so'rash inervyuga alohida e'tibor berilmoqda. Intervyu anketaga nisbatan bir muncha ustunlikka ega tekshiruvchi bevosita so'ralayotgan kishi bilan muloqatda bo'ladi va uni kuzatadi. Intervyu o'ziga xos suhbatga o'xshaydi lekin bu bir tomonlamadir, chunki bunda faqat so'ralayotgan kishigina aktiv bo'ladi, intervyu oluvchi esa ko'proq savol beradi xolos. Ammo bundan u muloqotga umuman aloqador emas ekan degan xulosaga kelish mumkin emas. Intervyuda so'rash va kuzatish o'ziga xos uslubda birlashib ketadi. Anketa va intervyudagi savollar sodda hamda aniq bo'lishi muhimi ularni kelgusida tahlil qilish uchun qulayligi ham hisobga olinishi kerak. So'raladigan shaxslar ko'p bo'lsa savollarning yashirin (yopiq) turi maqsadga muvofiqdir. “ha” yoki “yo'q” javobidan qaysi biri talab qilinsa shu so'zning tagiga chiziladi.

### **Eksperement metodi**

Bu umumiy metod bo'lib tajribada esga olingan voqea hamda uning o'sib borish qonuniyati nazariy tahminlarga asoslanib o'rganiladi. Eksperement metodi bevosita kuzatish metodi bilan aloqador bo'lib , o'rganilayotgan obektga, sohaga aktiv aralashish bilan ajralib turadi. Eksperement programmasi ilmiy farazga asoslanadi hamda umumiy usullarni, bilishning xususiy yo'li bilan olingan ma'lumotni asosan tasdiqlaydi yoki rad qiladi. Eksperementning ijobiy tomoni shundaki u tasdiqlash va rad qilishdan tashqari, yangi xulosalar chiqarish imkonini ham beradi. Ijtimoiy fanlar sohasida texnika fanlariga nisbatan eksperementni qo'llanishda muayyan qiyinchiliklar mavjuddir. U tabiiy va laboratoriyada o'tkaziladigan(suniy) eksperementga bo'linadi.

Eksperement metodini qo'llash kutubxonachilarning saviyasiga va boshqa mavjud sharoitlarga bevosita bog'liq. Eksperement programmasini tuzishda va uning natijalarini kuzatishda metodik markazlar, madaniyat institutlari va boshqa muassasalar qatnashishi kerak.

### **Kitobxon formulyarini tahlil qilish usuli**

Kitobxon formulyarini tahlil qilish maxsus usullar turiga kiradi, u asosan formulyarga asoslanib kitobxonlar bilan ishlash haqidagi ma'lumotlarni xisobga olishga xizmat qiladigan kutubxonalarda qo'llaniladi. Ko'pgina kutubxonalar kitobxon formulyaridan foydalanadilar. Formulyar "ommaviy kutubxonalarining ish texnikasi minimumi" da ko'zda tutilgan.

Kitobxon formulyari yakka tartibda va gruppali tartibda tahlil qilinadi. Formulyarnig yakka tartibdagi tahlili ayrim kitobxonni o'rganishga qaratilgan bo'lib, kelgusida uning o'qishiga rahbarlik qilishga zamin xozirlaydi.

Formulyarning kollektiv tahlili ma'lum grupp kitobxonlarni o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Gruppali tahlilning vazifasi mavzu bo'yicha ayeim asarni aniq grupp tomonidan o'qilishi hamda boshqalar haqida ma'lumot berishdan iboratdir. Shu bilan bir vaqtda u yakka tartibdagi tahlilni muayyan ma'noda to'ldiradi. Formularning tahlili ma'lum miqdorda kitobxonning saviyasi va qiziqishi, uning yo'nalishi haqida ma'lumot beradi. Tajriba formularning har kvartalda bir marta tahlil qilishni taqozo qiladi. Shunday qilinganda bir muncha aniq ma'lumotga ega bo'linadi. Respublikamizning barcha kutubxonalarida kitobxon formulyarini tahlil qilish keng tus olgan.

Formularning larning ayrimlarini ko'p o'qilishi aniqlandi. Doimiy kitobxonlar formulyarini bir necha yil saqlash maqsadga muvofiq. Formulyar bilan bir vaqtda kitobxonning o'zini hamda uning o'qishini kuzatish ishlari, kutubxonachining kundaligida muntazam ravishda aks etib borishi kerak.

### **Kitob formulyarining tahlili**

Kitob formulyarining tahlili – kitobxonlar orasida kitob o'qilishini o'rganadigan maxsus usuldir. Kitob formulyari ommaviy kutubxonalarda kitobning berilishini hisobga olib boradi.

Kitob formulyarining tahlili kutubxonachiga o'ziga xos ma'lumot beradi. Ma'lum muddatda kutubxonachi biror muallif yoki muayyan mavzuga oid asarlarning qanday o'qilayotganini bu usul bilan tez va oson aniqlab oladi. Kitob formulyaridan yil davomida mazkur kitob olinganidan beri necha marta o'qilganligini ham aniqlab olish mumkin. Agar asar kitob tokchasida harakatsiz yotgan bo'lsa, sababini aniqlash, asar nima sababdan kitobxon tomonidan olinmayotganligini tekshirib ko'rish kerak bo'ladi. Kitob kutubxona sohasiga mos emasmi yoki kitobxonlar e'tibor bermayaptimi? Asar aktual bo'lsa, uni kitobxonga ommaviy tadbirlardan foydalangan holda tavsiya etish maqsadga muvofiq.

Keyingi vaqtlarda bu metodga e'tibor bir muncha kuchaydi. Bu usuldan foydalanish orqali fondning qanday to'ldirilganini ham aniqlab olish mumkin. Shuning uchun ham respublikamizdagi ko'pgina kutubxonalar kitob formulyarini tahlil qilishdan unumli foydalanilmqdalar. Masalan, Andijon viloyat kutubxonasining shaxar abonamenti 1985 yili ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni o'rganganda 200 dan ortiq adabiyot kitobxonga berilmayotganligi ma'lum bo'ldi. Natijada ayrimlari eskirganligi uchun fondan chiqarildi. Yangi adabiyot olish uchun maxsus bo'limiga talabnoma berildi.

### **Kitobxonlarning talabnoma varaqalarini tahlil qilish**

Kitobxonlarning talabnoma varaqalarini tahlil qilish – kitobxon so'rovini kuzatib borishning maxsus usuli hisoblanadi. U mustaqil usul sifatida yirik kutubxonalarining o'quv zallarida, talabnoma qog'ozlarini to'ldirish orqali olinganda foydalaniladi.

Talabnoma varaqasini ikkiga ajratiladi: tez-tez so'raladigan talabnoma varaqasi va so'ralgan adabiyotga rad javobi berilgan varaqaga ajratiladi. Ularning biri ikkinchisini to'ldiradi hamda kitobxonning adabiyotga bo'lgan talabining yo'nalishini aniqlaydi. Birinchi talabnoma varaqasi u yoki bu kitobxonning qaysi adabiyotni ko'p so'raganini aniqlaydi; ikkinchisi kitobxonlar so'rovini to'ldiradi, kutubxona fondini to'ldirishdagi kamchilikni ko'rsatadi. Talabnoma varaqasini tahlil qilishda xar ikkalasi ham ijobiy xarakterga ega.

Respublikamizning yirik kutubxonalari adabiyotlarini kitobxonga berishni asosan talabnoma varaqasini orqali amaliyotga oshiradilar. Masalan, A.Navoiy nomidagi Ozbekiston Davlat kutubxonasi, Toshkent Davlat Universiteti, O'zbekiston Fanlar akademiyasi kutubxonlari, viloyatlarda-tuman kutubxonalari muntazam ravishda har ikkala usuldan foydalangan holda kitobxonlar qiziqishini o'rganishni ko'p yillardan beri davom ettirib kelmoqda. Rejali ravishda

kitobxonlarga xizmat qilish bo'limi kitobxonlarning fanning turli sohasiga oid talabi rivojlanishini bajarilgan talabnomalardan o'rgansa, rad etilganlarni o'rganish orqali uning sabablarini aniqlab kelgusida buni bartaraf etish yo'lini belgilaydi. Ko'proq rad javobi olingan talabnoma qog'ozlarini tahlil qilish odat tusini olgan. Keyingi yillarda rad etilgan talabnomalar bilan ishlashga katta ahamiyat berilmoqda.

Bunday ish uslublarini Abu Ali ibn-Sino nomidagi Buxoro, Pushkin nomidagi Samarqand, Qurbon ota Ismoilov nomidagi Xorazm viloyat kutubxonlari misolida ko'rish mumkin. Surxondaryo viloyat kutubxonasi 1983-yil davomida 570 ta rad etilgan talabnomalarni hisobga oldi. Undan 282 tasi O'zbek tilidagi adabiyotlarga taalluqli. Tahlil natijasida bu rad javoblari asosan darsliklarga doirligi aniqlandi.

Xorazm viloyat kutubxonasi 1985-yilda 140 ta rad javobini hisobga oldi. Tahlil rad javoblari turli hil sabablar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Masalan, ayrim asarlar katalogda bor, tokchada yo'q, ayrimlari esa butunlay olinmagan (44 tasi katalogda bor tokchada yo'q, 96 tas esa kutubxonada yo'q adabiyotlar).

Bu hildagi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shunday ekan, talabnoma varaqalarining tahlili kutubxonachining kundalik muhim ishlaridan biri, uning fuqarolik burchidir.

### **Ma'lumotnoma – bibliografiya ishlarini tahlil qilish usuli**

Bu – kitobxonlar qiziqishini o'rganishda muhim usullardan bo'lib, uning asosida bibliografik axborotni tashkil etish yotadi shuningdek, bibliografik so'rovlarkitobxonlarni adabiyotga bo'lgan talabini, kitobxonlarning qiziqishi va o'qishdan maqsadini yoritadi.

Ma'lumotnoma – bibliografiya ishlarining hajmi va uni hisobga olish turlicha. Masalan, ommaviy kutubxonalarda ma'lumotnoma – bibliografiya ishlari kutubxona kundaligining maxsus bo'limida xisobga olinsa, yirik kutubxonalarning bibliografik bo'limida va katalog zallarida esa maxsus daftarda, xisobga olish blankalarida o'z ifodasini topadi.

Ommaviy kutubxonalarda ayrim kitobxonlarni o'rganishda har bir bibliografik so'rovning mazmuni hamda uni rasmiylashtirish tahlil qilinadi. Bibliografik so'rovlar maxsus blankada xisobga olinadi hamda ularning bajarilishini muntazam tahlil qilib borish talab qilinadi.

### **Kitobxonlarda o'qish madaniyatini tarbiyalashning maqsad va vazifalari**

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda "Mutolaa madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati", "O'qish madaniyati" kabi atamalar bilan qo'llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

"Mutolaa" so'zi arabcha "o'qish" degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A. Umarov fikricha: "Mutolaa" madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir. Ayni chog'da mutolaa madaniyatini ta'lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma'lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar - kitoblar (badiiy, ilmiy, o'quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo'llanma va hokazolar), shuningdek, subyekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a'zolari,...) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiy ma'lumotdan farqlash lozim bo'ladi» 2 . Professor E.I.Yo'ldoshev «O'qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta'rif beradi: «O'qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, kitobdan to'la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi» Jumladan, axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni to'g'ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma'lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni

qidirib topish, cheksiz axborot okimlari orasidan kerakli, muhim bo'lgan ma'lumotlarni ola bilish, o'z kasbiy malakalarini [oshirishda foydalanish](#), axborot-kutubxona muassasidan to'g'ri foydalanish yo'llarini o'rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi. Axborot olish madaniyatini to'liq egallagan shaxsga nisbatan esa kitobxon terminini qo'llash o'rinlidir.

Safo Matchon: «Kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini nechog'li uqishini, ya'ni asar «tili»ga tushinishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha kitobxonlik talanti tug'ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: «Kitobxonlikka o'rganish uchun qanchalik ko'p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag'ishladim, lekin hali ham o'rgandim, deb ayta olmayman». Professor V.F.Asmus o'zining «Kitobxonlik - mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta'rif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir ko'zadan ikkinchi ko'zaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi». «Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda,- deb yozadi H.To'xtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir».

«Axborot olish madaniyati» kontekstida uning tarbiyaga muhtoj elementlarini aniqlaymiz:

O'qishga, axborot olishga mayl, havas, ishtiyokni shakllantirish;

O'qilgan kitob orqali fikrlash yo'llarini o'rgatish;

Mavjud kitobxonlik malakalarini takomillashtirish.

Ta'lim o'qitish, o'qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Axborot olish madaniyatini tarbiyalash ta'lim jarayonida amalga oshadi. Egallagan bilimlar o'quvchilarni izchil shakllantirib borishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar faqatgina sinfda o'qitiladigan darslarda shakllanib kolmasdan, balki sinfdan tashkari, anikrogi axborot-kutubxona muassasalarida mustaqil tarzda shugullanish orqali egallanadi. Axborot-kutubxonachilik ishidagi mavjud tajriba shuni ko'rsatadiki, axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi - axborot- kutubxonachilik bilimlarining o'quvchilar orasida targ'ib qilishdir. Buning eng samarali yo'llaridan biri bo'lib axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish hisoblanadi.

Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma'lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarining negizini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o'qish, eng muhimi, uni uqish, o'rganish malakalari singdirib borilishi kerak. [Shuningdek](#), elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma'lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo'lish, ulardan foydalanishni o'rganish kabilar kiradi. Bu esa o'z-o'zidan amalga oshadigan, jo'n narsa emas, albatta. Buning uchun axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislaridan juda keng bilim, mahorat talab qilinadi. Axborot-kutubxonachilik darslarini qay tarzda tashkil etish mumkin, degan savolga ham javob berib o'tish lozim. Tajriba shuni ko'rsatadiki, axborot-kutubxonachilik darslarini o'tkazish uchun sinfdan tashqari darslar va tarbiyaviy soatlardan alohida soatlar ajratib olish mumkin. Dars jadvali tuzishda asosan sinflar soni, nazariy va amaliy dars soatlari, o'qituvchi va kutubxonachi o'tkazadigan soatlar, darsni o'tkazish joyini, ya'ni sinfda yoki axborot-kutubxona muassasasida o'tkazilishini aniqab olish zarur.

Ayni paytda bir necha tashkiliy masalalarni ham hal etish zarur. Chunonchi, ko'pgina o'qituvchilar dars berish uslubiyotini yaxshi egallagan bo'lsalar-da, axborot- kutubxonachilik sohasida yetarli bilim va malakaga ega bo'lmaydilar. Kutubxonachilar esa aksincha. Shu sababli ham o'qituvchilarga axborot-kutubxonachilik sohasidan ma'ruzalar o'qib, ularni axborot-kutubxonalar faoliyati bilan tanishtirish, kutubxonachilarga esa dars o'tish qoidalari, uslubiyotini o'rgatish muhimdir. Bizningcha, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarda

axborot olish madaniyatini tarbiyalashning o'ta muhimligini hisobga olib axborot-kutubxonachilik darslarini ommalashtirish, yo'lga qo'yish zarur. Avvalo, buning uchun masalaning tashkiliy jihatini hal etish, ya'ni axborot-kutubxonachilik darslarini yo'lga qo'yish yuzasidan qaror qabul qilish, shu qarorga asosan umumiy o'rta ta'lim muassasalari va axborot-kutubxona muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish va o'tkazishning aniq shakllarini ishlab chikish zarur. Axborot-kutubxona muassasasida o'quvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasini hal qilish faqat ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador bo'lmasdan, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, ma'naviy yuksalishi bilan bog'liq, davlatning strategik maqsadlariga xizmat qiluvchi faoliyatiga ham daxldordir. Shu sababli ham mazkur muammo ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan kompleks o'rganishni taqozo qiladi. Binobarin, tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, kutubxonada o'quvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi pedagogika, psixologiya, falsafa, [adabiyotshunoslik](#), sosiologiya kabi kator fanlar erishgan yutuqlarga tayangan holdagina hal etilishi mumkin.

Axborot-kutubxona muassasasida axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi borasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, umummilliy muammo hisoblanadi. Bu ma'lum davr bilan chegaralanadigan hodisa bo'lmasdan, inson umr bo'yi o'rganadigan ma'naviy ehtiyojdir.

Axborot olish madaniyatini tarbiyalaydigan asosiy maskan - axborot-kutubxona muassasalaridir. Axborot-kutubxona muassasalari o'z imkoniyatlari bilan nafaqat maktab dasturlarining, Davlat ta'lim standartlarining bajarilishida, balki mustaqil ta'lim olish sari yo'llaydi.

Axborot olish madaniyatini tarbiyalashda maktab-oila-kutubxona hamkorligini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Axborot-kutubxona muassasalarining axborot olish madaniyatini tarbiyalashdagi asosiy vazifalarni belgilash zarur.

Axborot-kutubxona muassasalarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik-psixologik asoslarini o'rganmasdan turib, haqiqiy kitobxonni kamol toptirish mumkin emas. Xususan, Axborot-kutubxona muassasalarda foydalanuvchilarning yosh xususiyatlari, tipologik jihatlari, ularning psixologik tayyorgarligi, ayniqsa, ulardagi fiziologik o'zgarishlar albatta hisobga olinishi zarur. Axborot-kutubxona muassasalarida o'quvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalashda quyidagi asosiy yo'nalishlarga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim:

kitobxonning oilaviy sharoiti, oilada Axborot-kutubxona muassasasining bor-yo'qligi, bolaning yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarlik darajasini o'rganish; umumta'lim muassasasi dasturidagi fanlarni hisobga olish, bolaning qiziqishlari doirasini aniqlash hamda shunga muvofiq tarzda yakka va ommaviy rahbarlik yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish;

o'quvchida o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirib borish, axborot olish malakalarini shakllantirish;

o'quvchining yosh xususiyatlari va psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli-tuman ommaviy shakllardan samarali foydalana olish, mavjud sharoitdan kelib chiqib yangi shakllarni izlab topish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lish;

o'quvchilarni axborot olishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, ularni Axborot-kutubxona muassasalariga, mutolaaga kengroq jalb qilish;

o'quvchilar o'rtasida axborot-kutubxonachilik bilimlarini keng targ'ib qilish.

Axborot olish madaniyatini tarbiyalashning asosiy mas'uliyati kutubxonachilar zimmasiga tushadi. Bu jarayon esa mutaxassislardan juda katta pedagogik mahoratni, professional bilimni, eng muhimi, o'z kasbiga bo'lgan fidoyilikni talab etadi. Bu asosan kutubxonachi kadrlar tayyorlash jarayonida shakllanadi. Shu sababli ham kutubxonachi kadrlarga bo'lgan talabni kuchaytirishga, ta'lim sifatini oshirish zarur.

Mashhur fransuz faylasufi Frans Bekon "Kitoblar tafakkur durdonalarini avloddan avlodga eltuvchi aql kemalaridir" deb bejiz aytmagan. Zero, kitob aqlni charhlaydigan, aql bulog'ini ochadigan va uni ilhomlantiradigan buyuk mo"jizadir.



Kitobning [inson hayoti](#), kishilik jamiyati ma'naviy taraqqiyotidagi beqiyos o'rni qadimdan ma'lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go'zallikka muhabbat uyg'otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg'usini paydo qiladi.

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o'zi ham yuksak didga ega va ma'rifatli va bilimli bo'lishlari kerak. Ma'lumki, bola kitob o'qishni bilgan taqsirodagina, kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Kitob bolaning ma'naviy boyishi uchun uni ma'naviy, aqliy, estetik o'sishga yo'llashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o'smirlik davrida uning ma'naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki, o'smir hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o'yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, uning hayoti mazmunsiz, voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan aql-zakovatli ma'nan barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Ana shunday aql-zakovatni shakllantiruvchi, inson cha'naviy dunyosini boyituvchi vosita - bu kitob, kitobxonlikdir.

Kitobxonlik - bu insonning o'z ustida ishlashi, faoliyatini ma'lum yo'nalishga burib yuborish, ongida ma'lum tuyg'ularni, e'tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o'ylashga, hayotda qanday yashashga o'rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma'naviy o'g'itlarini ilg'ab olish va bular asosida o'z hayot yo'li dasturini belgilash, yozuvchi [bilan munozaraga kirishish](#), har bir o'qigan kitobidan yangilik topish, ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir.

Hqiqatan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yo'llasa, uni o'qimaslik johillikka, ma'rifatsizlikka olib kelib, natijada ma'naviy bolada qashshoqlik yuzaga keladi. Maktabda, oilada muhim vazifa - kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iborat. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e'tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas.

**Oila kitobxonligi bu** - oila a'zolarining aql-zakovati va yuksak ma'naviyatini shakllantiruvchi, inson ma'naviy dunyosini boyituvchi, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantirishning ma'lum tizimidir. Bu tizim o'smirlarning aqliy, ma'naviy, axloqiy, estetik rivojlanishi tizimidan iborat bo'lib, o'zbek oilalarining kitobxonlikka doir boy an'anasi va hozirgi davrda to'plangan boy tajribasiga asoslanadi.

O'zbek oilasi bugun eski totalitar jamiyat mafkurasi singdirilgan kitoblardan voz kechmoqda. Yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan kitoblar tanlanmoqda. Bu jarayonda kitobxonlik pasayganday ko'rinsa ham, aslida u sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

O'smirlar ma'naviyati rivojlanib boruvchi faol jarayon. Shu sababli ota-ona kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga e'tibor berishlari lozim:

1. O'smirlarda kitob o'qish ishtiyoqinshakllantirish. Nihoyatda murakkab bo'lgan. Bu masala o'smirlarning kitobxonlikka bo'lgan munosabatini belgilaydi. Tan olish kerak, o'smirlarning bugungi kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo'li ota-onaning yordamga kelishidir. Maktabda o'qituvchi, uyda ota-ona bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, ya'ni murakkabligi jihatidan normal, bolaning kamolot darajasiga mos bo'lgan kitoblar tanlash qo'l keladi.

2. Kitob tanlashda o'smirning ma'naviy darajasini hisobga olish lozim. Ota-onaning o'smirda kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlashda yordam berishdir. Ularning saviyasiga mos bo'lgan adabiyotlarni keng targ'ib qilish o'smirlarni jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo'lib etishishi uchun va ma'naviyatining yuksakligi bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi. Buning uchun oilada kitobxonlik ruhi bo'lishi kerak. Kitob tanlashda o'smirning yosh xususiyatini hisobga olish o'smirning rasional o'sishiga olib kelsa, ma'naviy darajasini hisobga olish esa



intellektual rivojlantiradi. Bu esa rasionallikdan ko'ra keng qamrovli va samaralidir. Oiladagi kitobxonlik ruhi bevosita bola ruhiyatiga ham ta'sir etadi, shu sababli, bunda birinchi galda badiiy adabiyotni, keyinchalik ixtisosliklar bo'yicha kitoblarni tavsiya etish mumkin.

3. Kitob tanlashga ixtisoslashish. O'qituvchi, ota-ona o'smirni kitobxonga aylantirib borishida uni ixtisoslashtirib borish yo'lini tutishi kerak. Bu borada eski texnologiya - o'smir yuqori sinfga o'tganda ixtisoslashtirish kerak, degan fikrdan voz kechish lozim. Aksincha, dastlabki (boshlang'ich) bosqichlardanoq o'smirning ma'naviy dunyosi, tarbiya muhiti, qiziqishi, dunyoqarashi va ruhiy [xususiyatlari hisobga olinib](#), ixtisoslashtirilib borilishi kerak. Bu tajriba Amerika ta'lim tizimida o'zini oqlagan. Ularda bolani 12 yoshga qadar ixtisoslashtirishga harakat qilinadi va shunga qarab kitob tanlab beriladi. Bu dastlab mutaxassislarni cho'chitgan edi, lekin Amerika ta'lim tizimining keyingi 30 yillik tajribasi o'smirlarni boshlang'ich sinflardayoq ixtisoslashtirish samarali ekanligini isbotladi. Natija o'smirda mustakil fikrlash va harakat qilishga intilishning paydo bo'lishiga erishildi.

4. Kitobni ekspertizadan o'tkazish. Jamiyatimiz erkinlashib, demokratlashib borgan sari kitob nashr etish ishlarida ham erkinlik yuzaga kela boshladi. Tabiiyki, bu hol turli saviyadagi kitoblarning nashr etilishiga sabab bo'lmoqda. Shu ma'noda ota-ona bola uchun kitob tanlayotganida kitobning ma'no-mazmuni, uslubiy jihatdan mutaxassis ko'rigidan o'tkazib olishi maqsadga muvofiq. Bunday qilish tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan chalgimaslikka, o'smir ma'naviy dunyosining to'g'ri shakllanishiga va qo'yilgan maqsadga etishish uchun olib keladi. Bu tajriba o'zbek milliy pedagogikasi tajribasidan ham ma'lum. Ular talabga javob bermaydigan kitobni o'z farzandiga o'qishni qat'iy taqiqlagan. Bugun ham bu tarbiya jihati muhim sanaladi.

5. Kitob o'qishni kuzatib, nazorat qilib borish. Bugun ota-onalar tarbiya jarayonining natijasi bo'lgan kitobxonlik bilan ko'proqqiziqishi kerak. Shu ma'noda o'smirlar kitobxonligini monitoring kilib borish maqsadga etishning samarali jihatlaridan biridir.

Monitoring, kitobxonlik yuzasidan test sinovlari, kitobxonlik kechalari, muloqot, davra suhbatlari, turli mavzularda munozaralar, ilmiy-amaliy anjumanlar, suhbatlar, sosiologik-empirik tadqiqotlar va analitik tekshiruvlar vositasida amalga oshirilishi mumkin. Ma'lumki, kitobxonni avvalo kitobda tasvirlangan voqelik qiziqtiradi. Asta-sekin bu kizikish uning hissiyotiga ta'sir etib, tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini taqqoslay boshlaydi, tasvirlardagi go'zallikni ang'ay boshlaydi, qahramonlarning xarakteri haqida o'ylay boshlaydi, muallifning maqsadi bilan qiziqadi. Faqat bu borada biz kitob vositasida tarbiyalashning yangi usul va mexanizmlarini yaratishimiz lozim. Ota-onalar bolalarga kitob tanlashda, ayniqsa, o'smirlarning yoshi, ruhiyati, qiziqishi, didini hisobga olishi yoki zarur hollarda mutaxassislar bilan maslahatlashishi kerak. Shu bilan birga bola o'qiyotgan har bir badiiy asarning tarbiyaviy jihatlariga ham e'tibor berish zarur.

Kitob tanlashda faqat o'zbek adabiyotigina emas, qardosh va chet el adabiyoti namunalaridan ham bolalarga tavsiya etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sh.Pero Orinyanning "Qizil shapkacha", aka-uka Grimmlar, Mark Tven, Xans Xristian Andersen, Janni Rodari, Jonatan Svift, [Rasul Gamzatov](#), Nodar Dumbadze, Chingiz Aytmatov, A.S.Pushkin asarlari, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, S.Marshakning hikoyalari doimo bolalar uchun kiziqarli.

Oilalarda yana bir muhim muammo - kitobni asrash va uni o'zidan keyingi oila a'zolariga yoki boshqalarga yetkazishdir. Ko'pincha biz kuzatgan oilalarda kitob tanlash, uni o'qishga e'tibor beriladi-yu, lekin avaylab-asrashga, kitobga mehrni tarbiyalashga befarq qaraydilar. Kuzatishlar natijasida darsliklar, juda ko'p rangli bolalarbop kitoblar yirtilib, chizilib, axlat qutilariga tashlanganligining guvohi bo'ldik. Bolalarga "Kitob ham nondek aziz"ligini tushuntirishda kattalarning o'zi ibrat bo'lishi zarur. Ajdodlarimiz doimo kog'ozni uvol qilmanglar, uni avaylab-asranglar deb kelganlar. Bu an'anani yosh avlod ongiga singdirish bir tomondan bolalarda kitobni asrash eng muhim insoniy hislat sifatida shakllantirsa, ikkinchi tomondan hozirgi bozor iqtisodi sharotida kitob zahirasini yaratish muhim omil sanaladi. Ayniqsa, serfarzand oilalarda hox darslik bo'lsin, hox badiiy yoki ommaviy adabiyotlar bo'lsin, ular har bir xonadon a'zosisiga o'zidan keyingi oila a'zolariga ham kerakligini tushuntirish asosiy vazifalardandir.

Hozirgi davrda televizor qisman kitob o'qishni siqib chiqarayotir, degan e'tirozlar ham paydo bo'lmoqda. Lekin televizorda biror ko'rsatuvni ko'rish uchun har bir inson tayyorlanadi, o'ziga qulay sharoit yaratadi. Teledasturlar qaysi ko'rsatuvni qachon ko'rishga o'rgatadi. Agar kitob o'qish uchun ham ota-onalar ana shunday sharoit yaratsa, televizor ko'rish va tanlab kitob o'qishni, qiziqib o'qishni o'rgatsa, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Kitobxonlikda eng muhimi oilada kitobga mehr uyg'otish, uni avaylab-asrashni tarkib toptirishdir. Faqat allomalargina emas, ko'plab oddiy insonlar ham kitobni asrab-avaylaydilar. Xalqimiz azaldan "Kitob har narsadan aziz, uni peshonaga surtish - o'pish savob", deydi. Buyuk olimu adiblarimiz Oybek, G'afur G'ulom, Izzat Sulton, Mirzakalon Ismoiliiy va boshkalarining uy muzeylariga ota-onalarning o'z farzandlari bilan sayohatlarida bu insonlar uchun kitobdan boshqa aziz narsa bo'lmaganligi, ular kitoblarni avaylab-asraganlari, juda ko'p o'qiganlari ma'lum bo'ladi. Zero, xalqimizning kitobni e'zozlab ardoqlagani, nam tegmaydigan tokchalarda asragani, bo'sh vaqtlarini kitob mutolaasi bilan o'tkazganlari kitobga nakadar mehr-muhabbat qo'yganlarning guvohidir.

Bularning barchasi o'smirlarda shaxsiy kutubxona tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kitob yig'ishda uni ko'z-ko'z [qilish emas](#), balki o'z oilasidagi farzandlari va ularning do'stlarini ham bahramand qilishga olib keladi.

Olimlarning fikricha, bir odam butun umri davomida 2000 ta kitob o'qiy olish imkoniyatiga ega ekan. O'smirlik yillarida bola o'qigan kitob unda bir umrga iz qoldirishi muhim. O'smir endi bolalik davridan o'tgan. U o'qigan kitobidan mamnun bo'lib, zavq bilan o'qishi zarur. U endi kitobni yozuvchining badiiy mahoratiga qoyil qolib, so'zning hissiy bo'yog'idan ta'sirlanib, uni idrok qilib o'qishga o'tadi. Shunday ekan, u o'ziga yoqib kolgan kitoblar bilan oilasining shaxsiy kutubxonasini boyita boradi yoki o'zi shaxsiy kutubxona tashkil etish tashabbuskori bo'ladi.

Shaxsiy kutubxona egalarning qiziqishlari turlicha bo'lishi mumkin: mamlakatlar tarixi, ajoyib kishilar hayoti, ilmiy-fantastika, sayohatlar to'g'risida kitoblar, tarixiy qissa va romanlar, poeziya, san'at sohalariga doir kitoblar shular jumlasidandir. Badiiy adabiyotlar tarkibida qayta-qayta o'qiladigan yoki sevimli yozuvchilar tanlangan asarlarining bo'lishi ham maqsadga muvofiqdir. Bir marta o'qiladigan kitobni ommaviy kutubxonalardan olib o'qigan ma'qul. Bolalar kutubxonasi uchun kitob tanlaganda, asosan, turli yoshdagi bolalarni hisobga olish kerak. Ular uchun turli millat yozuvchilarining ertak, sarguzasht, ilmiy-fantastik kitoblarni ham ko'paytirish darkor. Bu ularning tafakkuri rivojlanishiga katta zamin tayyorlaydi. Darhaqiqat, mashhur pedagoglardan biri ta'kidlaganidek: «Kitob mutolaasi bilan o'tgan hayot — fikrlar go'zalligi bilan oshno bo'lish, madaniy boylikdan huzur qilish, o'z-o'zini yuqori ko'tarishdir». Barkamol avlodni voyaga yetkazmoq uchun ularni kitob bilan oshno qilishimiz, kitobni mayoq qilib qo'llariga tutqazishimiz lozim. Qalb tarbiyasini esa, biz kattalar o'zimizdan boshlashimiz kerak. Har bir oilada kam sonda bo'lsada kitoblar bo'ladi. Aksariyat hollarda esa bir necha o'nlab, yuzlab, minglab kitoblar bilan oila kutubxonasi bo'lishi mumkin

Boladagi barcha tarbiyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a'zolarning kitobga, o'qishga munosabati katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o'qishda ham bolalariga o'rnak bo'lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o'qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so'rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o'rganish (aniqrog'i o'rganish) muhimdir.

**Bolada kitob o'qishga ishtiyoqini shakllantirishda ota-ona kitob tanlashda quydagilarni inobatga olishi zarur:**

kitobning bola yoshiga mos kelishi;

kitobni bolaning [xarakteriga qarab tanlash](#);

kitobning bolaga o'zi qiziqadigan kasbni tanlashda turtki bo'lishi;

kitobning mazmuniga ahamiyat berishi;

kitobning qanday tilda yozilganligini e'tiborga olish.

Kitobxon - o'quvchi oilada o'rgangan hayotni kitobdagi hayotiy voqealar bilan boyitib, [hayot haqidagi tushunchalari](#), insoniy fazilatlar, yaxshilik, qadriyatlarini, avlodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr-tokatlilik fazilatlarini yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqea-hodisa badiiy obrazlardan, ta'sirchan shaklda ifodalandiki, unda o'smir yoshdagi kitobxon ko'p fazilatlarini o'rganish, ma'nan boy shaxs bo'lib shakllanishi mumkin.

### **13-mavzu Bolalarga kutubxona xizmati ko'rsatish masalalari**

#### **Reja:**

#### **1. Respublika bolalar kutubxonalarining tashkil topishi**

#### **2. Ta'lim mussasalari kutubxonalari tarmoqlarining rivojlanishi**

Bolalarga xizmat ko'rsatadigan kutubxonalar shohabchasini kengaytirish, ularni yaxshilash to'g'risida hukumatning kutubxonachilik ishi xaqidagi barcha xujjatlarida qayd qilingan. Jumladan, Markaziy komitetining "Kutubxona ishini yaxshilash to'g'risidagi" (1929 yil) qarorida kutubxonalardagi bolalarga xizmat ko'rsatadigan bolalar bo'limi shaxobchasini kam deganda 50 foizga ko'paytirish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, "Ommaviy kutubxonalar ishi to'g'risida" (1932 yil) gi qarorida markaziy tuman bolalar kutubxonalari tarmog'ini rivojlantirish, barcha kutubxonalar huzurida bolalar va o'spirinlar bo'limlarini tashkil etish tavsiya qilingan edi.

"Yoshlar ittifoqida kutubxonachilik ishi to'g'risida" gi (1934 yil) qarorida ittifoqdosh respublikalar maorif xalq komissarliklarining kutubxonalar boshqarmasi zimmasiga barcha ommaviy kutubxonalar, shu jumladan bolalar kutubxonalar ahvoriga ham javobgarligi yuklangan bo'lib har bir maktabda bolalar kutubxonasini barpo qilish ishini yanada kuchaytirish vazifasi qoyilgan edi. Mamlakatda maktab kutubxonalari tarmoqlarini rivojlantirishda, ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlashda xalq komissarlar kengashining "maktab kutubxonalari tarmoqlari va ular uchun adabiyot nashr etishni kengaytirish to'g'risida" gi (1936 yil 16 noyabr) qarori muhim rol o'ynadi. Xalq kamissarlari kengash 1937 yildan boshlab mavjud maktab kutubxonalari adabiyot bilan to'ldirish va kutubxonasi bo'lmagan maktablarda – boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktablarda o'quv kutubxonalari tashkil etish va ularni to'ldirish uchun zarur bo'lgan kitoblarning ro'yhatini tuzishni, ya'ni mamlakatda birinchi marta maktab kutubxonalari uchun olinadigan kutubxonachilik seriyalarini ishlab chiqishni ittifoqdosh respublikalar maorif xalq komissarliklari zimmasiga yukladi.

"Mamlakatda kutubxona ishining ahvoli va uni yaxshilash choralari to'g'risida" gi (1959yil) hamda "Fan texnika taraqqiyotida kutubxonalarning rolini oshirish to'g'risida" gi (1974yil) qarorlari, kutubxonachilik ishi to'g'risidagi (1984yil) nizomi mamlakatda bolalar kutubxonalari tarmoqlarini rivojlantirish, tartibga solish va ularning istiqbollari belgilashda yangi bosqichdir.

Agar 1918 yilda Toshkentda bittagina bolalar kutubxonasi ochilgan bo'lsa, 1934 yilda ular 33 taga yetgandi, 1959 yillarga kelib esa ularning soni 5 barobar, kitobxonlar soni esa sal kam 7 barobar ko'payadi. 1985 yilda O'zbekistonda bitta respublika, 13 ta viloyat bolalar kutubxonasi, 2 ta markaziy bolalar kutubxonasi va 462 ta bolalar kutubxonasi filiallari, 6068 ta ommaviy Davlat kutubxonalari, 8 mingta maktab kutubxonalari mavjud bo'lib, ular bolalarga kutubxonachilik xizmatini ko'rsatadi.

Mazkur kutubxonalarning kitob fondi to'g'risida rasmiy ma'lumotga ega emasmiz. Shuningdek, maktab kutubxonalari fondi, kitob berilishi xaqida ham ko'p narsa bilmaymiz, ammo shu narsa ma'lumki, maktab kutubxonalaridan qariyb 2 mln o'quvchi foydalanadi.

Bolalar bo'limi yoki fondi bo'lgan ommaviy davlat kutubxonalari bolalarga xizmat ko'rsatishdagi asosiy kamchilik shuki – bunday kutubxonalarda bolalar fondi uncha katta bo'lmaydi, ko'pincha bir ikkita javondan iborat bo'ladi (kitoblarni normal joylashtirganda har

bir javonda o'rtacha 300-350 ta kitob saqlash mumkin). Mazkur kutubxonalarda bolalar bo'limi bo'lmasa, xizmat ko'rsatish ham malakali olib borilmaydi, chunki bu yerdagi xodimlar bolalar bilan ishlash xususiyatlarini yaxshi bilishmaydi.

Bolalar kutubxonalarini xodimlarining Butunrossiya kengashidagi (1933yil) shunday deyilgan edi: "rahbarlik turlari bolalarning mustaqil faoliyatini bo'g'masligi lozim. Kutubxonashunoslik ishida ham huddi shunday... Shuningdek, bolalarga bir andoza bilangina yondashmasdan, bola taraqqiyotini boshqarar ekanmiz, undan ongli tarbiyalar ekanmiz, uning kamolotga yetishiga keng imkoniyat yaratib berishimiz kerak" kitobxonlarga rahbarlikning muhim turlaridan biri tavsiyali katalog bo'lib, uni tuzish ustida durustroq ishlash lozim to'g'risida ko'rsatib o'tilgan edi. Ma'lumki Madaniyat ministrligiga qarashli davlat bolalar kutubxonalarini to'la markazlashtirilgan edi. Respublikada 2 ta shahar bolalar kutubxonalarining mustaqil Markazlashgan sistemasi (Toshkent va Andijon shaharlarida) shuningdek 462 ta bolalar filiali ommaviy davlat kutubxonalarining markazlashtirilgan sistemasiga kiritilgandir.

"Davlat ommaviy kutubxonalarini markazlashtirish to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq bolalar kutubxonalarining mustaqil tizimi bolalar kutubxonalarining soni 8-10 tadan kam bo'lmagan, kattalar kutubxonalar bolalarga xizmat ko'rsatmaydigan shaharlarda tuzilishi mumkin edi. Shu prinsipga muvofiq Toshkent shahrida bolalar kutubxonalarining mustaqil umumshahar markazlashgan tizimi barpo qilingan. Uning tarkibida 40 dan ortiq sobiq bolalar kutubxonalarini birlashtirilgan. Tabiiyki, bunday holda kattalar kutubxonalarida bolalar bo'limlari tashkil etilmaydi.

Bolalar kutubxonalarini kattalar kutubxonalarini bilan bir tizimga birlashtirilganda esa, tizimning bolalar bo'linmalari tarmog'i shahar, tuman markaziy bolalar kutubxonasidan, bolalar filial – kutubxonalarini, kattalar kutubxonalarini qoshidagi bolalar bo'limlari, kitob berish shahobchalarini, ko'chma kutubxonalar va bibliobusning to'xtash shahobchalaridan iborat bo'ladi.

Davlat ommaviy kutubxonalarining markazlashtirilgan tarmog'ida Markaziy bolalar kutubxonasi – butun tarmoqda bolalarga xizmat ko'rsatishning ahvoriga javob beradi. U o'z faoliyatini shahar yoki tumandagi mavjud maktab kutubxonalarini bilan bog'lab olib boradi.

Markaziy bolalar kutubxonasi fondini shakllantirishda barcha bo'limlardagi kitobxon – bolalarning har biriga 6 ta kitob to'g'ri kelilishini hisobga olmoq zarur. Kitobxon bolalarning yosh grupalariga qarab, ularga badiiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar tarkibi belgilanadi. Masalan maktabgacha yoshdagi bolalar va 1 sinf o'quvchilari uchun badiiy adabiyot 98-99% miqdorida, ilmiy –ommabop adabiyotlar esa 1-2% miqdorida; 2-3 sinf o'quvchilari uchun tegishli ravishda 80-85% va 15-20%; 4-5 sinf o'quvchilari uchun 75-80% va 20-25%; 6-8 sinf o'quvchilari uchun 65-70% va 30-35% adabiyot bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Lekin shuni qayd qilish kerakki, respublikada umuman kutubxona fondlarini to'ldirishda jiddiy kamchiliklar mavjud. Ayniqsa, kutubxonalarini milliy tillardagi adabiyotlar bilan ta'minlash deyarli 50% ga, badiiy va bolalar adabiyotiga bo'lgan ehtiyoj esa atigi 20-25% gina qanoatlantirilmog'ida. Bolalar kutubxonalarining fondlarida sinfdan tashqari o'qish uchun O'zbekiston Maorif ministrligi tavsiya etgan kitoblarning 30-50%i, qishloq tarmoqlarida esa 80% nigina mavjud.

Bolalarga kutubxona xizmati ko'rsatishda maktab kutubxonalarini potensialidan to'la foydalanish zarur. Respublikadagi 8 mingdan ortiq maktab kutubxonalarining fondlarini davr talabiga javob bermaydi, asosan darsliklar fondidagina tashkil topgan, fondni to'ldirish uchun maxsus mablag' kam ajratilmog'ida. Bu kutubxonalarda kutubxona hisoboti juda yomon yo'lga qo'yilgan, kitobxonalar bilan ishlash, ularga differensial yondoshish, davlat kutubxonalarini bilan o'z ishlarini muvofiqlashtirish, ayniqsa malakali kadrlar bilan ta'min etish haligacha muammo bo'lib qolmog'ida.

Maktab kutubxonalarini ahvolini tubdan yaxshilashning birdan-bir yo'li – ularni davlat bolalar tarmog'iga birlashtirish asosida markazlashtirishga o'tkazishdir. Mamlakatda maktab islohatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirishning garovi bolalarini kutubxonalardan yanada kengroq foydalanishga

o'rgatish, kutubxonalarni bolalarning turmushiga ko'proq singdirishdir.

#### **14-mavzu: O'zbekistonda kutubxonalarga metodik rahbarlikning tashkil etilishi**

##### **Reja:**

**1. Respublika kutubxonalarga metodik rahbarlikning shakllanishi va rivojlanishi**

**2. Kutubxonalarga yagona rahbarlik metodik markazlar faoliyati**

**3. Kutubxonalarga metodik rahbarlik qilish tizimi**

O'zbekistonda kutubxonalarga metodik rahbarlik qilishning shakllanishi va uning rivojlanishi Metodik markazlar xisoblangan mamlakatimizdagi yirik kutubxonalar ommaviy kutubxonalarni mustahkamlashda, instruksiya berish ishida juda kata rol o'ynashi, ayniqsa Maorif Xalq komissarligi huzuridagi "Kutubxona ishi bo'yicha kengash" kutubxonalar ishini muvofiqlashtirishda, ularga tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirishda ko'maklashishi zarur edi. Kutubxonalarga tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirishning **asosiy prinsiplari** ishlab chiqilgan edi. Ular quyidagilardan iborat edi:

**1. Kutubxona ishiga rahbarlik organlarining muhim vazifalaridan biri uni metodik jixatdan to'g'ri boshqarishdir. Ular bu ishni markaziy kutubxona-metodik markazlar yordamida amalga oshiradilar.**

**2. Markaziy kutubxonalar metodik jixatdangina emas, balki tashkiliy rahbarlikni ham amalga oshiradilar.**

**3. Kutubxonalarga yagona rahbarlik metodik markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va kooperasiyalash asosida ta'minlanadi.**

Ana shu prinsiplar O'zbekistonda kutubxonalarga metodik rahbarlik qilishning yagona sistemasini barpo qilishda amaliy ifodasini topadi.

Kutubxonalarga metodik rahbarlik qilish sistemasi idoraviy va sohaviy-territorial prinsiplar boyicha tashkil topgandir. Har bir idora va soha kutubxonalari ma'muriy-territorial prinsipga ko'ra – ittifoq, respublika viloyat, tuman, shaxar kutubxonalarini metodik markazlarini tashkil etadi.

Viloyat kutubxonalari respublikadagi 197 ta Markaziy tuman va shaxar kutubxonalariga, ular esa markazlashtirilgan kutubxonalar tizimi tarkibiga kirgan 6154 ta filial va sistemaga kirmagan 75 ta ommaviy davlat kutubxonalariga metodik rahbarlikni amalga oshiradi. Huddi shu tariqa boshqa idora va sohalarga qarashli kutubxonalarning o'z metodik rahbarlik sistemasi ish olib boradi. O'zbekistonda Toshkent davlat universitetining ilmiy kutubxonasi – respublikamizdagi turli idoralarga qarashli 43 ta oliy o'quv yurti va 52 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari kutubxonalariga metodik rahbarlikni amalga oshiradi.

Respublikada ilmiy – texnika kutubxonalari uchun – Respublika ilmiy – texnika kutubxonasi (O'zbekiston ilmiy – texnika axboroti ilmiy-tadqiqot institutiga qarashli) ; sog'liqni saqlash kutubxonalari uchun – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika ilmiy – medicina kutubxonasi; O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining respublika ilmiy-pedagogik kutubxonasi; kasaba kutubxonalari uchun – O'zbekiston respublikas tayanch kutubxonasi metodik rahbarlikni amalga oshiradi. Respublikada metodik ishlarni O'zbekiston respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Idoralararo kutubxonachilik davlat komissiyasi muvofiqlashtiradi. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi qoshidagi Idoralararo kutubxonachilik kengashi uning ichiga organi hisoblanadi.

Metodik rahbarlikning maqsadi kutubxonalar ishi darajasini oshirish va barcha kutubxonachilik jarayonlariga aktiv ta'sir ko'rsatib, fan, madaniyat hamda ishlab chiqarish zaruriyatini hisobga olgan holda barcha kutubxonachilik resurslaridan yanada to'laroq va unumliroq foydalanishga yordam berishdir. Shu maqsadda metodik rahbarlik quyidagi masalalarni hal etishi lozim:

1) Kutubxonalarga tashkiliy-metodik yordam ko'rsatish (aholiga kutubxonachilik xizmatini uyushtirish, kitobxonlar bilan ishlash va ularning o'qishiga rahbarlik qilish, kutubxona



fondlarini shakillantirish, kutubxonalarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va hakozi);

- 2) Ilg'or kutubxonachilik tajribalarini o'rganish va tarqatish;
- 3) Kutubxonachi kadrlar malakasini oshirish;

Bu vazifalarni amalga oshirish metodik faoliyatning uch asosiy yo'nalishini belgilab beradi.

Ilmiy – metodik ishlarni kutubxona ishiga raxbarlik qiluvchi organlar va ilmiy-metodik markaz – A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasidir. Bu kutubxona respublikada kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining markazi sifatida O'zbekistondagi boshqa tarmoqlar metodik markazlari faoliyatini muvofiqlashtiradi. Mazkur kutubxona respublikadagi metodik markazlar faoliyatini mustahkamlash va ularga yordam berish ishlarini uyg'unlashtirish maqsadida ilmiy-amaliy konferensiyalar, kengashlar, seminarlar uyushtiradi, kutubxonalar faoliyatini o'rganish, metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar sistemasini yaratish, ilg'or kutubxonachilik tajribalarini aniqlash, o'rganish va joriy etish, kutubxona xodimlari malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi. Keyingi vaqtlarda idoralararo joylarga borish ishini uyushtirish tajriba qilib ko'rilmogda. Masalan, Davlat kutubxonasi o'zbekiston kasaba uyushmalari respublika tayanch kutubxonasi va boshqa kutubxonalar xodimlari qo'shib, viloyat kutubxonalarida kutubxonalararo abonament ishini o'rganish bo'yicha joylarga boorish ishi uyushtirilmoqda. Mazkur tadbir idoralararo o'zaro yordam va hamjihatlikning samarali usuli bo'lib, bu tegishli masalalarga doir barcha muammolarni o'sha joyning o'zida hal etishga, tarmoq mutaxassislari bilan yaqindan aloqa o'rgatishga yordam beradi, o'rinsiz yozishmalarga chek qoyadi.

O'zbekiston respublikasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat kutubxonasi tomonidan chiqarilgan "O'zbekiston respublikasida kutubxona ishiga oid metodik qo'llanmalar sistemasi" – degan rejaga muvofiq metodik markazlarning hilma-hil ko'rsatma materiallarini, respublikaning muhim sanalariga bag'ishlangan qo'llanmalarni, respublikadagi ilg'or kutubxonalar ish tajribalari bayoni, o'zbek va klassik adabiyot vakillari asrlarini targ'ib qilishga oid materialarni, shuningdek kutubxona xodimlari turli kategorialari uchun simenar mashg'ulotlarining dasturlarini nashr etib, joylarga tarqatadilar. A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining ilmiy metodik va funiksional bo'limlari xar yili o'zbek tillarida 30 nomga yaqin metodik qo'llanmalar nashr etib, joylarga tarqatish uchun viloyat kutubxonalarga jo'natadi. Ilmiy-metodik bo'lim tomonidan viloyat kutubxonalariga tuzgan "Metodik qo'llanmalar obrazi" ikki yilda bir marta tayyorlanadi va unda viloyat kutubxonalari nashrlari tahlil qilinib, ularni yaxshilash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Metodik markazlarning ilmiy-metodik ishlar sifatini yaxshilash va uni yanada takomillashtirishda, ular faoliyatini muvofiqlashtirishda respublika va viloyat kutubxonalari direktorlari kengashlarining tashkil etilishi muhim ahamiyatga egadir. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi huzuridagi idoralararo viloyat kutubxonalari direktorlari Kengashi xar hil tarmoqqa qarashli viloyat metodik markazlar faoliyatini yagona maqsad yo'lida muvofiqlashtirishni ta'min etsa, viloyat kutubxonalari xuzuridagi tashkil etilgan markazlashtirilgan kutubxonalar sistemalari direktorlari Kengashi Madaniyat ministirligi sistemasidagi kutubxonalarining xamjixat ishlashini ta'minlaydi. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi kutubxona xodimlari malakasini oshirish masalasiga kata e'tibor bermoqda. Rejali ravishda tashkil etilayotgan respublika, viloyat va rayon miqyosidagi seminarlar, tajriba almashishlari va ilg'or tajriba maktablarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar malaka oshirishning eng ta'sirchan shakillaridir. Bu sohada respublika madaniyat xodimlarining malakasini oshirish institute kata ishlar olib borilmoqda. U respublika davlat kutubxonasi bilan hamkorlikda barcha markazlashtirilgan sistemalar direktorlarining malakasini oshirishga muvaffaq bo'lmoqda. O'zbekistonda kutubxona tarmoqlarining markazlashtirilishi natijasida metodist kadrlarga bo'lgan talab ayniqsa ortmoqda. Faqat markazlashtirilgan tizimlarda 535 ta metodist ishlayotgan bo'lib (shu jumladan -128 kishi bibliograflardir), ulardan uchdan bir qismi kutubxonachilik bo'yicha oilyma'lumotga, to'rtidan bir qismi kutubxonachilik bo'yicha o'rta ma'lumotga egadir. Andijon, Jizzax, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona oblastlari MKTlarida jami metodistlarning yarmi umumiy o'rta ma'lumotga, Toshkent viloyatidagi 20 metodistdan faqat 3

tasi maxsus ma'lumotga ega (1983 yilgi ma'lumot).

Respublikadagi kutubxonachi qadrlar malakasini, ularning kasbiy maxoratini oshirish tizimiga asosan metodik bo'limi mudirlari keng jalb qilinadi. Ular ko'pincha, respublika miqyosida uyushtiriladigan seminarlar, kengashlar va ilmiy – amaliy konferensiyalarga chaqirilib, davlat kutubxonasi bazasida stajirovkadan o'tadilar. Bunday tadbirlar metodik markazlardagi rahbar qadrlarning bilim darajasini davr talabi darajasiga ko'tarishga va kutubxonalar ishining yaxshilanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekistonda davlat kutubxonalariga metodik raxbarlik qilish sistemasidagi yana bir muhim bosqich viloyat kutubxonalaridir. Viloyat kutubxonasi ilmiy universal kutubxona bo'lib, tumanda ilmiy-metodik ishlarni muvofiqlashtiruvchi markaz, shuningdek, barcha viloyat kutubxonalari uchun kutubxonalararo abonament markazi vazifasini o'taydi. Viloyat kutubxonalari butunittifoq va respublika ilmiy-metodik markazlari tavsiyalari va boshqa metodik materiallarini o'z tuman kutubxonalari ishiga joriy etishga yordam berishi tumandagi markaziy kutubxonalar ishini tahlil qilishi ularning mahalliy va milliy xususiyatlariga bog'liq bo'lgan muammolarini ishlab chiqish, hamda ilg'or kutubxonachilik tajribalarini aniqlash, o'rganish, umumlashtirish va ularni tarqatish asosida viloyatdagi barcha kutubxonalar ish darajasini ko'tarishga erishi lozim. Hozirgi vaqtda respublikamizdagi viloyat kutubxonalari har yili o'rta xisobda mingdan ortiq shunday chiqishlar tashkil qilib, ulardan deyarli yarmisi davlat kutubxonalarini boshqa idoralarga qarashli kutubxonalarni qurish uchun uyishtirilgan bo'ladi.

Kutubxonalar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlash, nashr etish va ularni joylarga tarqatish metodik rahbarlikning muhim yo'nalishidir. Metodik rahbarlik ishi umuman kadrlar malakasini oshirishni, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash sistemasini takomillashtirishni taqozo etadi. Bu borada ishlayotgan xodimlarga Respublika madaniyat xodimlari malakasini oshirish institutida maxsus metodist kadrlar uchun kurslar ochish, respublikadagi mavjud kutubxonachi kadrlar tayyorlaydigan Toshkent Davlat Madaniyat instituti kutubxonashunoslik fakultetida kutubxonachi-metodistlarning maxsus guruhini qo'shimcha ixtisos bilan tayyorlashga o'tish zarur.

Kutubxonachi kadrlarni, ayniqsa metodistlar mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish, kutubxonachilik ishiga, unga rahbarlik qilishga kasaba uyushma vakillarini yanada ko'proq jalb qilish kutubxonachilik ishini, uning samaradorligini va sifatini oshirishning muhim rezervlaridi

## **15-mavzu: Kutubxonachilik sohasida kutubxonachi shaxsining ijtimoiy moslashuvi**

### **Reja:**

**1. Kutubxona-axborot faoliyatining jamoatchilik xarakteri va kutubxonachi mehnatining ijodiyligi.**

**2. Kutubxonachi shaxsiga bo'lgan umumkasbiy talablar.**

**3. Kutubxona-axborot faoliyati va kutubxonachilik mutaxassisliklari**

Kutubxonachi o'quvchilarga formulalar ochadi, shu formularlarga berilgan kitoblarning nomi va raqamlarini yozib qo'yadi. Kutubxonachi yana nimalar bilan band? Kutubxonada tartibni saqlaydi, eskirgan kitoblarni ta'mirlaydi, yaroqsiz holga kelib qolgan kitoblar ro'yxatini tuzadi, kelgan nashrlarni qabul kiladi, tizimli va alfavit kataloglarni to'ldiradi, o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazadi. Faqat shumi? Aslida, kutubxonachining ishi oson va unchalik ham oddiy emas. Zamonaviy kutubxonaning vazifasi – o'quvchilarning kichik tirajda nashrga berilgan yoki bo'lmasa ancha oldin nashr etilgan va qayta nashrga berilmagan kitoblar orasidan eng siyraklari bilan tanishish uchun imkoniyatlar yaratish. Bunday nashrlarning tizimlashtirilishi bo'yicha ishlarni faqatgina juda ham savodli odam amalga oshira olishi hammaga ayon. SHuningdek, elektron kutubxona va elektron baza bilan ishlay olish, o'quvchilarga nafaqat kitoblarni, balki elektron kitoblarni va kerakli saytlarni topishda ko'maklashish ham ularning vazifasi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida kutubxonachilar – juda ham hurmatga sazovor insonlar, hatto

ilmiy xodimlar ham ulardan maslahat so‘rab murojaat qilishadi. Toshkentda A. Navoiy nomidagi kutubxonaning tashkil etilishi kitobxonlar uchun jahon standartlariga mos imkoniyatlarning yaratilishiga imkon berdi. U erda maxsus ma’lumotni qo‘lga kiritgan malakali mutaxassislar, operatorlar, dasturchilar va boshqa xodimlar ishlashadi. Albatta, mamlakatimizdagi boshqa kutubxonalarda ham bugungi kunda maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassislar ishlashadi, faqatgina ularning aksar qismi qirq yoshdan katta va ularning orasida, deyarli, erkaklar yo‘q.

Zamonaviy kutubxonachi nafaqat Internetning mohir foydalanuvchisi bo‘lishi, balki turli xildagi kutubxona qidiruv tizimlarini yaxshi tushunishi kerak. Mohiyatiga ko‘ra, XXI asr kutubxonachisi – foydalanuvchilarga kerak bo‘lgan ma’lumotning samarali – aniq va tez qidiruvini ta’minlovchi konsultant. Bir so‘z bilan aytganda, bu kasb yaxshi bilim va har tomonlama rivojlanganlik, xushmuomalalik va matonatni talab qiladi, bundan tashqari, u karerada ko‘tarilish imkoniyatini ham o‘z ichiga oladi. Eng muhimi, hech qanday xarajat qilmsdan xohlagan kitobingizni maza qilib o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Bu esa juda ajoyib! SHunday ekan, sizga omad, bo‘lg‘usi kutubxonachilar!

**1. Kutubxonachilik mutaxassisligi va kutubxonachi shaxsining ijtimoiy yo‘naltirilganligi.** Kutubxonachilik kasbining mutaxassislik sifatida tan olinishini 1876 yil bilan, ya’ni dunyo b‘yicha birinchi b‘yilib kutubxonachilarning professional birlashmasi – Amerika kutubxonachilar assotsiatsiyasi barpo b‘ylishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Professional kutubxonachilik bilimlarini y‘qitish 1887 yildan boshlab, ya’ni Germaniyada universitet miqyosida kutubxonachilik b‘yicha kafedraning, AQSH larida esa birinchi kutubxonachilik maktablarining ochilishi bilan boshlangan.

1908 yili Rossiyada kutubxonashunoslik Jamiyati ochildi va uning tashabbusi bilan 1910 yili «Kutubxonachi» jurnali nashr qilina boshlandi.

20-yillarda oliy va y‘rta pedagogik va maktabdan tashqari oliy y‘quv yurtlari va texnikumlarida kutubxonachilik fakultetlari (b‘yilimlari) ochildi. Ammo, kutubxonachilik kasbining muammolari kompelsini ilmiy asosda ishlab chiqish XX asrning 60-yillaridan boshlandi.

Y‘zbekistonda kutubxonachilik ta’limi XX asrning 20-yillari oxir-laridan kiritila boshlandi, chunki shu davrga kelib davlatimizning qishloq rayonlari uchun kadrlarni tayyorlash maqsadida kutubxonachiik kurslari ochila boshlandi. Ushbu tizim 70-yillargacha amal qildi va 80-yillarning oxirlariga kelib pullik asosda qayta jonlandi. 1937 yili kutubxonachilik mutaxassisligini tayyorlash b‘yicha birinchi y‘quv yurti – Toshkent kutubxonachilik texnikumi ochildi. 50-60-yillarning oxirlarida Namangan, Qarshi, Buxoro, Nukusda kutubxonachilik b‘yilimi b‘ylgan madaniy-oqartuv texnikumlari ochildi. Oliy kutubxonachilik bilimini berish 1958 yilga tyg‘ri keladi, chunki shu yili Qyqon pedagogika instituti qoshida kutubxonachilik fakulteti ochildi, 1960 yili u Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga, 1974 yili esa yangi tashkil etilgan A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutiga ytkazildi. Fakultet «Kutubxona-axborot faoliyatini boshqaruv» fakulteti nomi bilan qayta nomlandi va respublika korxonolari uchun axborot, kutubxona, arxiv va kitob savdosi b‘yicha bakalavr va magistrnlarni tayyorlaydi.

70-yillar y‘rtalaridan boshlab kutubxonachilik mutaxassisligi maxsus tadqiqot predmeti b‘yla boshladi. Moskva va Leningrad madaniyat institutlari, Rossiya RDK (Rossiya davlat kutubxonasi), RXK (Rossiya xalq kutubxonasi), Ukraina FA XK (xalq kutubxonasi) larning kyp qirralli izlanishlari kutubxonachilik mutaxassisligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, mehnatdan qoniqish, kadrlar davomiyligi, yosh mutaxassislarning professional va sotsial moslashuvi, kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish masalalarini yz ichiga olar edi.

Kutubxonachilik mutaxassisligiga qyyladigan asosiy talablardan biri – vakillarining sotsial va professional pozitsiyada qat’iyatligi. Kutubxonachi pozitsiyasi – bu olamga, kutubxonaviy haqiqatga va kutubxona faoliyatiga intellektual va emotsional-baholovchi



munosabatda b'ylish tizimi b'ylib, u uning faollik manbasi hisoblanadi.

Kutubxonachi pozitsiyasi orqali uning shaxsi, sotsial oriyentatsiyasi, fuqarolik xulqi va faoliyati turi shakllanadi. Kutubxonachining sotsial faolligi shaxs sifatidagi k'yratkichi kutubxonachi funksiyalarining sotsial rolini, professional majburiyat va g'ururini, y'zining mutaxassisligini hurmat qiluvchi, kitobxonlar bilan pedagogik munosabat madaniyati, professional y'z ustida ishlash va y'zini tarbiyalash kabi uning professional mahorati hisoblanadi.

Kutubxonachining sotsial pozitsiyasi uning k'yp'roq professional pozitsiyasi va professional y'naltirilganligini aniqlaydi. Axborotlar t'yplami ichida b'ylgan xolda kutubxonachi hayotiy tajribani aniq, haqiqiy aks ettiruvchi ma'lumotlarni tasvirlash va xotirada saqlashga harakat qiladi.

Kutubxonachilik mutaxassisligini sha kasb vakillarining eng mashxur nomlari ulug'ladi. Ular orasida: M.V. Lomonovning shogirdi – S. Kotelnokov, mashxur matematik N. Lobachevskiy, taniqli masalchi I. Krilov, san'atshunos V. Stasov. Y'zining yarim asrlik umrini Imperator ommaviy kutubxonasiga bag'ishlagan V.V. Stasov g'urur bilan shunday degan: «Men, faqatgina kutubxonachi b'ylib tug'ilganman».

**2. Kutubxonachilik faoliyatining jamoaviy xarakteri va kutubxonachi ishining ijodiy tabiati.** Kutubxonachilik faoliyatida oxirgi natijaga erishishda har bir kutubxonachining ulushini ajratib k'yratish juda mushkul. Shuning uchun kutubxona jamoasini shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Qayerda yagona ish dasturi, y'z faoliyatini baholashga yagona munosabat va hokazo b'ylmagan kutubxonachilar jamoasi b'ylsa, y'sha yerda samarali kutubxonaviy jarayon ketmaydi.

Haqiqiy jamoaning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- yaxshi ruxiy (psixologik) muhit;
- fikrlar, qarashlar, birliklarning birligi (egoizm va g'arazning y'qligi);
- ijodiy atmosfera.

Bu belgilar umumiy ish, qiziqish, maqsadni aniq tushunish, mazmun, kutubxona faoliyati va ish jarayonida y'z y'rnini bilishni tashkil etilgan jamoalarga xosdir.

Kutubxona jamoasini shakllantirish – sotsial-psixologik muammo b'ylib, u shaxsning psixologik xususiyatlarini, menejment asoslarini, bir qator sotsial-psixologik muammolarni yechishni y'rganishni talab qiladi.

Kutubxona faoliyati, boshqalar kabi, nafaqat miqdor, balki sifat xarakteristikasiga ham egadir. Kutubxonachi ishini tashkil etishi va uning mohiyatini, faqatgina y'z faoliyatiga ijodiy yondashuvini hisobga olgandagina t'yg'ri baholash mumkin. Kutubxonachining shaxs sifatidagi ijodiy potensialini u t'yplagan sotsial tajriba, sotsial kutubxona-shunoslik, psixo-pedagogik va boshqa bilimlar va yangi fikrlar, bilim va k'ynikmalar, original yechimlarni q'yllash va izlash imkoni, novatorlik formalari va usullari, shu bilan birga, y'zining professional funksiyalarini takomillashtirishi asosida shakllantirish mumkin.

Tashkil etish formasi, nuqtai-nazaridan, kutubxonachilik kasbi mustaqil ijodiy mehnat, doimiy topshiriqlar doirasidagi mehnat, shuningbek, vaqti va protseduralari b'yyicha qat'iy reglamentlangan mehnat turlarini y'z ichiga oladi.

Kutubxonachilik ishi mohiyatini funksional tahlili quyidagi uch asosiy kutubxona kadrlari guruhini ajratib olish imkonini beradi:

1) oliy kutubxonachilik va sohaviy bilimlarni olgan kutubxona mutaxassislari. Ular yuqori intellektual va professional potensialga ega b'ylib, kutubxona faoliyatida professional bilimga ega b'ylgan xoldanazariy va ilmiy yondashgan xolda ishni bajaradilar;

2) y'rta kvalifikatsiyali kutubxonachilar, k'yp'roq y'rta (kutubxona yoki boshqa maxsus) ma'lumotlilar b'ylib, ular kutubxona jarayonlarining tashkiliy-texnologik kompleksidagi ishlarni bajaradilar;

3) kutubxonachilarning yordamchilari (kichik kutubxonachilar, yordamchi personal) umumiy y'rta ma'lumotli b'ylib, ular alohida operatsiyalarni, maxsus kvalifikatsiya talab qilmaydigan boshqa ishlarni bajarish k'ynikmasiga ega b'yladilar.

Bir qator sabablarga k'yra, kutubxonachi shaxs sifatida k'yp xollarda texnik, sotsial,

tashkiliy va iqtisodiy yzgarishlarga qarshilik kyrsatadi. Ijodiy faolligini tarbiyalash, ishga ijodiy yondashishga qiziqtirish uchun quyidagilar zarur:

1) kutubxonachilarga uning imkoniyatlari haqida ma'lumot berish, doimo yangilarini, ilg'orlarini yrganish va ularni eskilari bilan solishtirish imkonini berish kerak;

2) kutubxonachiga tahlil va ratsionalizatorlikka arziydigan mustaqil masalalarni izlash, unda analitik qobiliyatni tarbiyalashda yordam berish kerak;

3) zarur uslubiy yordam, maslaxat berish, tadqiqot va eksperimental ishlarga jalb qilish kerak. Ishga ijodiy munosabat darajasini oshirish, kutubxonachi imkoniyatlarini rivojlantirish asosida kutubxonachi lavozimiga ishga qabul qilinayotganlarni attestatsiya qilish va talablarni ishlab chiqish amalga oshir

## **16- mavzu: O'zbekistonda kutubxonachilik ishini tashkil etishning hududiy xususiyatlari**

### **Reja:**

#### **1. O'zbekiston kutubxonachilik ishining tashkil etilishi**

#### **2. Respublika kutubxonalarida o'zbek tilidagi nashrlarning o'rganilish masalalari**

O'zbekistonda kutubxonachilik ishini tashkil etishda xududiy va milliy xususiyatlar mavjudki, ularni hisobga olmaslik g'oyaviy ishlarning samaradorligini pasaytiradi. Jumladan, ko'p millatlilik va u bilan borliq bo'lgan ko'p tillilik; turilishning yuqori darajasi va natijada ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan ko'plab bolalik onalarning mavjudligi; ijtimoiy mehnat tuzilishida qishlok xo'jalik mehnatining sanoat mehnatidan, jismoniy mehnatning aqliy mehnatdan ustunligi; mehnat sharoitining bir xilda emasligi; aholi o'rtasida diniy an'ana va aqidalardan axloqiy tarbiyalashda foydalanishni yo'lga qo'yish; tabiiy iqlim sharoiti har xil bo'lgan mintaqalarda qishlok; xo'jaligining paxtachilik va yaylov chorvadorligi kabi sermashaqqat sohalari mavjudligi kutubxonachilik xizmati ko'rsatishni tashkil etishda maxsus shakllardan foydalanishni taqozo etadi.

**O'zbekiston Respublikasida 136 millat vakillari yagona, ahil oila bo'lib yashab, mehnat qilmoqdalar. O'zbekistonda ikkita davlat tili:**

O'zbek, qoraqalpoq tillari amalda ishlatilib, davlat va boshqa hujjatlar shu tillarda yuritiladi, barcha nashrlar asosan shu tillarda chop etiladi, bundan tashqari, rus, tojik, tatar, qozoq tillarida vaqtli matbuot nashrlari chiqarilib, radio va televideniye eshittirishlari tayyorlanadi.

**Xozir O'zbekistonda aholining tez o'sib borishi kuzatilmoqda.** Masalan 1975 yilda respublikada 13 689 000 kishi istiqomat qilgan bo'lsa, 1991 yilda aholi 21 million kishidan oshib ketdi. O'zbekiston hududida har bir kvadrat kilometrga to'g'ri keladigan aholi 1959 yildagi 18,1 kishi o'rniga 44 kishini tashkil etadi. Aholi eng zich joylashgan viloyati Andijon (411 kishi), eng kam joylashgan viloyat Navoiy viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi (7 kishi) hisoblanadi. Ayni vaqtda, aholining tabiiy o'sishi 1980-1986 yillarda doimo ortib borganligi (ming aholiga 1980 yilda 26,4 kishidan 1985 yilda 30,0 kishigacha va 1986 yilda 30,8 kishini tashkil etgan), bunday keyingi yillarda bu ko'rsatkich pasayganligi (1987 yilda-30,1, 1988-28,3) kuzatiladi, bu taxminan 1970 yilgi o'sishdan sal ko'proqdir (28,1 kishi). Respublikadagi tugilishlar soni esa 1980 yildagi 540,0 ming kishidan 1987 yilda 714,4 minggacha o'sib, 1988 yilda bu ko'rsatkich 694,1 ming kishini tashkil etgan. Bu yerda aholi o'sishi va tug'ilishlar miqdorining kamayib borishini tabiiy bir hol deb tushunmoq zarur. Unga juda ko'p omillar ta'sir qilgan bo'lib, ulardan eng avvalo bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari nisbatining buzilishi bilan baholanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2023-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlari bo'yicha bergan ma'lumotida doimiy aholi soni 36,4 mln kishini tashkil etmoqda** (2021-yilda bu raqam 34,9 mln, 2022-yilda 35,6 mln nafar bo'lgan). **Ulardan:**

- **Ayollar** - 18,1 mln,
- **Erkaklar** - 18,3 mln nafar.

## **Shaharda yashovchilar 18,6 mln kishi bo'lgan bir paytda qishloqlarda 17,8 mln aholi istiqomat qilmoqda.**

Masalan, aholining ilmiy-asoslangan o'rtacha o'sishi darajasini bilish asosida ma'lum muddatda Respublikadagi axoli miqdoriga muvofiq zarur kutubxonalar tarmog'ini vujudga keltirish (aholining kutubxonalar xizmati bilan kamrab olinishi), kutubxonalar fondining qay darajada ortib borishi (aholining va ki- tobxonlarning kitob bilan ta'minlanganlik darajasi) belgilanadi, ularga muvofiq kutubxona binosini loyihalari tayyorlanadi hamda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy mehnat bilan band bo'lgan kishilar jami axolining 40,3 foizini tashkil etib, bu mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDX,) mamlakatlari. o'rtacha kursatkichidan 7 foiz kamdir. Ayni vaktida qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni sanoatda ishlaydiganlarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan, 1989 yilda Respublika xalq xo'jaligida band bo'lgan kishilar tarmoqlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi sanoat va qurilishda 23,7, qishloq va o'rmon xo'jaligida 37,8, transport va aloka sohasida savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minoti va uni sotish, tayyorlashda 6,5, sog'liq saqlash, jismoniy tarbiya, sotsial ta'minot va boshqa tarmoqlarda 6,5 foizni (Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR v 1988 godu. 23- bet) tashkil etadi. Respublikada kutubxonachilik kurlaridan foydalanish uchun ana shunga o'hshagan ko'rsatkichlarni hisobga olmoq zarur. Jumladan, O'zbekistonda yashovchi aholi jon boshiga o'rtacha 4,0 kutubxona kitobi to'g'ri kelsa, Jizzax, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida o'rtacha 2,8—3,2 ta kitob to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich MDX, bo'yicha esa — 8 ta (1988 yilgi ma'lumot) kitobni tashkil etadi. Aholini kutubxona xizmati bilan qamrab olish ko'rsatkichi (universal va ommaviy davlat kutubxonolari tomonidan) O'zbekiston bo'yicha 29,2 foizga bu ko'rsatkich Qashqadaryoda-20,6, Jizzaxda-24,3, Sirdaryoda-24,7, Surxondaryoda-25,6 foizga teng. Xolbuki, MDX bo'yicha axolinnig 54,6 foizi kutubxona xizmati bilan qamrab olingan.

Biz yuqorida qishloq xujaligida ishlovchilar 'miqdori respublika xalq xujaligida eng kup mikdorni (1888,2 ming kishi) tashkil etishni qayd qilgan edik. Respublikamizdagi har bir tarmok; kutubxonolari fondida qishloq xujaligi adabiyotlari jami fondning 6,20 foizini tashkil etgani xolda, shu sohada kitob berilishi jami berilgan adabiyotlarning 4,51 foizini tashkil etgan edi (1980 yilgi ma'lumot). Kitobxonlarning qishloq xo'jalik sohasidagi, adabiyotlar bilan ta'minlanish darajasi ) har bir kitobxonga 0,76 kitobdan tug'ri keladi, shu sohada kitob uqilishi kursatkichi esa 1,11 kitobni tashkil etadi. Demak, O'zbekiston xalq xujaligining asosiy tarmog'i xodimlarini qishlok; xo'jalik adabiyotlari bilan yetarlicha ta'minlash respublika kutubxonolari oldida turgai dolzarb muammolardai biri hisoblanadi. Buning uchun\_ esa shu soxada noshirlik ishlarini kengaytirishni, boshqa hududlarning shunday nashrlarini tarjima qilib tarqatishni tegishli tashkilotlar oldiga vazifa qilib quyadi. O'zbekistonda aholiga kutubxona xizmati ko'rsatishii tashkil qilishda Yaqqol ko'zga tashlanadigan xususiyatlardan biri til masalasiga bog'liq muammolardir. 1989 yili aholi ro'yxatiga ko'ra, respublika aholisining 68,9 foizini o'zbeklar tashkil etgani holda, respublikada mavjud 17 mingdan ortiq kutubxonadagi jami kitob fondining 26,3, foizigina o'zbek va boshqa tub aholi tillaridagi adabiyotlardir. Respublika universal va ommaviy davlat kutubxonalarida bu ko'rsatkich birmuncha ,yuqori (44,6 foiz) bo'lib, O'zbek tilidagi nashrlarning eng.kam nisbati Toshkent shahar kutubxonalarida (4,1 foiz), Sirdaryo viloyati kutubxonalarida (33,9 foiz), eng yuqori ko'rsatkich esa Andijon viloyati kutubxonalarida = 64,6 foizni tashkil etadi. Shu turkumdagi kutubxonalariga 1991 yilda olingan yangi adabiyotlar tarkibining 58,8 foizi o'zbek tilida bo'lganligi (eng yuqori ko'rsatkich Samarkand viloyatida — 73,4 foiz) respublikada kutubxonachilikni qayta shakllantirishdagi ijobiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon respublika kutubxona jamoatchiligi oldiga qator muammolarni hal etish vazifasini qo'yadi. Eng avvalo kitob fondini shakllantirishga tillar bo'yicha adabiyotlarning eng maqbul nisbatini ta'minlash zarur. Shu munosabat bilan ikki va undan ko'prok; tillarda zarur bo'lgan kitoblar beradigan kutubxona fondini shakllantirish meyorini ishlab chikish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaktida A. Navoiy nomidagn O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan ommaviy kutubxonalarining kitob fondi o'zagini 'o'zbek tilidagi nashrlar bilan to'ldirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari tugallandi. Fan tarmoqlari

bo'yicha milliy adabiyotlarning eng zarur miqdori aniqlab chiqilgan bo'lib, bu nashrlarsiz kutubxonalar respublikaning tub aholisini kitob orqali ilg'or madaniyat bilan tanishtirish, ularning royaviy axloqiy saviyasini oshirish, ona tilidagi zarur ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnika va badiiy adabiyotlarni ular ixtiyoriga xavola etish kabi ijtimoiy vazifalarni bajara olmaydi. Bunday kitob fondi o'zagini vujudga keltirish yana shuning uchun xam zarurki, rus tilini yetarli egallay olmagan ko'plab qishlok aholisi, ayniqsa, kekxa avlod vakillari uchun kutubxonalarda to'plangan o'zbek tilidagi adabiyotlar ularning siyosiy va ilmiy bilimlarini egallashlarida muhim masalalardan biri hisoblanadi. 1973 yildan boshlab O'zbekiston nashriyotlarni respublika, ommaviy kutubxonalar kitob fondi o'zagi uchun maxsus maqsaddagi kitoblarni chiqara boshladi. Fakat 1990 yilda shu xildagi adabiyotlardan respublikada jami 2080 nomda kitob va risola nashr etilgan bo'lib, ulardan 874 tasi o'zbek tilida 32408,4 ming nusxada chop kilindi. Respublika mustakilligini ham iqtisodiy, xam ma'naviy jihatdan ta'minlash hamda bozor iktisodiyotga o'tish sharoitida respublika kutubxonalarini fondini o'zbek tilidagi adabiyotlar bilan to'ldirish to'g'risidagi masala katta amaliy ahamiyat kasb etadi, negaki, aynan milliy tillarda fan va texnika yutuqlarini ommalashtirishni yanada tezkorlik bilan uyushtirish mumkin. Bizning fikrimizcha, kutubxonachilar nashriyot ishlariga yanada faol ta'sir o'tkazishlari mumkin va zarur. Ommaviy kutubxonani o'zbek tilidagi yaxshi tanlangan kitoblar bilan to'ldirishning samarali vositasi respublika «Kutubxona seriyasi»dir. Bu sohada bir qancha tadbirlar amalga oshirilgan bo'lib, 1985— 1990 yillar mobaynida respublika «Kutubxona seriyalari» bo'yicha 892 nomdagi kitob va risola ommaviy kutubxonalar; fondidai joy oldi va kishloq filiallari uchun shunday seriyalar nashr etishga kirishildi. Seriyalarga ko'pchilik kitobxonlarga foydali bo'lgan, kutubxonalar amalga olishi mumkin bo'lgan eng yaxshi kitoblar va ommaviy kutubxonalar fondi o'zagi uchun muhim bo'lgan qimmatli kitoblarni olishga yordam berish zarur. Shunga erishish muhimki, seriyalar madaniyat organlari va kutubxonachilik metodik markazlari tomonidan ko'rsatilgan hamda kitobxonlar talabi chukur o'rganilib. tahlil kilishi asosida aniklangan kitoblarni o'z ichiga oladi, Shuningdek, kutubxonalar talabnomasida ko'rsatilgan, ko'p so'raladigan ayrim nashrlarning tirajini ko'paytirish maqsadga muvofikdir. Matbuot asarlarini tarjima kilish, bosib chikarish va kitoblarni qayta nashr qilish to'g'risidagi mulohazalar tasodifiy xarakterda bulmasdan, balki oldindan tuzilgan istiqbolli rejaga ega bo'lishi zarur. Kutubxona fondlarining ishlatilishi ko'rsatkichlarida til bilan bog'liq muammolar yaqqol kuzga tashlanadi. 1991 yilda O'zbekistondagi universal ommaviy davlat kutubxonalarida jami kitobxonlar tomonidan o'qilgan adabiyotlariing 63,9 foizi o'zbek tilidagi iashrlar bo'lgan, bu ko'rsatkich kishloq kutubxonalarida 76,8 foizni tashkil kilgan, Shu yerda o'qilgan kitoblarning kutubxona fondiga nisbatini takqoslasak, respublikada kutubxona fondining ishlatilishini ko'rsatuvchi nisbiy sifat ko'rsatkichi— kutubxona fondining aylanishi darajasi. chiqadi.

Jumladan, 1991 yilda yukorida qayd kilingan kutubxonalarining umumiy kitob fondi kitobxonlar qulida 1,5 marotaba bo'lganligini yoki aylanganligini ko'ramiz (kutubxona jami kitob berilishi) fondining ayl a n i sh i umumii kitob fondi) Bu ko'rsatkich o'zbek tilidagi nashrlarga nisbatan — 2,2 darajani (rus tilidagi nashr buyicha— 1,01) ko'r-satadi. Demak, kutubxonalaridagi mavjud milliy tillardagi nashrlar kitobxonlar tarafidan boshka tillardagi adabiyotlarga nisbatan ko'p ukilishi (ayii vaqtda ko'p so'ralishi) ma'lum bo'ladi. Respublika kutubxonalarida o'zbek tilidagi nashrlarga bo'lgan kitobxonlar (talabini) kengroq o'rganish maqsadida A. Qodiriy. nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti «Kutubxonashunoslik» kafedrasii uqituvchilari A. Navoiy nomidagi O'zbekistan Milliy kutubxonasi Xodimlari hamda O'zbekistan Respublikasi «Kitobxon» jamiyati a'zolari bilan birgalikda tadqiqot o'tkazdilar. Kitobxonlar talab va ehtiyojlarini umumlashtrish va tahlil kilish uchun ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-ilmiy, ishlab chiqarish, badiiy, san'at va sport kabi eng muhim adabiyotlar kompleksi tanlab olindi. O'rganilgan talablar mazmuni suydagi tartnbdada tatssimlandi: badiiy adabiyotlar—45 dan 55 fonzgacha, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar—20 dan 30 foizgacha, tabiiy-ilmiy nashrlar— 10 dan 20 foizgacha, ishlab chiqarish adabiyotlari—6 foiz, san'at va sport nashrlari—3—5 foiz bo'ldi. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar bo'yicha kitobxonlar, talabini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular orasidan o'zbek tilidagi darsliklar va ma'lumotnoma nashrlari yetakchi o'rin oldi. Pedagogika bo'yicha, oila

tarbiyasi, ayrim fanlarni, shuningdek, boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikasiga oid adabiyotlar xam muhim o'rin egallagan. Respublikaning turli viloyatlarida tarixiy va memuar nashrlarga bo'lgan talablarda xilma-xillik o'rin olgan. Tabiiy-ilmiy adabiyotlar bo'yicha kitobxonlar talabi tarkibida cheklangan sohalardagina, asosan, sog'likni saqlash (ko'plab viloyatlarda 90 foizgacha) sohasi hisobga olingan bo'lib, Abu Ali ibn Sino asarlariga, dorivor o'simliklarni ishlatishga oid adabiyotlarga katta kiziqish qayd kilingan va nixoyat, tibbiyot bo'yicha ommaviy nashrlar, amaliy ko'llanmalar talablarning asosiy turkumlarini tashkil etgan. Ishlab chiqarish adabiyotlariga bo'lgan talablar tahlil qilinganda respublikaning turli mintaqalariga xos umumiy yo'nalishlar aniqlanmadi, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan (kishloq xo'jalik xodimlarining xilma-xil guruhlar uchun metodik ko'llanmalar, ma'lumotnoma nashrlari) adabiyotlar bundan istisno. Umuman, soxaviy adabiyotlarga bo'lgan talablarda ki- tobxonlarning amaliy qiziqishlari katta o'rin olgan. Badiiy adabiyot bo'yicha kitobxonlar qiziqishi o'rganilganda 60 dan 80 foizgacha talab hozirgi zamon o'zbek adabiyoti asarlariga tushganligi ma'lum bo'ldi. O'zlarining ommabopligi darajasiga ko'ra birinchi unlikka S. Axmad, A. Muxtor, O. Yoqubov, R. G'ulom, Mirmuhsin, A. Oripov, U. Xoshimov, E. Vohidov, P. Kodirov, U. Umarbekovlar kiritilgan. O'zbek klassik adabiyoti bo'yicha Navoiy, Mashrab, Furqat, Cho'lpon asarlari katta qiziqish o'yg'otgan. Jami mualliflar ro'yxatini 74 kishi tashkil etgan. O'zbek kitobxonlari tomonidan atalgan nomlarning yarmisi shoirlarga taalluklidir. Boshkalardan ko'ra A. Oripov va E. Vohidov kabi zamonaviy shoirlarning nomi tez-tez tilga olingan. Kitobxonlar kiziqishini o'rganish xulosalari, kutubxonachilik ishini boshqarish organlarining rasmiy rakamli materiallari hamda respublika kutubxonlari ishining ahvoli nashriyotlar va kutubxonachilik jamoatchiligi oldiga kuyidagi eng muhim va bir-biri bilan bog'liq bo'lgan 4 muammoni hal etish zarurligini ko'rsatdi: birinchi navbatda, o'zbek tilidagi adabiyotlarni nashr kilish muammosidir. Har yili nashr kilinayotgan kitob mahsulotlari tahlili natijasi ko'rsatishicha, ular o'zining hajmi va mazmuni bo'yicha amaldagi mavjud kitobxonlar talabiga muvofiq kelmaydi.

O'zbek tilidagi adabiyotlarni nashr qilish muammosini samarali xal etmoq uchun nashriyotlar o'qish muammosini o'rganuvchilar (sotsiologlar), respublika kitob palatasi xodimlari hamda yirik kutubxona tizimlari bilan o'z aloqasini kengaytirmog'i lozim. Shu asnod, noshirlik faoliyati muammosi quyidagi yo'l bilan yechilmog'i zarur: buyurtma — tadqiqot-amaliyotga joriy etish. Bu yerda tadqiqotchilar (sotsiologlar) talab va ehtiyojni chukur o'rganish natijasida kutubxonalar tomonidan tushadigan buyurtmalarning asosligini va nashrdan chikadigan kitoblarning talabga muvofiqiligini ta'minlovchi vosita rolini bajaradi. Ikkikchi darajadagi muammolar; o'zbek tilidagi kutubxona fondlarini shakllantirish va ularni to'ldirish bilan bogliqdir. O'zbekiston Madaniyat vazirligi tizimiiga qarashli universal va ommaviy O'zbekiston milliy kutubxonasi katta javobgarlikni aks etmog'i zarur.

Respublikada til masalasiga borliq; muammolarni qarab chiqar ekanmiz, O'zbekiston Fanlar akademiyasining sharqshunoslik instituti va boshqa ko'plab ilmiy kutubxonalar fondida saqlanayotgan respublika Xududida yashayotgan xalqlarning tarixi va madaniyatiga doir kadimiy va nodir ko'lyozmalarni ommaviy o'rganish davrining kelganligini ta'kidlash zarur. O'z milliy madaniyatimiz va ma'navny merosimizni ilmiy asosda dasturiy o'rganishni amalga oshirmoq uchun respublikaning kadimiy madaniy markazlari bo'lmish Samarkand, Buxoro, Xiva, Kuqon, Toshkent va boshqa shaharlarda arab, fors va ingliz tillarini. o'qitishni yo'lga qo'yish zarur bo'ladi. Zero, bu vazifa amalga oshirilar ekan, unda nafaqat O'zbekiston, balki Hindiston, Pokistoi, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Misr, Buyuk britaniya, Olmoniya kabi xorijiy mamlakatlar "kutubxonalari hamda arxivlarida mavjud O'rta Osiyo va Turkiston xalqlari tarixiga oid ma'naviyatimizni o'rganib, ularni ommalashtirish imkoniga ega bo'lar edik.

O'zbekiston kutubxonlari tomonidan hisobga olinishi zarur bo'lgan xususiyatlardan yana biri maxalliy millat xotin-qizlariga kutubxonachilik xizmatini tashkil etilishidir.

O'zbekiston xotin-kizlari jami aholishshg 50,7 foizini tashkil etadi. Ularni va xotin-qizlarning qolgan qismini, ayniqsa mahalliy millat vakillarining bunyodkorlik ishiga jalb qilish, jahon madaniyati yutuqlaridan bahramand qilish har qanday adolatli, insonparvar jamiyatiga xos xodisadir.

Xotii-qizlar o'qishi, bilim olishi, ishlashi, jamiyatdagi barcha1 moddiy va ma'naviy boyliklardan, imtiyozlardan foydalanishi uchun sotsial-iqtisodiy sharoitlarning yaratilganligi natijasida O'zbekistonda jami ishlovchilarning 43 foizini xotin-qizlar tashkil etadi.

Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sotsial ta'minot sohasida ular — 2,7 foizni, madaniyat sohasida—57,8, xalk maorifida 59,4, savdo, va umumiy ovkatlanish sohasida 53,7 foizni tashkil etadi (Narodnoye xozyaystvo UzSSR v 1988 g. Stat. yejegodnik. T., Uzbekistan, 1989, 2 8 -bet). Ko'rsatkchlar keyingi vaqtlarda respublikada maishiy xizmat sohasining, maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlarining yanada rivojlanganligi, umuman, xotin-qizlar moddiy va ma'naviy ahvolining yaxshilanganligini ta'rif: laydi. Ayni vaqtda ishlab chikarishda band bo'lmagan jami aholining ko'pchilik qismini (59,7 foiz) uy-ro'zg'or ishlari bilan va shaxsiy yordamchi xo'jalik bilan shug'ullanuvchi mehnatga layoqatli, ko'p bolali ayollar tashkil etadi. O'zbekiston har 1000 kishikining hisobiga tug'ilganlar soni jihatidan MDHda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi (35,1 kishi). Shu bilan birgalikda,

O'zbekistondagi serfarzandlik sharoitida to'liq bo'lmagan ish kuni, ish haftasi, kasanachilik xotin-qizlarning ish bilan oqilona band bo'lishini ta'minlashning samarali shakllari hisoblanadi. Masalan, kasanachilikni keng joriy etishning nafli tomoni shundaki, u bunday sharoitda sanoatda ish joylarini hosil qilish uchun ketadigan kapital mablag'larni hisob-kitoblarga ko'ra 100 million sumdan ham qimmatga tushadigan 15 mingtacha o'rinni) tejab qolishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari respublikada 200 mingga yaqin ayol uyida mehnat qilishi mumkinligini ko'rsatmoqda (hozir esa 16 ming ko'p bolalik ayollar uyda ishlayapti). Tobora vokelikka aylanayotgan bozor munosabatlariga o'tish, mulkni xususiyashtirish jamiyatni iktisodiy inkirozdan qutqarib, tarakqiyot yo'liga kirish uchun kafolat bersa-da, ikkinchi tomondan u juda ko'p sonli ishsizlarni keltirib chiqaradi va bunga aksariyat ayollar duchor bo'ladilar. Bu mutlaqo tabiiy bir xoldir, sababi, oilali, bola-chaqali ayol ishining unumdorligi doimo yuqori bo'lavermaydi. Ishlab chikarish korxonaga egalari esa bunday ayollar mehnatidan manfaatdor emaslar. Mana shularni hisobga olib, respublika prezidenti tomonidan uyda bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ayollarga tarbiyachi sifatida maosh to'lash, tomorqa xo'jaligida ishlayotgan ayollar mexnatini ish stajiga qo'shish, ko'p bolali ayollarga aloxida imtiyozlar berish, nafaqalar to'lash, uy bekalari uylarida ish bilan ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratib' berish kabi qator xayrli ishlarni yo'lga qo'yishga yordam beradigan farmonlar kabul kilindi va amalga oshirilmokda. Kutubxonalarning asosiy vazifasi bunday uy bekalari o'rtasida xukumatning onalar va bolalarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rligini hartomonlama tushuntirish va ularni ijtimoiy mexnatga tortish ustida targ'ibot ishlari olib borishdir.

O'zbekiston kutubxonalari dastavval fermalar, dala shiyponlari, maishiy, savdo korxonalari, sog'liqni saqlash muassasalari kabi xotin-qizlar mexnati keng tarqalgan jamoalarga kitob yetkazishga xarakat-qiladilar.

Masalan, Andijon viloyatidagi Izbosgan Markaziy rayon kutubxonasi bolalar tarbiyasi, axloq, turmush madaniyati Masalalari bo'yicha suhbatlar, ovozli o'qishlar tashkil etadi, ularni kutubxonada o'tkaziladigan suhbatlarga chaqirib, ayollar gigiyenasi, turmushi, mexnati, madaniy darajasiga borliq bo'lgan qiziqarli tadbirlar o'tkazadi. Ko'plab kutubxonalar huzurida «Nafosat», «Saodat», «Iqbol» kabi xotin-qizlar klublari, «Ota-onalar maktablari» tashkil etilgan bo'lib, ular asosida madaniy-tarbiyaviy tadbirlar kompleksi uyushtiriladi. Bu tadbirlarni amalga oshirishda kutubxonalar, O'zbekiston xukumati tomonidan tashkil etilgan.

Xotin-qizlar qumitasi va ularning viloyatlar, rayonlar, shuningdek, boshka yirik tashkilot va muassasalar qoshida tuzilgan boshlang'ich tashkilotlari bilan o'z ishlarini kelishilgan va muvofiqlashtirilgan asosda hamkorlik qilmoqlari lozim. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Xotin-qizlar qumitasi va uning joylardagi organlari hozirgi iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, tekinga, jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan sobik Xotin-qizlar kengashlari o'rniga tashkil topgan edi. Bu hukumatning jamiyat ma'naviyati xazinalarinnng biri bo'lgan ayollarga ko'rsatgan g'amhurligining yana bir ko'rinishi bo'lib, u xotin- qizlarning moddiy va ma'naviy muhofazasini ta'minlashga, ularni madaniyatli, boy ichki dunyoga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalashga e'tiborni yanada chuqurlashtirishga harakat qilinayotganligidan dalolat

beradi.

- Respublikada ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarni demokratlashuvi sharoitida O'zbekiston kutubxonachilari hisobga olishi zarur bo'lgan xususiyatlardan yana biri islom dini va uning aqidalariga munosabat masalasidir. Eng avvalo, bizda karor topgan ateistik ishlarning ilmiy-tadqiqot, ma'rifiy-targ'ibot, tashkiliy-uslubiy faoliyat, ularning prinsiplari va mezonlari, uslubiy yondoshuvlarning g'oyaviy mazmuni va shakllari kabi butun tizimiga qayta baho berilishi lozim.

O'zbekiston kutubxonachilari ishidagi regional xususiyatlardan biri — paxtakorlarga kutubxonachilik xizmati ko'rsatishni tashkil etishdir. Respublikamizdagi mavjud 837 ta jamoa xujaligining ko'pchilik qismi, 1030 dan ziyod xo'jaliklarning 384 tasi eng sermehnat soxa — paxtachilikka ixtisoslashgandir. O'zbekistonda paxta yetishtirish asosiy soha bo'lganligidan uni kompleks mexnizatsiyalashtirish negizida mexnat unumdorligini oshirib borishga to'g'ri keladi. Bunda mexanizator kadrlar tayyorlash, ayniksa o'rta bug'in mutaxassislarini (zveno, brigada boshliqlari, dalachilik agronomlari, agroximiklar va boshqalarni) oqitish, malakasini oshirish, ularga fan va texnikaning sunggi yutuklari, ilg'or tajribalar haqidagi axborotlarni o'z vaktida yetkazish muhim ahamiyatga egadir. Paxtakorlarga malakali kutubxonachilik xizmati ko'rsatish — qishlokda yangi turmush madaniyatini shakllantirish umumiy muammoning bir qismi bo'lib, uni hal etish ustida respublika davlat va jamoatchilik muassasalari tinmay ish olib bormoqdalar. Xozirgi vaqtda deyarli barcha markaziy qishloq kutubxonachilari va markaziy rayon kutubxonachilari «Qishloq xujaligi bilimlari va ilg'or tajribalarni targ'ib qilishning yagona rejasi» tuzilgan bo'lib, ularni tegishli xo'jalik raxbariyati yoki agrosanoat birlashmasi tasdiqlagandan so'ng, boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar xizmati va qishloq xo'jaligi muassasalari bilan birgalikda ommaviy-siyosiy va madaniy-oqartuv tadbirlari olib boriladi. Qishloq xo'jalik mutaxassislariga kutubxonachilik xizmati ko'rsatishning muhim vazifalaridan biri — qishloq xujaligi adabiyotlarini targ'ib qilishning shakl va metodlarini takomillashtirishdan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi barcha mutaxassislar va rahbar xodimlarga bir maqsadga yo'naltirilgan, amaliy, chuqur mazmunli axborot berishdan iborat. Samarqand viloyatidagi Poyariq, Pastdarg'om rayonlarining, Farg'ona rayonlarining markazlashtirilgan kutubxonalar tizimlari qishloq xo'jalik mutaxassislariga xizmat ko'rsatish borasida muayyan ish tajribasiga egadir. Masalan, Poyariq MKSda qishloq xo'jalik viloyatidagi Bag'dod, Andijon viloyatidagi Xo'jaobod, Xorazm viloyatidagi Gurlan mutaxassislariga xizmat ko'rsatishda ryazanliklarning «doiraviy formulalar» deb ataluvchi tajribasi to'la o'zlashtirilib joriy etilmoqda. Gurlan markaziy rayon kutubxonasi rayon xo'jaligining ko'p tarmoqli ekanligini nazarda tutib, qishloq xo'jaligining xar xil tarmoklarida ishlayotgani mutaxassislarning kartotekasini tuzdi, ular tegishli guruhlarga bo'lindi. Xar bir guruhning kitobga bo'lgan talab va ehtiyojlarni o'rganilib, ularga yoppasiga va yakka tartibda yangi chiqqan adabiyotlar ro'yxati tavsiya kilinadi. Qishloq xo'jaligida mashg'ul bo'lgan xodimlarga kuchma kutubxonachilik xizmati ko'rsatish shakli keng qullaniladi. Xar yili qishloq xo'jalik ishlari mavsumi davrida dala shiyonlarida 15 mingta kuchma kutubxona va kitob berish punkta, bibliobuslar qishloq mehnatkashlari o'rtasida ishlab chiqarishga oid va boshqa adabiyotlar targ'ibotini yo'lga ko'yishga yordam beradi. Bu joylarda kutubxonachilar tomonidan o'tkaziladigan so'hatlar va ovozli o'qishlarda, ko'rgazmali tashviqot materiallarida (plakatlar, kitob ko'rgazmalari, «Ilg'orlarga tenglashing» stendi, musobaka g'oliblari burchagi. «Paxtakorlar ekrani», «Xalq nazoratni kuzgusi» va boshkalar) ilg'orlar tashabbuslari, musobaqa natijalari ommalashtiriladi, kamchiliklar ochib tashlanadi. O'zbekistonda chorvachilik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining muhim soxalaridandir. Respublikada cho'ponlar, sut sog'uvchilar, molboqarlar, parrandachilar, chorvachilik fermalari mexanizatorlari orasida siyosiy-tarbiyaviy va madaniy-oqartuv ishlarini o'tkazish bo'yicha bir kancha tajribalar to'plangan: suhbatlar, ma'ruzalar, siyosiy axborotlar o'tkaziladi, ularni yangi vaqtli matbuot nashrlari, badiiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar bilan ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bunday sharoitda kutubxonachilar mavjud bibliobuslar va boshqa transport vositalaridan maksimal darajada foydalanib, cho'ponlarga kitob, gazeta, jurnallar va boshqa targ'ibot va tashviqot vositalarini yetkazishga harakat qiladilar. Tarkibiga

albatta kutubxonachilar xam kiritilgan, axborot-targ'ibot guruhlari cho'ponlar bil'an kiskacha suhbatlar o'tkazadilar, xalqaro va ichki siyosat masalalarini sharhlab beradilar, respublika, viloyat, rayon va jamoa xo'jaliklari yangiliklari haqida so'zlaydilar. Kishda chorvadorlar yaylovdan qaytib kelishgandan so'ng ularga ish joyi va yashash joylarida xizmat ko'rsatish faollashtiriladi. Bu davrda ommaviy tadbirlarni uyushtirish qulaydir. Masalan, uch avlod uchrashuvlari, ishlab chiqarish ilgorlari bilan uchrashuvlar, dam olish kechalari, savol-javob kechalari, ogzaki jurnallar, shuningdek ilgor tajribalarni o'rganishga doir seminar mashg'ulotlari va xokazolar o'tkaziladi. Bunday tadbirlarni tashkil etishda fermalardagi ko'chma kutubxonalar fondi, kitob ko'rgazmalari yaxshi yordam beradi. Bu ulurvor vazifalarni amalga oshirish uchun avvalo malakali kutubxonachi kadrlar bo'lishi, so'ngra mavjud kutubxonalarning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash, yetarli kitob fondiga ega bo'lish, targ'ibot vashviqot ishlarini har bir xo'jalikning oldida turgan anik vazifalarni hisobga olgan holda yuritish va, nihoyat, kutubxonachilar jamiyatimizdagi ishlab chiqarishdagi salbiy xodisalarga, jumladan, mehnatga munosabatda bo'lmaslik, davlat mulkiga ko'z olaytirish, yulg'ichlik ichkilikbozlik kabi illatlarga karshi faol kurashishdir.

### **17- mavzu: Respublika aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatishning tashkil qilinishi**

#### **Reja:**

- 1. Aholiga kutubxona xizmati ko'satish tizimining vujudga kelishi**
- 2. Qishloq aholisiga kutubxonachilik xizmatining tashkil etilishi**
- 3. Shahar aholisiga kutubxonachilik xizmati ko'rsatish**

Hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyotiga o'tish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini xususiylashtirish va demokratiyalashtirish, xo'jalik hisobiga va erkin bahoga o'tish sharoitida kutubxonalarning roli yana ortib borishi tabiiydir. Joylardagi kutubxonalar tarmog'ining o'sishi shu darajaga yetdiki, natijada butun qishloq aholisini xalqning madaniy saviyasini ko'tarishning qudratli quroli bo'lgan kitobdan muntazam foydalanishga jalb qilish vazifasini amalda bajarish mumkin bo'lib koldi. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi rivojlanishining asosiy bosqichlari ko'rsatkichlarini qiyosiy tasdiqlaydigan bo'lsak, 1910 yilga nisbatan respublikadagi jami universal va ommaviy kutubxonalar soni 427 % oshgan bo'lsa, ularning umumiy kitob fondi 3436 foiz oshgan, shu jumladan qishloq joylarda bu ko'rsatkich tegishli ravishda 479% va 5038 %ni tashkil etgan (4 -jadvalga qarang). Jadvaldan ko'rinib turganidek, 1940— 1990 yillar orasida qishloq joylaridagi kutubxona tarmoqlari va ularning fondi shaxar joylarga nisbatan qariyb ikki baravar (qarang: shaxarda ular tegishli ravishda 292 va 2447 foiz o'sgan) ortik taraqqiy etgan. E'tiborni jalb qiladigan yana bir raqam — o'sha yillarda qishloqda kutubxonalar soni 479 foiz o'sganda, ularning kitob fondi 5038 foiz o'sganligidir. Bu qayd qilingan davrda nashriyotchilik ishining juda keng rivoj topganligidan dalolat beradi. Jadvalga ko'ra, qishloq kutubxonalari ko'rsatkichlari 1970 yilgacha tez o'sib borib, so'nggi 20 yil mobaynida ularning murakkablashib qolganligini kuzatish mumkin. Masalan, 1940 yilda qishloq kutubxonalari soni umumiy 72,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, ularning kitob fondi jami kitoblarning atigi 37,2 foizini tashkil qilgan. 1970 yilda esa bu ko'rsatkich tegishli ravishda 81,5 va 54,6, 1990 yilga kelib 81,1 va 56,0 foizni tashkil etgan. Uchinchidan, qishloqda kutubxonachilik ishining tarakkiy etish jarayoni jiddiy sifat uzgarishlari bilan birga bordi. Masalan, 20 -30 - yillarda ommaviy kutubxonalarning xodimlari botssha ishlardan ozod kilinmagan- xolda ish olnb borgan bo'lsa (kizil choyxonalar- duzuridagi kiroatxonalar, klub koshidagi kutubxonalar va bosh;.), 60—70 -yillarga kelib, kutubxona tarmotslarishshg tartibga solinishi natijasida barcha ommaviy kutubxonalar mustatsil' bula bordi va

ularda shu so'aga sizitskan va kasbga me'r s'yan kishilar ishlay boshladi. Agar 1950 yil oxirida Uzbekistondagi jami ommaviy kutubxonalarda 1166 ta maosh olib ishlaydigan kutubxona xodimi ishlagan bo'lsa, 1970 yilda ularning soni 6588 taga, 1990 yilda esa 11930



kishiga yetdi (5-jadval).Jadvzlda- kursatilgaindek, kutubxonachilar mikdorn kishlak kutubxonalarida ortib borishi kuzatiladi.

Bu albatta qishloq joylaridagi kutubxonalariing usish mitsdoriga botlitsdir (ular jami kutubxonalar-iing 81,1 foizini gashkil etadi, 5 - jadvalga karang). Yana shu narsa dshtatga sazovorki, Uzbekistan Madaniyat . vazirligiga karashli 6999 ta qishloq joylaridagi kutubxonalarda ishlayotganlardan 3582tasi yoki 51,2 foizi oliy va maxsus Kutubxonachshsk ma'lumotiga egadir. Vaxolanki, bu ko'rsatkich 1970 yilda shu tipdagi kutubxonalarning jamisida 30 foizni tashkil etgan edi.

Biroq shunga qaramasdan, qishlok aholisiga kutubxonachilik xizmatini ko'rsatish muammolari to'la xal etildi deb bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni yanada yuksaltirish, qishloqda iqtisodiy munosabatlarni taraqqiy ettirish, xususiy va ijtimoiy mehnatni tashkil etish, ishbilarmonlarni o'stirishda kutubxonachilik ishi va kitob tartiblari qishloq aholisiga kutubxona xizmatini ko'rsatmoqda. MKT tarkibidagi 5669 kutubxona qishloqdagi jami kutubxonalarning 91,3 foizini tashkil etib (5-jadvalga qarang), ular qishloqdagi barcha kutubxonalarning ishini tashkil kilishda muhim rol o'ynaydi. Kishloq joylaridagi kutubxonalarning umumiy, kitob fondi 52791,4 million nusxadan ortiq bo'lib, 1990 yili ular 4.404.0 mln. kitobxonga 87.781.7 nusxa kitob bergan. Bu kitoblarning 83,7 foizi o'zbek tilidagi nashrlar bo'lib, o'rtacha har bir kitobxon yiliga 20,6 kitob o'qilgan. jihatdan bir nechta regionlarni birlashtiradigan qishloq tumanlarida yoki yirik shaharlarda ajratiladi. Uning asosiy vazifasi - o'zining mikrorayonigagina emas, balki regiondagi barcha aholiga kutubxona xizmatini tashkil etish, ma'lum miqdordagi (o'z regionidagi) filiallarga metodik rahbarlik kilishdir. Regional filial mudiri kitob fondini to'ldirish bo'yicha kengash a'zosi bo'lib , o'z regionidagi filiallar fondini to'ldirishning mavzu rejasini yuritadi va region kitobxonalari o'rtasida ilg'or tajriba maktabi hisoblanadi, region filiallarining spravka-bibliografik apparatini o'zida mujassamlashtiradi. Kitobxonlar talabini qondirishda filiallar mana shu regional filialga murojaat qiladilar, agar so'ralgan nashr o'zida yuk bo'lsa, uni markaziy kutubxonaga regional filialga jo'natadi. Filiallar bilan markaziy kutubxona o'rtasida bunday bo'g'inning bo'lishi filiallarga o'z vaktida va aniq rahbarlik qilishni yaxshilaydi.*Uchinchi bosqich* filiallardir. Filiallar markazlashtirilgan sistemaning tarkibiy qismi sifatida, o'zining tuman xududlarida aholini o'qishga jalb etish va ularga kutubxona xizmatini ko'rsatishga javobgar bo'lib, bevosita regional filial yoki markaziy kutubxona rahbarligida ishlaydi. *To'rtinchi bosqich* kitob berish joylari yoki ko'chma kutubxonalardan iborat bo'ladi. Bu bosqichning ahamiyati ularni bevosita kichik aholi turar joylarida yoki mehnatkashlarning ish joyida uyushtirishning mumkinligidir. *Beshinchi bosqich* bibliograf hisoblanadi. Uning ma'lum marshrut sxemasi, to'xtash joylari belgilangan bo'lib , ma'lum muddatlarda uzoq qishloqlarga, chorvachilik rayonlariga, fermalarga kutubxona xizmati ko'rsatishdir. Shunday qilib kutubxona tarmoqlarini markazlashtirishdan maqsad, ma'lum tumandagi yoki shaharlardagi kutubxonalarni birlashtirish, uning ayrim bo'limlari faoliyatini tuman hududi sohasiga aloqadorligi milliy tarkibi hamda talabiga muvofiq ixtisoslashtirish, markazlashtirilgan axborot-bibliografik xizmati sistemasini barpo qilish, asosan mexnatkashlarning kutubxona va kitobga bo'lgan ehtiyojlarini to'la qondirishdan iborat. Qishloq kutubxonalari (bu yerda MKS filiallari va boshka ommaviy kutubxonalar ko'zda tutilmoqda) kitobni targ'ib qilishi va qishloq aholisi barcha soha vakillarining madaniy saviyasini kekgaytirishga ko'maklashishda, ularning o'qishlarini tashkil kilishning asosiy negiziga aylanib qoldi. Qishloq kutubxonasi bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiradigan mexnatkashlar uchungina emas, balki shu yerda ishlaydigan ziyolilarning (o'qituvchilar, shifokorlar, agronomlar va boshqalarning) aksariyat ko'pchiligi uchun birdan-bir juda yaqin muassasadirki, ular ana shu muassasa tufayli mamlakatimiz hamda jahon madaniyatining yutuqlari bilan tanishishlari, umumiy ma'lumot olishlari mumkin. Bularning hammasi ilmiy ommabop nashrlarni, siyosiy va ilmiy bilimlar olishga yordam beradigan badiiy adabiyotning eng yangi asarlarini to'plab borishi lozim bo'lgan qishloq kutubxonalarning kitob fondi tarkibiga ta'sir qiladi. Lekin shu bilan birga qishloq kutubxonasi qishloqdagi ishlab chiqarish vazifalarni xal kilishga, agrosanoat kadrlari orasida ilg'or qishloq xo'jalik tajribasini yoyishga yordamlashishda ham kitobdan foydalanishni yo'lga qo'yuvchi

muassasadir. Qishloq kutubxonalarining ishlab chiqarish adabiyoti fondidan: 1) qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tashkilotchilari va mutaxassislari; 2) qishloq xo'jalik mexanizatorlari-traktorchilar, kombaynchilar va boshqalar; 3) ayrim ishlab chiqarish guruhlarining vakillari (paxtakorlar, chorvadorlar, sabzavotchilar va boshqalar) foydalanadilar. Qishloq kutubxonalarining kitobxonlari orasida agrozootexnika va agroximiya kurslarida o'qiyotgan yoki ularni bitirib chiqqanlar qishloq xo'jalik ilg'orlari; o'rta maktabni tamomlagandan keyin qishloq xo'jaligida ishlayotgan yoshlar bor. Qishloq kutubxonlari o'z kitobxonlarining (ayniqsa, qishloq xo'jalik mutaxassislarining) hilma-xil ehtiyojlarini o'z fondi yoki MKTning yagona fondi bilangina emas, balki ilmiy hamda maxsus kutubxonalarning, ayniqsa viloyat, Respublika kutubxonalarining axborot materiallaridan kutubxonalararo abonementdan foydalanish yo'li bilan ham qondiradilar. Qishloq kutubxonlari kasaba uyushmasi kutubxonalar bilan yaqindan aloqa bog'lagan holda qishloq hududida yashaydigan barcha aholiga kutubxona xizmati ko'rsatishni filiallarning bevosita o'zlari tomonidan yoki ko'chma kutubxonalar, kitob berish joylari, kitob eltuvchilik yordamida yo'lga ko'yishga da'vat etilgandir. Qishloqqa qarashli kutubxonalarning bu tashkilotchilik roli g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Qishloq kutubxonalarida kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning asosiy shakli uyga kitob berishdir (abonement), chunki ko'pchilik kutubxonalarning o'quv zallari yuq. Qishloq kutubxonasida adabiyotni targ'ib qilishning har xil texnik vositalari bilan ta'minlangan, qishloq xo'jalik hodimlari va qishloq ziyolilarini gazeta hamda jurnallarning yangi sonlari, yangi kitoblar bilan tanisha oladigan markazlashtirilgan o'quv zallari tashkil etish qishloq kutubxonasini aholiga yaqinlashtirish va qishloq mehnatkashlariga kitob bilan xizmat ko'rsatishni yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi. Qishloq kutubxonalarining ish shakli va uslublari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi xususiyatlari hamda sharoitlariga moslashtirilgan. Bu kutubxonalar kitoblarni ishlab chiqarish bo'g'inlariga yaqinlashtirish ijobiy tajriba orttirganlar. Qishloq aholisiga kitob bilan xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat o'ynaydi. Bu kutubxonalarning bunyod etilishi jamoa xo'jaliklarining iqtisodiy jihatdan mustaxkamlanganligi va dehqonlarning madaniy ehtiyojlarini o'sishining yorqin namunasidir. Aholining keng tabaqalarini o'qishga, kutubxonalardan foydalanishga jalb etish — qisqa muddatli vazifa bo'lmay, balki u kutubxonachining ijtimoiy-madaniy burchi bo'lib, bu undan doimo diqqat bilan, tashkilotchilik ishlarini olib borishni talab qiladi. Kutubxonaga har bir oiladan kitobxon jalb etish bu ishning eng muhim bosqichlaridan biri bo'ldi. Bunday vazifani qo'yish va uni amalga oshirish yullarini qidirib topishning o'zi qishloq kutubxonlari faoliyatini ancha o'zgartirishga sabab bo'ldi. Bu o'zgarishning mohiyati qishloq kutubxonalarining kutubxonaga yul topib olgan shaxslarning nisbatan tor doirasi bilan ishlashdan butun qishloq aholisiga xolda kitob xizmati ko'rsatishga o'tishda o'z ifodasini topdi. Shu munosabat bilan qishloq kutubxonasining uyushtiruvchilik roli kuchaydi, butun qishloq aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatish borasidagi uning mas'uliyati ortdi. Kutubxona tashqarisida, bevosita aholi orasida kitob bilan ishlashning yangidan-yangi shakl va metodlari amalda qo'llaniladigan bo'lib qoldi. Kitob targ'ibotining ko'p qirraligi va anikligi, dehqonlarga alohida-alohida yondashish, endigina kitob o'qiy boshlagan kitobxonlar, yoshlar, xotin-qizlar bilan ishlash, kutubxonachilarning pedagogik malakalari singari muammolar alohida ahamiyat kasb etadi. Kitob va kutubxonani faol targ'ib qilish, o'qish uchun kitob tanlab olishda ularga amaliy yordam berish, kitobxonlarga namunal xizmat ko'rsatish, kitobni ishlab chiqarishga yaqinlashtirish aholining kengroq tabaqalarini kutubxona xizmati bilan qamrab olish imkonini beradi. Kutubxonaga har bir mehnatkash oilasidan kitobxonlar jalb etish vazifasi kutubxonachilik jamoatchiligida qiziqish uyg'otdi va kutubxonachi hodimlar bu xizmatni ma'qulladilar. Bu yunalishdagi tashkilotchilik ishlari 60- yillarning boshlaridayoq avj olib ketgan edi. Bu ishda qishloqning barcha madaniy kuchlari faol ishtirok etadi. Tez orada respublikaning ko'pchilik tumanlarida har bir oila kutubxonadan foydalana boshladi. Natijada qishloq aholisini kutubxona xizmati bilan qamrab olish ancha kengaydi. Qishloq kutubxonlari har bir oilaning katta yoshdagi a'zolarini o'qishga tortish uchun kitobni bevosita uylariga olib borish usulini (xonadonma-xonadon aylanib chiqish deb atalgan usulini) qo'llay boshladilar. Ayniqsa, kitob o'qishni endigina boshlayotgan kishilar orasida kitob va kutubxonani targ'ib qilishning eng

muxim vositasi bo'lgan xonadonma-xonadon aylanib chikishdan maqsad, kishilarni shunchaki kitobxonlar ro'yxatiga yozib qo'yish emas, balki kitob darajada ma'naviy boyliklar xazinasiga yul ochib berishini ko'rsatish, uni kutubxonadan muntazam foydalanishga jalb qilishdir. Bu ishlarning hammasi qishloq kutubxonalarini aholi bilan aloqasini mustahkamlaydi va ularga kutubxona xizmat qilayotgan xududda istiqomat qiluvchi xamma axolini qamrab olish imkonini berdi. Natijada kutubxonalar kitobxonlarning yangidan-yangi tabaqalarini o'qishga jalb qilibgina qolmadilar, balki ularning qiziqish hamda extiyojlarini aniqroq o'rgandilar, adabiyotni faolroq targ'ib oilalar, qo'shnilar, ayniqsa xotin-qizlar uchun kutubxonalarda jamoa bo'lib o'qish to'garaklarini, qiziqishlar bo'yicha birlashmalar va klublarni tuzdilar, kishilarda o'qishga, kitob bilan ishlay olishga qiziqish uyg'otdilar. Uzbekistan Madaniyat ishlari Vazirligi ma'lumotiga ko'ra hozirgi vaqtda respublikadagi barcha ommaviy va universal kutubxonalar huzurida 673 ta shunday to'garaklar, birlashmalar va klublar ishlab turibdi, 1989 yilda bunday kutubxonachilik ishining yangi shakllari soni 582 ta edi. Ilg'or qishloq kutubxonolari savodxon qishlok axolisini kitobxonlar safiga tortish soxasida samarali ish olib bormoqdalar. Bu har bir oila vakilini kutubxonadan foydalanishga tortishdan ko'ra ancha murakkab vazifadir, binobarin, bu vazifa katta tashkilotchilik hamda tarbiyaviy ish olib borishni talab etadi. Bu masalaning hal etilishi qishloq aholisining madaniyatini yuksaltirish uchun yangi sharoitlar vujudga kelganligini anglatadi. Madaniy-maishiy komplekslar va qishloq aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatish masalalari so'nggi yillarda keng ommalashayotgan qishloq madaniy-maishiy komplekslari faoliyati qishloqlardagi madaniy-ma'rifiy muassasalar ishini yanada rivojlantirishda yangi bosqichdir. Bu muassasalarning asosiy maqsadi qishlokda demokratiyani rivojlantirish, mehnatkashlarning dam olishi, bilim olishida ijodiy kuchlarni taraqqiy ettirish, kishini har tomonlama kamol toptirish uchun ularning konstitusion hukurklaridan foydalanishga yordam berish, madaniy-tarbiyaviy ishlar sifatini oshirish, qishloqda ishlab chiqarish va turmush madaniyatini yaxshilash, axolining xilma-xil guruhlari xususiyatlarini hisobga olgan holda, g'oyaviy siyosiy, mehnat, axloqiy va estetik tarbiyalashda madaniyat muassasalari, kinolashtirish, ko'ngilli jamiyat va boshqa muassasalarning yaqin birligini ta'minlashdan iboratdir. Madaniy-maishiy kompleks o'z harakat doirasidagi jamoat va davlat xo'jaliklari, tashkilot va muassasalar mehnat jamoalarining ishlab chiqarish faoliyatini hayot bilan, shuningdek, maorif, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, jamoatchilik hamda xo'jalik tashkilotlari bilan o'zaro aloqasini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi. Madaniy-maishiy komplekslarni barpo qilish masalasi xalq deputatlarining qishloq, tuman kengashlari tomonidan hal etiladi. Shu kengashlar kompleksning jamoatchilik muvofiqlashtiruvchi kengashini tasdiqlaydi, uning faoliyatini nazorat qiladi. Kengash tarkibiga jamoatchilik vakillari, kasaba uyushmalari, shuningdek, kompleksga qarashli xo'jaliklar, muassasalar vakillari, madaniyat muassasalari rahbarlari kiritiladi. Kompleksning yillik va istiqbolli muvofiqlashtirilgan rejasi xamda ayrim seksiyalar ish rejaları bo'ladi. Mana shu rejaga muvofiq, kompleksga kirgan xar bir muassasa yagona yunalishda, bir-birining turli ish shakllari va metodlarini boyitgan xolda, o'zining ixtisos bilan bog'liqligi bo'lgan vazifalarini bajarishi muhimdir. O'zbekistonda madaniy-maishiy komplekslar 1977-1978 yillarda tashkil qilina boshlandi. Kompleksga qishloq xududidagi barcha madaniy-maishiy, o'quv va bolalar sport muassasalari, shifoxonalar, savdo tashkilotlari, choyxonalar, birlashtiriladi. Bunday komplekslar hozir respublikaning xamma viloyatlarida tashkil etilgan bo'lib, ularning soni 1986 yil oxirida 500 dan oshib ketdi. Bu komplekslar faoliyatida kutubxonalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular 200ga yaqin markazlashtirilgan sistemalarning kutubxona filiallarini qamrab oladi. Qishlok madaniy-maishiy kompleksi tarkibida kutubxonalarining bo'lishi avvalo qishloqda madaniy-ommaviy ishlar mazmunini boyitishga yordam beradi. Kompleks sharoitida kutubxonalar ommaviy tadbirlarning ko'pchiligini kutubxonadan tashqarida — klublar, maktablarda, stadionda o'tkazish mumkin bo'ladi. Kutubxona kompleksdagi boshqa madaniy-maishiy muassasalar bilan uzviy aloqada bo'lar ekan, kitobxonlarni jalb qilishning qo'shimcha manbalariga ega bo'ladi, jumladan, kitobxonlar oqimi muzey, kinoteatr, tomosha binolari yoki badiiy havaskorlik to'garaklari qatnashchilari hisobiga ko'payib boradi. Kompleksdagi kutubxonachilik ishlari uning

kutubxonachilik seksiyasi tomonidan uyushtiriladi. Uning kompleks raisi tomonidan tasdiqlangan «Nizom»da seksiyaning asosiy vazifalari, unga kirgan kutubxonalar, ularning vazifalari ko'rsatiladi. «Nizom» asosida seksiyaning istiqboli va joriy ish rejasi ishlab chiqiladi. «Nizom» va seksiyaga kirgan kutubxonalarining muvofiqlashtirilgan rejasini ishlab chiqilishi, kitob fondidan foydalanishni muvofiqlashtirishda kutubxonalar bilan yakka tartibda va ommaviy tarzda ishlashda kompleksga qarashli xududdagi barcha kutubxonalar kuchini birlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, madaniy-maishiy kompleks sharoitida, ishlash, kompleksning boshqa seksiyalari katnashchilarini — klub xodimlari, qishloq xo'jalik mutaxassislari, o'qituvchilar, shifokorlar faollarini kutubxonachilik tadbirlarini o'tkazishga jalb qilish imkonini beradi. Eng muhimi shundaki, qishloq axolisiga kutubxonachilik xizmati ko'rsatish ishi bevosita ishlab chiqarish vazifalari bilan, jamoa yoki davlat xo'jaligining kundalik hayoti bilan uzviy bog'liq holda, uning rahbarlari va mutaxassislari qatnashuvi va nazorati ostida amalga oshiriladi.

Kengashning kutubxonachilik seksiyasi 10 ta kutubxonani birlashtirib, madaniy-maishiy kompleksda faol ish olib boradi. Kupincha kutubxonalar, kompleksning aholiga madaniy xizmat ko'rsatishning yagona rejasini kutubxonachilik ishining o'ziga xos shakllari bilan — bibliografik namunalar, kitob ko'rgazmalari, kitobxonlar konferensiyalari, she'riyat kechalari, adabiy munozaralar, «Kitob kunlari», «Axborot kunlari», «Mutaxassislar kuni» va boshqa tadbirlar bilan to'ldiriladi. Kompleks tarkibidagi qishloq; kutubxonalarining bosh maqsadi — qishloq xujaligi maxsulotlarini ishlab chiqarishni kupaytirishga yordam berishdir. Paxtakorlar, chorvadorlar, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi mutaxassislariga kutubxonachilik xizmati ko'rsatish, dastavval ularni fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni yoritab beradigan, mehnat unumdorligini oshiruvchi yangi kitoblar haqidagi ilmiy-texnika axboroti bilan o'z vaqtida, zudlik bilan ta'minlashdan iborat. Kutubxonalarda o'tkaziladigan an'anaviy-axborot tadbirlarida, jumladan, axborot kunlari, mutaxassislar kuni, ochik adabiyotlar kuni ma'lum mav-zudagi ko'rgazmalar, bibliografik namunalarda ayrim mehnat jamoalari oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar to'g'risida va umuman, umuman respublikada agrosanoat taraqqiyotiga xos mavzular aks etishi zarur. Masalan, «Intensivlash— paxtachilikni barqaror rivojlantirishning garovi», «Uzlashtirilgan sug'oriladigan yerlarda paxtachilikni rivojlantirish», «Qishloq xo'jaligi ekinlari agrotexnikasi», «Sut yetishtirishning sanoat texnologiyasi», «Chorvachilik fermalariga veterinariya xizmati ko'rsatish», «Sanoat asosida ozuqa tayyorlash» va hokazo. Kutubxonachi kompleksning barcha bo'linmalariga o'z ta'sirini o'tkaza borib yakka tartibda, guruhlar bo'yicha va ommaviy shaklda axborot ishlarini tashkil qilish imkoniga ega buladi. Birinchi navbatda, yakka tartibdagi axborot bilan mutaxassislar qamrab olinadi. Yakka tartibdagi axborotni kompleksdagi markaziy kutubxona amalga oshiradi, chunki kitobxonlarga ishlab chikarish tarzidagi bir yoki bir necha mavzulardagi yangi adabiyotlar to'g'risidagi to'la ma'lumot kerak bo'ladi. Kompleksda markaziy kutubxona tomonidan chiqarilgan, yagona kitob fondiga kelib tushgan adabiyotlarning axborot ro'yxatidan aholini ommaviy ravishda xabardor qilishda radiotarmoq, televideniya va mahalliy matbuotni jalb qilish qulay. Ilg'or ishlab chikarish tajribalari, qishloq xujaligi fani va amaliyoti yutuqlari to'g'risidagi axborot va adabiyotlar bilan qishloq xo'jalik xodimlarini muntazam ta'minlab turishda ommaviy, maxsus kutubxonalar va ilmiy-texnika axboroti kutubxonalari bilan bevosita aloqa o'rnatmay turib hamkorlik qilish mumkin emas.

## **18-mavzu: O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining rivojlanish istiqbollari**

### **Reja:**

- 1. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanini shakllanishi(1919-1945 yillar).**
- 2. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining tabaqalanishi va ixtisoslashuvi (1946-1974 yillar).**
- 3. Mustaqillik yillarida kutubxonashunoslik fanini rivojlantirish muammolari (1991 yildan keyingi davr)**

### 1. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanini shakllanishi (1919-1945 yillar).

Bugungi kunda kutubxonashunoslik fani jamiyat tarakkiyoti ilgari surayotgan muammolarni, istiqbolli yo'nalishlarni aniklash imkoniyatiga ega emas, sababi, respublika xayotining barcha jabxalarida ketayotgan tub o'zgarishlar kutubxonachilik ishining ko'plab soxalarini kayta ko'rib chiqishni va yangilashni talab qilmokda.

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi, tarakkiyoti, asosiy xususiyatlari, yutuk va kamchiliklarni o'rganish fanning bundan keyingi rivojiga asos bo'ladi, uning istiqbolini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Respublikada kutubxonashunoslik fanining taraqqiyotini asosan to'rtta bosqichga bo'lish mumkin:

1. 1918 – 1945 yillar;
2. 1946 – 1974 yillar;
3. 1975 – 1990 yillar;
4. 1991 yildan keyingi davr.

Bunday davrlarga bulish respublikada fanning rivojlanish xususiyatlariga, asosan soxa bo'yicha e'lon kilingan materiallarning mikdoriga bog'likdir. Masalan, birinchi boskichda atigi 14 nomda kutubxonashunoslik masalalariga bagishlangan makolalar, kitoblar nashr kilingan bo'lsa, 1976 – 1987 yillarda birgina A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi tomonidan chikariladigan «O'zbekistonda kutubxonashunoslik» nomli davomli nashr saxifalarida kutubxonashunoslikning turli jixatlariga bagishlangan 131 makola e'lon kilingan.

Bu vazifalarni amalga oshirilishi Respublikada kutubxonashunoslik fanining shakllanishiga o'z xissalarini qo'shgan yirik mutaxassislar YE.K.Betger (1877 – 1956), A.V.Korshun (1878 – 1961), V.N.Smolin (1887 – 1945), N.A.Burov (1885 – 1969), A.A.Garritskiy (1881 – 1946), O.V. Maslova (1893 – 1980) va boshkalarining nomi bilan bog'likdir.

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyotida taniqli kutubxonashunos-bibliograf Yevgeniy Karlovich Betger shaxsi bilan bevosita bog'liqdir. YE.K. Betger kutubxonachilik ishi masalalarining ayrim jixatlariga, chunonchi xisobotlarni yagona tartibda va shaklda tuzish, kutubxona fondi va kataloglarni xalkaro o'nlik klassifikatsiya jadvallari asosida tashkil kilish, kutubxona xodimlarini o'qitish va qayta tayyorlash muammolariga katta axamiyat bergan edi.

YE.K.Betger tuzgan O'rta Osiyo Davlat kutubxonasining (hozirgi A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi) yillik xisobotlarida qiyosiy taxlil usuli qo'llanilgan bo'lib, uning natijasida kutubxonaning ijtimoiy rolini ortib borishini hamda mavjud kamchiliklarni bilib olish mumkin.

Turkiston Davlat kutubxonasida (Turkiston ommaviy kutubxonasining 50 yilligi munosabati bilan kutubxona 1920 yil may oyidan boshlab Davlat kutubxonasi deb atala boshlandi) ishlagan to'rt yillik tajribasi asosida YE.K.Betger o'zining «Jadvallardan foydalanish koidalari va uslubiy kursatmalar» degan ishini yozadi. Bu kutubxonachilik soxasi bo'yicha yozilgan o'sha davrning muxim ishlaridan biri bo'lib, kator yillar mobaynida respublika kutubxona xodimlari uchun qoidalar yig'indisidan iborat qo'llanma bo'lib koldi.

YE.K.Betgerning «Eslatmalar, qo'shimcha tushuntirishlar va ulardan foydalanishning xilma – xil shakllarini aloxida kismda jamlash» to'g'risidagi g'oyasi Bryuseldagi Xalqaro kutubxonachilik oliy bilimgoxi xodimlarida katta qizikish uyg'otadi. Jumladan, shu bilimgox asoschilaridan biri, uning bosh kotibi Pol Otle (1869 – 1944) 1923 yil 19 yanvarda YE.K. Betger nomiga yozgan xatida 1922 yilda Turkiston ASSRda nashr kilingan O'nli klassifikatsiya jadvallaridan chukur konikish xosil kilganligini bildiradi.

1923 yilda yozilgan «Kutubxonachilikning ishining navbatdagi vazifalari va Yangi iktisodiy siyosat» degan makolasida YE.K Betger kutubxonachilik bilimlarini ommalashtirish, tajriba va amaliyotda ortirilgan bilimlarini o'zaro baxam ko'rish zarurligini, kutubxonashunoslikka oid asarlarini nashr kilish, kutubxonachilar malakasini oshirish va ularni tayyorlash maksadida kutubxonachilik kurslarini tashkil kilish va kutubxona xodimlarining

anjuman va kuriltoylarini vakti-vakti bilan chakirib turish-kutubxona kurilishining dolzarb vazifasi ekanligini takidlaydi.

1926 yilda A.L.Garritskiyning «Kutubxona xodimiga kiskacha kullanmasi» uzbek tilida chop etiladi. Asarda kitob tavsiflashning umumiy koidalari, alifboli, sistemali va predmet kataloglarini tashkil kilish, matbuot asarlarini klassifikatsiyadan bo'yicha tavsiyalar va ko'rsatmalar ishlab chikilgan edi. Sharkshunos olim kutubxonachi va bibliograf Aleksandr Aleksandrovich Garritskiyning kutubxonashunoslik faniga qo'shgan muxim xissasi shundan iboratki, birinchi marta o'zbek tilida umumlashtirilgan tarzda kutubxonashunoslik lug'atshunosligi va uning umummiyiy asoslarini ishlab chikkan edi.

Bu xarakat uzbek kutubxonashunoslarining boshka ishlarida xam uz aksini topdi. Chunonchi, O.V.Maslova va M.N.Latipovalarning «Alifbo katalogi 1931 yil» degan amaliy qo'llanmasida, asarlarni tavsiflashda qo'llaniladigan ruscha va o'zbekcha qisqartirilgan izoxli lug'at va boshqalar o'zbek tilida nashr kilingan kitoblar asosida ishlab chikariladi.

Shunday kilib, YE.K.Betger tomonidan 1918 – 1922 yillarda nashr kilingan «o'ni bibliografik klassifikatsiyaning» ikki jadvali va 1920 xamda 1922 yillarda e'lon kilingan kutubxonachilik texnikasiga oid ayrim tavsiyalar O'zbekistonda oyoqqa tura boshlagan kutubxonashunoslik fanining poydevori bo'lsa, 1926 yili o'zbek tilida chikkan A.A.Garritskiyning «Kutubxona xodimiga kiskacha kullanmasi», shuningdek, 1931 yilda bosmadan chikkan O.V.Maslova va M.N.Latipovalarning «Alifbo katalogi» nomli amaliy kullanmasida ishlab chikilgan asarlarini tavsiflashda ishlatiladigan Ruscha – Uzbekcha kiskartirilgan izoxli lugat va boshkalar uning devorini ko'tarishda sinch vazifasini o'tar edi.

Umuman, Uzbekiston kutubxonashunoslik fani tarakkivyotining birinchi boskichiga ta'rif berar ekanmiz, bu davrda uzbek kutubxonashunosligining amaliy va nazariy asoslarining paydo bo'lib, shakllana borganligini qayd qilish zarur.

Uning amaliy asosi kutubxonachilik nazariyasining tashkiliy masalalari bilan bog'liq bo'lib, ular Markaziy idoralararo kutubxonachilik komissiyasining barpo kilinishi (1921 yil noyabrъ), kutubxona birlashmalarining tashkil kilinishi (dastlabki birlashma 1923 yil noyabrda Toshkent shaxrida tashkil kilingan) xilma – xil kutubxonachilik kengashlari, anjumanlar, seminarlar va kuritloylarning chakirilishi, respublikada ayrim kutubxonalar faoliyatini tekshirish, kutubxona shaxobchalarini rivojlantirish rejalarini tuzish, yetakchi kutubxonalar ilg'or ish tajribasini urganish, targib kilish va xokazolardir.

## **2. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanini tabaqalanishi va ixtisoslashuvi (1946-1974 yillar).**

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fani taraqqiyotining ikkinchi bosqichi (1946-1974yillar), kutubxonashunoslik, muammolarining tobora kengayib borishi va ular bilan shug'ullanuvchi mualliflar orasida maxalliy axoli vakillarining ko'payishi bilan xarakterlanadi.

Kutubxonashunoslar tanlagan mavzular doirasida kutubxonachilik ishining umumiy masalalaridan tortib, aloxida kutubxonalar faoliyati, kutubxona tarmoklari, ular ishining ayrim yo'nalishlari, jumladan kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, kutubxona fondlari muammolari, kutubxonalar ishini tashkil qilish, kutubxonalarning ilg'or tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va targ'ib qilish, boshqa kutubxonalar amaliyotiga joriy etish, shu maksadda to'plamlar nashr qilish, lug'atlar, ma'lumotnomalar tuzish va nixoyat ilmiy-tadkikot ishlarini tayyorlash va ximoya kilish bu boskichiga xos xususiyatlardir.

Bu ma'lum darajada kutubxonachilik – bibliografik fanlarining rivoj topa boshlaganligidan, ayni vaktida uni asosiy rivojlantiruvchi kuchi – ilmiy, malakali kadrlarini yetkazib berayotganligidan dalolat beradi.

Bunga 1958 yilda Qo'qon Pedagogika instituti tarkibida ochilgan kutubxonachilik fakulteti (1960 yildan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutiga o'tkazilgan) va uning asosi bo'lgan «Kutubxonashunoslik va bibliografiya» kafedrasini tashkil topishi hamda ular tomonidan tayyorlangan oliy malakali kutubxonachi kadrlar katta xissa qo'shdi.

60-yillarda kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik fanlarining rivoj topishi va

tabakalanishi natijasida ularning har biri bo'yicha maxsus fanlar turkumi paydo bo'ldi. «Kutubxonashunoslik» va «Bibliografiya» kafedralari oliy malakali kutubxonachilarni tayyorlash jarayonida, o'quv – tarbiya, ilmiy va uslubiy ishlarning mazmuni va birligini belgilab berish bilan bir qatorda ilmiy – pedagogik kadrlarni yetishtirishda asosiy baza sifatida respublika kutubxonashunoslik fikrining shakllanishi va uning taraqqiyotida katta rol o'ynadi.

«Kutubxonashunoslik» fanining tabaqalanishi uning tarixiy jixatlarini chukur o'rganish zaruratini vujudga keltiradi. 60 – 70 yillarda Nizomiy nomidagi TDPI kutubxonashunoslik kafedrasi o'qituvchilarining kutubxonachilik ishi tarixi, kutubxonalar va ularni kataloglashtirish tarixi muammolariga qiziqishning ortib borganligini qayd qilish lozim.

1966 yilda TDPI kutubxonashunoslik va bibliografiya kafedralari o'qituvchilarning ilmiy asarlari to'plami chiqdi. Unda kafedra o'qituvchilaridan N.V. Yaxontovanning «Revolusiyadan oldingi Turkistonda ilmiy kutubxonalar tarixidan», O.G.Kosimovanning «Toshkent kutubxonalarida chet el vaktli matbuotining yig'ma katalogi», Y.B.Abramovning «O'z.SSRda markazlashtirilgan kataloglashtirish tarixidan» kabi ilmiy makolalari o'rin olgan edi.

O.G.Kosimova uz makolasida Rossiyaning Urta Osiyoni bosib olganidan keyin Turkistonda ochilgan yangi tipdagi kutubxonalarning ommaviy, axborot, xarbiy, ukuv yurtlari va maktab kutubxonalari, pullik, shaxsiy va jamoatchilik kutubxonalar, kutubxona va kiroatxonalar, keng xalk ommasi uchun ochilgan dastlabki musulmon kutubxonalari va shaxar kutubxonalarning paydo bulishi, ularning faoliyati, yutuk va kamchiliklarini taxlil qilgan bo'lsa, N.V. Yaxontova uz makolasida kutubxonalarning yana bir turi – ilmiy kutubxonalarga e'tiborini karatgan. Natijada 1870 – 1917 yillarda Turkistonda tashkil kilingan va faoliyat kursatgan kutubxonalarning umumiy silsilasi, ularning axamiyati tugrisida bir butun tarixiy bilimga ega bulamiz.

Y.V.Abramovning tadkikotida esa respublikada markazlashtirilgan kataloglashtirish tarixi, uning axvoli va uning bundan keyingi tarakkiyotini belgilab beruvchi chora – tadbirlar namoyon kilingan. Mualliflar uz ishlarida usha davrda kutubxonachilik ishining u yoki bu masalalarini rivojlantirishga xissa kushgan O.V.Maslova, V.N.Smolin, G.A.Arakelyans, A.I.Ageyev kabi kutubxonashunos – bibliograflarning faoliyatiga uzlarining ijobiy munosabatlarini bildirishgan.

1965 yilda Toshkent Davlat Dorulfununida respublikada birinchi marta kutubxonachilik ishi tarixi bo'yicha O.G.Kosimovanning «O'zbekistonda ommaviy kutubxonalar tarmog'ining rivojlanishi» mavzusida fan nomzodligi uchun nomzodlik ishi ximoya qilindi.

1966 yilda nashrdan chikkan O.G.Kosimovanning «O'zbekistonda kutubxonachilik ishi» monografiyasida 1917 yil oktabr inkilobidan oldingi Turkiston, Turon o'lkasi kutubxonalarning paydo bo'lishi, ularning axvolidan tortib (asarning deyarli yarmiga yakin) to 1968 yilgacha bo'lgan davrda respublikada kutubxonachilik ishining tarixiga bag'ishlangan.

Shu davrda yana bir ilmiy tadkikot ishi nixoyasiga yetkazildi. Bu A.Navoiy nomidagi Uzbekiston Davlat kutubxonasi xodimi Y.B.Abramovning ishi bo'lib, u Leningrad Davlat Madaniyat institutida 1967 yilda «O'zSSRda kataloglashtirish nazariyasi va amaliyotning rivojlanishi» mavzuida dissertatsiyasini ximoya kilgan edi.

1969 yilda amaliyotchi – kutubxonashunoslardan biri, ko'p yillar mobaynida ToshDning ilmiy kutubxonasida faoliyat ko'rsatgan, 1971 yildan TDPK «Kutubxonashunoslik» kafedrasining, 1974 yildan TDMI ning dotsenti A.I. Kormilitsinning «Inkilobdan oldingi Turkistonda kutubxonachilik ishi tarixi» (1868 – 1917 yillar) mavzusidagi fan nomzodligi uchun ilmiy ishi ximoya kilindi. Bu tadkikotga uning shu davrlarda e'lon kilingan «Inkilobdan oldingi Turkistonda ilmiy – tibbiy jamiyatlar kutubxonalari», «Inkilobdan oldingi Turkistonda ayrim ilmiy – jamiyatlar kutubxonalari va ularning ilmiy – texnik bilimlarini tarkatishdagi axamiyati», «Turkiston ommaviy kutubxonasi va uning inkilobdan oldingi Turkistonning madaniy xayotidagi roli», «Nolegal kutubxonalar va ularning Toshkentda inkilobiy adabiyotlarini tarkatishdagi roli», «Temiryulchilarning ishchi kutubxonalari va ularning mexnatkashlarning inkilobiy ongini uygotishdagi roli», «Samarkand jamoatchilik kutubxonasida nolegal adabiyotlarning targiboti»

kabi asarlari asos kilib olingan.

70-yillarda kutubxonashunoslik–bibliografik fanlarining tarakkiy etishi, ularning ixtisoslashuvi, shuningdek, respublikada malakali kutubxonachi xodimlarni tayyorlash, ularni ukitish, soxa bo'yicha ilmiy – tadqiqot ishlarini uyushtirish va tashkil kilish xamda kundalik amaliyotda, kutubxonachilik – bibliografik terminlarini tartibga keltirish zarurati davr talabi bo'lib kolgan edi. Shunday sharoitda, O.R.Kosimov, YO.Kodirovalarning o'zbek tilida «Kutubxonashunoslik va bibliografik bo'yicha kiskacha izoxli terminologik lugat» nashr kilindi.

70 yillarning 1 yarmida ilmiy kutubxonalar tarixi xam maxsus o'rganila boshlaganligini ko'rmiz. 1973 yilda M.A.Raximov ToshDDa «O'zbekiston SSR ilmiy kutubxonolari tarakkiyoti tarixi (1917 – 1941 yillar) mavzuida nomzodlik ishini ximoya qildi.

Shu tipdagi kutubxonalarining bundan keyingi davrdagi rivojlanish tarixini B.K.Karimov o'zining «O'zbekiston SSRda ilmiy kutubxonalar tarakkiyoti» (1941-1970) mavzusidagi nomzodlik ishida davom ettirgan. Tadqiqot Moskva Davlat Madaniyat institutida ximoya kilingan.

Shunday kilib, Respublikada kutubxonashunoslik fani rivojlanishining ikkinchi boskichiga (1946-1974 yillar) ta'rif berar ekanmiz, quyidagicha umumiy xulosa qilish mumkin:

- respublika kutubxonolari faoliyati to'g'risida obzor-axborot tarzidagi makolalar ko'payib bordi;

- kutubxonalardagi ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va joriy qilish bo'yicha materiallar, to'plamlar nashr kilina boshlanadi;

- amaliyotchi va nazariyotchi kutubxonashunoslarning respublikada kutubxonachilik ishi, uning axvoli va istikbollari tugrisidagi tadqiqotlari chika boshladi;

- ma'lumotnoma tipidagi, lugatlar tarzidagi nashrlar paydo buldi;

Bundan kelib chikadigan birinchi xulosa shundan iboratki, bu boskichda kutubxonachilik ishining umumiy masalalari bilan bir katorda, uning ayrim yunalishlari bo'yicha, jumladan, kutubxonalarining tiplari va ular faoliyatining ba'zi muammolariga (kataloglashtirish; kutubxonalararo abonement, ochik kitob jamgarmasi va x.k) bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi.

Ikkinchidan, respublikada kutubxonalar axvolini kuzatib boruvchi va ularni rivojlantiridan manfaatdor shaxslar xisoblangan amaliyotchi xam nazariyotchi ilmiy kadrlar yetishib chikdi va shakllandi (oliy malakali kutubxonachi – bibliograflar tayyorlaydigan oliy kutubxonachilik ta'limining barpo kilinishi), 1974 yildan esa TDMI va uning "Kutubxonashunoslik" (1968 yil), «Bibliografiya» (1968 yil), «Bolalar adabiyoti va bolalar bilan kutubxonachilik ishi» (1974 yil), «Kutubxona fondlari va kataloglari» (1980 yil), «Informatika va kutubxonalarda texnik vositalar» (1977 yil) kabi maxsus kafedralarning tashkil qilinishi unga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi Respublikada kutubxonachilik ishining funksional va ilmiy tadqiqot ishlarini muvofiqlashtiruvchi xolda uning tashkiliy markazi bo'lib koldi.

### **3.Respublikada kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi (1975-1990yillar).**

Respublikada kutubxonashunoslik fani rivojining uchinchi boqichida (1975-1990yillar) soxa bo'yicha ilmiy tadqiqod ishlar darajasi yangi pog'onaga ko'tarildi. Kutubxona tarmoklari va kutubxonashunoslik, kitob tarixi va uning umumiy muammolari rivoji bo'yicha 1976-1980, 1981-1990 va 2000 yilgacha bo'lgan davrlarga mo'ljallangan ilmiy takikod ishlarning istikbolli rejaları ishlab chikildi.

Bu davrda kutubxonashunoslik fani tarkibiy kismlaridan bo'lgan-kutubxonachilik ishi tarixi, umumiy kutubxonashunoslik, kitobxonlar xizmat ko'rsatish, kutubxona ishini tashkil kilish va boshkarish kabi maxsus o'quv predmetlarini nazariy va ilmiy jixatidan asoslashga, ularni ukitish uslubiyatlarini ishlab chikishga muvoffik bulishdi. 80-yillarning 2 yarmidan boshlab, respublika xususiyatlarini xisobga olgan mustakil darsliklar, ko'llanmalar ishlab chikildi va o'qitila boshlandi.

1975-1990 yillar moboynda respublikada jami 9 kishi (doktorlik va 8 nomzodlik) ilmiy-



tadqiqod ishlarini nixoyasiga yetkazgan bo'lsalar, shundan 1 ta doktorlik va 7ta nomzodlik ishi Toshkent davlat madaniyat instituti o'qituvchilariga taalluklidir.

Bu davrda professor O.G'.Qosimovning «O'zbekistonda kutubxonalar ishi tarixi» darsligi yaratildi va shu institut talabalariga darslik sifatida o'qitila boshladi. Darslikda kutubxonalar jamiyatdagi ularni, ulardagi targ'ibot va tadqiqot usullarining madaniy – ma'rifiy faoliyat bilan boglanishi, kutubxonalar bilan ishlash usuli va shakllarni takomillashtirish masallalari keng yoritilgan. Respublikada kutubxonachilik ishini tarakkiy ettirishning asosiy yunalishlari belgilab berilgan.

1982 yilda Uzbekiston FA Tarix insituti koshida, respublikada birinchi marta kutubxonashunoslik soxasida O.Kosimovning «O'zbekiston SSRda kutubxonachilik ishi rivojlanishi tarixi va uning mexnatkashlarni komunistik ruxda tarbiyalashdagi roli»(1917-1975 yillar) nomli doktorlik dissertatsiyasi ximoya kilindi.

Tadkiktning ilmiy axamiyati va fanga kushgan xissasini shundaki, unda kutubxonachilik ishi birinchi marta maxsus va xar tomonlama yoritilganligi xamda O'zbekistonda Sovet xokimiyati ishlarida kutubxonachilik kurilishiga bagishlangan kopleks tadkikot ekanligidadir.

Bu davrda Kutubxonashunoslik kafedraasi ukituvchilari ijodida kutubxonashunoslikning umumiy masalalariga bagishlangan muammolar birmuncha mufassal ishlangan deyish lozim. Respublikada kutubxonashunoslik fanining umumiy masalalari xamda uning ayrim yunalishlari yanada kengrok yoritadigan, kafedra ukituvchilari jamoasi tomonidan tayyorlangan muxim tadkikot 1989 yilda nixoyasiga yetkazildi. Umumiy xajmi 12 bosma tabokdan iborat bu «O'zbekistonda kutubxonachilik ishi» o'quv kulanmasini yaratishda kafedrasining eng tajribali ukituvchilaridan prof. O.Kosimova, dotsent T.X.Kim, katta o'qituvchilaridan T.Yesimov, A.P.Kovalenko, T.Shokirov, D.Mamajonovalar katnashgan.

Tadkik kilinayotgan davrda (1975 – 1990 yillar) kutubxonachiilk ishining eng muxim masalalaridan biri – kutubxonalar tarmoklarini markazlashtirish va u bilan boglik muammolar xisoblanadi. 1979 yilda A.Kodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti maxsus kafedralari o'qituvchilarning ilmiy asarlari to'plamini nashrdan chikardi. Tuplamda klub va kutubxonachilik ishining dolzarb masalalari yoritilgan.

To'plamda e'lon kilingan makolalarda respublikada amalga oshirilayotgan davlat ommaviy kutubxonalar tarmoklarini markazlashtirish asosida kayta kurish, ularning samaradorligini oshirish, ilmiy – texnika kutubxonalar faoliyatini fan – texnika tarakkiyoti darajasida tashkil kilish, kutubxonachilik axborot xizmatini takomillashtirish sharoitida kutubxonalar ishini yaxshilashning ayrim tomonlarigina uz aksini topgan edi.

1984 yilda kafedra ukituvchilarini «O'zbekistonda MKSning faoliyatini optimallashtirish» nomli maqolalar to'plami bosmadan chikadi. Tuplamda birinchi marta respublikada davlat ommaviy kutubxonalar tarmoklari to'la markazlashtirishdan so'ng erishilgan yutuk va kamchiliklarni, ilg'or ish usullari umumlashtirilgan, taxlil qilingan.

To'plamda O.Kosimova, A.P.Kovalenko, D.Mamajonova, T.K.Kim, A.M.Gersenova, D.N.Mavlonova, T.Yesimov, R.N.Domratskayaning ilmiy maqolalari chop etildi.

1982 yilda «Bolalar adabiyoti va kutubxonachilik ishlari» kafedrasining katta o'qituvchisi E.Yo'ldoshev o'zining «O'zbekistonda bolalarga kutubxonachilik xizmatining ko'rsatilishi: shakllanishi, rivojlanishi, istikbollari» mavzusida nomzodlik ishini ximoya kiladi.

Professor E.Yo'ldoshev respublikada birinchi marta bolalarga kutubxonachilik xizmati ko'rsatilishini maxsus, atroflicha taxlil kilgan va ma'lum darajada uni nixoyasiga yetkazgan shaxsdir. Muallif institutning maxsus kafedrasida ishlagan kator yillar davomida bolalar adabiyoti, kitobxonlar bilan ishlash, kitobxonlar qiziqishi va ular ruxiyatini o'rganish masalalari bilan bevosita shug'ullangan. Bu uning qator kitoblari va ilmiy maqolalarida o'z aksini topgan

Maktab kutubxonasining bolalar va yoshlarni tarbiyalashdagi roli va vazifalari, axamiyati, ularning ishini tashkil kilish, jamg'armalarini shakllantirish, kitobxonlar bilan ishlash va ularni o'qishga raxbarlik kilish muammolari E.Yo'ldoshevning E.T.Islomov bilan xamkorlikda yaratgan «Maktab kutubxonasining ishi» nomli qo'llanmasida o'z aksini topgan.

80 – yillarda respublika kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi belgilaridan biri

sifatida uning lugaviy asoslarining yangi nashr bilan yoritish edi. Bu davrga kelib, O.Kosimova va YO.R.Kodirovalar tomonidan tuzilgan uzbek tilidagi birinchi «Kutubxonashunoslik va bibliografiyaga oid terminlarning kiskacha izoxli lugati» nashri xajman juda kichik bo‘lib, (400 termini uz ichiga olgan edi), kutubxonashunoslik nazariyasi va kutubxonachilik amaliyotidagi kuplab uzgarishlarni aks ettira olmas edi.

Mana shu «bo‘shlikni» birmuncha tuldirdirishda institutning tilshunoslik kafedrasida olimlari X.Abduraxmonov, N.Maxmudov, R.Shukurovlar tomonidan tayyorlangan «Madaniy – okartuv xodimlari uchun kiskacha izoxli lugati» ijobiy urini egallaydi. Lugatda kutubxonashunoslik va bibliografiya, kitobshunoslik, madaniy – okartuv ishlari, musika, xoreografiya, teatr va kino san’atiga oid terminlar, madaniyat tushunchasi ostida birlashtirib, umumiy alifbo tartibida joylashtirilgan va izoxlangan.

Lugatda jami 1500 dan ortiq madaniyat tushunchasi bo‘lsa, shundan 700 ga yaqin kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobxonlik masalalariga bagishlangan. Bu terminlar juda kiska va ixcham tarzda izoxlangan. Garchi mualliflar uzlaridan oldingi lugatlardan foydalanliklarini kayd kilishgan bo‘lsada (shu jumladan 1976 yilgi ruscha lugatdan xam) kutubxonashunoslikning usha davrdagi eng muxim asosiy terminlari nazardan chetda koldirilib, ikkinchi, uchunchi darajadagi tushunchalar kirib kolgan.

Bu kamchiliklardan kat’iy nazar, tilshunoslar lugatni tuzishda katta jonbozlik ko‘rsatishgan, bu bilan kutubxonachilarga, talabalarga kutubxonashunoslik terminlarining moxiyatini tushunib yetishga va ularni amalda ishlatishga yordam bergan, fan rivojiga xissa kushgan.

Bu davrda kutubxonashunoslik kafedrasida o‘qituvchilari tomonidan Uzbekiston kutubxonalar ishini tashkil kilish va boshkarish masalalari xam ma’lum darajada o‘rganilgan va ishlab chikilgan. Jumladan, kafedraning katta ukituvchisi A.P.Kovalenkoning 1984 yilda «UzSSRda kutubxonachilik ishi: boshkarish va tashkil kilish masalalari» degan ukuv kullanmasi nashrdan chikdi. Unda kutubxonalar davlat va uslubiy raxbarlikni tashkil kilish, ilmiy – tadkikot ishlarining tarakkiiyoti xamda kutubxonalarda mexnatni ilmiy asosda tashkil kilish masalalari bayon kilinadi. Mazkur muammolar Uzbekiston xususiyatlarini xisobga olgan xolda xamda kutubxonalar tajribalari asosida yoritilganligi bilan axamiyatlidir.

Sobik Ittifoqda va respublikamizda kutubxonashunoslik fani va kutubxonachilik ishi erishgan yutuklar natijasida 80 – yillarning ikkinchi yarmida kutubxonachilik kasbiga, kitob va kitobxon urtasidagi vositachi sifatidagi kutubxonachining shaxsiga e’tiborni karatish, jamiyatda kutubxonachining nufuzini kutarish, ularni talab darajasida tayyorlash asosida kutubxonashunoslik tafakkurini rivojlantirish masalasi yetakchi okimlardan biriga aylandi.

Ana shu muammo kutubxonashunoslik kafedrasining katta ukituvchisi, fan nomzodi I.M.Troitskayaning «Kutubxonachilik kasbi: iste’dod boskichlari» degan makolasida uz aksini topdi. Muallif kutubxonachilik kasbiga xos bulgan eng umumiy xususiyatlarni, uning kadimiyligini, insonparvarligini, ayni paytda kup kirraligini, shuning uchun unga xavas kilishning uzi kamlik kilishini, ishlash uchun kasbga xakikiy mexr – muxabbat bulish zarurligini jaxondagi mashxur kutubxonachilar faoliyati, misolida bayon kilib beradi.

1987 yilda I.M.Troitskaya tomonidan tuzilgan «O‘z SSRda kutubxonalar tipologiyasi» nomli ukuv–uslubiy kullanma e’lon kilindi. Qo‘llanmada kutubxonashunoslikning eng dolzarb va murakkab xisoblangan muammosi – kutubxonalar turkumi va turlari muammosini talabalarga ommabop shaklda tushuntirib berishga xarakat kilgan. 1989 yilda I.M.Troitskaya tanikli kutubxonashunos va bibliograf, kitobshunos va tarixchi olim YE.K.Betgerning 100 yilligiga bagishlangan A.Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasining yubiley tuplamida «Yevgeniy Karlovich Betger» va «Turkiston tuplami» degan ilmiy makola bilan chikdi. Unda XIX asrning ikkinchi yarmidan to oktabr inkilobigacha bulgan davrda Turkiston va Urta Osiyo tarixini urganish bo‘yicha bitmas – tugamas manba xisoblangan «Turkiston tuplami»ni ommalashtirishda, uning moxiyatini tadkikotchilar va kelajak avlodga yetkazishda YE.K.Betgerning roli xar tamonlama taxlil kilingan.

80-yillar tadkikotchilari faoliyatida kutubxona tarmoklarini markazlashtirish masalasi

asosiy yunalishlardan biri bulgani ma'lumdir. Markazlashtirishgan kutubxonalar tizimi sharoitida kitobxonalariga xizmat ko'rsatishga oid bir turkum ishlar kutubxonashunoslik kafedrasining dotsent, fan nomzodi M.M.Rasulovga taalluqlidir. M.M.Rasulov 1987 yilda «MKSda ommaviy qishloq xo'jalik kasbi mexnatkashlariga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish» (Uzbekiston materiallari asosida) mavzusida nomzodlik ishini ximoya kildi. Muallif Uzbekistondagi eng ommaviy kasb egalari-brigadirlar, zveno boshliklari, mexanizatorlar, shafyorlar, dexkonlar, chorvadorlar va boshkalarga kutubxona xizmatini tashkil qilishning axvoli, xususiyatlari, uni yaxshilash yullari, muommolarini uziga xos tarzda tadqiq qilgan.

Urganilayotgan davrda yana bir muxim muammo-maktab ukituvchilariga kutubxona xizmatini ko'rsatish masalalari kafedraning katta o'kituvchisi M.X.Maxmudov 1990 yilda Moskva Davlat madaniyat institutida «Umumta'lim maktablari ukituvchilariga kutubxonachilik xizmatini ko'rsatish: hozirgi axvoli va rivojlanish istikboli» (Uzbekiston materiallari asosida) mavzusida nomzodlik ilmiy ishini ximoya kiladi.

Muallif uz tadqiqotiga umumta'lim maktablari ukituvchilariga kutubxonachilik xizmatini ko'rsatishni takomillashtirish yullarini asoslab berish maksadida uning asosiy boskichlarini aniklab, ukituvchilarning kitobxon sifatida ijtimoiy-demografik, ruxiy-pedagogik kizikishlarini shakllanish omillarini, umumta'lim maktablari pedagoglariga kutubxonachilik xizmatini ko'rsatishning bir butun tizimini yaratish va takomillashtirishning tashkiliy – uslubiy shart-sharoitlarini ochib beradi.

1988 yilda institutning «Kutubxona fondlari va kataloglari» kafedrasining katta ukituvchisi M.A.Zuparova (hozir Moskva davlat madaniyat va san'at universitetida ishlamoqda) uzining «Milliy – rus ikki tilidagi sharoitida sistematik katalog: tashkil qilish muammolari va takomillashtirish yullari» mavzusidagi nomzodlik ishini ximoya kildi. U sobik Ittifokda birinchi marta sistemali katalogni tashkil qilishda turli tillardagi mazmuni bir xil nashrlarni bir joyda aks ettirish masalasini nazariy xam amaliy jixatdan asoslab beradi.

Sistemali katalog tuzish nazariyasi va amaliyoti masalalariga bagishlangan yana bir ish shu kafedraning katta ukituvchisi N.Kattaxujayev tomonidan amalga oshirilgan. 1990 yilda muallifning «Sovet kutubxonachilik klassifikatsiyasi bo'yicha xujjatlarni sistemalashtirish» nomli o'kuv qullanmasi nashr kilinadi. Kullanna kataloglashtirish nazariyasi va amaliyotidagi sungi yutuklar xisobga olingan xolda yaratilgan.

Kutubxonashunoslik kafedراس dotsenti E.O.Oxunjonovning tadqiqot obykti kitob va kitobshunoslik masalalaridir. U 1979 yilda Moskva matbaachilik institutida «UzSSRda kitob nashr qilish ishining shakllanishi va rivojlanishi (asosiy boskichlar va yetakchi okimlar) mavzuida nomzodlik ishini ximoya qilgan bo'lib, undan oldin «O'zbekistonda kitob va kitob ishi: Uzbekistonning kitob ishi bo'yicha adabiyotlar obzori va manbaalar kursatkichi (1875 – 1977 yillar) nomli risolasini yozgan. Unga muallif respublikada birinchi marta o'zbek kitobat ishi bo'yicha 1875-1977 yillarda rus va uzbek tilida nashr kilingan X-XX asrlar moboynda paydo bulgan eng muxim bosma asarlarning tankidiy obzorini xamda uning taxlilini bergan.

1982 yilda Z.I.Yesenbayev va E.Oxunjonovlar xamkorligida yozilgan «Assalom kitob» nomli monografiya nashrdan chikadi. Unda mualliflar Turkistonda matbaachilikishining vujudiga kilishi, uning Sovet Uzbekistonda tarakkiy etish muammolarini katta ijodiy jushkinlik, ilmiy g'urur bilan xikoya kiladi. Matbaachilikning yutuk va kamchiliklari, bugungi axvoli va uning istikboli faktik materiallar asosida yoritiladi.

E.Oxunjonovning «Xat va kitob» nomli risolasi Urta Osiyoda yozuv tarixi va kulyozma kitoblarning paydo bulishi masalasiga bagishlangan. Muallifning 1989 yilda chop etilgan «Qadimgi yozuvlar» risolasida kadimgi Finikiya yozuvlari,ormiyy, yunon, arab, turk va boshka shu singari yozuvlar tizimi, tarixi,ularning xususiyatlari,bizning davrimizgacha yetib kelishi masalalari bayon kilingan. Risolaning o'zbek tilida nashr kilinishi ayniksa axamiyatlidir.

E.Oxunjonovning 1993 yili chop kilingan “O'rta Osiyoda kitob tarixi va kitob ishi bo'yicha ocherklar” nomli ilmiy asari muallifning kariyib 15 yillik mexnatini umumlashtiradi. Kadimgi va ilk Urta asrlarda yozuv va kitob ishi tarixi, Urta Osiyoda kogoiz ishlab chikarishnig vujudga kelishi va rivojlanishi, kulyozma va toshbosma usulidagi kitoblar, ularni kupaytirish,

kutubxonalar va kitobsevarlar, bibliografiyaning paydo bulishi eng muxim bibliografik ishlarning taxlili, kitob savdosi va kitobfurushlar kabi mavzular muallif tadkikotning obyektini xisoblanadi.

Muallif tomonidan yaratilgan bu asarlar Urta Osiyo xalklari ma'naviy tarixining tarkibiy qismi bulgan «kitobshunoslik» faniga kushilgan katta xissadir.

70 – 80 yillarda institut maxsus kafedralari ukituvchilari faoliyatining faollashganligini, ularning turli mazmundagi ilmiy – ommabop makolalarining kutubxonachilik tuplamlarida, shuningdek markaziy matbuotda chika boshlaganligidan xam anglab olish mumkin. 1976 yildan A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi tomonidan chikarila boshlangan «O'zbekiston kutubxonalari» nomli davomli nashrning roli kattadir. Dastavval ilmiy asarlar tuplami sifatida chikarilishi muljallangan nashrning birinchi chikarilishidanok respublika kutubxonalari amaliyotidagi ilgor tajribalar xakidagi xilma – xil mavzularni targib kiluvchi minbarga aylanadi. Tuplamga materiallarni tanlab olish prinsipini belgilab olish jarayonida uning nomi «Kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyoti» tuplami, 7 – chikarilishidan boshlab esa, «Kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha makolalar tuplami» sarlavxasi ostida va nixoyat xozir esa «O'zbekiston kutubxonachiligi: Kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha makolalar tuplami» nomi bilan chikarilmokda.

Bu boskichning yana bir uziga xos xususiyati shundaki, institut ukituvchilari respublikada va undan tashkari uyushtirilgan xalkaro anjumanlarda xam ishtirok etib, uz ma'ruzalari bilan chikdilar. Shunday anjumanlardan biri 1990 yil Dushanbe shaxrida bo'lib utgan «Shark xalklari madaniyat tarakiyotida kitob: tarixi va xozirgi axvoli» nomli xalkaro ilmiy-nazariya anjumandir. Anjuman E.Oxunjonov, I.A.Zuparov, L.N.Muminxujayeva, M.M.Ne'matova N.Usanov YO.Rozikova va boshqalar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

1975-1990 yillardagi axvolini nazardan kechirar ekanmiz, tadkikotchilar bu davrda kutubxonashunoslikning asosiy masalasi bulgan kutubxonalarning ijtimoiy rolini aniklashga xarakat kilganliklarini ta'kidlashi zarur.

Bu boskichda kutubxonachilik ishinig turli yo'nalishlari bo'yicha 1 doktorlik, 8 ta nomzodlik ishlarining tayyorlanishi va ximoya kilinishining uzi respublikada kutubxonashunoslik fanining yangi pog'onaga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, bu tadkikotlardan «Kutubxona fondlari va kataloglari» kafedrasining ukituvchilari V.V.Sadurskayaning «Yukori sinf ukituvchilarining bilishga oid faolligini shakllantirishda yoshlar kutubxonasi, maktab, ishlab chikarish jamoasining o'zaro xamkorligi» (1984 yil) xamda M.L.Zuparovaning «Milliy – rus 2 tilligi sharoitida sistematik katalog: tashkil kilish muammolari va takomillashtirish yullari» (1990 yil) kabi nomzodlik ishlari nafakat respublikada balki sobik Ittifok axamiyatidagi muammolarni uz ichiga olganligi va tadkik kilinganligi bilan axamiyatlidir.

Shunday kilib, respublikada kutubxonashunoslik fani rivojlanishining uchinchi boskichi (1975 – 1990 y.) bo'yicha xulosa kilar ekanmiz, bu davrda institut ukituvchilari fan tarakkiyoti uchun ancha ishlarni amalga oshirganliklarini ta'kidlash zarur. Ular kutubxonashunoslik faning ma'lum bir tarkibiy kislari muammolari ustida ilmiy uslubiy xam tadkikiy ishlarni olib bordilar. Endilikda respublikada kutubxonachilik ishi tarixi va uning nazariy asoslari «Kutubxonashunoslik» kafedrasini ukituvchilari va boshka kutubxonashunoslar tomonidan deyarli to'la ishlab chikildi va ishlar olib borilmokda. Tadkikotchilar respublikada kutubxonalarning ijtimoiy rolini ortib borishi masalasi yuzasidan uzlarining kat'iy fikrlarini bildirishmagan bo'lsalarda, kutubxonachilik amaliyotining nazariy asoslarini ishlab chikishda ma'lum yutuklarga erishdilar.

#### **4.Mustaqillik yillarida kutubxonashunoslik fanini rivojlantirish muammolari (1991 yildan keyingi davr).**

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fani rivojlanishining 4 boskichi 1991 yil va undan keyingi yillarni uz ichiga oladi. Bu boskichning xususiyati shundan iboratki, bu davrga kelib, respublikada kutubxonashunoslik fani nazariyasi va kutubxonachilik ishi amaliyotini tashkil kilish borasida eskicha ma'muriy buyrukbozlik tizimi davrida tarkib topgan karashlardan xalos

bulishi, istiklol tafakkurini shakllantirish birinchi o'ringa chikadi.

Shu sababli fanning ayrim muammolarin ishlab chikish va urganishda milliy xususiyatlarni xisobga olish va aks ettirish, kutubxonachilik ishining iktisodiy va xukukiy asoslarini ishlab chikish va mustaxkamlash, bozor iktisodiyotiga o'tish sharoitida kutubxonalar ishini tashkil kilish muammolarini aniklash va ishlab chikish, kutubxonachilik ishini boshkarish va raxbarlik kilishda davlat- jamoatchilik tizimini vujudga keltirish, demokratik jamiyatda kutubxonalarning ijtimoiy roli va uni takomillashtirish masalalari kun tartibida turadi.

Jamiyatda iktisodiy munosbatlar asosida uzgartirishga karatilgan yulni amalga oshirishni ijtimoiy va ishlab – chikarish munosabatlarini takomillashtirish borasidagi nazariy tadkikotlarni faollashtirmay turib, tasavvur kilish mumkin emas. Kutubxonachilik ishi xam ana shu nazariy tadkikotlar soxasining ajralmas kismi xisoblanadi. Demak, kutubxonashunoslik fani ijtimoiy jixatdan axamiyatli, kompleks muammolarni taxlil kilib berishi, ularning ishlab chikilishi esa kutubxonachilik ishining yanada yuksalishini ta'minlashi darkor.

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining tadkikot obyektu turli tarmoklar va idoralarga karashli 11 mingdan ortik kutubxona-axborot muassasalaridir. Ular 6,3 mln. foydalanuvchiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatmoqda. Ushbu muassasalarda 83, 6 mln. nushadagi adabiyotlar saqlanmoqda. Shulardan 3,5 mln. nushasi elektron shaklda.

Umuman bu muammolarni asosiy ikki muxim guruxga bulish mumkin: Birinchi – respublika kutubxonalari ilmiy – tadkikot faoliyatining istikbolli yunalishlaridan bo'lgan bozor iktisodiyoti munosabatlariga utish davrida kitob va kitob ukishning rolini urganish bo'lsa,

ikkinchisi – kutubxonalarning yangi sharoitda ishlab turishini, kutubxonalarning uzaro alokalari, ularning boshka madaniy – ma'rifiy muassasalar, axborot organlari bilan alokasini yaxshilash, xamkorlik kilish, muvofiklashtirish masalalari bilan bog'likdir. Bu muammolar respublika ilmiy markazlarning kutubxona turlarini samarali joylashtirish va ulardan unumli foydalanish yullarini kidirib topishga bagishlangan tadkikotlarida uz aksini topadi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda ilk ilmiy tadqiqot ishlari o'tgan asrning 20-yillaridayoq boshlangan va u kutubxonachilik ishi tarixini madaniy qurilishning muxim qismi sifatida o'rganilgan. Bu muammoni o'rganishga respublikaning mashhur kutubxonashunos-olimi YE.K.Betger o'zini bir qancha ishlarini bag'ishlagan: “Turkiston davlat kutubxonasi (1918-1922 yillar), “ Qisqacha tarixiy ocherk”, “Bir asrning to'rtidan uch qismidagi madaniy ishlar” (1870-1945 yillar).

Respublikada kutubxonachilik ishi tarixini o'rganish ishlari 60-yillarda ancha faollashdi. O'zbek manbashunoslari tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi va uning ayrim muammolari o'rganildi. Bu ishlar E.A.Oxunjonov, A.I.Kormilitsin, A.G.Kosimova, M.A.Raximova, B.K.Karimovlarning asarlari va ilmiy dissertatsiyalarida o'z aksini topd.

Respublika olimlari tomonidan “Kitob va o'qish har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vositasi sifatida” mavzusi ishlab chiqildi. Ushbu mavzu bo'yicha M.Y.Malisheva va T.X.Kimlar ish olib bordilar. Axolini turli qatlamlariga kutubxona xizmati ko'rsatish ishlari M.M.Rasulov va M.X.Maxmudovning dissertatsiya tadqiqotlarida o'rganildi. Aloxida e'tibor bolalar va o'smirlarga kutubxona-bibliografik xizmati ko'rsatish ishlariga bag'ishlandi. Bu muammolar bilan E.Y.Yo'ldoshov, O.G.Shabalina, B.I.G'aniyeva, M.Y.Sarkazovalar shug'ullandilar

Bibliografiya nazariyasi bo'yicha keng miqyosdagi ishlar M.M.Turovov, SH.M.Shamsiyev, N.P.Shumanova, I.M.Trotskiy, M. Mirzaaxmedova, M.Y.Nosirova, A.V.Nosirova, I.V.Dolgoplova va X.Mamatraimovalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topdi

O'zbekistonlik tadqiqotchilari tomonidan kutubxona fondlari va kataloglari nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar bilan Y.B.Abramov, V.V.Sokolova, M.I.Vitenson, I.I.Kattaxodjayeva, Z.Berdiyeva va boshqalar shug'ullandilar. Kutubxonachilik ishini boshqarish masalalari T.B.Yesimov, E.G.Islomov, A.P.Kovalenko, M.Maxmudovning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. O'zbekiston kitobshunoslik tarixi va kitob tarixi tadqiqotlarida aloxida o'rnini E.O.Oxunjonovning ilmiy ishlari tashkil etadi. Shu bilan birga ushbu muammolar F.N.Rojinskaya, Z.I.Yesenbayev, E.Y.Yuldashev, M.R.Rashidovalar tomonidan ham

o'rganilgan. Kutubxona tizimlari va aloxida kutubxonalarni axborotlashtirish, avtomatlashtirish va mexnanizatsiyalashtirish mavzusi bo'yicha M.Z. Yakubova, M.A. Raxmatullayev, U.F. Karimov, A.SHG. Muxammadiyev va B.A. Mannonovlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.

Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarikeng kutubxonachilik jamoatchiligiga turli xil nashrlar yordamida: monografiyalar, maqolalar to'plami, vaqtli matbuotdagi maqolalar, ilmiy xisobotlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar tavsiyalari, metodik, o'quv qo'llanmalari, dissertatsiyalar avtoreferatlari va boshqalar orqali yetkaziladi.

XX asrning ikkinchi yarmi kutubxonashunoslik tadqiqotlarining umumnazariy masalarini o'rganilishi va ularni kengli bilan xarakterlanadi. Tarixiy-kutubxonashunoslik muammolariga, kutubxonalarni ijtimoiy rolga, kutubxonashunoslikning xususiy qismlarini o'rganishga aloxida e'tibor berila boshlandi. Kutubxonashunoslik fani ijtimoiy institut sifatida sifat jixatidan uni infrastrukturasi o'zgarib boshlandi; yirik ilmiy universal va maxsus kutubxonalarda ilmiy-tadqiqot bo'limlari tashkil etila boshlandi. "Sovetskoye bibliotekovedeniye" ilmiy-nazariy to'plami chop etila boshlandi. O'zbekistonda "O'zbekiston kutubxonashunosligi" va "Betgerxonlik o'qishlari" to'plamlari tashkil etildi. Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni aspirantura va doktorantura tizimlari joriy etildi.

Zamonaviy kutubxonashunoslikning asosiy o'ziga xosligi-uni yangi va yagona umuminsoniy qadriyatlar metodologiyasi asosida rivojlanishidir. Ushbu vazifalarni muvoffiqiyatli xal etilishi kutubxonachilik fanini hozirgi axborot-kutubxona faoliyatini ulkan axborot industriyasining bir qismi sifatida qarash orqali, o'zini asosiy nazariy masalalarini yangi sifat ko'rsatkichlarida xal etishga bog'liqliq

## **19-mavzu: Kutubxona tarmoqlari va tizimlari**

### **Reja:**

- 1. O'zbekistonda kutubxona tarmoqlarining shakllanishi**
- 2. Kutubxonachilik sohasi va uning rivojlanish tizimi**

Hozirgi davrda kutubxonalarni ma'lum idoralarga, sohalarga boysunishiga qarab sohaviy-tarmoq yoki sohaviy tarmoq territorial kutubxona sistemalariga ajratish mumkin. Respublikada mavjud kutubxonalar tarmoqlaridan O'zbekiston Madaniyat ishlari vazirligiga qarashli davlat kutubxonalari sistemasi, respublika Xalq ta'limi vazirligiga qarashli maktab, oliy va maxsus o'quv yurtlari kutubxonalari, texnika, tibbiyot kutubxonalari qarashli kutubxonalar, shuningdek, respublika kasaba uyushmalari kutubxonalari sistemalari eng katta tarmoqlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligiga qarashli davlat kutubxonalari tizimlariga respublika, viloyat, tuman, shahar, bolalar, qishloq kutubxonalari tarmoqlari kiradi. XIX—XX asrlarda nashr kilingan harbiy, tarixiy, geografik va gumanitar mazmundagi adabiyotlar kelib tushdi. Ular orasida A. S. Pushkin juda kup **foydalangan nomdagi** 189 tomlik kitoblardan biri hozirgi kunda xam kutubxona fondida saqlanmokda. 1885 yili Toshkeitda surgunda yurgan buyuk knyaz Nikolay Konstantinovich Romanov kutubxonaga turli tildagi Urta Osiyo haqidagi 5000 kitobni sovg'a qildi. 10 yildan so'ng esa yana turli mazmundagi Harbiy Yevropa tillaridagi 447 nomdan iborat 1293 kitobni sovg'a qildi. Turli kitob magazinlari, maxalliy bosmaxonalar, jurnal va gazeta muxarririyatlari ham kutubxona fondining boyishida o'z hissalarini qo'shganlar. Kutubxona o'z fondini to'ldirishda kitob almashish va chet el muassasalaridan kitob olish usulidan ham foydalandi. XX asrning birinchi o'n yilligiga kelib, kutubxona fondining to'rtidan bir qismini tilshunoslik va og'zaki adabiyotlar tashkil etardi. **K**utubxona fondi 80000 dan oshib ketdi. Usha paytda kutubxonaning asosiy vazifasi turli mazmunidagi barcha adabiyotlarni saqlovchi yirik tashkilotni yuzaga keltirishdan iborat edi. Kutubxonada juda qimmatbaho adabiyotlar to'plana boshlandi. 1905 yil Imperator xalq kutubxonasi Kur'onning zeb-ziynatli nusxasini junatdi. Professor N. I. Veselovskiy Go'r-Amir maqbarasini tavsiflovchi tarixiy-arxitektura nashrini sovg'a qildi. 1907 yil harbiy V. P. Kolosovskiy kontradmiral A. I. Butakovning o'z quli bilan yozgan hujjatlarini va Amudaryo va Orol dengizini tadqiq etuvchn xujjatlarni keltirib berdi. O'sha paytda Koshg'ardagi rus elchisi.

N. F. Petrovskiy 1909 yili Osiyo hakidagi adabiyotlarni joʻnatdi, bu sharkshunoslik adabiyotlari Osiyo hakidagi maʼlumotlarni berishda boshka xech bir joyda yoʻkligi bilan axamiyatlidir. Ayniqsa, «Turkiston toʻplami» muhim manba boʻlib qoldi. Bu toʻplam Oʻrta Osiyo masalasiga oid katta qomusiy va monumental asardir. Buni mashxur rus bibliografi V. I. Mejev tuzgan. U toʻplamni Pretburgda tuzib, tayyorini Turkistonga joʻnatib turgan. Toʻplam 1887 yilgacha muntazam tuzib borildi. 20 yilda 416 tomi tayyorlandi. Unga 3 marta yordamchi koʻrsatkich nashr qilindi. Bular alifbo va sistemali koʻrsatkichlardir. Toʻplam 20 yillik tanaffusdan soʻng 1907 yilda bir qancha bibliograflar: N. V. Dmitrovskiy, A. A. Semenov, YE. K. Betgerlar tomonidan davom ettirildi. 1916 yilga qadar yana 175 tomi tayyorlandi, shunday qilib toʻplam 594 tomdan iborat boʻlib, unga kiritilgan maqolalar, turkum 10711 tani tashkil etdi. Oʻtgan asrning oxirlarida Turkistonda tashkil etilgan birinchi mahalliy bosmaxonalar ham oʻzlarining toshbosma va litografik nashrlarini kutubxonaga uzatganlar. Ular orasida Xiva xoni Muxammad Raxim tomonidan tashkil etilgan birinchi litografik bosmaxonadan chiqqan A. Navoiyning «Xamsa»si (1880), Munis «Devon»i va boshqalar bor. Kutubxona faoliyat koʻrsata boshlagan davrda kitobxonlarning asosiy qismini harbiylar tashkil etgan. N. V. Dmitrovskiyning maʼlumotiga koʻra, ofitserlar harbiy mazmundagi ilmiy adabiyotlarni koʻproq soʻraganlar. 1870 yilning mayidan 1871 yil sentabrigacha kutubxonadan foydalangan kitobxonlar haqidagi maʼlumotga eʼtibor bersak, jami 75 kitobxonga xizmat koʻrsatilgan. Shundan 45 tasi ofitserlar, 19 tasi amaldorlar, 5 tasi savdogarlar, 2 tasi ruzʼo-niylar, 2 tasi xarbiy yozuvchilar, 1 tasi maʼalliy bilim yurti talabasi, 1 tasi ayol boʻlgan. 1876 yil birinchi marta kutubxonadan foydalanish qoidasi nashr silingan. Unda kutubxona har kuni, bepul, soat 10 dan kech 10 gacha xizmat koʻrsatadi, deb koʻrsatilgan. Kitob uyga berilsa, bir oyga 75 tiyin, bir yilga 6 sum va 5 sum garov olingan. 1878 yili kitobxonlar soni 182 tani tashkil etgan. 1906 yilga kelib ularning soni 2183 ga yetdi, oʻquv zaliga qatnov 36000 dan oshgan. 1906 yilga kelib oʻzbek kitobxonlar soni 2039 ta boʻlsa, 1916 yil ularning soni 12975 taga yetgan. 1918 yil Turkistonda Maorif Xalq komissarligi tashkil etildi. 1918 yil 21 aprelda Turkiston Xalq universitetining ochilish marosimi boʻldi. 1920 yil shu universitet asosida Toshkent Davlat universiteta (oʻsha paytda Turkiston Davlat Universiteta) tashkil etildi. Turkiston Xalq kutubxonasi esa uning tassarrufiga oʻtdi. Kutubxona fan, madaniyat arboblari va xalkda xizmat koʻrsata boshladi. 1919 yil may oyidan boshlab, Maorif Xalq komissarligida kutubxonachilik boʻlimi tashkil etilgandan soʻng Turkiston Xalq kutubxonasi bevosita ana shu boʻlim ixtiyoriga oʻtdi. 1919 yil fevralida kutubxona Turkiston Xalq kutubxonasi, 1920 yil esa tashkil etilganligining 50 yilligi munosabati bilan Turkiston ASSR Xalq Komissarligi Sovetining qarori bilan Turkiston Davlat kutubxonasi sifatida qayta tashkil etildi. Endi Turkiston Davlat kutubxonasi respublikaning markaziy kutubxonasi sifatida joylardagi yangi kutubxonalarga raxbarlik va amaliy yordam vazifasini bajara boshladi. 1918 yil 30 sentabrda YE. K. Betger kutubxonachilik ishi boʻyicha oʻlkaning raxbar-instruktori etib tayinlandi. Bu ish boʻyicha yana bir qancha instruktorlar tayinlandi. 1919 yil 14 aprelda grajdanlar urushi qizigan bir paytda Turkiston oʻlkasida kutubxonalarni milliydashirish xakida Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining qarori chiqdi. Xamma ommaviy, shaxar, jamoat, shaxsiy kutubxonalar Turkiston respublikasining Xalq taʼlimi komissariata ixtiyoriga berildi. Ularning faoliyatini boshqarib borish uchun u yerda kutubxonachilik boʻlimi tashkil etildi. Shular qatorida Turkiston Xalq kutubxonasi ham bor edi. 1919 yil kutubxona haqida Nizom kabul qilindi. Unda belgilab berilganiga koʻra, kutubxona joylardagi kutubxonalarga koʻrsatma berishi, yoʻnaltiruvchi va nazorat qilib turuvchi agent-mutaxassislarni joʻnatishi, kutubxonachilik boʻlimi bilan birgalikda oʻlkada kutubxonachi xodimlarni tayyorlash kurslarini tashkil qilishi, oʻlka kutubxona xodimlarining qurultoylarini oʻtkazishi, joylardagi kutubxonalar uchun oʻlka kitob fondini tashkil qilishi kerak edi. Kutubxona Toshkent shaxrida va boshqa hududlarda koʻchma kutubxonalar, kutubxona filiallarini tashkil qilishi va nashriyotchilik faoliyatini ham olib borishi kerak edi. Ortiqcha nusxadagi adabiyotlar va keng kitobxonlar ommasiga moʻljallangan adabiyotlar kutubxona filiallarini tashkil etish maqsadida ajratildi. 1921—22 yillarda ular asta-sekinlik bilan Xalq Komissarlari Soveti ixtiyoriga, keyinroq esa Toshkent shahar xalq maorifi boʻlimi ixtiyoriga oʻtkazildi. Bir necha yildan soʻng ular asosida



shaxarning xozirgi tuman kutubxonalari vujudga keldi. Turkiston Xalq kutubxonasi uzoq joylarda masalan, Kerki, Kazalinsk, Chernyayev va Samarqandda o'zining bo'limlariga ega bo'ldi. 1919 yil -O'rta Osiyoda birinchi kutubxona xodimlarining ikki oylik malaka oshirish kurslari ochildi. Ularda N. A. Burov, A. A. Metlenkov, YE. N. Betger va boshqalar dare berishdi. Kureda 40 kutubxonachi o'qidi. 1921-yil Turkiston Xalq Komissarlari Soveti »Turkiston respublikasida kutubxonachilik ishini markazlashtirish haqida» dekret qabul kildi. Unga muvofiq Xalk Komissarlari Soveti ixtiyoridagi xamma kutubxonalar, boshqa muassasa va tashkilotlarning kutubxonalari Turkiston Siyosiy maorif bo'limi ixtiyoriga o'tdi. Kutubxona 1923 yil Butunrossiya qishloq xo'jalik ko'rgazmasida, 1924 yil va 1926 yillarda I va II ilmiy kutubxonalarning Butunrossiya anjumanida va Butunrossiya bibliografik qurultoylarda qatnashdi. Kutubxonaning tashkiliy tuzilishi dastlab umumiy, Turkiston v a Shark bo'limlaridan iborat bo'lgan bo'lsa, 1919 yil aprelida bolalar o'quv zali, avgustdan vaqtli matbuot nashrlari bo'limi ochildi, Turkiston va Shark bo'limlari birlashtirilib, sharqshunoslik bo'limi tashkil etildi. 1921 yil oxirida 7 ta bo'lim: umumiy, sharqshunoslikdan boshqa xamma adabiyotlarni qamrab oluvchi kitob saqlash bo'limi, sharqshunoslik, vaqtli matbuot, kataloglar zali, kitob berish bo'limi , bolalar bo'limi , bibliografii bo'limlar bor edi. 1921 yil sentabridan kutubxonalar hakidagi Nizomga ko'ra kutubxona mudiri kutubxona direktori deb yuritila boshlandi. Shu yili kutubxonalar fondini markazlashtirilgan soldat to'ldirish maqsadida Toshkentda Kutubxona kollektori tashkil kilindi. 1920 yildan Turkistonda maxalliy davlat nashriyotdari xam tashkil kilina boshlandi. Kutubxona fondi ana shu tashkilotlar orqali, boshka respublikalarning Kitob palatalari suratayotgan adabiyotlar evaziga to'la bordi. Ayniqsa kutubxona bu yillarda qadimgi. qo'lyozma adabiyotlarni to'plashga katta e'tibor berdi. Kitobxonlar soni orta bordi, ularga xizmat ko'rsatish ham kengaydi. 1921 yil sentabrda «Kutubxona haqida Nizom» qabul kilindi. Nizomga kura, kutubxona aholining xamma qatlamiga bepul xizmat ko'rsatishi (matbuot asarlari va qulyozmalar uyga berilmaydi) ta'kidlandi, kutubxonadan foydalanish kutubxona kengashi tomonidan ishlab chiqilishi kerak deb belgilandi... Kitobxonlar tarkibi va soni oshdi. Kizil armiyachilar, siyosiy xodimlar, ishchilar guruhi paydo bo'ldi. Kitobxonlarning asosiy tarkibini oliy va boshqa o'quv yurtlarining o'quvchilari tashkil qildi.1923 yil 17 dekabrda Turkiston respublikasi Xalq Komissarlari Soveti Turkiston Davlat kutubxonasida spravka-bibliografiya byurosi haqida nizom va koidalarni tasdiqladi. Maqsad kutubxonada **ma'lumot bibliografiya** xizmatini yaxshilashdan iborat edi. Kutubxona 1920 yildan nashriyotchilik faoliyatini ham boshladi. 1924 yil 16 sentabrda kutubxona qoshida bibliografiya komissiyasi tuzildi. Bu komissiya 1925 yil 4 aprelgacha faoliyat ko'rsatdi. Shu yili 26 dekabrda kutubxona O'rta Osiyo Davlat kutubxonasi deb o'zgartirildi. 1934 yil 21 oktabrda O'rta Osiyo tashkilotlarining tugatilishi bilan kutubxona O'zbekiston SSR Davlat xalq kutubxonasi deb qayta nomlandi. 1938 yil 27 fevraldan kutubxona O'zbekistan Xalq Komissarlari Soveti ixtiyoridan O'zbekiston Xalq ta'limi komissarligi tasarrufiga o'tdi.O'zbekiston SSR Xalq maorifi komissarligining 1933 yil 25 apreldagi «Respublika qo'lyozma fondlariii birlashtirish haqida»gi qaroriga ko'ra kutubxona O'zbekiston SSR ning qulyozmalarni saqlovchi markaziy muassasasiga aylantirildi.1937 yil 17 mayda metodik markaz sifatida kutubxonada kutubxonashunoslik va bibliografiya kabineta tashkil qilindi.Urush yillarida kitobxonlar soni ortdi, ularning tarkibi ham kengaydi: talabalar, ilmiy hodimlar, ishchilar, harbiylar, vaqtincha Toshkentga ko'chib kelgan tanikli kishilar shular jumlasidandir.Kutubxona harbiylar kasalxonalarida, zavod-fabrikalarda ommaviy ishlar olib bordi.Ma'lumotnoma-bibliografiya ishlari kengaydi. Tavsiya bibliografiyasi turli mavzular, turli muammolar bo'yicha nisbatan juda xam kuplab tuzildi. Urush yillarida ilmiy sessiya va yirilishlar xam o'tkazib turildi. Kutubxona tarixida birinchi marta 1942 yil Unda yirik kutubxonashunos va bibliograf olimlar turli muammolar yuzasidan ma'ruzalar bilan qatnashdilar. Ikkinchi sessiya 1944 yili o'tkazildn. Bu respublikaning 20 yilligiga bag'ishlandi. 1945 yil 25—27 iyulda kutubxona tashkil topganining 75 yillik yubileyiga bag'ishlangan sessiya bo'ldi. Unda YE. K. Betger, T. G. Stern, M. N. Yakovleva, N. N. Benediktova, professor A A. Semenovlar qatnashdi.Urushdan keyingi yillarda kutubxona fondi yana boyib bordi. Bolgariya, Polsha, Ruminiya, AKSH, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Germaniya, Koreya Xalq Demokratiya



Respublikasi va boshqa davlat kutubxonalari bilan kitob almashdi. 1970 yilga kelib dunyoning 90 dan ortiq yirik kutubxonalari bilan kitob almasha boshladi. Ular orasida Arabiston, Turkiya, Eron, Afroniston kabi mamlakatlar ham bor edi. 1971 yilga kelib, kugubxonaning kitob fondi 3.718333 dan oshdi. 50 dan ortiq mamlakat kutubxonalari bilan KAA orqali kitob almashdi. Kutubxona 1948 yil 15 maydagi UzSSR Vazirlar Kengashining qaroriga ko'ra, buyuk mutafakkir va shoir A. Navoiy nomi bilan atala boshladi. Kutubxonaning tarkibiy tuzilishi O'zbekiston Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlangandi. Unda direksiya, kutubxona fondini to'ldirish bo'limi va ichki va xalqaro kitob almashuv sektori: kitob fondiga ishlov berish va kataloglarni tashkil etish, xamda O'rta Osiyo xalqlari adabiyotiga ishlov berish, alifbo va sistemali katalog, adabiyotlarga gruppali ishlov berish sektorlari bilan birga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish bo'limi : kutubxonalararo abonement, san'at, ommaviy ishlar, chet el adabiyotlari bo'limi va o'quv zali, kitob fondini saqlash bo'limi, milliy bibliografiya, ma'lumotnoma-bibliografiya, ilmiy-tadqiqot, ilmiy-metodik, noyob nashrlar, o'smirlar bo'limi mavjud edi. Kutubxona xozirgi vaqtda bosma asarlarning milliy xazinasiga aylangan bo'lib , uning umumiy mikdori 5 mln. bosma birlikni tashkil etadi. 1991 yilda 77,9 ming nusxa yangi matbuot asarlari bilan to'ldirildi. Olingan nashrlarning 11,6 foizi, ya'ni 9100 nusxadan ortig'i o'zbek tilidagi nashrlardir. Kutubxona 35 ta xorijiy mamlakatnmg 97 kutubxonasi bilan, sobiq ittifokdosh respublikalarning 190 kutubxonasi bilan nashrlar almashadi. Kutubxona respublika milliy kutubxonasi sifatida O'zbekistonda chiqadigan nashrlarning bepul majburiy nusxasini oladi. U tavsiya bibliografiyasining hamda kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik, kitobshunoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining markazi hisoblanadi. Shuningdek, u madaniyat va san'at masalalari yuzasidan axborot, kutubxonalararo abonement» va xalqaro kitob ayirboshlash muammolari buyicha muvofiqlashtiruvchi markazdir. Kutubxona respublika miqyosida bosh metodik markaz rolini bajaradi. U barcha viloyat kutubxonalari faoliyatini o'rganadi, ularga tavsiyalar, operativ xatlar, metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish, seminarlar, konferensiyalar tayyorlash va o'tkazishda metodik yordam ko'rsatadi, rahbarlikni amalga oshiradi. Kutubxona bosh metodik markaz sifatida respublikadagi boshka tarmoq metodik markazlari faoliyati bilan o'z ishlarini muvofiqlashtiradi, ilg'or tajribalarni o'rganadi, tahlil kiladi va tegishli kutubxonalar ishlariga joriy qiladi. Ilmiy-metodik ishlar bo'yicha muvofiklashtiruvchi markaz vazifasini bajara borib, A. Navoiy nomidagi respublika milliy kutubxonasi metodik ishlarining yig'ma istikbolli va joriy rejalarini («O'zbekistonda kutubxona ishiga oid metodik qullanmalar sistemasi 1986— 1990 va 2000 yillargacha») takomillashtirmokda. U respublika kutubxonalarining o'zaro hamkorligi to'g'risidagi nizomini ishlab chiqadi, ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazadi, kutubxonalarining ishi ko'rigini tashkil qiladi Mildiy kutubxona ommaviy kutubxonalar uchun 1961 yildan boshlab o'zbek va rus tillarida «Muhim sanalar kalendari», 1976 yildan ilmiy, nazariy xam amaliy masalalar yoritiladigan «O'zbekistan kutubxonalari» to'plamini, har yili 30 nomga yaqin metodik qo'llanmalar nashr etib, kutubxonalariga tarkatadi. Viloyat davlat universal ilmiy kutubxonalari (bundan keyin qisqacha viloyat kutubxonasini OK deb» ataymiz). OK tashkil qilnngan dastlabki yillardayoq bu kutubxonalarining madaniy-tarbiyaviy faoliyati ularning adabiyotga bo'lgan kasbiy talablarni qondirish vazifasi bilan qo'shib olib borilmoqda. 30- yillardan boshlab rasmiy xujjatlarda, 1965 va 1983 yillardagi namunaviy ustavlarda OK doimo universal ilmiy kutubxona-deb xisoblanadi. OKning turkumiy xususiyatlariga ta'rif bergan vaqtda ular tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Birinchidan, 60- yillarning o'rtalariga qadar OK ma'lum darajada ommaviy kutubxonalar vazifasini bajardi, bu esa ilmiy va maxsus adabiyotdan yetarli foydalanmaslikka olib keldi. Ikkinchidan ko'p yillar mobaynida bu kutubxonalaridagi ilmiy adabiyotlarning universal fondi mavjud xududdagi deyarli yagona muassasa bo'lib kelganligi oqibatida ayrim OK o'z faoliyatining vazifa va mavzu chegaralari to'g'risida tasavvurga ega emasdilar, xamda 60- va 70-yillarda vujudga kelgan maxsus kutubxonalarining imkoniyatlarini hisobga olmay, barcha axborot talablarini o'z kuchlari bilan qondirishga xarakat qildilar. Mafkuraviy va axborot muassasasi bo'lgan OK e'tibori mehnatkashlarni axloqiy tarbiyalash maksadida va ilmiy-texnika taraqqiyotiga yordam berish

yuzasidan adabiyotni keng targ'ib qilishga qaratilgandir. Universal ilmiy kutubxonalar sifatida OK ni rivojlantirish tabaqalashtirilgan tarzda xizmat ko'rsatishni shunday tashkil qilishni takazo etadiki, toki u kitobxonlar barcha guruhlarining ortib borayotgan qiziqishlarini kondiradigan bo'lsin. Shu boisdan ishchilar, xizmatchilar, talabalar va boshqa guruxdagi kitobxonlarning maxsus talablarini qondirish, ilmiy xodimlarga va xalq xo'jaligi mutaxassislariga xizmat ko'rsatish OKning muxim vazifasidir. Bunda OK davlat boshqarish organlari xodimlariga, olimlarga, xalq xo'jaligi mutaxassislariga, xalq maorifi va madaniyat xodimlariga, sanoat va qishloq xujaligi ilg'orlariga, ixtirochilariga ko'proq e'tibor beradi. OKning universal ilmiy kutubxonalar sifatida qaror topishi va rivojlanishi O'zbekistonning ma'muriy-hududiy rayonlari iqtisodiyotini, fanini va madaniyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog'langan. OK yagona hududiy ma'lumotnoma axborot fondlarini vujudga keltirish doirasida viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, tabiiy-geografik, demografik xususiyatlariga muvofiq bilimlarning barcha sohalari bo'yicha kitob fondini to'ldiradi. U mazkur xududda yashayotgan xalqlar tillaridagi adabiyotni va o'lkashunoslik adabiyotlarini zo'r berib to'playdi. Pullik majburiy nusxa negizida tarkib topgan g'oyat boy universal fondga ega bo'lgan OK (bir oyga o'rta hisobda 500 ming nusxa to'g'ri keladi) xududda matbuot asarlarining markaziy ombori vazifasini bajaradi. OKlar viloyat ahamiyatiga ega bo'lgan depozitar kutubxona xisoblanadilar. O'lkashunoslik sohasidagi xududiy axborot bibliografik, ilmiy-tadqiqot hamda uslubiy markaz vazifasini bajarishi OKning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Kitob fondini to'ldirish, ma'lumotnoma-qidiruv apparatini va kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishni tashkil etishdan iborat barcha kutubxonalar uchun umumiy bo'lgan vazifani OK viloyatda tarkib topgan axborot turlarini hamda boshqa sistema va turli idoralarga qarashli kutubxonalar va ilmiy-texnika axboroti organlari taqdim etadigan ana shunday qurilmalardan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olib ado etadi. Universal ixtisosdagi birdan-bir hududiy ilmiy kutubxona sifatida OKning o'ziga xos xususiyati ana shundaydir. Ilmiy-texnika axboroti umumdavlat sistemasi hamda madaniyat va san'at bo'yicha axborot hududidi organlarining yutug'i viloyat kutubxonalarida hududiy ilmiy-texnika axboroti markazlarini tashkil qilishni taqozo etdi. Xozirgi vaqtda OKning asosiy ko'pchiligida shunday bo'linmalar ishlab turibdi. Ma'lumotnoma-axborot fondlari vujudga keltirilmokda, axborot abonementlari doirasi belgilanmokda, muassasalarda xamda madaniyat va san'at muxlislariga axborot xizmati ko'rsatish shakllari tarkib topmoqda. OK da tabiiy-ilmiy va tibbiy, fizika-matematika va texnika, san'at va badiiy, gumanitar fanlarga oid adabiyot qishlots xo'jaligi, o'lkashunoslik va milliy adabiyotlar majmuidan iborat bo'limlar tashkil qilindi. Xududning ilmiy-texnika imkoniyati darajasiga sanoat ishlab chiqarish tuzilishi, ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlari tarmog'i, olimlar va mutaxassislar soni va tarkibi hamda maxsus kutubxonalar va ilmiy-texnika axboroti organlarining mavjud tarmog'iga qarab OKni shartli ravishda uch gurug'ga bo'lish mumkin. Ilmiy va loyiha tashkilotlari ko'p bo'lgan, xalq xo'jaligi tarmoqlari keng rivoj topgan, injener texnik xodimlar va xalq xo'jaligining boshqa mutaxassislari hamda talabalar ko'p to'plangan, boshqa sistemalardagi va turli idoralarga qarashli kutubxonalar tarmog'i rivollangan, markaziy hududiy tarmoq kutubxonalar hamda axborot organlarining ilmiy-texnika axboroti kutubxonasi, viloyat tibbiy kutubxonasi, Fanlar akademiyasi ilmiy kutubxonalar va shu kabilar mavjud bo'lgan eng yirik viloyat, respublika markazlarida joylashgai kutubxonalar birinchi guruhga kiradi (masalan Toshkent, Samarkand, Angdijon, Farrona oblayet kutubxonalar). OK ning ikkinchi guruhi ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlarining tarmog'i kamroq rivoj topgan, asosan sanoat korxonalar ko'p bo'lgan, tor tarmoqlar bo'yicha maxsus kutubxonalar ishlab turgan, ilmiy-texnika axboroti territorial markazlari bo'lmagan yirik **viloyat** markazlarida joylashadi (Buxoro, Namangan kutubxonalar). Uchinchi guruhni o'rtacha kattalikdagi shaharlarning OK, shuningdek kichik shaharlarda yangidai barpo etilgan OK tashkil etadi. Bunday shaharlarda mutaxassislar o'rtasida ilmiy xodimlar tabaqasi ko'p emas, injenerlar ancha kam, maxsus kutubxonalar tarmog'i rirojlangan (Koran Respublikasi kutubxonasi, Xorazm, Kashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo, Navoiy viloyatlari kutubxonalar). Ushbu guruh OK vazifalarining muayan darajada tabakalashtirilganligini kuzatish imkonini beradi. Chunonchi, birinchi guruxdagi OKlari

umumiy, tarmoqlararo muammolarga oid adabiyotni shakllantirish va targ'ib qilishga hamda fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarga alohida e'tibor berayotgan bo'lsalar, ikkinchi guruh **uchun** kitob fondlarini vujudga keltirishda katta universallik hamda e'tiborni ko'proq injener- texnik xodimlar, o'qituvchilar, madaniyat arboblari, talabalar va o'quvchilardan iborat kitobxonlarga xizmat O'zbqilishga qaratish xarakterlidir. Uchinchi guruh muntazam ravishda bo'shatib, ularni markaziy kutubxona yoxud boshqaa biron kutubxonaga topshirish xuquqini beradi. Adabiyotning uzluksiz aylanib turishi, butun kutubxona sistemasi foydalanayotgan kutubxona fondining harakatda bo'lishi, ayrim kutubxonalar doirasi bilan cheklangan fondlar hakida axborot— bularning hammasi xar bir kutubxonaga o'rinsiz xarajatlarga yul quymaslik, o'z fondini vujudga keltirishni, xizmat qilayotgan tuman (korxonaga, oliy o'quv yurti, ilmiy muassasa) ixtisosiga va ish

rejasiga buysundirish imkonini beradi. Markazlashtirish filial kutubxonalarni bir qancha vazifalardan (fondni adabiyot bilan to'ldirish hamda ishlov berishdan va shu kabi boshqa ishlardan) xalos etadi, ularga diqqat-e'tiborini kitobxonlar talabini birmuncha to'liq kondirishga qaratish imkonini yaratadi. Xar bir markazlashtirilgan sistemani vujudga keltirishdan oldin birlashtirilgan kutubxonalar va kutubxonalar tarmog'i xususiyatlarini sinchiklab o'rganish zarur. Markazlashtirilgan kutubxona sistemalari (MKT) vazifalar va huquqlarni taqsimlashning bir xil tayyor qolipi asosida yagona umumiy andaza bo'yicha barpo etilmaydi. Kutubxona jarayonlarni markazlashtirish darajasi, shakllari, hajmi va ularni boshqarish vazifalari bir xil bo'lmasligi mumkin. Turli MKSlarda kutubxona tarmoqlarini to'la markazlashtirish ham ro'y beradi, bunda markaziy kutubxonaning filiallariga aylanadigan kutubxonalarning xukuqiy axvoli o'zgaradi, shuningdek, ayrim kutubxonachilik jarayolarini qisman markazlashtirish sodir bo'ladi, bunda kutubxonalarning tegishli tashkilotlar va muassasalarga ma'muriy bo'ysunishi o'zgarmay koladi. Aralash tipdagi MKTlari ham tashkil qilinishi mumkin, bunday sistemalarga filiallarga aylantirilgan kutubxonalar xam, qisman markazlashtirish asosida birlashtirilgan kutubxonalar ham kiradi. Kutubxona jarayonlarining birligini, kutubxona sistemasining boshqaruvini ta'minlash va shu asosda kitobxonlarga kutubxona xizmatini ko'rsatish va kutubxona fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirish — markazlashtirish darajasinn belgilash muhim mezondir. Ana shu mezon nuqtai nazaridai kutubxonalar mustaqil ishlashi yoki filiallar xukuqida bo'lishidan kat'i nazar, MKTning tarkibiy qismidir. U holda ham, bu holda ham kutubxonalar asosiy yunalishlarni, birinchi navbatda, kundalik masalalarni markazlashtirilgan tartibda, belgilangan doiralarda hal kilishda muayyan mustaqillikka egadirlar. Misol tarikasida Farg'ona viloyati Quva tumani MKTning (MK va sistemasining bir filiali) faoliyatini havola qilamiz. Quva MK 1978 yilda qishloq va kolxoz kutubxonalari negizida tashkil topgan. Quva tuman kutubxonasining o'zi esa 1946 yil iyun oyida Farg'ona viloyati madaniyat boshqarmasining farmoniga ko'ra barpo qilingan. 1991 yilga kelib, sistema tarkibida MK, 58 filial, 2 bolalar kutubxonasi va 3 jamoa xo'jaligi kutubxonasi mavjud bo'lib namunali kutubxonachilik xizmatini uyushtirmoqdalar. Quva MKning kitob fondi 1990 yilda 366.688 nusxani tashkil etib, 41916 kitobxonga 883.432 kitob, kutubxona xizmati bilan tuman axolisining 43,3 foizini qamrab olgan aholini siyosiy va axloqiy jihatdan tarbiyalash hamda ularni umumta'lim, madaniy va kasbiy bilimlarini oshirishda MKTga qarashli kutubxonalar muxim ishlarni amalga oshirganlar. Ayniqsa, o'zbek tiliga davlat makomining berilishi, O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, 1991 yilda buyuk ma'rifatparvar shoir A. Navoiy tavalludining 550 yillign munosabati bilan kutubxonalarda turli

suhbatlar, kitob ko'rgazmalari, adabiy-badiiy kechalar, uchrashuvlar o'tkazilgan, «Kitob munozarasi», «Sharqlar», «Kitobxon benefisi» kabi yangi kitob targ'iboti usullari keng qo'llanilgan. MKTning Markaziy kutubxonasida jami 25 ta xodim ishlaydi. Ulardan 16 kishi — oliy maxsus, 4 — o'rta maxsus, 2 kishi — tuliqsiz oliy, 3 kishi — o'rta ma'lumotga ega. Ular ish stajiga qarab quyidagicha taqsimlanadi: 6 kishi— 15 yildan ko'p, 3— 10 yildan 15 yilgacha, 6— 5 yildan 10 yilgacha, 10—5 yilgacha ish stajiga ega MKda asosan kitob fondini to'ldirish va unga ishlov berish kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, kutubxona fondini saqlash va ilmiy bibliografiya bo'limlari mavjud. Barcha bo'limlarda malakali hodimlar faoliyat ko'r

## **20-mavzu: A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi faoliyati**

### **Reja:**

#### **1. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi tashkil topish tarixi**

#### **2. Respublika kutubxonachiligi islohotlari**

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi 1870 yili may oyida Toshkent ommaviy kutubxonasi sifatida ochilgan. Fondini tashkil qilishga Xalq maorifi vazirligi, Fanlar Akademiyasi, Ommaviy kutubxona, Geografiya jamiyati, Rossiya bosh shtabi hamkorlik ko‘rsatib, o‘z fondlaridan adabiyotlar sovg‘a qilishgan. 1870 yil may oyida 2200 tomndan (1200 nomdagi) ortiq kitob yig‘ilib, kutubxona fondining asosi yaratilgan.

Kutubxonaning qo‘lyozmalar fondi 1917 yilda 250 tomni tashkil etgan. Bu davrda kutubxonaga Xiva va Toshkent litografiyalarida chiqarilgan birinchi litografik kitoblar xarid qilingan. Bu litografiyalar Alisher Navoiyning “Xamsa”si (1880), “Munis devoni”, XVIII asrning mashhur shoiri So‘fi Ollohyorning “Sabotul ojiziyn” (“Ojizlar matonati”) asarlari va boshqa noyob manbalardan iborat.

1920 yili kutubxonaga Davlat kutubxonasi maqomi berildi va u keskin o‘zgardi. 1925 yilga kelib kutubxonaning fondi 140 ming jildga yetdi. 1920 yildan boshlab kutubxona Turkiston o‘lkasida chop etilayotgan nashrlarning majburiy nusxalari taqdim etilgan.

Markaziy Osiyo respublikalarining tashkil etilishi natijasida kutubxona O‘zbekiston xalq ta’limi qo‘mitasiga buyunadi va qayta tashkil etilgan Markaziy Osiy respublikalarida kutubxonachilik ishini tashkil etish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsata boshlaydi.

O‘zbekiston hukumatining Qaroriga ko‘ra Toshkentdagi O‘zbekiston Davlat ommaviy kutubxonasi 1933 yildan respublikaning sharq qo‘lyozmalarini saqlash Markazi deb e’lon qilingan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda kutubxonaning asosiy vazifasi kitob fondlarini to‘ldirish va kengaytirishdan iborat bo‘lgan. Bu vaqtda Bolgariya, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya kabi davlatlardan kitoblar kela boshlagan. Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Yaponiya va boshqa davlatlar bilan hamdo‘stlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan.

1948 yili kutubxonaga buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy nomi berildi va muassasa 350 o‘rinli o‘quv zaliga ega bo‘lgan uch qavatli yangi binoda ish boshladi. O‘sha paytda nodir va qadimiy nashrlar bo‘limi tashkil etilib, unda 2 mingdan ortiq kitob, jumladan, 250 ta avtografli, 151 ta ekslibrisli kitoblar jamlangan edi. Ayni paytda bu fond 16 mingdan ortiq manbaga ega.

1980 yillardan fondni o‘zbek tilidagi adabiyotlar bilan boyitishga alohida e’tibor qaratila boshlangan. Hozirda ularning soni 600 mingdan ortiq bo‘lib, o‘zbek mumtoz adabiyotining Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Furqat, Muqimiy, Zavqiy kabi namoyandalari hamda zamonaviy adabiyot va ilm-fan vakillarining asarlaridan iborat.

Kutubxona tarixidagi navbatdagi muhim davr 2002 yildan boshlandi – shu yili 20 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni chiqdi. Farmonning 8-punktida respublika ilmiy muassasalarining taklifi qabul qilinib, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi bilan Respublika ilmiy-texnika kutubxonasini birlashtirib, Vazirlar Mahkamasi huzurida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tashkil etildi.

2002 yil 12 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq kutubxonaning maqomi – milliy va xorijiy adabiyotlarning asosiy davlat xazinasi, kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik, kitobshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot, metodik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlashtiruvchi ilmiy markaz etib belgilandi.

2011 yili poytaxtimizda shaharsozlik madaniyatining yana bir noyob namunasi – “Ma’rifat markazi” bunyod etilib, undan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi joy oldi.

2012 yil 20 martda qabul qilingan “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi – axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq kutubxona tuzilmasi yangilandi, uning bo‘limlari va xizmat ko‘rsatish ishi takomillashtirildi, vazifalar ko‘lami kengaytirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 9 avgustdagi “Nodir, alohida qimmatli va noyob nashrlar saqlanishini ta‘minlash, ularning fondini tizimli ko‘paytirish va boyitish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida axbrot-kutubxona muassasalari, muzeylar fondlarida saqlanib kelinayotgan qadimgi qo‘lyozma va noyob kitoblarni elektron formatga o‘tkazish, Milliy kutubxonada mavjud bo‘lgan nodir kitoblar fondining elektron katalogi bilan qiyoslab, yo‘q kitoblarni aniqlash hamda Milliy yig‘ma elektron katalogi asosida mazkur nashrlarning to‘liq matnli elektron ma‘lumotlar bazasini yaratish ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasida foydalanuvchilarga jahon andozalari darajasida xizmat ko‘rsatish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, 800 o‘rinli 13 ta o‘quv zaliga axborot-kutubxona faoliyatini yuqori darajada olib borishga mo‘ljallangan zamonaviy asbob-uskunalar va texnik vositalar o‘rnatilgan, Wi-Fi tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Bunday sharoitlar kutubxonlar tashrifi yildan-yilga oshib borishiga imkon bermoqda.

“O‘zbekiston”, “Adolat”, “Istiqbol”, “Jahon”, “Tafakkur” o‘quv zallarida tashkil qilingan ochiq fondlar foydalanuvchilarni kitob javonlari oralab o‘ziga zarur bo‘lgan kitoblarni bemalol izlashi va buyurtma berishi, shuningdek, kutubxona fondiga yangi olingan manbalar bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Kutubxona tomonidan 2013-2014 yillar davomida kutubxona fondlaridagi ilmiy jihatdan boy adabiyotlarni targ‘ib qilish va foydalanuvchiga masofadan tezkor xizmat ko‘rsatish maqsadida 7 ta texnik loyiha, jumladan, “ISBN, ISSN va UO‘K, KBK” raqamlarini berish” interaktiv onlayn xizmati, “Nodir nashr va qo‘lyozmalar ma‘lumot bazasini yaratish, saqlash va aniq taqdim qilish jarayonini avtomatlashtirish”, “Milliy kutubxonaning yagona bazasi asosida kitob va jurnallarning statistik hisobotini avtomatlashtirish”, “Dissertatsiya va ilmiy ishlarning yagona bazasi”, “Shaxsiy kabinet”, “Imidj katalog” dasturlari amalga oshirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash, shuningdek, uning faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2017 yil 30 dekabrda qarori asosida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi Agentlik tuzilmasi tarkibiga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan Agentlikka axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha vakolatli organ maqomi berildi. Natijada O‘zbekiston Milliy kutubxonasi oldiga yangi vazifalar qo‘yildi.

Ushbu kutubxona hozirda mamlakatimizdagi barcha axborot-kutubxona muassasalari uchun muvofiqlashtiruvchi va uslubiy markaz vazifasini o‘tamoqda. Kutubxona huzurida tashkil etilgan Respublika uslubiy kengashi kutubxonalar faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta‘minlash, alohida kutubxonalar uchun namunali nizomlar, uslubiy-bibliografik qo‘llanmalarni joriy etishga doir tavsiyalarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanmoqda.

Respublika tarixi bo‘yicha XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragidagi o‘lkashunoslik mavzusidagi adabi-yotlar, birinchi Turkiston litografik, vaqtli nashrlari, qo‘lyozma kitoblar kolleksiyasi, muqaddas kitob–Qur‘onning turli nashrlari tadqiqotchilar uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Kutubxonada qadimiy rus kitoblaridan XVI asr matbaa san‘ati yodgorligi, Ivan Fedorov tomonidan 1581 yilda Ostrog shahrida bosilgan «Ostrojskaya bibliya» kitobi, 1647 yilda Moskvada cherkov-slavyan shrifti bilan bosilgan dunyoviy mazmundagi «Uchenie i xitrost rannogo stroeniya pexotnix lyudey» birinchi rus kitobi, Petr davri kitoblari Leontiy Magnitskiyning «Arifmetika»si (1703 yil), Buyuk Petr davri «Xmochnovskaya rukopis» va boshqalar mavjud. G‘arbiy yevropa kitoblarining nodir kolleksiyasida 1489 yilda Nyurnbergda bosilgan «Devyataya Nemetskaya bibliya» inkunabuli, B.Erbeloning 1697 yilda Parijda nashr qilingan «Vostochnaya biblioteka»si mavjud.

Buyuk ajdodlarimiz Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahoutdin Naqshbandiy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur asarlari kutubxona fondida ko'z qorachig'idek saqlanmoqda.

Cho'lpon, Fitrat, U.Nosir, Hamza, G'.G'ulom, A.Qahhor va boshqa ijodkorlarning hayotligida chop etilgan asarlarning ilk nashrlari, rus adiblari A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov, A.N.Tolstoylarning asarlari bebahodir.

Xorijiy tillardagi adabiyotlar fondi 75 dan ziyod tillardagi ijtimoiy-siyosiy, gumanitar, tabiiy-ilmiy va texnika masalalariga oid nashrlar bo'lib, bugungi kunda 350 mingdan ortiq nusxani tashkil etadi.

Kutubxonaning San'at bo'limi o'ziga xos notali-musiqaviy asarlar to'plamini, o'zbek klassik va jahon musiqasi gramplastinka yozuvlarini, 150 mingdan ortiq tasviriy va amaliy san'at nashrlarini jamlagan.

Texnikaga doir adabiyotlar (2 mln.dan ortiq nusxada) ham mazmuniga ko'ra o'ziga xos bo'lib, me'moriy-texnik hujjatlar, sanoat kataloglari (qog'ozda) to'plami (33700 nusxadan ortiq)dir.

Avtomatlashtirish yangi axborot texnologiyalari bo'limi yagona avtomatlashgan kutubxona tizimini qo'llaydi va rivojlantiradi, elektron katalog hamda elektron ma'lumotlar bazasini yaratishda metodik yordam beradi.

Kutubxona o'z nashriyot va bosmaxonasiga ega bo'lib, nashrlik hamda matbaa faoliyati bilan shug'ullanadi.

1988 yildan kutubxonachilik jarayonini avtomatlashtirishga, 1999 yildan Rossiya Davlat Ilmiy texnika kutub-xonasining IRBIS avtomatlashtirilgan axborot dasturidan foydalangan holda vatanimiz va chet el yangi nashrlarining elektron katalogini yaratishga kirishildi. Kutubxonaning elektron katalogi bugungi kunda 25 mingdan ortiq yangi adabiyotlarning bibliografik yozuvlari va davriy nashrlarning analitik yozuvlarini saqlaydi. Kutubxona o'z ma'lumotlar bazasini yaratmoqda va "Current Content", "MicroMedex", "Medine", EBSCO va ma'lumot bazalari bilan ishlash imkoniyatidan unumli foydalanmoqda.

Kutubxona 1923 yildan boshlab bosma asarlardan majburiy nusxa olib boshlagan. 1948 yilda kutubxonaga Alisher Navoiy nomi berilgan.

Kutubxona 1956 yildan buyon xalqaro kitob almashuvini amalga oshirib, uning sheriklari jahonning 24 mamlakatidan 30 dan ortiq tashkilotlardir. Kutubxona yirik xalqaro kutubxonachilik tashkilotlari: IFLA, Yevroosiyo kutubxonalar Assosiyati, elektron kutubxonalar va yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchilar hamda foydalanuvchilar xalqaro Assosiyasining a'zosi.

Kutubxona ko'plab xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar bilan, shuningdek, O'zbekistonda akkreditatsiya qilingan chet mamlakatlarning elchixonalari bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatgan bo'lib, madaniyati, diniy qarashlari va tarixiy ildizlari turlicha bo'lgan xalqlarning yaqinlashishiga o'zining hissasini qo'shmoqda.

Hozirgi kunda kutubxona fondi jahonning 75 tillaridagi deyarli 10 mln. nusxaga yetgan.

Kutubxona respublikamizdagi barcha kutubxonalarga kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari bo'yicha metodik rahbarlik qiladi.

Kutubxonaga istagan kishi a'zo bo'lishi mumkin: ro'yxatdan o'tish juda tez va oson bo'lib, kitobxon bileti 5000 so'm. Kitobxon bileti uch yil muddatga beriladi.

Kutubxona atrofida ko'm-ko'k yo'laklar, chiroyli favvora, skeyt va velosipedda uchuvchilarga maxsus yo'laklar bor, shuningdek kitobxonlar uchun kafe ham mavjud.

Siz kutubxonaga kirganingizda, uning xolida bir ajoyib o'yinchoqqa ko'zingiz tushadi. Bu-interfaol shardir. Bu sharda Google map. orqali ma'lumotlar berilib turadi.

Kutubxonadagi kitoblarga maxsus, bilinmas chiplar bilan belgi qo'yilgan. Bunday belgilar 22 ming.ta kitobda mavjud. Kutubxonada yana eski uslubda kitoblarni qidirishga moslashib qolgan kitobxonlar uchun eski uslubdagi katalog ham mavjud.

Kutubxonada avtomatlashtirilgan buyurtma kafedrasini ham bor. U yerda barcha berilgan va qaytarilgan kitoblar hisoboti olib boriladi. Siz shunday elektron-kutubxona xizmati joylashgan

xonadan istagan kitobingizni buyurtma qilishingiz mumkin. Buyurtmangiz 10-15 daqiqa ichida yetkaziladi.

O'zbekiston Milliy Kutubxonasida muntazam ravishda ekskursiyalar o'tkazilib turiladi.

Kutubxonada 6.5 millionga yaqin qo'lyozmalar mavjud bo'lib, ulardan 200 000 tasi qimmatbaho namunalari, 16 000 tasi esa juda ham noyob va alohida qimmatga ega nashr namulardan iboratdir.

Noyob nashrlar faqat ilmiy ish bilan shug'ullanuvchilar uchun beriladi. Ular elektron formatga o'tkazilgandan so'ng barcha uchun foydalanish imkoniyati tug'iladi.

Xozirgi vaqtda kutubxona fondida raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Elektron katalog 600 000 ta yozuvlardan iborat.

Kutubxona asosiy xizmatlarning barcha turini bepul asosda amalga oshiradi.

Bepul xizmatlar turiga:

kataloglar tizimi va kutubxona axborot olishning boshqa ko'rinishlari orqali fondlar va axborot – kutubxona resurslari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni taklif etish;

ma'lumot manbasini qidirish va tanlash bo'yicha maslahat yordam;

vaqtinchalik o'quv zalida kutubxona fondidagi hujjatlardan foydalanish;

internet xizmati;

Qo'shimcha pullik xizmatlar turiga:

Kitobxon билетini berish, nusxa ko'chirish, skanerlash, fayl raspechatkasi, ma'lum soha bo'yicha bibliografik ma'lumot yig'ish, bibliografik ro'yxat tuzish, elektron shakldan nusxa olish (to'lov preyskurant asosida).

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy Kutubxonasida ikoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun ham barcha qulayliklar yaratilgan. Nogironlar kutubxonaga kirishlari uchun maxsus yo'laklar mavjud. Ko'zi ojizlar uchun maxsus o'quv zali bor. Bu o'quv zali Brayl audikitoblar bilan jihozlangan.

Kutubxona kitobxonlarga har kuni xizmat ko'rsatadi. Dushanbadan jumagacha soat 9.00 dan 20.00 gacha. Shanba va yakshanba kunlari esa 9.00 dan 17.00 gacha.

Alohida grafik bo'yicha:

-kitobxonlarni ro'yxatga olish: 9.00-18.00, shanba, yakshanba: 9.00-15.00;

-“Tafakkur” katta o'quv zali: 9.00-20.00, shanba, yakshanba: 9.00-17.00;

-“Kashfiyot” ilmiy o'quv zali: 9.00-18.00, shanba, yakshanba: 9.00-17.00;

-“Istiqlol” yoshlar va talabalar o'quv zali: 9.00-18.00, shanba, yakshanba: 9.00-17.00;

-“Nodir” qo'lyozmalar, nodir va alohida qimmatga ega nashrlar o'quv zali: 9.00-18.00, shanba: 9.00-17.00, yakshanba dam olish kuni;

-“Johon” xorijiy o'quv zali: 9.00-18.00, shanba: 9.00-17.00, yakshanba dam olish kuni;

-Ilmiy texnikaviy adabiyotlar o'quv zali: 9.00-18.00, shanba, yakshanba dam olish kuni;

-“O'zbekiston” milliy adabiyotlar va davlat tarixi zali: 9.00-20.00, shanba, yakshanba: 9.00-17.00;

-Ma'lumot axborot o'quv zali, katalog va kartotekalar, elektron katalog: 9.00-19.00, shanba, yakshanba: 9.00-17.00;

-Vertual ma'lumotlar xizmati: 9.00-19.00, shanba, yakshanba: 9.00-17.00;

Maxsus o'quv zallari:

-“Adolat” huquqiy axborot o'quv zali: 9.00-20.00, shanba, yakshanba: 9.00-17.00;

-“Ijod” nota-musiqqa nashrlar zali: 9.00-20.00, shanba, yakshanba: dam olish kuni;

-“Ilm” dissertatsiyalar o'quv zali: 9.00-20.00, shanba, yakshanba: 9.00-17.00;

-“Media markaz” media va internet markazi: 9.00-20.00, shanba, yakshanba: dam olish kuni;

-Elektron kutubxona: 9.00-20.00, shanba, yakshanba: dam olish kuni;

-Imkoniyati cheklangan foydalaniuvchilar o'quv zali: 9.00-20.00, shanba, yakshanba: dam olish kuni;

-Kutubxonalararo abonement va xujjatlarni elektron yetkazish: 9.00-18.00, shanba, yakshanba: dam olish kuni;

-Kitob muzeyi: 10.00-15.00, shanba va yakshanba: 11.00-15.00;

- Bolalar xonasi: 10.00-16.00, shanba va yakshanba dam olish kuni;
- Ko'rgazma zali: 10.00-16.00, shanba va yakshanba dam olish kuni;
- Kinomarkaz: 10.00-16.00, shanba va yakshanba: 10.00-16.00.

## **21-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tizimidagi kutubxonalar Reja:**

- 1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi kutubxonasining tashkil topishi**
- 2. Fanlar Akademiyasi tassarufidagi kutubxonalarning faoliyati**

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimidagi kutubxonalar Fanlar Akademiyasi tizimidagi kutubxonalarning rivojlanishi, ularning tuzilish va tashkil qilinishi ilm-fanning yuksalishi, ilmiy tadqiqot muassasalari sonining o'sishi bilan belgilanadi. Akademiya institutlari ilmiy tadqiqot ishlari mavzularining xilma-xilligi markaziy kutubxonalar fondining ko'p sohaliligini, shuningdek, ularning tadrijiy chuqurligini belgilab beradi. Bu kutubxonalarda ilmiy axborot, ma'lumotnoma tarzidagi nashrlar, o'zbek, rus va boshqa qator xorijiy tillardagi davriy nashrlar saqlanadi. Akademiya kutubxonalari ilmiy tadqiqotlarning hujjatli negizini ta'minlab turadi, axborot vazifasini bajaradi. Akademiya kutubxonalari kutubxonalar tarmog'ini markazlashtirish hamda birmuncha sermehnat kutubxonachilik-bibliografik jarayonlarni asosiy kutubxonada to'plash asosida ilmiy xodimlarga xizmat ko'rsatishni tashkil qiladilar. Kitob fondini to'ldirish, hisobga olish va ishlov berish, nashr etish, KAADan talabnomalar to'plash, audiovizual materiallarni va kutubxona jihozlari, uskunalarini taqsimlash, mikronusxalar hamda fotonusxalar tayyorlash kabi ishlar izchillik bilan markazlashtirilgan asosda tashkil etiladi. Fanlar akademiyasi tizimida asosiy va maxsus kutubxonalarning o'zaro munosabatlari sohasida uch turdagi markazlashtirilgan tizim tarkib topgan. Birinchi tur — bu tizimdagi ilmiy muassasalarning barcha kutubxonalari o'z mustaqilligini yo'kotib, markaziy kutubxonaning filiali bo'lib qoladi. Bu yerda shtatlar, pul bilan ta'minlash va kutubxona jarayonlari to'la-tukis markazlashtiriladi. Markazlashtirilgan tizimlarning ikkinchi turi — bu tizimdagi bir xil kutubxonalar asosiy kutubxonaning filiallari (bo'limlari) xuqukida ish ko'radilar, boshkalar esa o'z ilmiy muassasalarining direksiyalariga buysunib, mustaqillikni saklab qoladi. Bunda kitob fondini to'ldirish uchun xarajatlarning bir qismi markaziy kutubxonadan, bir qismi esa tegishli ilmiy muassasalar smetasidan sarflanadi. Asosiy kutubxonachilik jarayonlari markazlashtiriladi. Uchinchi turdagi markazlashtirilgan tizimlar maxsus kutubxonalarning to'la-tukis ma'muriy ishlab chiqarish mustaqilligi (o'zlari tegishli bo'lgan muassasa direksiyasiga buysunadi), asosiy kutubxonachilik-bibliografik jarayonlarining va kitob fondini to'ldirish uchun sarflanadigan mablag'larning markazlashtirilishi hamda asosiy kutubxona metodik jihatdan rahbarlik qilayotganligi bilan belgilanadi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi MKTga kiruvchi kutubxonalarning o'ziga xos xususiyati shuki, ular ikki mahkamaga (asosiy kutubxonaga va ilmiy-tadqiqot muassasasiga) buysunadi. Bu esa ularning o'zlari xizmat ko'rsatayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan uzviy alokalarini buzmaganda shu kutubxonalarni yagona kutubxona tarmog'iga kiritish imkonini beradi.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasining tashkil topishni respublika fanining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liqdir.

1931 yil oktabrida O'zSSR Markaziy ijroiya komiteti Kengashining qarori asosida O'zbekiston ilmiy tadqiqot muassasalariga rahbarlik qilish bo'yicha Komitet (Fan komiteti) tashkil etiladi. 1933 yilda shu Komitet koshida kutubxona barpo qilinadi. Kutubxonaning asosini 39422 nusxa nashrga ega bo'lgan O'zSSR xalq Komissarlar Kengashi qoshidagi O'zbekiston ilmiy-tadqiqot institutlari birlashmasining kitob fondi tashkil etgan edi., 1940 yilga kelib, respublikada oliy malakadagi ilmiy kadrlar va bir necha unlab ilmiy-tadqiqot institutlarining mavjudligi natijasida O'zbekiston fan Komiteta negizida SSSR FA sining filialini tashkil etish uchun ilmiy va moddiy



zarurat vujudga keladi. Kutubxona mustakil ilmiy yordamchi bo‘lim sifatida filial tarkibiga kiradi.

Ikkinchi jahon urushi boshlarida sobiq ittifoq FAning O‘zbekiston filiali ilmiy kadrlar yetishtirib chikaradigan Respublika ilmiy markaziga aylanadi. Kutubxonaniig bu yillardagi faoliyati mutlaq katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Sababi, aynan shu davrda Toshkentga Moskva, Leningrad kabi yirik markazlardan ilmiy muassasalar ko‘chirib keltirilgan edi. 1942 yiln kuchib kelgan muassasalarga yaxshi xizmat ko‘rsatganligi uchun sobiq ittifoq FA filialining kutubxonasi Oliy ta‘lim va ilmiy muassasalar xodimlari faxriy yorlig‘ bilan mukofotlanadi. 1943 yil 27 sentabrda, urush avjiga chikib turgan bir vaqtda xukumat tomonidan O‘zbekiston Fanlar akademiyasini tashkil etish tug‘risida qaror chiqaradi. Shu vaqtdan e‘tiboran kutubxona yangi tashkil topgan akademiyaning Asosiy kutubxonasi bo‘lib qoladi. 1964 yildan O‘zbekistan FA kutubxonalari tizimi markazlashtirilib, 24 ilmiy-tadqiqot institutlari kutubxonalari birlashtirdi. 1983 yildan kutubxona maxsus kurilgan yangi binoga ko‘chib o‘tdi. Hozirgi vaqtda kutubxona respublika yagona axborot-ma‘lumotnoma fondining (RYAAMF) a‘zosi bo‘lib, tabiiy fanlar buyicha depozitariy vazifasi yuklangan, KAAning tarmoq markazi, xorijiy nashrlar bilan to‘ldirishning bosh kutubxonasi xamda FA kutubxonalari uchun metodik markaz hisoblanadi. O‘zbekistan FAning ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlari va aspirantlari hamda oliy o‘quv yurtlari so‘nggi kurs talabalaridan iborat kitobxonlar guruhiga axborot-kutubxonachilik xizmatini ko‘rsatish ko‘p tarmoqli yagona kitob fondi yordamida amalga oshiriladi. Ularning umumiy miqdori 2,5 mln dan ortiq tabiiy va turdosh fanlarga oid, shu jumladan, 500 ming nusxadagi chet el nashrlarini o‘z ichiga oladi. Kitob fondini to‘ldirish 1990 yilga kadar Butunittifoq kitob palatasining pullik majburiy nusxasini olish, kitob savdosi shoxobchalaridan sotib olish, obuna bo‘lish orqali, sobiq ittifoqdosh respublikalardan kitob almashish, respublikada chiqadigan nashrlarning bepul majburiy nusxasini olish xamda olimlarning in‘om tariqasida topshirgan nashrlari evaziga ta‘minlanar edi. Turli tildagi chet el adabiyotlari 20 ta mamlakatdan markazlashgan tartibda sotib olinadi hamda xalqaro kitob almashish orqali keltiriladi. Ba‘zi xorijiy nashrlarni kutubxona mikrofish tarzida oladi. Kutubxonaning ko‘p tarmoqli yagona fondi alifboli, sistemali, Toshkent shahri kutubxonalariga kelib tushgan yangi xorijiy kitoblar, O‘zbekistan kutubxonalari oladigan chet el vaqtli matbuoti kabi qator kataloglar sistemasi yordamida ochib beriladi. Kitobxonlar talabini tez va tula qanoatlantirish maqsadida xilma-xil xizmat shakllaridan foyda

## **22-mavzu: Respublika davlat bolalar kutubxonasi faoliyati**

### **Reja:**

- 1. Kutubxonaning tashkil etilishi va kelajak istiqbollari**
- 2. Kutubxona tassarufidagi bo‘limlar faoliyati**
- 3. Respublika davlat kutubxonasi ilmiy –uslubiy markaz sifatida**

Respublika bolalar kutubxonasi 1965 yilning yanvar oyida Alisher Navoiy nomidagi Davlat kutubxonasining “O‘smirlarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi fondi” ning negizida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan viloyatlardagi bolalar kutubxonalari uchun ilmiy-uslubiy markaz sifatida tashkil etildi.

Kutubxona dastlabki davrda V. Mayakovskiy nomidagi kutubxona bilan bir binoda joylashtirilgan edi va 1972 yildan esa u o‘z binosiga ega bo‘ldi. Kutubxona uchun bino tanlashda uni shaharning markazida, qulay joyda joylashishi, maktablar va bolalar bog‘chalari yaqinligi hisobga olindi.

Respublika bolalar kutubxonasi Davlat muhofazasidan me‘morchilik yodgorligi bo‘lmish qadimiy binoda joylashgan. Binoni 1907 yilda boy savdogar aka-uka Vodyayevlar o‘zlari uchun qurganlar. Tez orada bino shahar general-gubernatori ixtiyoriga o‘tkazilgan. Binoda shahar ulamolarining yig‘ilishlari, yubiley tantanalari va ballar ham o‘tkazilar edi.

1917 yil oktabr inqilobidan so‘ng bu binoda ishchi va dehqonlarning qurultoy, sezdlari o‘tkazilgan. Keyinchalik esa O‘zbekiston Oliy Soveti prezidiumining “Sovetlar uyi” bo‘lgan. Bu yerda O‘zbekiston Oliy Soveti prezidiumining raisi Yo‘ldosh Oxunboboyev ishlagan. Yo‘ldosh

Oxunboboyevning vafotidan so'ng bu binoda turli tashkilot va muassasalar joylashtirildi. Bino kutubxona ixtiyoriga berilmasdan oldin Toshkentdagi institutlardan birining aspirantlari uchun yotoqxona edi.

1965 yilga qadar Respublikada bolalar kutubxonalari faoliyatini umumlashtiruvchi, uslubiy yo'l – yo'riqlar ko'rsatadigan tashkilot bo'lmagan edi. Shu davrdan boshlab Respublika bolalar kutubxonasi uslubiy markaz vazifasini bajarishni o'z zimmasiga oldi.

Kutubxona viloyat bolalar kutubxonalari faoliyatini boshqarib, ilmiy – uslubiy va amaliy yordam ko'rsatgan.

Respublika bolalar kutubxonasi yiliga 13 mingdan ziyod kitobxonlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Ko'p sonli kitobxonlarni bog'cha bolalaridan boshlab, to 1-11 sinf o'quvchilari tashkil etadi. Shuningdek, shahrimizning barcha maktab o'quvchilari va bolalar bog'chalari murabbiylariga, Uspenskiy nomli Respublika ixtisoslashgan musiqa akademik litseyi pedagoglari va o'quvchilariga, hamda Kamoliddin Bexzod nomli milliy rassomchilik va dizayn instituti professor o'qituvchilari talabalariga, ARMLar mutaxassislariga, kutubxona xizmati ko'rsatilmoqda.

Kutubxona har jihatdan qulay va shinam. Kichkintoylardan tortib to kattalarning ham qiziqishiga javob beradigan kitob zahirasiga ega. Kutubxonaning asosiy vazifasi kitobni targ'ibot qilishdan uni keng kitobxon ommasiga yetkazishdan iboratdir.

Kutubxona fondida 200 mingdan ziyod adabiyotlar va 100 dan ortiq boshqa nashrlar mavjud. Bular: fanning barcha sohaları bo'yicha bolalar yoshini hisobga oluvchi badiiy adabiyotlar, ilmiy – ommabop nashrlar, ijtimoiy – siyosiy kitoblar, jurnallar, O'zbekistonda va Rossiyada nashr qilingan bolalar hamda kattalar uchun gazeta va jurnallar, ensiklopediya – lug'atlar, CD romlar, video – audio kassetalardir. Shuningdek, bolalar o'qishi rahbarlari uchun ilmiy-uslubiy va bibliografik nashrlar ham o'z o'rnini topgan.

Hozirgi kunda kutubxonada 6 ta bo'lim faoliyat ko'rsatmoqda:

1. O'quvchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi:
    - 1.1. Maktab yoshigacha va 1- 4 sinf o'quvchilariga xizmat ko'rsatish sho'ba
    - 1.2. 5 – 11 sinf o'quvchilariga ta'lim resurslari bo'yicha axborot xizmat ko'rsatish sho'ba Ma'naviyat, ma'rifat va san'at bo'yicha media resurs sho'ba
  2. Ma'lumot-bibliografiya va o'lkashunoslik axborot bo'limi.
  3. Kitob jamlash va yangi adabiyotlarni katalogini yaratish bo'limi.
  4. Adabiyotlarni saqlash bo'limi.
  5. Ilmiy uslubiyot va maktab axborot resurs markazlari mutaxassislar malakasini oshirish bo'limi.
  6. Jahon axborot resurslari va yangi texnologiya bo'limi. Internet sinf.
- Respublika bolalar kutubxonasi bo'limlari faoliyati bilan tanishib chiqamiz:

### **1. Maktab yoshigacha va 1- 4 sinf o'quvchilariga xizmat ko'rsatish sho'basi.**

Maktab yoshigacha va 1- 4 sinf o'quvchilariga xizmat ko'rsatish sho'basi: Abonement va o'quv zalidan iborat. sho'basining kitob fondi 8503 nusxani tashkil etadi. Bu sho'bada bolalar bog'chalarining maktabgacha tarbiya guruhi bolalariga va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga xizmat ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish bo'limining asosiy vazifasi kichik yoshdagi kitobxonlarni kutubxonaga jalb qilish, kutubxonada bo'lgan noyob durdona asarlarni kitobxonlarga yetkazish, ularni bilim saviyasini oshirishdir. boshlanadi. Bu yerda yosh kitobxonlar o'zlarining bo'sh vaqtlarini qiziqarli va mazmunli o'tkazadilar. Hozirgi kunda videoapparat qali turli xil multfilmlar namoyishi va o'yinlar bolalar xizmatida.

Adabiyotlardan to'liq foydalanish uchun alfavitli va sistemali kataloglardan foydalaniladi. She'rlar kartotekasi bolalar qiziqishlarini hisobga olib muntazam to'ldirilib boriladi.

Sho'ba xodimlari Toshkent shahridagi bolalar bog'chalari hamda maktablar, Uspenskiy nomli Respublika ixtisoslashgan musiqa akademik litseyi o'quvchilariga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bo'lim maktablar bilan hamkorlikda "Alifbo" bayramlari, uchrashuvlar, suhbatlar uyushtiradi.

## **2. 5 – 11 sinf o‘quvchilariga ta’lim resurslari bo‘yicha axborot xizmat ko‘rsatish sho‘basi**

Sho‘ba 5 – 11 sinf o‘quvchilariga xizmat ko‘rsatadi. Kitob fondi 7500 nusxani tashkil etadi. Kitoblar BBK bo‘yicha joylashtirilgan. Bu sho‘bada tabiiy fanlar, texnika va qishloq xo‘jaligi, sport va sog‘liqni saqlash, maktab dasturi bo‘yicha adabiyotlar mavjud. Abonementda ikki guruhga bo‘lingan holda ya‘ni 5 – 7 sinf o‘quvchilari va 8 – 9 sinf o‘quvchilari uchun alohida – alohida kitob berish tashkil etilgan. Kitobxonlar kitoblarni 10 kun muhlat bilan oladilar. Sho‘bada o‘quvchilarimiz o‘zlariga kerakli adabiyotlarni tanlashlari uchun ochiq kitob fondi barpo etilgan, kitob javonida yo‘q kitoblarni kutubxonani alifbo va tizimli kataloglaridan foydalanib buyurtma berishlari mumkin.

O‘quv zalida kutubxonaning eng nodir kitoblari jamlangan: Ensiklopediyalar, lug‘atlar, darsliklar, gazeta va jurnallar, badiiy adabiyotlar shular jumlasidandir.

O‘quv zalida turli xil kechalar, taniqli yozuvchilar, shoirlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar o‘tkaziladi. Bu o‘quv zalida o‘tkaziladigan har bir tadbir o‘quvchilarni yanada ko‘proq kutubxonaga kelishlarida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ular mashhur kishilar bilan jonli muloqot qiladilar, hamda o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oladilar.

### **3. Ma’naviyat, ma’rifat va san’at sho‘basi**

Ma’naviyat, ma’rifat va san’at sho‘basining kitob fondi 4000 ga yaqin bo‘lib undan 2000 tasi san’atga doir adabiyotlardir. Bular musiqa, raqs, kino, teatr, tasviriy san’atga oid kitoblardir. Notalar esa alohida kitob javonlarida joylashgan.

San’atga oid adabiyotlardan tashqari ma’naviyat va ma’rifatga doir kitoblar ham mavjud. Sho‘ba doimiy ravishda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasini, “Teatr”, “San’at”, “Saodat”, “Guliston”, “Veseliye notki”, “Yuniy xudojnik” nomli jurnallarni oladi. Sho‘ba Toshkent shahridagi maktablarning o‘quvchilariga, Uspenskiy nomli Respublika ixtisoslashgan musiqa akademik litseyi o‘quvchilariga va Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomchilik va dizayn instituti talabalariga xizmat ko‘rsatadi.

Sho‘ba xodimlari tomonidan doimiy ravishda xar xil tadbirlar o‘tkaziladi. Masalan, san’at ustalari, kino aktyorlari, shoirlar va kompozitorlar bilan uchrashuvlar, kollej va institut talabalari bilan birgalikda bayram kechalari tayyorlanadi. Eng kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari uchun esa “Musiqiy mehmonxona” nomli sirli musiqa olamiga sayohat tashkil etilgan. “Musiqiy mehmonxona” ni tashkil qilishdan asosiy maqsad, o‘sib kelayotgan yosh avlodga musiqa sirlarini ochib berish, ularni musiqaga yaqinlashtirish, musiqa asboblari bilan tanishtirishdir, chunki musiqa har bir insonda yaxshi fazilatlarini va nozik tuyg‘ularni uyg‘otadi.

### **4. Ma’lumot-bibliografiya bo‘limi**

Ma’lumot-bibliografiya bo‘limining kitob fondi 1500 ga yaqin. Kutubxonada ma’lumot-bibliografiya va o‘lkashunoslik axborot xizmat ko‘rsatish bo‘limining asosiy vazifasi kitobxon bolalarning so‘rovnomalarini bajarish va kartoteka, kataloglar bilan ishlashga o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Bo‘limda har qanday savollarga javob bera oladigan ajoyib ma’lumot-bibliografik nashrlar fondi joylashgan. Gazeta, jurnallarning turli tematikadagi maqolalar kartotekasi mavjud. Bundan tashqari bo‘lim kitobxon va bolalar o‘qishi rahbarlari bilan axborot-bibliografik ishlarini olib boradi. O‘qituvchi-pedagoglar uchun “Axborot kunlari” ni tashkil etadi.

Bo‘lim xodimlari yangi kelgan matbuot nashrlari bilan ishlaydilar, ya‘ni maqolalarni tahlil qilib, ular haqidagi bibliografik ma’lumotlarni tavsiflab, kartotekalarga joylashtiradilar. Ma’lumot-bibliografiya va axborot bo‘limi kutubxonachilarning bibliografik faoliyatini mukammallashtirish, vaqtini tejash, kitobxonlar bilan ishlashlarida yordam berish maqsadida yozuvchilar hayoti va ijodiga oid dolzarb mavzular bo‘yicha muntazam ravishda bibliografik qo‘llanmalar va bolalar kitob o‘qishiga rahbarlik qilish yo‘nalishlarida axborot-bibliografik nashrlar chiqaradi.

Bibliografik qo'llanmalarning kichik shakllaridan: varaqalar, bukletlar, esdaliklar tayyorlaydi, kitob ko'rgazmalari tashkil etadi va gazeta, jurnallar maqolalari sharhlarini o'tkazadi.

### **5. Kitob jamlash va yangi adabiyotlarni katalogini yaratish bo'limi**

Kitob jamlash, to'kislash va yangi resurslarning elektron katalogini yaratish bo'limi "Kutubxona fondlarini jamlash tartibi haqidagi Nizom"ga muvofiq tashkil etilgan. Adabiyotlar bolalar o'qishiga rahbarlik qiluvchilar uchun va barcha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallab jamlanadi. Kitob jamlashga yordam tariqasida jamlanguncha va ortiq nomdagi vaqtli matbuot nashrlari kartotekasini yuritadi.

Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda KBK tuzumi bo'yicha bolalar adabiyotlariga kutubxonachilik bibliografik ishlov beriladi. Bo'lim tomonidan quyidagi kataloglar yuritilmoqda:

Barcha kutubxona uchun alifboli katalog;

Bosh katalog;

1 – 4 sinf o'quvchilari uchun tizimli katalog;

5 – 7 sinf o'quvchilari uchun tizimli katalog;

8 – 11 sinf o'quvchilari uchun tizimli katalog;

Bolalar o'qishiga rahbarlik qiluvchilar uchun tizimli katalog;

Sarlavhalar katalogi;

Elektron nashrlar katalogi;

Lotin yozuvidagi nashrlar katalogi.

Bo'lim xodimlari kutubxona fondini bolalar uchun chop etilgan yaxshi va sifatli kitoblar bilan to'kislash maqsadida O'zbekiston Respublikasining nashriyot-matbaa ijodiy uylari bilan, "Sharq" NMAK bilan shartnoma asosida ishlamoqdalar. Yangi chiqqan nashrlarning mavzulari axborotnomalari, mavzular rejalari tahlil etilib, kutubxonada yo'q nashrlarga buyurtma beradilar. Vaqtli matbuot nashrlarini o'z vaqtida qayd etib, kutubxona bo'limlariga tarqatadilar. Yangi kelgan adabiyotlarning ko'rigini tashkil etadilar.

Xayriya jamg'armalari, turli nodavlat tashkilotlar va homiylar tomonidan ham kitoblar olinib, kitob fondi boyitilmoqda.

### **6. Adabiyotlarni saqlash bo'limi**

Respublika bolalar kutubxonasi fondida 200 ming nusxa kitob va boshqa nashrlar mavjud. Kitobxonlarning yoshlarini hisobga olgan holda, bolalar kutubxonalari uchun KBK (Kutubxona bibliografik klassifikatsiya) jadvali asosida joylashtirilgan.

Bundan tashqari bolalar o'qishiga rahbarlik qiluvchilar (pedagoglar, ota-onalar) uchun ham 2500 nusxaga yaqin kitob fondi jamlangan. Barcha kitoblar fondi uchun topografik katalog tuzilgan. Bo'lim xodimlari kutubxonaning xizmat ko'rsatish bo'limlaridagi kitoblarni muntazam yangilab, to'ldirib boradilar. Bo'limlarning kitob zahiralari qanday saqlanayotganligini nazorat qiladilar. Bo'limlar fondida yo'q bo'lgan nashrlarni kutubxonaning kitob saqlash bo'limidan yetkazib beradilar. Muntazam ravishda kitob fondini gigiyena qoidalari asosida saqlashga harakat qiladilar. Xonalar shamollatilib, kimyoviy dorilar bilan ishlov beriladi.

### **7. Ilmiy uslubiyot va maktab axborot resurs markazlari mutaxassislari malakasini oshirish bo'limi**

Ilmiy uslubiyot va maktab axborot resurs markazlari mutaxassislari malakasini oshirish bo'limi kitobxonlarga xizmat ko'rsatishda yangi shakl va usullarni qo'llanishni yo'lga qo'yish, kutubxona xizmatini yangi texnologiyalar asosida olib borish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatadi.

Bolalar va maktab o'quvchilarining o'qishiga raxbarlik qiluvchilar, pedagog o'qituvchilar, maktab kutubxonachilari va ARM mutaxassislari uchun dolzarb mavzular, unutilmas sanalar,

yozuvchilarning yubileylariga bag'ishlangan uslubiy qo'llanmalar tayyorlaydi va viloyat ARMLariga yuboradi.

Ilmiy uslubiyot bo'limi xodimlari doimo boshqa kutubxonalarning ilg'or ish tajribalarini, axborot texnologiyalarni yangi yo'nalishlarini o'rganadi va boshqa kutubxonalarga tadbiiq qiladi. Kutubxonachilarning kasb maxoratini oshirish maqsadida axborot resurs markazlari rahbarlari, mutaxassislari bilan muntazam ravishda seminar o'tkazib boradi.

Malaka oshirish instituti, madaniyat instituti va madaniyat kolleji talabalari uchun ilmiy-uslubiy maslahatlar beriladi va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni tashkil qiladi.

Bolalar kutubxonalarida yosh kitobxonlar bilan ishlashni yaxshilash, yoshlar o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish maqsadida "Eng faol kitobxon", "Eng yaxshi kitobxon oila" ko'rik-tanlovlarni tayyorlaydi va o'tkazib boradi.

Har yili "XXI – asrda bolalar kitobxonligi" mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazishni tashkil qiladi. Konferensiya ma'lumotlarini jamlab to'plam chiqaradi.

Bo'lim xodimlari shahar va viloyat ARMLari, maktab kutubxonalarini ish faoliyatini o'rganish maqsadida xizmat safarlariga chiqadilar va uslubiy, amaliy yordam ko'rsatadilar.

### **8. Jahon axborot resurslari va yangi texnologiya bo'limi. Internet sinf**

Kutubxona faoliyatiga yangi texnologiyalarni joriy etish va kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini yaratish maqsadida kutubxonada 2001 yilda bu bo'lim tashkil etildi.

2007 yilning aprelida Respublika bolalar kutubxonasiga Yaponiya hukumati tomonidan madaniyatni rivojlantirish va kelajak avlodni tarbiyalashga ko'maklashish maqsadida beg'araz granti asosida 28,6 million iyen hisobida audiovizual jihozlar ajratildi. Bu kutubxona ishini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bu audiovizual jihozlardan ko'zi ojiz va harakati cheklangan bolalar va o'smirlar xam foydalanishlari mumkin. Shuningdek kutubxonada bu jihozlardan lingafon xonasi tashkil etilib: DVD, naushniklar va yassi ekranlar qo'yilgan. Ular yordamida bolalar Jahon klassik va milliy musiqali asarlarlarni eshitishlari yoki axborot texnologiyalari yordamida til o'rganishlari, maktabgacha bo'lgan bolalar o'qishlarini tashkil etish mumkin.

Bundan tashqari o'quv zalida bu texnikaning asosiy qismi joylashtirilgan – bu yerda videoprojektor, elektrifitsialangan ekran, DVD, videomagnitafon, audiokuchaytirgich va mikrafonlar qo'yilgan. Bu uskunalar yordamida xalqaro konferensiyalar, seminar-treninglar, taqdimotlar, olimlar, yozuvchilar, madaniyat xodimlari, san'atkorlar va boshqa insonlar bilan uchrashuvlarni zamonaviy va yuksak miqyosda o'tkazish imkoniyatini beradi.

Barcha kompyuterlar ADSL texnologiyasi orqali internet tarmog'iga ulangan. Bu kitobxonlar uchun ko'proq axborotlar olish imkonini bermoqda. Bo'lim xodimlari bolalarga kompyuterdan foydalanish qoidalarini o'rgatadilar. Bo'limda "Kompyuter kutubxonasi" tashkil qilingan. "Kompyuter kutubxonasi" turli fan sohalari bo'yicha referatlar va tematik uy vazifalarini bajarishga yordam beradi. Bu yerda axborot texnologiyalariga oid yuzdan ortiq jurnallar, kompyuter savodxonligiga oid ilmiy-ommabop nashrlar darsliklar va qo'llanmalar jamlangan.

Axborot texnologiyalari keng rivojlangan hozirgi kunda, internet tarmog'ida Respublika bolalar kutubxonasi jamoasi tomonidan o'zbek tilidagi Kitob.uz sayti tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga yosh kitobxonlar uchun «**Kitob.uz**» saytining ish boshlashi tarixiy ahamiyat kasb etdi. Bunday xayrli ish mamlakatimizning jahon ma'naviy olamidagi o'z o'rni, hissasi borligidan dalolat beruvchi bir hayrli ishdur.

Bugun saytda kitobxonlar uchun "O'zbek adabiyoti", "Elektron adabiyotlar", "Jahon adabiyoti", "Rivoyatlar", "Ertaklar", "Bilasizmi", "Loyihalar", "Matbuot xizmati" va ko'plab boshqa sahifalar xizmat ko'rsatishni boshlab yuborgan. Ko'chirib olish uchun elektron kitoblarning ro'yhatlari tuzilgan.

Endilikda har bir kitobxon o'z uyida o'tirib «**Kitob.uz**» sayti javonida o'ziga kerakli bo'lgan kitobini topib o'qish imkoniyatiga ega. Shu kunlarda yangi saytning "Nodir kitoblar" sahifasini

tayyorlash bo'yicha amaliy ishlar davom etyapti. O'ylaymizki «**Kitob.uz**» o'zbek kitobxonlarini sevimli saytlaridan biriga aylandi.

Kutubxonada tomonidan tashkil etilgan "Kitob.uz" sayti bo'limlari va undagi ma'lumotlar bazasi yanada boyitib borildi. Ushbu sayt o'zbek va rus tillarida faoliyat ko'rsatmoqda. Asosan o'quvchi-yoshlar uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bilan to'ldirilib, 100 000 ga yaqin elektron kitoblar va turli sohalaridagi ma'lumotlar bazasi yaratilgan.

Ushbu saytdan kundalik foydalanuvchilar soni o'rtacha 3000-4000 nafarni, umumiy ko'rsatkich 250.000 nafardan ziyodni tashkil etmoqda. Xozirda O'zbekistonda mavjud bo'lgan saytlar ichida "Kitob.uz" sayti 45-55 o'rinni egallab turibdi.

Kitob.uz saytida [www.forum.kitob.uz](http://www.forum.kitob.uz) forumi orqali taniqli shoir va yozuvchilar ishtirokida on-layn uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Masalnavis, satirik shoir Yamin Qurbon, yozuvchi Muxammad Ali, bolalar shoiri Abduraxmon Akbar ishtirokida on-layn orqali to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'tkazilib turildi.

Kutubxonada mavjud kitoblarning 35680 donasi "KaData" dasturiga kiritildi.

### **23-mavzu: "TURON" nomidagi axborot-kutubxonada markazi**

#### **Reja:**

#### **1."Turon" kutubxonasining faoliyati va kelajak istiqbollari**

#### **2. Mustaqillik yillarida "Turon" kutubxonasi**

Milliy istiqloq sharofati tufayli mustaqil yurtimizda 27 yildirki, mazmuni va ko'lami asrlarga qiyos qilgudek ulug'vor, hayratomuz o'zgarishlar, salmoqli ijtimoiy siljishlar yuz bermoqda. Xalqimizning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi sifat jihatidan o'zgarib, kamalak ranglaridek yangi jilolar kashf etib bormoqda. Bu shubhasiz, zamondoshlarimizning olg'a tomon xarakterlarida, intilishlarida samarasini namoyon etmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi va mazkur famoyish ijrosi yuzasidan 2017 yilning 13 sentabrdagi "Kitob mahsulotlarining nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" PQ-3271-son qarori bilan kutubxonachilik va nashriyotchilik sohalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinganligi kutubxonachilik sohasining rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mustaqillik davrida yurtimiz ozodligi va mustaqilligi uchun kurashlarda matonat ko'rsatgan, millatni hurlik va erkinlikka chorlagan, mustabid tuzum yillarida qatag'on etilgan fidoyi vatandoshlarimizning mo'tabar xotirasini abadiylashtirish uchun, ularning ibratli hayoti va faoliyati, ilmiy —ijodiy merosini chuqur o'rganish, mard ajdodlarimiz pok ruhiga ehtirom, adolat tantanasiga ishonch, istiqloq g'oyalariga sadoqat, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'ularini kuchaytirish maqsad qilib qo'yildi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» so'zlarini inobatga olgan holda, tarixchilar ushbu yechimlarni yechishda o'z hissalarini qo'shish uchun yeng shimardilar. Yurtimiz hurligi va mustaqilligi uchun qatag'on etilgan kishilar nomini ochish, ularning qilgan fidoyi ishlari va faoliyatini o'rganish, kerak bo'lsa, ilmiy tahrir qilish tarixchilar zimmasiga ancha ma'suliyatli vazifalarni yukladi. Shu o'rinda «Turon» nomidagi Toshkent viloyati kutubxonasi faoliyati davrida qatag'on etilgan xodimlari va kutubxonada asoschilari ham qayd etilgan va o'rganilgan.

Ma'lumki, «Turon» kutubxonasi tarixi davlatning madaniy, ijtimoiy — iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqdir. Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy singari ma'rifatparvar ajdodlarimiz tashkil etgan kutubxona, Toshkentdagi ilk ziyo maskanlaridan biri tez orada xalqning nazariga tushdi. Kalvak Mahzum tilovatxona deb o'ylagan bu xona, 1920-yillarda o'zbek ziyolilari ilk qadamjolari bo'lgan «Turon» jamiyati kutubxonasining qiroatxonasi edi. Toshkentda, Eski SHaharning Chorsu bozoriga kiraverishda, Mahsido'zlik mahallasida joylashgan bu bino o'tmishda Yaushev familiyasi bo'lgan bo'lgan ichkari — tashqari hovlisi bo'lgan. Inqilob yillari (1918 yil) bu hovli Sovetlar tomonidan musodara qilinib, kutubxona ixtiyoriga berildi. 1914 yilda, toshkentlik ma'rifatchi Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonovlar tashabbusi bilan «Turon» nomli madaniy — ma'rifiy bir jamiyat tashkil etiladi. Bu jamiyat o'z nizom va dasturlariga ega edi. Ana shu dasturdagi eng muhim masalalardan biri kutubxona tashkil qilib, qiroatxona ochish edi. Bundan tashqari «Turon» jamiyati havaskorlik teatr truppasi tashkil etishni ham ko'zda tutilgan. 1913 yil so'nglarida teatr truppasi faoliyat boshladi. Ana shu truppaning repertuar ehtiyojlari uchun turk — tatar va Ozarbayjon adabiyoti dramaturgiyasi namunalari jamlanib, o'ziga xos kichik bir kutubxona jamlana boshladi. Keyinroq, boshqa sohalarga tegishli kitoblar ham mazkur kutubxona javonlaridan joy egallaydi. Biroz o'tib kutubxona qoshida qiroatxona paydo bo'ladi. 1917 yilda shu jamiyat a'zolari hisoblanmish bir qator kishilar o'z xususiy kitoblarini sovg'a qilib kutubxonalarini kengaytiradilar. Natijada yaxshigina kitob xazinasiga ega bo'lgan kutubxona va qiroatxona paydo bo'ladi.

Shu tariqa 1918 yilga kelib Sho'ro hukumati — qarori bilan «Turon» kutubxonasi eski shahardagi binoda ish boshlaydi. Lekin, aslida «Turon» 1914 yilda Toshkent jadidlari tomonidan tuzilgan, o'z oldiga maorif va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqning milliy ongini oshirish hamda shu yo'l bilan kelajakda milliy mustaqillikka erishish vazifasini qo'ygan jamiyat edi.

1913 yilda shu jamiyat qoshida Abdulla Avloniy va Nizomiddin Xo'jayev boshchiligidagi teatr truppasi tashkil etilib, u o'sha davrdagi 25 nafar milliy san'at va adabiyot qaldirg'ochlarini o'z bag'riga olgan. Natijada o'zbek milliy teatri tug'ildi. Jamiyat va xalqning madaniy hayotga intilishi bu truppa faoliyatining keng qanot yozishi va milliy dramaturglarning yetishib chiqishini taqazo etdi. Ammo «oktabr to'ntarilishi» sodir bo'lishi bilan «Turon» jamiyati atrofida uyushgan jadidlar parchalanib ketdilar. A. Avloniy boshliq bir guruh jadidlar Sho'ro hokimiyati tarafiga o'tib «Turon» jamiyati

### **«TURON» JAMIYATI ASOSCHILARI**

*Abdulla Qodiriy*  
(1894-1938)



*Munavvar Qori*  
*Abdurashidxonov*  
(1878-1931)



*Abdulla Avloniy*  
(1878-1934)



*Ishoqxon To'ra Ibrat*



*Muhammadsharif So'fizoda*



*Abdulhamid Cho'lpon*  
(1897-1938)



**«TURON» JAMIYATI ASOSCHILARI**

**Abdurauf Fitrat**  
(1886-1938)

**Mahmudxo'ja Behbudiy**  
(1875-1919)

**Ubaydulla Xo'jayev**  
(1878-1937)





**Tavallo  
(1883-1937)**

**Fayzulla Xo'jayev  
(1896-1937)**



ixtiyorida o'zbek tilida yaratilgan sahna asarlarini to'plab, bo'lajak kutubxonaga poydevor qurdilar. Shu tariqa 1918 yilda "Turon" kutubxonasi bunyod bo'ldi.

O'sha yilning boshlarida Toshkentga Sho'ro hukumati siyosatining O'rta Osiyoda so'zsiz amalga oshirilishini ta'minlash uchun bolshevik Orif Klebleyev kelgan va Turkiston jumhuriyati Mudofaa shtabining a'zosi etib tayinlangan O.Klebleyev ayni vaqtda 1918 yil iyunida "Ishtirokiyun" (Hozirgi "O'zbekiston ovozi") gazetasini tashkil etgan va uning dastlabki muharriri bo'lgan. O'sha yilning 20 iyunida Orenburg frontidan kelganlardan Ahmad Donskoy va Vali Allamov "Ishtirokiyun" tahririyatiga ishga olingan. Bir haftadan keyin 27 iyulda

O.Klebleyev muharrirlikni Donskoyga topshirib, o‘zi Jizzaxga mahsus topshiriq bilan borgan va o‘sha yerda vafot etgan. Sho‘ro hukumatining O‘rta Osiyoga “keng huquqlar” bilan kelgan bu ishonchli vakilini dafn etish marosimi katta siyosiy tadbiri sifatida o‘tkazilgan. Turkiston Xalq Komissarlari Sho‘rosining qarori bilan marhum bolshevik nomini abadiylashtirish maqsadida “Turon” kutubxonasiga Orif Klebleyev nomi berildi. Kutubxona fondini kengaytirish va ta‘mirlash ishlari uchun 10.000 so‘m hajmda mablag‘ ajratildi. Shundan keyin kutubxona Turkiya, Tatariston, Boshqirdiston, Ozarbayjon va Moskvada chop etilgan turli —tuman davriy nashr hajmida kitoblarni olib turish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

1918 — 22 yillarda kutubxona bir tomondan o‘z a‘zolari va tashkilotchilari bo‘lmish sobiq jadidlar yordami bilan, ikkinchi tomondan ma‘rifatparvar kishilarning vaqf qilib qoldirgan kitoblari hisobiga oyoqqa turdi, uchinchi tomondan esa berilgan mablag‘ tufayli o‘zimizning va xorijda chiqib turgan davriy nashrlar va kitoblar bilan boyidi.

1919 yilning 14 aprelida esa barcha xalq kutubxonalari qatori «Turon» ham davlat ixtiyoriga o‘tkazildi.

Kutubxona muammolari atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriyni ham befarq qoldirmagan. “Intirokiyun” gazetasining 1920 yil 23 iyun sonidagi “Juboy” imzosi bilan e‘lon qilingan “Qiroatxonalarimiz” sarlavhali katta maqolada yozuvchi “Turon” qiroatxonasi haqida kuyunchaklik bilan bunday yozgan:

*“...Bizning Toshkandda birinchi martaba ochilg‘an qiroatxona 1918 yilning dekabrinda bir ikki yigitlarimizning g‘ayrati ila «Turon» jamiyatining Orif Klebleyev noming‘a ochilg‘an qiroatxonasi bo‘ldi. Lekin birinchi martaba ochilg‘an bu qiroatxona yaxshi yo‘lg‘a keta olmadi. Chunki kitob kelturmakka atrof yo‘llari yopiq va buning ustiga qiroatxona uchun hukumatdan yordam ham yo‘q edi. Boshida qiroatxona mahalliy kishilarning hadya etkan kitoblari ila yurib tursa ham, so‘ngroq Milliy ishlar komissarlig‘ining Orif Klebleyev ismiga yodgor bo‘lsun, deb bergan o‘n ming so‘m oqchasi bilan ba‘zi madaniy ishlar ishlab turdi. Lekin bu oqcha va bu hol ila qiroatxona o‘zinda bor kitoblar bilan xalqni qanoatlandiruv mumkin bo‘lmag‘ach, shaxsiy kitobi bor kishilardan kitoblar rekvizisiya tariqasida qiroatxonag‘a olindi. Buning ila ham ish radlamagach yuz ming balolar ila o‘shal vaqtli Milliy ishlar komissarlig‘indan to‘qson besh ming so‘mlar chamasi oqcha oling‘an. Bu oqcha ila kitob kelturmakka atrof shaharlarga vakillar yuboruv kitobxonaning muddaosi esa-da, hamma yo‘llarning yopiqlig‘i va temir yo‘llarning tartibsizligi bunga mone‘ bo‘lub, Toshkandning o‘zidagi kishilardan bo‘lg‘an kitoblarni garchi juda qimmat baho bilan bo‘lsa ham olina boshlag‘an. Ushbu Milliy ishlar komissarlig‘ining bergan to‘qson besh ming so‘m oqchasi bilan 1919 yilning noyabrig‘a qadar qiroatxona davom etmakda edi. Dekabrdan e‘tiboran O‘lka kutubxonasining nazoratiga o‘tub, ushbu yilning aprelig‘a qadar oning qaramog‘inda davom etdi. Bu vaqtlarda qiroatxonaning moddiy jihati yaxshigina ta‘min etilib, anchagina kitoblar olmoqg‘a-da muvaffaq bo‘lindi.*

Taassufki, O‘lka kutubxonasining qaramog‘inda ko‘b davom etuvga mumkin bo‘lmay, ushbu yilning 1 mayindan boshlab Eski shahar maorif sho‘basi yonidagi «Maktabdan ish maorif taratuv sho‘basi» idorasig‘a o‘tdi. Buning uchun: «Endi qiroatxona dardimizga yaqindan tanish bu sho‘ba qaramog‘iga o‘tdi. Bundan so‘ng, albatta, qiroatxona yo‘lg‘a qo‘yulib yuborilsa kerak», deb shodlanilsa ham, lekin umidimiz bo‘shka chiqub qiroatxonaning O‘lka kutubxonasi davrindagi vaqtlarini sog‘ina boshladi. Bu kunda kutubxona sotub oluv oqchasizlikdan bugunlay to‘xtag‘an. Buning ustiga «Maktabdan ish maorif taratuv sho‘basi» tarafidan qiroatxona ustiga ta‘yin etilgan kishi qiroatxona ishlari ila noahl bir kishi bo‘lg‘ani uchun, qiroatxonag‘a nima

kerak, qiroatxonaning ehtiyoji nimaga ortig'roq va ishni nima bilan boshlamoq kerak ekanin bilmas ekan.

Toshkand musulmon xalqining birdan-bir qiroatxonasi bo'lg'an bir kutubxonaning bu holda bo'luvi, xususan holni maorif sho'basi qaramog'iga o'tkandan so'ng yuz ko'rsatuvi taassufli bir holdir. Maktabdan ish maorif taratuvni xohlagan «Maorif sho'basi»ning diqqatini bu nuqtaga jalb etamiz.

Klebleyev nomig'a ochilg'an qiroatxonada hozir to'rt yuz jildga bolig' musulmon kitoblari bo'lub, Toshkand musulmonlari kabi ikki yuz minglab hisoblang'an bir xalq uchun bo'lg'an bu qiroatxonag'a nol darajasinda ozdir. Eng ozi to'rt-besh ming jildlarga yetkuriluvi matlub bo'lub, buning uchun ichki Rusiya, Boku kabi joylarga vakillar yuborib, kitob keltiriluvi kerakdir...”

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, kutubxona o'sha davrning eng jonkuyar ziyolilari A.Qodiriy, Mirmuxsin Shermuhammedov, G'ulom Zafariy, Yusuf Aliyev, Orif Klebleyevlarning sa'yi — harakatlari tufali 1,500 dan ko'proq kitob jamlab keltirildi. Bunday fidoyilik kitobxonlarning tashabbuskorligini yanada oshirdi, 1923 yilda orenburglik kitobxon A.Ishoqiy o'zining shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan arabcha, forsha va turkiy tillarda yozilgan 5.000 dan ziyod muhim tarixiy — badiiy asarlarini Toshkentga olib keladi va kutubxona jamg'armasiga taqdim etadi.

Yangi olingan kitoblardan xabar topgan kitobxonlar ularni o'qishga shunchalik mushtaq bo'lganlarki, hatto o'quvchilardan biri “Qachon o'qur ekanmiz?” degan maqola ham yozgan. (“Turkiston”, 1923 yil 12 sentabr).

Bu qimmatbaho asarlar 1943 yilda poytaxtda Abu Rayxon Beruniy nomli sharqshunoslik institutining tashkil etilishi munosabati bilan shu joyga olib o'tilgan.

Kutubxonada bunday katta xazinaning to'planishi o'z atrofiga minglab kitobsevarlarni ham jalb etdi. Hatto adabiyotimizning atoqli namoyondalari bo'lib yetishgan ko'plab adiblar shu yerda kamol topdi. Chunki, inson tafakkurining o'sishga, ijod sahifalarining yaratilishiga o'tmish ajdodlarimiz tomonidan bitilgan asarlarning hissasi beqiyosdir.

1920 yilda kutubxona Eski shahar Maorif shu'basi qaramog'iga o'tdi. Buni “Ishtirokiyun” gazetasining 1920 yil 1 iyul sonida Maorif shu'basi tomonidan e'lon qilingan bildirish ham tasdiqlaydi. Unda kutubxonadan kitob olgan kishilarga kitoblarni topshirish uchun 5 kun muxlat berilganligi aytilgan.




Bu davrda kutubxona sovet adabiyotlari va gazeta – jurnallari hisobiga kundan – kun boyib bordi. Shundan keyin Moskva, Ozarbayjon, Tatariston, Boshqirdistonda chop etilgan turli – tuman davriy nashr va kitoblarni olib turildi.



“Turon”

kutubxonasining 20-yillardagi ko‘rinishi



*Kitobxonlarga xizmat  
ko‘rsatish zalida*



*Kutubxonaning o‘quv zalida*



Cho‘lpon, Fitrat, Shokirjon Rahimiy, Elbek, Oybek, Otajon Hoshim singari o‘nlab shoir va yozuvchilari, Bartold singari rus muarrihlari, Cho‘bonzoda singari turk allomalari ilm — fan va madaniyatning turli sohalarini egallab borayotgan yoshlar shu tabarruk dargohda o‘z bilim ufqlarini kengaytirdilar. Yozajak badiiy manbalarni topdilar.

1925 yilda O‘zbek Davlat kutubxonasi (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi) tomonidan «Turon» kutubxonasiga 2000 nusxa kitob sovg‘a qilingan. Joriy yil uchun kutubxonaga a‘zo bo‘lganlar soni 759 kishini tashkil etsa, 1926 yil uchun a‘zo bo‘lganlar 2176 kishini tashkil etib, ularning 98% mahalliy aholi ekanligi o‘sha davrlarda ham xalqimizning qanchalik ziyokorligi va bilimga intiluvchan ekanligi belgisidir.

Shunisi qiziqarliki, sho‘ro hukumatining kutubxonalari barcha uchun tengligini e‘lon qilinsada, amalda bunday ish qilinmadi. 1927 yil kutubxonalarda shu jumladan, «Turon» ga ham ustavlarga shu so‘zlar yozib qo‘yildi:

«Kutubxonalarga faqat SSSR konstitusiyasi bo‘yicha fuqarolikni qabul qilgan fuqarolar a‘zo bo‘lishi mumkin»<sup>1</sup>.

1928 yildan «Turon» kutubxonasi «Oktabr» nomidagi Toshkent viloyati kutubxonasiga aylantirildi. Ushbu yilning 1-yarim yilligida kitobxonlar soni 3177 kishini tashkil qilgan. Kutubxona 10 yil ichida 20.000 dan ziyod tarixiy va zamonaviy mavzudagi kitoblar bilan boyidi. 20 —yillarda shakllangan va shakllanib borayotgan o‘zbek ziyolilarining ma‘rifiy markazlaridan biriga aylandi.

Kutubxonaning keksa a‘zolaridan biri mehnat fahriysi Qodir Norxo‘jayev o‘z xotiralaridan: “Eski Jo‘va maydoni biqinidagi binoda “Turon” kutubxonasi bo‘lib, unga Toshkent Pedagogika texnikumi o‘quvchilari tez — tez kelib turardilar. Kunlarning birida kitob olgani kutubxonaga borsam, ochiq chehrali va fayzli bir kishi turgan ekan. Shu vaqt ichkaridan Abdulla Nosirov (keyinroq O‘ZFA SHarqshunoslik institutida bibliograf va ilmiy xodim bo‘lib ishladi) bir kitobni olib, xaligi kishini qo‘liga berdi. U kishi kitobni qo‘liga olib varaqlar ekan, ko‘zim «Sarvati funun» degan yozuvga tushdi. Bu nomdagi kitobni birinchi ko‘rishim edi. Chiqib ketgach, Abdulla akadan bu odamning kim ekanini so‘rasam “Cho‘lpon” degan shoir shu kishi bo‘ladi. Istanbulda nashr etiladigan jurnalni

*1 O‘z RMDA f—95, r — 5, 313 y.j. 35-bet.*

oldilar” dedilar”.

Afsuski, sho‘ro hukumatining siyosati oqibatida Turkiyadan olingan barcha adabiyotlar 30 —yillarda kulga aylantirildi. Bu adabiyotlar bilan birga 1917 yilga qadar O‘zbekistonda nashr etilgan «Xurshid», «Taraqqiy», «Shuhrat», «Osioy», «Samarqand», «Najot» singari o‘nlab gazetalar, «Oyna», «Kengash», «Ixlos», «Dehqon» singari jurnallar ham kuydirib tashlandi. Kutubxonada quyidagi nodir asarlardan «Silsilanoma», «SHayx Sa‘diy», «Entixobi Navoiy», «Gulshani mulk» kabi o‘zbek adabiyotini va madaniyatini tarannum etuvchi kitoblar jamlangan bo‘lib, Fitrat, Cho‘lpon, A.Qodiriy, Elbek va boshqa o‘sha davr ziyolilari o‘zlariga kerakli manbalarni topganlar.

30-yillar Vatanimiz tarixining eng fojiali eng mudhish sahifalaridir. O'sha mash'um davrda sovet davlati o'zining zulm va zo'ravonlikka asoslangan hukmronligini mustahkam o'rnatgan, mustabid tuzumning qabihona siyosati o'zining avj pallasiga chiqqan, milliy qadriyatlar oyoqosti qilingan uqubatli yillar edi. 30-yillar oxiriga kelib siyosiy vaziyat keskin tus olgan, ommaviy qatag'onlar avj olib, xalqimizning eng ko'zga ko'ringan fan, madaniyat, davlat va jamoat arboblari, jumladan, Munavvar qori Abdurashidxonov, Cho'lpon, G'ulom Zafariy, Abdulla Qodiriy, Elbek kabi ko'pgina elimizning faxri hisoblangan yozuvchi, adib va shoirlar qatag'on qilingan edi.



Qatag'on domiga jabrdiydalar orasida "Turon" kutubxonasining xodimi Akbarbek Dolimov (1910-1942) ham bor edi. U bir nechta bibliografik ko'rsatkich yaratib, o'zbek bibliografiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan iqtidorli bibliograf edi. 1925 - 53 yillardagi Sho'rolar davlati davridagi qatag'on yillari «Oktabr» kutubxonasi ham chetlab o'tmadi.

**Dastlab uning ochilishiga sabab bo'lgan kishilar qatag'on qurbonlariga, keyinchalik esa davomchilari o'sha davr qurbonlariga aylanishdi. Bu hol kutubxonaning o'sishi va faoliyatiga jiddiy va ma'naviy ta'sir ko'rsatsada, lekin ishlar to'xtamadi.** Bunga o'zbek xalqining ilmga chanqoqligi va o'z madaniyati va ma'naviyatiga qay tarzda qarashganlarida ko'rishimiz mumkin. Chunki asosan kutubxona mutolaachilari mahalliy aholidan edilar.

Ilm — madaniyat, maorif va san'at **maskanining** «Turon» nomi bilan atalishida katta **ma'no mavjud.** Jadidchilik harakatining asoschisi—**shoirlar**, taraqqiyparvarlar ona vatani Turon deb **ulug'lanadigan barcha** turkiy millatlarining Buyuk Vatani deb **ardoqladilar.** **Buyuk** olim, shoir, dramaturg A.Fitrat Ona-Vataniga **"Turkning** muqaddas o'chog'i bu - «Turon» deb murojaat **qildi". Darhaqiqat** «Turon» muqaddas nom hozirgi istiqlol uchun **kurashgan**, jonlarini fido qilgan, Behbudiyning o'zi **«agar bizning** hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-sa'odati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham hursandchilik bilan kutib olamiz» deb o'limga tik qaragan, mustaqillik qurbonlarining pok ruhi uchun ham «Turon» nomi saqlanishi kerak. O'tgan XX asrning qaysiki o'zbek ziyolisi bo'lmasin ular albatta «Turon» nomini iliqlik bilan eslashgan.

1934 yilga kelib kutubxona o'z mushkulotlarini bir qadar bartaraf etib, barqarorlikka erishgan hamda yaxshi tashabbuslar ko'rsata boshlagan. Shu yili o'zbek tilida yaratilgan birinchi bibliografik ko'rsatkich kutubxona xodimlari Akbarbek Dolimov va Fayzulla Ubaydullayev tomonidan tuzilgan "Mukammal ilmiy bibliografiya" nomli kitobi O'zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan chop etildi.

“Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1934 yil 5 oktabr, 230-sonida bosilgan “O‘ktabr” kutubxonasining yaxshi tashabbusi” mavzusidagi maqolada yozilishicha kutubxona tomonidan sanoat korxonalar ishchilariga madaniy-ma’rifiy xizmat ko‘rsatish maqsadida rayondagi korxonalarda ko‘chma kutubxonalar tashkil qilingan. Ko‘chma kutubxonalar korxonalarda har dam olish kuni ertalab soat 10 dan kech soat 22 gacha ochiq bo‘lgan.

1938 yig‘ilib kelib kitob fondi 20 mingdan ortiq, jurnal va gazetalari bilan 40 yilgi nushani tashkil etardi. Kutubxona allaqachon katta madaniy - oqartuv markazi sifatida Eski shaharning mahalliy aholisiga xizmat ko‘rsatar edi.

Viloyat kutubxonasi metodik markaz sifatida o‘z faoliyatini olib borar ekan, faqatgina mavjud rayon kutubxonalarining oyoqqa turishiga va tartibli kitob taqsimlanishigagina emas, balki yangi kutubxonalar tashkil etish va bir qator kutubxonalarga o‘z fondidan kitoblarni taqsimlab yordam berar edi.

Afsuski urush davri asoratlari hisobiga kutubxonalarga berilgan kam o‘rinlar va ishlovchi xodimlarning mutaxassislik darajasining pastligi uning uslubiy markaz sifatida faoliyatiga ta’sir ko‘rsatgan.

1941 yil SSSR hududiga nemis bosqinchilarining bostirib kirishi barcha xalqlar singari o‘zbek xalqini og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Aholining asosiy ishga yaroqlilari frontga jo‘nab ketdi, barcha ishlar harbiy izga solindi va asta —sekin madaniy —oqartuv ishlarining o‘z —o‘zidan ishi yanada og‘irlashdi. Ayniqsa, kutubxona ishlarining ahvoli qoniqarli deb bo‘lmasdi. Bu davrga kelib «Turon» kutubxonasining kitob fondi jamg‘armasi 40.000 dan ziyod edi.

1943 yilda kutubxona jamg‘armasi tartibga keltirilib 13 ming qo‘lyozma va qimmatli kitoblar Beruniy nomidagi SHarqshunoslik ilmiy —tekshirish institutiga berilgan. Keyingi yillarda kutubxona o‘z faoliyatida ko‘tarilib, uslubiy yordam birmuncha oyoqqa turadi.

1949 yil yillik hisobotlarda: «Bu yil bizning kutubxona viloyatning turli kutubxonalariga uslubiy yordamni kuchaytirib, sezilarli yutuqlarga erishdi. Viloyat kutubxonasi 17 rayonga 35 marotaba chiqishlar uyushtirdi, xalq —xo‘jalik tadbirlarida kerakli tushutirishlar o‘tkazildi. Uch marotaba viloyat seminarlari o‘tkazilib, viloyat kutubxona qoshidagi 2 oylik kutubxona hodimlarining malaka oshirish kurslari tashkil etildi».

50 —yillarda o‘quv zali ilmga chanqoq yoshlar bilan to‘ldi. Mirkarim Osim singari yozuvchilar qiroatxonani tark etmay, shu yerda yangi adabiyotlar bilan tanishib, o‘z asarlari ustida ish olib borar va adibning ko‘plab tarixiy qissa va xikoyalari shu yerda yaratilgan. Kutubxona tom ma’nodan Toshkent viloyatining madaniy—ma’rifiy markazlaridan biriga aylanadi.

Darhaqiqat, 1955-60 yillarda Toshkent viloyatida kutubxona ishlari boshqa viloyatlardan ancha ilg‘orlab ketgan edi. Ayniqsa metodik markaz sifatidagi faoliyati, nafaqat viloyat balki Respublikada kutubxonachilik ishining tarkib topishi va taraqqiyoti uchun ham uning muhim ahamiyat kasb etganini qayd etish mumkin.

Xususan viloyat kutubxonasi ommaviy kutubxonalarda kitob fondlarini klassifikatsiya qilish va kataloglashtirish ishida nafaqat viloyat, balki respublika miqyosida asos soldi. Uning hodimlari tomonidan 1955 yili «Ommaviy kutubxonalar kitob fondlarini klassifikatsiya qilish bo‘limlar ro‘yxati» tuzib chiqildi. Mazkur ro‘yxatning 3 ming nusxada nashr etilishi butun O‘zbekiston kutubxonalar uchun mo‘ljallanganligi isbotidir. Shu yili yana ishtirokida o‘zbek tilida «Kitoblarni tavsif etishning yagona qoidalari» hamda «Rayon va qishloq kutubxonalarining yagona katalogi» nomli metodik qo‘llanmalar tuzildi. 1971 yil viloyat kutubxonasi xodimlari tomonidan «Qishloq kutubxonalar uchun klassifikatsiya qilishning qisqacha jadvali» o‘zbek tiliga o‘girildi va viloyatdagi juda ko‘p kutubxonalarda kataloglar tuzilishiga sabab bo‘ldi.

«Oktabr» nomidagi Toshkent viloyati kutubxonasi direktori I.X. Husanxodjayev davrida (1974) kitob fondi 200 mingni tashkil etib, ulardan o‘zbek tilida 29790 nusxani, rus tilidagi kitoblar 168082 nusxani tashkil etar edi. Kutubxonalararo abonimentdan 109 ta kutubxona foydalanar edi. Bu davrda kutubxonadan foydalanuvchilar soni 4 mingdan ziyod bo‘lib, kitob berilishi 103 mingni tashkil qilardi. «Oktabr» nomidagi Toshkent viloyati kutubxonasi

tomonidan muntazam ravishda metodik-bibliografik qo‘llanmalar ishlab chiqilib shahar, rayon kutubxonalari xodimlari ishtirokida seminarlar tashkil etilgan. 80-yillarda kutubxona nihoyatda qiyin ahvolga tushib qoladi, asr boshida qurilgan binoning yaroqsiz ahvoldaligi tufayli uning o‘quv zali yopib qo‘yiladi. Kitobxonlarning noroziligi, bir qancha mas‘ul kishilar yordami tufayli ta‘mirlash ishlari o‘tkaziladi va yonidagi bino qo‘shib beriladi.

#### MUSTAQILLIK YILLARIDA «TURON» KUTUBXONASINING RIVOJLANISHI

Millat kelajagini adabiyotlarsiz tasavvur qilish qiyin bo‘lganiday, ilm olishning hech bir vositasi kutubxonadek keng imkoniyatlarga ega emas.

Kutubxona tashkil etilgan davrdan boshlab, kitobxonlarga unumli xizmat ko‘rsatishning hamma usullari qo‘llanib kelinmoqda.

Ilmga chanqoq kishilar «Turon» kutubxonasiga tobora ko‘proq kelib, ma‘naviy ehtiyojlarini qondirganlar. Bulardan G.G‘ulomov, M.SHayxzoda, Oybek, Shuhrat, Said Ahmad, olimlardan O.SHarofiddinov, Begali Qosimov, Noim Karimov, SHarif Yusupov, Hikmat Sobirovlardir. Bu qutlug‘ dargohdan bahramand bo‘lgan fan arboblari, yozuvchilar o‘zlarining hayotlarida ziyo maskani yorqin iz qoldirganini, turli-tuman uchrashuvlarda, oynai jahon, radio to‘liqlarida, ro‘znoma va oynoma sahifalarida yosh avlodlarga hayajonlanib so‘zlashganlarini kuzatish mumkindir.

1991 yilda viloyat “Oktabr” kutubxonasi 40 yildan ziyod vaqt mabaynida Hamza tumanidagi A.Karimova 1–tor ko‘chada joylashgan binoda alohida faoliyat yuritib kelayotgan viloyat bolalar kutubxonasi bilan birlashtirilib, u yerda “Yoshlar bilan ma‘naviy–ma‘rifiy ishlar olib borish shu‘basi” tashkil etildi.

1993 yilda kitobxon soni 764 mingga, kitob berilishi 16 mln. 400 ming nushaga yaqinlashadi.

Ziyo maskani 1928 yildan 1993 yilga qadar, deyarli 65 yil «Oktiyabr» nomi bilan atalib kelindi. Toshkent viloyati, viloyat madaniyat ishlari boshqarmasi yordami tufayli yana kutubxonaning eski «Turon» nomi tiklandi va ilmiy universal kutubxonaga aylandi. Kutubxona qoshida bir necha ilmiy bo‘limlar va sho‘balar tashkil qilindi.

1918 -1993 yillar davomida kutubxona jamg‘armasi 400 dan 319412 nushaga qo‘payib borgan. Kitob fondining o‘shish darajasi 1950 yillardan keyin keskin ko‘paygan. Ulug‘ Vatan urushi davrida kutubxona kitobxonlarga xizmat ko‘rsata olmagan, bor kitoblar taxlab tashlanib, yangi adabiyotlar olishga mablag‘ ajratilmagan.

O‘zbek tilidagi adabiyotlarning o‘shish darajasi 1928 yilga nisbatan 1938- 1948 yillarda 2 barobar kamayib ketgan, bunga sabab kutubxonada saqlanayotgan 13 mingga yaqin sharq xalqlari tillariga oid bo‘lgan nashrlarning 1943 yilda tashkil etilgan Abu Rayxon Beruniy nomli sharqshunoslik institutining kutubxonasiga olib o‘tilishidir.

Hozirgi davrga kelib kutubxonada sharq xalqlari tillarida nashrdan chiqqan eski kitoblar deyarli mavjud emas. Kitob jamg‘armasida yillar davomida ko‘z qorachig‘idek saqlanib kelinayotgan 1922— 1940 yillar oralig‘idagi lotin va eski o‘zbek alifbosida nashr qilingan gazeta va jurnal to‘plamlarining mavjudligi diqqatga sazovordir. Bulardan gazetalar: «Qizil O‘zbekiston» (1924-1930), «Kambag‘al dehqon» (1925-1929), «Farg‘ona» (1925-1929), «Turkiston» (1922-1924), «Qizil bayroq» (1920-1922), «Zarafshon» (1924-1927), «Darxon» (1923), «SHarq haqiqati» (1928-1930), «Qizil yulduz» (1929), «Ishchi» (1929) va boshqalar, jurnallar: «Maorif va o‘qituvchi» (1925-1930), «Yer yuzi» (1925- 1927), «Ish maktabi» (1925), «Bolalar dunyosi» (1921), «Mushtum» (1925- 1940), «Yangi yo‘l» (hozirgi «Saodat» (1925-1934), «O‘zbekiston sho‘ro adabiyoti» (1932-1933) va boshqalar. Eng diqqatga sazovor bo‘lgan jurnal bu hozirgi «Saodat» jurnalining «Yangi yo‘l» nomida chiqqan 1-sonining faqat bizning kutubxonada saqlanishidir. Yuqoridagi nomlari qayd qilingan gazeta - jurnal to‘plamlaridan hozirgi vaqtda juda ko‘p olimlar, fan nomzodlari bahramad bo‘lib, mustaqil Vatanimiz tarixini, adabiyotini boyitishda samarali foydalanmoqdalar.



Bulardan tashqari kutubxonada 1950 yillardan keyin nashr qilingan va hozirgi kungacha nashr qilinib kelinayotgan o'zbek va rus tilidagi jurnallar va gazetalar ko'z qorachig'idek saqlanmoqda. Bulardan «SHarq yulduzi», «Zvezda Vostoka», «Guliston», «Mushtum», «Fan va turmush», «Saodat», «O'zbek tili va adabiyoti», «Nauka i jizn», «Texnika molodeji»-. «Bibliotekar» va boshqa juda ko'p jurnallarni ko'rsatishimiz mumkin. Jamg'armada saqlanayotgan jurnallar va gazetalar (yillar bo'yicha) tartib bilan joylashtirilgan. O'zbekistonda nashr qilingan eski o'zbek hamda lotin alifbosidagi yuqoridagi jurnallardan tashqari arab, lotin alifbosida, tatar, ozarbayjon, tojik, turkman, qozoq tillarida nashrdan chiqqan jurnal to'plamlari ham mavjuddir. Bulardan ozarbayjon tilida «Mulla Nasriddin» (1909, 1910, 1921, 1927), «Inqilob va madaniyat» (1928, 1929), Maorif va madaniyat (1923, 1924, 1926, 1927), tojik tilida «Mulla Mushfiqiy» (1926, 1928), «Rahbari Donish» (1927, 1928, 1929), tatar tilida «Bizning yo'l» (1927, 1928), «Ozod xotin» (1927, 1928, 1929), turkman tilida «To'qmoq» (1928) va shunga o'xshash 100 ga yaqin jurnal to'plamlari saqlanmoqda.

Toshkent viloyati «Turon» kutubxonasi 1995 yilda 2402 kitobxonni kitob o'qishga jalb qilgan, bu 1994 yilga nisbatan 400 kitobxonga ko'pdir. Kitobxonlarga 57,9 ming nusxa adabiyot berilgan, o'tgan yildagidan 6,5 ming nushaga ortiq. 1995 yilda har bir kitobxon o'rtacha 24,1 tadan kitob o'qigan. 1996 yilning 1 yarmida kutubxonaga 1540 kitobxon a'zo bo'ldi va ularga 33,6 ming nusxa adabiyot berilgan, o'rtacha kitobxonlik 21,7 ni tashkil qilgan.

1997-yili «Turon» kutubxonasi faoliyatida yangi bosqich boshlanadi. XIX asr nashrlari va XX asr boshlaridagi gazeta – jurnallar taxlamlari, jahon adabiyoti namunalari, ensiklopediyalar (qomuslar) va lug'atlar, 370 ming kitob fondiga va 200 nomdagi doimiy davriy nashrlarga ega bo'lgan «Turon» ilmiy – universal kutubxonasi Respublikada birinchilardan bo'lib ishlarni avtomatlashtirishni boshlab yuboradi, «IRBIS» dasturi asosida elektron katalog tuzila boshlanadi.

Kutubxona bir qator Fan va madaniyat arboblarning sevimli maskani bo'lib, u yerda G'ofur G'ulom, Oybek, Mirkarim Osim kabi adiblar, O'zbekiston qahramonlari Ozod SHarafuddinov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Zikir Muhammadjonov, adabiyotshunos olimlar Naim Karimov, Shuxrat Rizayev va boshqalar undan keng foydalanishgan.

Abdulla Oripovning xotiralaridan: *“...She'rlarim matbuotda tez-tez bosila boshladi. Ozod akaning «Oq yo'li» bilan «SHarq yulduzi»da she'rlarim chiqdi. Yozuvchilar uyushmasidagi mushoiralardan birida «Munojotni tinglab», «Burgut» degan she'rlarimni o'qidim. O'sha kuni Abdulla Qahhor nazariga tushdim. Mirtemir domla atrofida ko'p shogirdlari qatori saboq oldim. SHayxzodadek donishmand ustozga ergashib, u kishi she'r o'qigan minbardan men ham she'r o'qidim. Esimda, Eski shahardagi hozirgi «Turon» kutubxonasida o'qigan she'rlarimni tinglovchilar juda iliq kutib oldilar. Uchrashuvdan qaytayotganimda SHayxzoda domla bilagimdan tutib: «Shoir, sizga bitta gapim bor. Ehtiyot bo'lgaysiz, ishqilib, qarsaklardan taltayib ketmasangiz bo'lgani», degan. Bu gaplar ham mening qulog'imga qo'rg'oshinday quyilib qoldi...”* (“Ko'rgan-bilganlarim” 2000 yil 23 yanvar).

2006-yil 20-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 381-sonli Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi Toshkent viloyati «Turon» ilmiy-universal kutubxonasi negizida Toshkent viloyati «TURON» axborot-kutubxona markazi tashkil topdi va O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi – hozirda Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi tasarrufiga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasining 19 yillik yubileyi arafasida ya'ni «TURON» axborot-kutubxona markazi uchun Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi Oxangrabo ko'chasi, 1-uyda joylashgan bino ajratilib, kapital ta'mirlandi, zaruriy jixozlar bilan ta'minlanib, yangicha ko'rinishga ega bo'ldi. 2010 yil mart oyida kutubxonaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tantanali tadbirni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari H.Karimova, A.Qirg'izboyev, Vazirlar Maxkamasidan A.Olimov, Aloqa va axborotlashtirish agentligidan A.Xodjayev va O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori A.Umarovlar ishtirok

etdilar. Kutubxona binosining ochilish marosimi yosh kitobxonlarga va biz kutubxona xodimlarida katta ta'surot qoldirdi.

Mamlakatimiz, jumladan Toshkent viloyatidagi kutubxonalarning ish faoliyatlarini takomillashtirish, tajribalari bilan o'rtoqlashish maqsadida kutubxona tomonidan seminar treninglar, amaliy mashg'ulotlar, ko'rik -tanlovlar o'tkazib kelinib, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilib, ish faoliyatida qo'llashlari uchun tarqatiladi hamda joylardagi kutubxona muassasalari ish faoliyatini zamon talabi darajasiga ko'tarish maqsadida uslubiy va amaliy yordamlar ko'rsatib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevral "Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son farmoniga asosan Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi tasarrufidagi Toshkent viloyati "TURON" axborot-kutubxona markazi O'zbekiston Matbuot axborot agentligii tasarrufiga o'tkazildi.

Bugungi kunda axborot-kutubxona markazida 7 ta bo'lim, 7 ta sektor Toshkent viloyati shahar aholisiga namunali axborot-kutubxona xizmat ko'rsatish bilan birgalikda viloyatdagi barcha tizimdagi mavjud axborot-kutubxona muassasalariga uslubiy va amaliy yordam kursatib kelmoqda. Shuningdek, Toshkent shahridagi yirik ilmiy markazlar va o'quv yurtlari kitobxonlariga, xatto kutubxona fondidan foydalanayotgan xorijiy tadqiqotchilarga ham respublikaning yirik ma'rifat markazlaridan biri sifatida xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Axborot-kutubxona markazida 40 dan ortiq malakali kutubxonachi mutaxassislar faoliyat ko'rsatib, zamonaviy axborot texnologiyalarni ish jarayonida tadbiriq etib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam o'tkazib boradi. Jumladan, aholining axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan suhbatlar, ko'rgazmalar, mutaxassis kunlari, ekskursiyalar va adabiyotlarning bibliografik sharxlarini o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Viloyat xududidagi barcha axborot-resurs markazlari, kutubxonalarining mutaxassislari uchun kasbiy malaka oshirish kurslari tashkil etish orqali, kitobxonlar bilan yakka tartibda ishlash, zaruriy adabiyotlarga qiziqishi bo'yicha so'rovlarni qondirishda, shuningdek, ommaviy tadbirlarning yangi shakllaridan foydalangan holda ilmiy va amaliy ko'maklashish maqsadida o'tkazilayotgan seminar-treninglar ijobiy natijalarga erishishimizda ko'l kelmoqda.




### **Bugungi axborot kutubxona markazida 7 ta bo'lim, 7 ta shu'ba faoliyat olib bormoqda: Ilmiy-uslubiy bo'lim**

Ilmiy-uslubiy bo'lim-Toshkent viloyati "TURON" axborot – kutubxona markazining tuzilmaviy bo'linmasi bo'lib, 1938 yildan buyon viloyatdagi axborot –kutubxona muassasalari ish faoliyatining asosiy yo'nalishlarida ilmiy –uslubiy, tashkiliy ta'minotni amalga oshiruvchi hamda maslahatlar bilan yordam beruvchi uslubiy va trening markazi sifatida axborot -kutubxona muassasalariga xizmat ko'rsatadi.

Bo'lim ish faoliyati shundan iboratki, Toshkent viloyatidagi barcha axborot –kutubxona muassasalari ish faoliyatini zamon talabi darajasida tashkil etilishi uchun ular ishini o'rganish, taxlil qilish, axborot –kutubxona muassasalari faoliyatiga yangi axborot texnologiyalarni tadbiriq etishda va huquqiy –meyoriy hujjatlarni ishlab chiqishda uslubiy –amaliy yordam ko'rsatadi.

Viloyat, Respublika, MDX va Yevropa davlatlarining kutubxonachilik sohasidagi ish tajribalari o'rganiladi, umumlashtirilib, amaliyotga tadbiriq etiladi. O'quv –ma'rifiy ishlarni olib borish maqsadida seminarlar, konferensiyalar, taqdimotlar, amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirib, tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Bulardan tashqari barcha axborot – kutubxona muassasalari uchun muhim va unitilmas sanalar va sohaga oid uslubiy – bibliografik qo'llanmalar ishlab chiqiladi.



Xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash dasturlarini yangi shakl va usullarni qoʻllagan holda ishlab chiqiladi, hamda amaliyotga tadbiq etib, axborot –kutubxona faoliyatining barcha yoʻnalishlari boʻyicha yozma hamda ogʻzaki maslahatlar beriladi. Axborot-kutubxona markazi faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari orqali foydalanuvchilarga axborotlar va maqolalar berib boriladi va kutubxona tomonidan oʻtkaziladigan barcha tadbirlarga uslubiy yordam beriladi.

Bundan tashqari boʻlim Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institutining “Kutubxona-axborot faoliyati” taʼlim yoʻnalishi, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining “Axborot –kutubxona tizimlari” kafedrasi bilan yillik ish rejalari tuzilib, hamkorlikda ish olib bormoqda.

### **Axborot –kutubxona hujjatlarini butlash boʻlimi**

Axborot –kutubxona hujjatlarini butlash boʻlimining asosiy vazifalaridan bu-aholiga axborot-kutubxona xizmatini koʻrsatishda foydalanuvchilar qiziqishini oʻrganib - statistika kuzatuvlar, suxbatlar, soʻrovnomalar, ogʻzaki soʻrovlar, tajribalar, xujjatlar tahlili, foydalanuvchilarning muloxaza va boshqalarni hisobga olgan holda kutubxonaga kerakli xujjatlar roʻyxatini tuzadilar.

Kitoblar asosan nashriyotlardan, kitob doʻkonlaridan, kutubxona kollektoridan, shuningdek, axolidan xomiylik asosida adabiyotlar olinib kutubxona fondi boyitilmoqda..

### **Kataloglashtirish va axborot –kutubxona hujjatlariga ishlov berish bo‘limi**

Yangi kelib tushgan kitoblar Axborot va kutubxona xujjatlarini butlash bo‘limidan inventar nomer berilgandan so‘ng Axborot va kutubxona xujjatlarini kataloglashtirish va ishlov berish bo‘limiga kelib tushadi. Kelib tushgan kitob avval kutubxonaga olinganligi Bosh katalogdan tekshiriladi. Agar bu kitob kutubxonada bo‘lsa, tasvirlangan kartochkani orqasiga inventar nomer yozib qo‘yiladi. Lekin chiqish ma‘lumotlari boshqa bo‘lsa yangi kartochka yoziladi.

Keyingi jarayon yangi kelib tushgan adabiyotga texnik ishlov beriladi. Kitobga karmashka, srok vozvrata, kitob formulyari, yarlichok yelimlanadi. So‘ngra kitob tasvirlanadi.

Birinchi chiziqdan kitob muallifi, kitob nomi, chiqish joyi, nashriyoti, yili va sahifasi va boshqa ma‘lumotlar beriladi. Bu kartochkani orqasiga kitob inventari yoziladi. Bu kitobdan bir necha bo‘lsa ham shu kartochkaga yoziladi. Kartochka bosh, kitobxonlar uchun mo‘ljallangan Alfavit va sistematik, nom kataloglariga qo‘yiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki Bosh katalogga yozilgan kartochka yuqorida ko‘rsatilgan kataloglarga ham yoziladi.

Axborot va kutubxona xujjatlariga ishlov berilgan kitoblar Axborot va kutubxona xujjatlarni saqlash bo‘limiga inventar daftarga yozilgan har bir kitobni birma bir imzo qo‘yib qabul qiladi.



***Bosh katalog Katalog qutisi***

Kataloglashtirish va axborot –kutubxona hujjatlariga ishlov berish bo‘limida 1 ta shu‘ba Yig‘ma elektron katalog shu‘basi faoliyat ko‘rsatadi.

#### **Yig‘ma elektron katalog shu‘basi faoliyati.:**

Yig‘ma elektron katalog shu‘basi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 23 fevraldagi “2011-2015 yillarda axborot kommunikasiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona va resurs xizmatlarini yanada sifatli rivojlantirish choralari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq axborot-kutubxona markazlaridagi ajratilgan byudjet mablag‘lari hisobida 2 ta shtat birligidan iborat yig‘ma elektron katalog shu‘basi tashkil etilgan.

Yig‘ma elektron katalog shu‘basi elektron shakldagi bibliografik yozuvlarni yig‘ish, saqlash, yig‘ma katalog dasturiga yuklash ishlarini olib boradi va viloyatdagi axborot-resurs markazlarida yaratilayotgan bibliografik yozuvlarni standart asosida yaratilishini nazorat qiladi.

Bundan tashqari axborot-resurs markazlarga elektron katalog sohasiga oid uslubiy yordam berib, ularning o‘z dasturlarida elektron katalogini yaratishi va ishlash tizimini tushuntirib boradi hamda, axborot-resurs markazlardan o‘z vaqtida elektron bibliografik yozuvlarni yig‘adi.

#### **Axborot-bibliografiya bo‘limi**


“TURON” axborot-kutubxona markazi Axborot-bibliografiya bo‘limi 1930 yilda tashkil qilingan bo‘lib, u viloyatdagi axborot-kutubxona muassasalari, axborot-resurs markazlari va kutubxonalar uchun uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatadi.

Tarixga nazar tashlasak Turkistonda bibliografiya ishi IX-XV asrlardayoq rivojlana boshlagan. Fan va adabiyotimizning yirik vakillari Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy va




boshqalarning asarlarida saroy kutubxonalari tomonidan o‘z jamg‘armalarining bibliografiya ro‘yxati va ularni tasnif qilish ishlari olib borilayotganligi haqida ma’lumotlar bor. “TURON” axborot-bibliografiya bo‘limi viloyatdagi axborot-kutubxona, axborot-resurs markazlari va kutubxonalar uchun uslubiy markaz hisoblanadi.

#### **Axborot-bibliografiya bo‘limining vazifalari quyidagilardan iborat:**

- Ma’lumot- bibliografik nashrlar fondini tashkil qilish, to‘ldirib borish;
- Ma’lumot- bibliografik apparatni tashkil etish vayuritish;
- Turli guruh foydalanuvchilariga mo‘ljallangan bibliografik qo‘llanmalarni tuzish;
- Ma’lumot-bibliografik xizmat ko‘rsatish;
- Axborot-bibliografik xizmat ko‘rsatish;
- Viloyatdagi barcha ARM larga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;
- Kartotekalar tashkil qilish;
- Bundan tashqari gazeta-jurnallarda bosilgan o‘lkashunoslik kartotekasi, dolzarb mavzular bo‘yicha mavzuli kartotekalar, bibliografik nashrlar tuzish (Bibliografik ko‘rsatkichlar, esdaliklar, yangi olingan adabiyotlar ro‘yxati, muhim unutilmas sanalar).







Axborot-bibliografiya bo'limida 2ta shu'ba faoliyat ko'rsatadi:

- O'lkashunoslik shu'basi;
- Huquqiy axborot shu'basi.

**O'lkashunoslik shu'basi vazifalari:**

O'lkashunoslik shu'basi Gazeta va jurnallarda chop etilgan Toshkent viloyati haqidagi maqolalarning karto -tekasini tuzadi va O'lkashunoslik muzeyini tashkil qiladi. "Nodir nashrlar" fondida saqlanayotgan XX asr boshlarida chop etilgan arab yozuvidagi gazeta va jurnallarda e'lon qilingan maqolalarning bibliografiyasini tuzadi. O'lkashunoslik shu'basi tomonidan yaratilgan quyidagi risola va bibliografik ko'rsatkichlar bilan tanishishingiz

mumkin:

1. “Milliy matbuot sahifalarida” (“Qizil bayroq”, “Turkiston” va “Qizil O‘zbekiston” gazetalarida bosilgan asosiy maqolalar bibliografiyasi (1921-1926).
2. “Milliy matbuot fixristi” (“Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq,” va “Turkiston” gazetalarida e’lon qilingan maqolalar izohli bibliografiyasi. (1918-1924).
3. “SHarq haqiqati” gazetasida e’lon qilingan maqolalar bibliografiyasi (1928-1930).
4. “Turon” kutubxonasi “Turkiston” gazetasi sahifalarida (1922-1924.)
5. “Maorif va o‘qutg‘uchi” jurnalida e’lon qilingan maqolalar bibliografiyasi (1925-1930).
6. “Yer yuzi”, “Mash’ala” va “Guliston” jurnallarida e’lon qilingan maqolalar bibliografiyasi (1925-1939).

#### **Huquqiy axborot shu’basi vazifalari:**

- Aholiga va maxsus guruh bo‘lib foydalanuvchiga xuquqiy axborotni taqdim etish;- Aholining xuquqiy madaniyatini oshirish;- Fuqarolarning mehnat, fuqarolik, nafaqa ta’minoti va boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha qonunchilik hujjatlari bilan muntazam tanishtirib borish;- Huquqiy bilimlarni targ‘ib qilish. Shu’baning huquqiy adabiyotlar fondida axborot va vaqtli matbuot nashrlari va sohaga oid maxsus adabiyotlar orqali quyidagi bo‘limlarga doir ma’lumotlar bilan tanishishingiz mumkin:- Davlat va huquq;- Xalqaro huquq;- Moliya huquqi;- Fuqarolik huquqi;- Savdo huquqi;- Mehnat huquqi.

#### **Axborot –kutubxona xujjatlarini saqlash bo‘limi**

Toshkent viloyati “TURON” axborot-kutubxona markazi fondida bugunga kelib 389858 nusxa kitob fondi mavjud. Nodir fond 4440 tani tashkil etib, bulardan: Nodir adabiyotlar-4124 nusxada; Jurnallar: arab yozuvida 49 nomda; lotin yozuvida 81 nomda; Gazetalar: arab yozuvida 40 nomda; lotin yozuvida 107 nomda. Bo‘limda foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida alohida nodir fond xonasi, jurnallar fondi tashkil etilgan.

Nodir fondda 1816 yildan 1950 yilgacha nashrdan chiqqan kitoblar, 1921-1950 yillarda nashr etilgan gazeta to‘plamlari saqlanadi. Bo‘limning asosiy vazifalaridan biri bu axborot-kutubxona markazining jamg‘armasini saqlash va shakllantirish ishlarini tashkil etish hamda asosiy jamg‘armalarni joriy adabiyotlar bilan to‘ldirish, jamg‘armalarni eskirgan, ortiqcha nusxalardan tozalash

#### **24 - mavzu: Kutubxonalarda kitobxonlarni o‘rganish sohasidagi sotsiologik tadqiqotlar**

##### **Reja:**

1. **Respublika kutubxonalarda kitobxonlarni o‘rganish masalalari**
2. **Китобхонлар қизиқишини ўрганишининги ўзига хос -хусусиятлари**

“Kitobxonlar bilan ishlash metodikasi” “Kutubxonashunoslik” fanining muhim bo‘limlaridan biridir. Asosiy maqsad kitobxonlar ma’naviy ehtiyoj va talablarini aktiv, maqsadga muvofiq ravishda qondirish, muayyan zarur asarlarni tanlash va ulardan ma’naviy kamolot yo‘lida faydolanishlarida ularga yaqindan yordam berishdir. “Kutubxona – yaxshi, eng zarur kitoblarni keng ommaga yetkazishda tashkilotchi, u zarur kitobni tanlashda kitobxoniga eng yaqin yordamchi, kitob o‘qishda muntazam konsul’tant” dir. Demak, kutubxona kitobxonlarga kerakli asarlarni tavsiya etishda eng faol tashkilotchi sifatida muhim rol oynaydi. Shuning uchun har bir kutubxona kitobxonlarni kerakli asarlarni tanlash va ulardan foydalanishda amaliy yordam ko‘rsatib, ularning qiziqishi, ma’naviy ehtiyojini qondirishga xarakat qilishi kerak. Buni amalga oshirish uchun esa kutubxonachi mukammal o‘rganishi zarur. Bu murakkab jarayonni tashkil etishga esa kitobxonlar qiziqishini muntazam o‘rganib borishni taqozo qiladi.

Kutubxonachi va kitobxon o‘rtasidagi ana shu uzluksiz ijodiy munosabatning tabiatiga to‘xtalib N.K.Krupskaya quyidagilarni: “kutubxonachining vazifasi kitobxon va kitobni yaxshi bilishdan

iborat. “Kitobxonni bilish eng avvalo, unga xos xususiyatlarni aniqlash, savollariga to’g’ri yondosha bilishni o’rganib olish demakdir”.

Shuning uchun ham kitobxonlar qiziqishini o’rganish hozir kutubxonachilar, pedagoglar, sotsiologlarning diqqat markazida turibdi hamda bu borada muayyan tadqiqot ishlari va ilmiy-amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning boisi ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida hayotning barcha sohalarida o’zgarishning nisbatan tezlashuvi, kishilarimizning moddiy va ma’naviy talab hamda ehtiyojlari nisbatan sezilarli darajada rivojlanayotganidir. Mamlakatimizda fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishga katta ahamiyat berilayotgan bir davrda kitobxonlar qiziqishini o’rganish borasida muhim sotsiologik izlanishlar olib borish dolzarb masalalardan bo’lib qolmoqda. Kitobxonga bo’lgan qiziqishning tarbiyaviy jarayon bilan bevosita mantiqiy aloqadorligi ham qator soha mutaxassisleri diqqatini bir nuqtada birlashtiradi. Bevosita yoshlar tarbiyasi bilan shug’ullanuvchi pedagog ham, oliy o’quv yurtining o’qituvchisi ham jamoat tashkilotchilari ham kitobga qiziqish masalasi bilan shug’ullanadi, uni targ’ib qilishda faol ishtirok etadi.

Kutubxonachilarning qiziqishini o’rganish bilan bog’liq faoliyati muhim yo’nalish xisoblanadi. Kitobxon bilan yakka tartibda ishlaganda, zarur bo’lgan adabiyoti tanlashda uning qiziqish hamda intilishlarini yaqindan bilmasdan, kankret qaysi sohaga oid adabiyot mutolaa qilishini aniqlamasdan, uning qiziqishlarini ilmiy boshqarish mumkin emas.

Kitobxonlar qiziqishini keng va atroflicha tadqiq ilmiy turib, ommaviy kutubxonachilar ishlarining rang-barang shakl va usullaridan maqsadga muvofiq foydalanib bo’lmaydi. Qolaversa, kitobxonning qiziqishini to’liq hisobga olmasdan kutubxonalar fondini ham talabga javob berarli darajada tashkil etish mumkin emas.

N.K.Krupuskaya kitobxonlar qiziqishini o’rganish kitob o’qishga rahbarlik qilish bilan bevosita bog’liq ekanligini doimo ta’kidlar edi. U kitobxonni o’rganish, o’qishga rahbarlik qilishnins ajralmas qismidir, deb uqtiradi va kutubxonachilarning kitobxonlar bilan olib boradigan barcha kundalik ishlarida buni yaqqol ko’rinish mumkin, deb ta’kidlaydi.

Respublikamiz kutubxonalari o’z taraqqiyotida juda ko’p sohalarga e’tibor berib keldi. Shu jumladan kitobxonlar qiziqishini rivojlantirish masalasi ham kutubxonalarimiz faoliyatidan kata o’rin olgan.

Respublikamizdan bu tarmoqning rivojlanishi asosan 1960 yillardan keyingi davrlarga to’g’ri keladi. Masalan, 1968 yili Sirdaryo, Buhoro viloyatlarida qishloq xo’jaligi mutahassislarining o’z sohalariga oid kitoblarga bo’lgan qiziqishlari o’rganildi. Farg’ona viloyat kutubxonasining bu sohadagi faoliyatida 1970 yillardan boshlab bu yerda kitobxonlarning texnikaga doir adabiyotlar o’qishi statistic va anketa metodlari asosida o’rganilganini ko’ramiz. 1972 yilda Andijon viloyat kutubxonasi ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarga bo’lgan qiziqishni talabnoma qog’ozlariga asoslanib o’rganishni tashkil etadi.

A.Navoiy nomidagi respublika davlat kutubxonasining bu sohadagi faoliyati alohida ko’zga tashlanadi. Bu kutubxona ham ko’p yillaridan beri kitobxonlar qiziqishini talabnoma qog’ozlari asosida o’rganib boryapti. Bundan tashqari kutubxonaning metodik bo’limi tomonidan kutubxonalarda kitobxonlar qiziqishini o’rganishni tashkil etishga mo’ljallangan qo’llanma chiqarildi.

O’tkazilgan tadqiqotlar davomida kitobxonlik faoliyatining ayrim belgilari: kitobxon talablarining doirasi, o’qilgan nashrlarning turlari, o’qish madaniyati komponentlaridan – kitob bilan bo’lgan munosabat sabablari hamda ularni o’qish qoidalari o’rganildi.

Kitobxonlar formulyari va kitobxonlarni kasbi va ma’lumotiga qarab gruppalarga ajratganimizda ular o’rtasida soha adabiyotlaridan foydalanish darajasining xar hil ekanligini ko’ramiz. Turlu kasbdagi kitobxonlar o’rtasida ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni mutolaa qiluvchilar 18 foizdan 33 foizgacha o’zgarib turgani xolda, ma’lumotiga ko’ra tahlil qilinganda ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni o’qish 12 foizdan 53 foizgacha bo’lgan miqdorlarni tashkil etadi.

Respublikamiz kutubxonalarida keying yillarda asosan kitobxonlar formulyari va anketa tahlil qilish metodidan foydalanilmoqda. Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati kutubxonasi 1979 yildan beri shahardagi muzika bilim yurti o’quvchilarining qiziqishlarini o’rganishni tashkil etgan.



Bulardan tashqari, respublikamizda keying yillarda o'tkazilgan yirik tadqiqotlar jumlasiga "Qishloq yoshlari va kitob" izlanishini misol qilib keltirish mumkin. Bu izlanish Toshkent Davlat madaniyat institutining kutubxonashunoslik kafedrasida va respublika kitobsevarlar jamiyati tomonidan o'tkazildi. Tadqiqot programmasi uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda 2000 anketa Samarqand, Farg'ona, Xorazm va Navoiy viloyat kutubxonalari bazasida tarqatildi. Izlanishning ikkinchi bosqichida anketa materiallari (1986 y.) Samarqand, Qashqadaryo viloyatlaridan to'plandi. Uchinchi bosqichda to'plangan materiallar asar sifatida taqdim etishni o'z ichiga oladi. Xozirgi kunda bu materiallar sinchkilab o'rganilmoqda.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Respublikada kutubxona tarmoqlarining markazlashtirilgan Sistemaga o'tishi kitobxonlar qiziqishini o'rganishda imkoniyatlar yaratadi.

## **17-mavzu: Kitob mutolaasi va kitobxonlikni targ'ib qilishning konseptual asoslari.**

### **Reja:**

1. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish. Targ'ibot ishlari vositalari.
2. Jonli so'z, hujjatli manbalar. Badiiy, tasviriy va texnik vositalar.

Kitob – umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Darhaqiqat, kitob insonni erdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuchdir. U insoniyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy-ma'rifiy olami, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi.

Axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiy kitob haqida shunday deydi: "Ey, aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan xoli hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik etmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar etadiki, bunday foydani odamlardan topa olmasan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar etadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "kitob aql qal'asidir".

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor berilib, ko'plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2017 yil 12 yanvardagi "kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi, 2017 yil 13 sentyabrdagi "kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi va 2018 yil 12 maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari asosida mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi jamiyatda kitobga bo'lgan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarishiga zamin yaratdi.

Xususan, ichki ishlar organlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasidagi ishlar vazirlik rahbariyatining doimiy e'tiborida bo'lib kelayotganini ta'kidlab o'tish joiz. Zero, bugun mamlakatimizda ichki ishlar organlarining har bir xodimi tomonidan "Xalq manfaatlariga xizmat

qilish"ni muqaddas burch deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar o'tkazilayotgan bir davrda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etgan tizim xodimlarining kasbiy malakasini, huquqiy bilimlarini oshirish, ularning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, xodimlar bilan ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yanada kuchaytirish kabi vazifalarni bajarishda kitob eng yaqin ko'makchi bo'lishi shubhasiz. Bugun shiddat ila rivojlanayotgan zamon bilan hamnafas bo'laman, degan har bir davlat xizmatchisi, jumladan, ichki ishlar organlari xodimlari ham doimo o'z ustida ishlashi, bilim va ko'nikmalarini tinimsiz oshirishi zarur. Buning uchun esa kun tartibida kitob mutolaasiga ham vaqt ajratishi, kundalik davriy nashrlarni, Internet tarmog'idagi yangiliklarni kuzatib borishi lozim. Zero, ichki ishlar organlari xodimlari doim xalqimizning ko'z o'ngida, aholi orasida xizmat olib boradi, tabiiyki, har kuni o'ziga turli masalalarda murojaat qilgan fuqarolarga qonuniy va asosli javob berishiga to'g'ri keladi.

O'zingiz o'ylang, kitob o'qimagan, dunyoqarashi tor, notiqlik mahorati bo'lmagan xodim yuqorida ta'kidlangan vazifalarni sifatli bajara oladimi? Biror-bir muammo yuzasidan yordam so'rab kelgan fuqaroga qonuniy yo'l-yo'riq ko'rsata oladimi? Albatta, yo'q. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugun har bir ichki ishlar organi xodimi jamiyatda huquqiy madaniyat targ'ibotchisiga aylanishi, buning birinchi sharti sifatida, avvalo, o'zi kitobga oshno bo'lishi lozim.

"Kitob tafakkur qanotidir", degan edi alloma adibimiz Oybek. Kitob o'qigan inson, qaysi sohada ishlamasin, to'g'ri fikrlash, oqu qorani ajratish, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, nutqi ravon bo'ladi, odamlarni o'z ortidan ergashtira oladi. Bular esa ichki ishlar organlari xodimlari uchun eng kerakli sifatlar hisoblanadi. Shu bois ham bugun ichki ishlar organlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, xodimlarning o'z ustida ishlashi uchun zarur sharoit yaratish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ichki ishlar organlarida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida

2017 yilning dekabr oyida ichki ishlar vazirligi Markaziy apparati tarkibidagi muzey va kutubxona negizida vazirlik Kadrlar bosh boshqarmasiga bo'ysunuvchi ma'rifiy va axborot-resurs markazi tashkil etildi. O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida vazirlik kutubxonasi yangi binoga ko'chirilib, zamonaviy jihozlar hamda elektron kutubxona uchun kompyuter to'plamlari bilan ta'minlandi. Kutubxona 5 mingga yaqin yangi huquqiy, tarixiy-siyosiy, badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa janrlardagi adabiyotlar, 7 mingga yaqin elektron resurslar bilan boyitildi. Elektron kutubxona Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi bazasiga hamda Internet tarmog'iga ulangan bo'lib, xodimlar shu erdan turib, ulardagi noyob kitoblar, dissertasiya va avtoreferatlar hamda dunyoning ko'plab davlatlarida chiqadigan davriy nashrlar bilan tanishish imkoniga ega. Ma'rifiy va axborot-resurs markazi faqatgina foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatib qolmasdan, bu erda turli yangi asarlar taqdimotiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar ham o'tkazib kelinmoqda. Mustaqillik yillarida tinch va osoyishta hayotni ta'minlash yo'lida mardlarcha halok bo'lgan xodimlar xotirasiga bag'ishlangan "mard o'g'lonlar nomi barhayot", ichki ishlar organlarida ko'p yillar samarali xizmat qilgan marhum Haydar Yahyoevning "tilsim" nomli kitoblari taqdimotiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bunga misol bo'ladi.

Hududiy ichki ishlar organlarida, vazirlik ta'lim muassasalarida ham bu boradagi ishlar doimiy nazoratga olinib, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, barcha viloyatlar IIBda tashkil etilgan kutubxonalar yangi adabiyotlar bilan boyitib borilmoqda. Masalan, joriy yilda Qashqadaryo viloyati IIB qoshida ichki ishlar organlari xodimlari va boshqa foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi "dor ul-kutub" nomli zamonaviy kitoblar uyi barpo etildi. Shu kunlarda Toshkent shahar IIBda muzey va kutubxona uchun yangi zamonaviy bino qurilib, foydalanishga topshirilish arafasida turibdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarda tashkil etilgan ichki ishlar vazirligining akademik liseylarida tahsil olayotgan bo'lajak xodimlarni yoshligidan

kitobga oshno qilib tarbiyalash maqsadida mazkur akademik liseylardagi axborot-resurs markazlari yangi kitoblar bilan doimiy boyitilmoqda. Bundan tashqari, vazirlik Akademiyasi axborot-resurs markazi fondidagi talab katta bo'lgan huquqiy, tarixiy-siyosiy, badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa janrlardagi adabiyotlarning elektron variantlari ko'paytirilib, akademik liseylarga tarqatildi. Ichki ishlar organlari xodimlarining intellektual salohiyati, kasbiy, siyosiy-huquqiy bilimlarini oshirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish hamda ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini ommalashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston yoshlar Ittifoqi Markaziy Kengashining 2019 yil 27 fevraldagi qo'shma qaroriga asosan, joriy yilning aprel – may oylarida ilk bor ichki ishlar organlarining yosh xodimlari, harbiy xizmatchilari hamda vazirlik oliy ta'lim muassasalari kursantlari o'rtasida ikki bosqichda "eng yaxshi kitobxon" tanlovi o'tkazilib, g'oliblar va sovrindorlar IIV hamda yoshlar Ittifoqi tomonidan qimmatbaho sovg'alar va boshqa mukofotlar bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yangi chop etilgan kitoblarni targ'ib qilish maqsadida vazirlik va uning tarkibiy hamda hududiy bo'linmalarida kitob yarmarkalarini o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Ushbu yarmarkalarda respublikadagi etakchi nashriyotlar va kitob savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'zlarining yangi chop etilgan turli janrdagi kitoblari bilan ishtirok etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yuksak intellektual salohiyatga, o'z mustaqil dunyoqarashiga ega, tashabbuskor, jismonan sog'lom va ma'nan etuk bo'lgan haqiqiy vatanparvar xodimlargina bugun tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarning hal qiluvchi kuchi, xalqimizning haqiqiy ma'nodagi himoyachisi hisoblanadi. Ichki ishlar organlari xodimlarida yuqoridagi ijobiy sifatlarning shakllanishida esa ularning kitobga oshno bo'lishi, nafaqat o'z kasbiy faoliyatiga oid, balki turli janrdagi kitoblarni o'qib, o'z bilimi va dunyoqarashini kengaytirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish, infratuzilma va o'quv tizimi, kitobxonlik bilan bog'liq muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida, 2020-2025-yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanadi. Dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanadi:

- kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda moddiy-texnik bazasini takomillashtirish;
- xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni belgilash;
- joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda kitob yetkazish tizimini tubdan takomillashtirish choralari ko'rish;
- milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq muhim masalalarni hal etishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish;
- ta'lim muassasalari va hududiy kutubxonalarni markazlashgan kutubxona – "Yagona elektron kutubxona" loyihasi asosida birlashtirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni belgilash;
- hududlar, aholi punktlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan aniq mexanizmlar ishlab chiqish;
- har yili yosh ijodkorlarning innovatsion loyihalarini amaliyotga joriy qilish orqali mamlakatimizga kiritilayotgan investitsiyalardagi yosh ijodkorlarning ulushi oshishini ta'minlash;
- o'quvchilarning qiziqishini o'rganish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish orqali kitob mahsulotlari ishlab chiqishni yo'lga qo'yish;
- kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari belgilash;
- kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish.

O'zbekistonda 2021-yildan boshlab har yili aprel oyining birinchi haftasini "Kitobxonlik

haftaligi” etib belgilanadi. Dastur uch bosqichda amalga oshiriladi:

- birinchi bosqich – 2020-2021-yillarda tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratish va chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- ikkinchi bosqich – 2022-2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;
- uchinchi bosqich – 2024-2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning madaniy savodxonligi o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

## **18-mavzu: O‘zbekiston Respublikasida kutubxona sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar.**

### **Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasida kutubxona sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar.
2. Kutubxona sohasida o‘zgarishlarning rivojlanishi.
3. Aholining ma‘naviyatini o‘stirishda kitob va kutubxonalarining o‘rni.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma‘naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o‘qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o‘rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko‘p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog‘i”, “Go‘zallik – ilmu ma‘rifatda”. Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyasi, kasb-hunarli va albatta baxtli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘st bo‘lish, va kitob o‘qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o‘rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Istiqlolimizning qisqa davri mobaynida mamlakatda ijtimoiy, madaniy va xalqaro hayotning deyarli barcha tomonlariga taalluqli ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi bobida faol va samarali qadamlar qo‘yildiki, bu ko‘p jihatdan mamlakat fuqarolariga axborotdan erkin foydalanish imkoniyatlarini yaratish darajasi bilan bog‘liqdir.

Respublika kutubxonachilik ishidagi katta o‘zgarishlar kutubxonalarining axborotlashtirish tomon keskin o‘g‘irilishiga, madaniy oqartuv muassasasidan axborotlashtirilgan ijtimoiy-madaniy tuzilmaga aylanishiga va shuning bilan kutubxonachilik ishini axborot-kutubxonachilik “siyosat”iga olib kelganligini qayd etish muhimdir. O‘tgan davr ichida kutubxonalariga mumkin qadar ko‘pchilik uchun cheklangan manbalardan foydalanish imkoniyatini yaratish vazifasi qo‘yilgan bo‘lsa, hozirgi paytda axborot-kutubxona muassasalarining asosiy vazifasi aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni milliy va dunyodagi bor axborot ma‘lumotlaridan bahramand qilishdir.

Bugun yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini yuksaltirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezidentimizning “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risidagi”gi qarori dasturilamal bo‘lmoqda. Darhaqiqat, prezidentimizning ushbu qarorida belgilangan vazifalar, bir tomondan, azaldan kitobsevar xalqimiz, shu jumladan, yoshlarimizning kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish yuzasidan hozirgi zamon talablari darajasida juda keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yaqin vaqt oralig‘ida O‘zbekistonimizning tom ma‘noda kitobxonlar yurtiga aylanishiga xizmat qilmoqda. Bu borada, ayniqsa, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirishning qonunchilik asoslarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, 2011-yilda qabul qilingan “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi qonun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslarini shakllantirish hamda aholiga sifatli axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni tashkil etish borasida davlat organlari va axborot-

kutubxona muassasalarining vakolat va vazifalarini belgilab berdi. Mazkur qonunning ijrosini ta'minlash maqsadida tegishli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida axborot-kutubxona muassasalarining samarali faoliyatini ta'minlash, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni saqlashga qaratilgan mutlaqo yangi tipdagi axborot-kutubxona tizimini yaratish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Barchaga ayonki, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan XXI asrda axborot siyosati madaniy siyosatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shu ma'noda, Prezidentimizning qator qarorlari va sohaga oid qonunning qabul qilinishi kutubxonachilik ishida tarixiy voqea bo'lib, an'anaviy kutubxona xizmati ko'rsatishdan zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishga asos solindi. Ma'lumki, mustaqillik yillarida xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan ko'plab ma'rifat maskanlari barpo etilmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi uchun yangi binoning qurilishi, ana shunday zamonaviy koshonaga joylashtirilganligi ham mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifat rivoji yo'lida ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlik va e'tiborning davomi hamda yana bir namoyishi bo'ldi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Milliy kutubxonasi mamlakatimizda milliy va jahon madaniyatini, fan va ta'limni rivojlantirish yo'lida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxona muassasasi hisoblanadi. Uning boy va nodir axborot-kutubxona fondi ma'naviy merosimiz va milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismidir. Shu ma'noda, ushbu ziyo maskani yoshlarimizni yetuk intellektual bilim va salohiyatga ega, erkin fikrlovchi insonlar etib tarbiyalashga xizmat qilishi tabiiy.

Hozirgi kunga kelib kutubxona foydalanuvchilarining, eng avvalo, yoshlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, qiroatxona zallarining ixtisoslashuvi va joylashishi takomillashtirildi. Ixtisoslashtirilgan elektron kutubxona zali, multimedia texnologiyalari zali tashkil etildi, barcha zallarda internet tarmog'idan foydalanish ta'minlandi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tasarrufidagi 14 ta axborot-kutubxona markazi avtomatlashtirilgan mahalliy kompyuter tarmoqlari bilan jihozlanib, internet tarmog'iga ulanganligi foydalanuvchilarga yanada qulaylik yaratadi. Bir so'z bilan aytganda, asosiy maqsad yoshlarda mustaqil ravishda axborot olishga bo'lgan intilish va qiziqishni kuchaytirish, ularni yangi chop etilgan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy, o'quv-badiiy adabiyot bilan batafsil tanishtirish bilan birga kitob mutolaasini ommalashtirish, axborot madaniyati darajasini oshirish, internet tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirishga hissa qo'shish va internetning axborot-kutubxona xizmatidagi imkoniyatlarini yanada oshirishga qaratilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalashtirish nafaqat kitobxonlar foydalanadigan kitoblar sonini ko'paytirish, balki mamlakatimizda madaniyat va ilm-fanning yanada ravnaq topishiga xizmat qiladi. Bevosita islohotlarning davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Olmazor tumanida A.Qodiriy va A.Cho'lpon nomli kutubxonalar binosi qurib bitkazildi. Asosiy maqsad kutubxonalarning poytaxt maktablari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish, Abdulla Qodiriy va Cho'lpon ijodini yoshlarga chuqurroq o'rgatish zarurligi, aholining dam olishi uchun qulayliklarni zamon talablari darajasida oshirish, bir so'z bilan aytganda, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishdan iboratdir. 2019-yil 13-yanvarda Bosh vazir A.Aripov tomonidan Toshkent shahrida o'tkazilgan tezkor yig'ilish qarorining 31-bandiga asosan ushbu kutubxonalar Toshkent shahar "Bilim" axborot-kutubxona markazi tasarrufiga berilgani poytaxt aholisiga va ayniqsa yoshlarga ko'rsatilayotgan yuksak imkoniyatlar eshigini ochdi. Mamlakatimizda ogohlik, har qanday sharoitga tayyor turishdek odilona olib borilayotgan siyosat darajasidagi chora-tadbirlarning ko'rilishi natijasida pandemiya hamda karantin bilan bog'liq mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, xalqimiz tushkunlik va sarosimaga tushgani yo'q. O'z yo'nalishi bo'yicha faoliyat yuritayotgan biror-

bir tizim to'xtab qolmadi. Chunki Yurtboshimiz vaziyatdan kelib chiqib, xalqimizning sog'lig'ini o'ylab, har bir sohaning ishini boshqa shaklda tashkil etish orqali belgilangan tartiblar asosida yo'lga qo'yildi. Ya'ni, "Aqliy mehnat, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlari masofadan turib, onlayn rejimda olib borilmoqda". So'nggi uch yilida axborot-kutubxona sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi bir qator ustuvorliklar belgilanishiga olib keldi. Prezidentimiz tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surilgan 5 muhim tashabbusdan biri — yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish hisoblanadi. Toshkent shahar "Bilim" axborot-kutubxona markazi tomonidan keng aholi qatlami va ayniqsa yoshlarimizning uyda qolishi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlar asosida faoliyat olib bormoqda. Aholining ijtimoiy huquqlari, ya'ni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam bilim olishiga ko'maklashish, milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib qilish, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishiga imkoniyat yaratib berish maqsadida Toshkent shahar "Bilim" axborot-kutubxona markazi "Uyda qoling!" shiori ostida yaratilgan "Bilim kitoblar", "Bilim Aksiya", "Bilim jonli ensiklopediya", "Detskiy mir", "Audio bilim", "Bilim kutubxonasi", "Aqli karantin", "Ajdodlar merosi — ilm yog'dusi" kabi onlayn yaratilgan ta'sirchan sahifalar faoliyatida o'z aksini topmoqda.

2019-yil 7-iyunda "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida" Prezident qarori qabul qilinishi sohaning taraqqiyotiga keng yo'l ochdi. Qarorda 2019–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiyasi, sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi — axborot-resurs markazining tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga tegishli vazirlik, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Milliy kutubxona qoshida 186 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazini tashkil etish, aholiga axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatish uchun sifat jihatidan yangi va qulay shart-sharoit yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ularning ilmiy, ta'lim, axborot va madaniy ehtiyojlarini qondirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy moslashuv va rehabilitatsiya, mustaqil ta'lim olish va muloqot doirasini kengaytirish usuli sifatida axborotdan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, foydalanuvchilarga har qanday tashuvchilarda (bosma, multimedia va raqamli), shu jumladan internet tarmog'i yordamida sifatli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish, o'zining axborot-resurslarini yaratish va ularni doimiy to'ldirib borish orqali kitobxonlarga an'anaviy xizmat ko'rsatish usulidan ularni zamonaviy axborot-kutubxona xizmatlari bilan ta'minlashga o'tish va aholiga masofadan axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish va modernizatsiya qilish asosiy vazifa etib belgilandi. Mazkur qarorga muvofiq kutubxona sohasida mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni o'rganish asosida turdosh oliy o'quv yurtlariga "Kutubxona-axborot faoliyati" yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul kvotalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish yuklatilganligi kelajakda sohamizdagi kadrlar qo'nimsizligi muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan, vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda, shu jumladan harbiy qismlarda idoraviy kutubxonalarni tashkil qilish (takomillashtirish), idoraviy kutubxonalarning kitob fondini va moddiy-texnika bazasini yaratish, yangilash va to'ldirish uchun davlat budjeti, budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish belgilandi. Idoraviy kutubxonalarning kitob fondini yangilash va to'ldirish uchun zarur nashrlar ro'yxatini har yili shakllantirish mexanizmining belgilanganligi ham albatta o'zining ijobiy samarasini beradi.



Ayniqsa, ushbu qarorda ko‘p minglab kutubxonachilarning azaliy orzusi ushaldi. 21-may — Kutubxonachilar kuni deb belgilanib, bunda kutubxonachilarni ko‘p yillik halol mehnati va axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlash va rag‘batlantirish o‘z aksini topganligini o‘qib boshimiz osmonga yetdi. Albatta, bu biz soha vakillari uchun katta e‘tibor, ulkan rag‘bat, e‘tirof bo‘libgina qolmasdan, balki yuksak mas‘uliyatdir. Mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish, kitob mutolaasini yanada takomillashtirish orqali aholi va ayniqsa yoshlarimizni yuksak ma‘naviyatli shaxslar qilib tarbiyalashda kuchli bilim, malakali tajribamiz va mavjud imkoniyatlarni safarbar etishga tayyormiz. Hurriyatparvar ajdodlarimizning asriy orzusini, xalqimizning tenglar ichra teng bo‘lish huquqini yuzaga chiqargan, milliy o‘zligimiz, qaddimiz va qadrimizni tiklagan, mamlakatimiz tinchligi va taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini ta‘minlayotgan, farzandlarimiz kelajagiga mustahkam zamin yaratayotgan aziz va mukarram – Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!

#### **ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Axunjanov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarixi: -1-qism Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004.-106 b.
2. Axunjonov E. Kutubxonashunoslik, Arxivshunoslik, Kitobshoslik nazariy va tarixi.-Toshkent.: Tafakkur, 2011.-520 b.
3. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.
4. Qosimova O. va Yesimov T.Umumiy kutubxonashunoslik: ; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.-T.: “O‘qituvchi”, 1994.350 b.

#### **QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
7. Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni //Xalq so‘zi-2011.14 aprel.
8. Respublika axolisini axborot-kutubxona bilan ta‘minlashni tashkil etish to‘g‘risida” 2006 yil 20 iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori // Xalq so‘zi-2006.-20 iyun.
9. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish.-T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.-B.3-68.
10. Umarov A. Mamlakat kutubxonachiligi islohatlar yo‘lida: muammo va yechimlar// Sentral Aziya-2006:Fan, ta‘lim, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish: Konfirensiya materiallari.-Urganch-Xiva, 2006.-B. B.10-16.
11. Saidov U., Nigmatova Z., Shamsiyev Sh. Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. -224 b.
12. Yesimov.T.B O‘zbekistonda kutubxonachilik ishining shakllanishi va rivojlanishi.-T.:1994.-74 b.

#### **AXBOROT MANBAALARI:**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
5. [www.rsl.ru](http://www.rsl.ru)
6. [www.rgu.ac.uk](http://www.rgu.ac.uk)

7. [www.e-library.ru](http://www.e-library.ru)
8. <http://atdt.tuit.uz>



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“MADANIYATSHUNOSLIK”  
KAFEDRASI**

**“ KUTUBXONASHUNOSLIK”  
fani bo‘yicha**

**SEMINAR MASHG‘ULOTLAR  
ISHLANMASI**

**Namangan – 2023**



### Kirish

“Kutubxonashunoslik” fanining mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda kutubxonalar, kutubxonachilik ishining uzoq oʻtmishdan to hozirgi kungacha boʻlgan davridagi rivojlanish tarixi bilan ichki aloqadorlikda, tarixiylik prinsiplaridan kelib chiqqan holda tushuntirib berishdan iborat.

**Fanni oʻqitishdan maqsad**-talabalarga kutubxonashunoslik, shu bilan birga kutubxona-axborot faoliyati sohasi boʻyicha asosiy ilmiy -nazariy masalalarni, umumiy tamoyillar, qonuniyatlar, metodologik asoslarni, kutubxona-axborot faoliyati sohasining istiqbollarni, jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish hamda axborotlashtirish bilan bogʻlangan xolda oʻrgatishdir. Talabalarning kasbiy bilim va koʻnikmalarini yaxshilash va mutaxassislarga ixtisoslik boʻyicha malakalarini yanada mustahkamlash uchun axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy, tarkibiy-funksional tahlil qilish, kutubxona - axborot muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish, kutubxona-axborot muassasalarida axborot almashinuvini yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tajribalarini qoʻllash asosiy vazifa boʻlib hisoblanadi.

**Fanning vazifasi** – talabalarga Kutubxonashunoslik fanining Kutubxona va axborot faoliyati yoʻnalishiga mutaxassis tayyorlashdagi oʻrni, talabalarning kutubxonashunoslik doirasida umumiy maʼlumot olishi va ushbu bilimlardan amaliyotda foydalanishni oʻrgatishdan iborat.

### Umumiy va oʻquv ishlari turlari boʻyicha hajmi

Fanga umumiy 150 soat ajratilgan boʻlib, shundan 1-semestrda auditoriya mashgʻulotlari 60 soat boʻlib, semester davomida haftasiga 4 soatdan oʻtiladi, 2-semestrda auditoriya mashgʻulotlari 60 soat boʻlib, semester davomida haftasiga 4 soatdan oʻtiladi, 3-semestrda auditoriya mashgʻulotlari 30 soat boʻlib, semester davomida haftasiga 2 soatdan oʻtiladi

### Yuklamani auditoriya mashgʻulotlari boʻyicha taqsimlanishi:

Semestr	Yuklama	Yuklamani auditoriya mashgʻulotlari boʻyicha taqsimlanishi				Mustaqil taʼlim
		Jami	Maʼruza	Amaliy mashgʻuloti	Seminar mashgʻuloti	
1-semestr	180	90	46	-	44	90
2-semestr	120	60	30	-	30	60
3-semestr	60	30	14	-	16	30
<b>Jami</b>	<b>360</b>	<b>180</b>	<b>90</b>	-	<b>90</b>	<b>180</b>

### “Kutubxonashunoslik” fanidan seminar mashgʻulotlarning mavzulari va soatlar boʻyicha taqsimlanishi:

#### Seminar mashgʻulotlari taqsimoti.

Seminar mashgʻulot mavzularini taqsimlanishi		
	Seminar mashgʻulot mavzulari	Soati
<b>1-semestr</b>		
1	Kutubxonashunoslik faniniga kirish, fanning maqsadi va vazifalari	2
2	Kutubxonashunoslikka oid ilk qarashlarning shakllanishi	2
3	Kutubxonashunoslik fanining ilmiy-oʻquv fani sifatida paydo boʻlishi	2

	va rivojlanishi.	
4	Kutubxonashunoslik fani rivojlanishining asosiy yo'nalishlari	2
5	Kutubxonashunoslik fanining metodologiyasi	2
6	Kutubxonalarga metodik rahbarlikni tashkil etish masalalari	2
7	Kitobxonlarni o'rganish metodikasi	2
8	Ilmiy bilimlar tizimida kutubxonashunoslik maqomining umumiy tasnifi	2
9	Kutubxonachilik ishini tashkil etish prinsiplari va uning funksiyalari	2
10	Kutubxona-axborot muassasalarining asosiy tiplari va hillari	2
11	Kutubxona- axborot faoliyatini boshqarish tizimi	2
12	Kutubxona –axborot muassasalarining tashkiliy tuzilmasi	2
13	Kutubxonachi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish	2
14	Bolalarga kutubxona xizmati ko'rsatish	2
15	Kitobxonlarning o'qishiga rahbarlik qilish	2
16	Kutubxonachi-katalogizator faoliyati	2
17	Kutubxona-axborot muassasalarida foydalanilayotgan texnik vositalar va texnologik jarayonlar	2
18	O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining rivojlanish istiqbollari	2
19	Kutubxonalarda kitobxonlarni o'rganish sohasidagi sotsiologik tadqiqotlar	2
20	G'arb mamlakatlarida kutubxonachilik ishi	2
21	Sharq mamlakatlarida kutubxonachilik ishi	2
22	O'zbekistonda kutubxonachilik ishini tashkil etishning hududiy xususiyatlari	2
	<b>Jami:</b>	<b>44</b>
	<b>2-semestr</b>	
1	Kutubxonachilik sohasida kutubxonachi shaxsining ijtimoiy moslashuvi	2
2	Kutubxonashunoslik kasbiga bo'lgan kasbiy talablar	2
3	Ma'lumotlar bazasi yaratish bilan shug'ullanuvchi kutubxonachining faoliyati	2
4	Multimediya resurslaridan foydalanish va ularni saqlash bilan shug'ullanuvchi kutubxonachining faoliyati	2
5	Axborot-kutubxona muassasalarida foydalanilayotgan jaxon axborot texnologiyalari, jarayonlar va tendensiyalar	2
6	Respublika aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatishning tashkil etilishi	2
7	Respublikada kutubxona tarmoqlari va tizimlari	2
8	A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi	2
9	O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimidagi kutubxonalar	2
10	Respublika davlat bolalar kutubxonasi	2
11	"Turon" nomidagi axborot kutubxona markazi	2
12	Qoraqalpog'iston Respublikasi axborot-kutubxona markazi	2
13	Nodira nomidagi Namangan viloyat axborot-kutubxona markazi	2
14	Shaxsiy kutubxonalar	2
15	Kitob mutolaasi va kitobxonlikni targ'ib qilishning konseptual asoslari	2
	<b>Jami:</b>	<b>30</b>

<b>3-semestr</b>		
1	Maktab kutubxonalarining asosiy vazifalari va funksiyalari	2
2	Kitobxonlar bilan o'tkaziladigan ommaviy ishlar, ularning maqsadi, vazifalari, turlari, xususiyatlari	2
3	Axborot-kutubxona markazlari va axborot-resurs markazlarida o'qish madaniyatini tarbiyalash	2
4	Kutubxona ishini tashkil etish. Ish va vaqt me'yorlari.	2
5	Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni targ'ib etishning ahamiyati va vazifalari	
6	O'zbekiston Respublikasida kutubxona sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar	2
7	Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusni targ'ib etish metodlari	2
8	O'zbekiston Respublikasida kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish	2
	<b>Jami:</b>	<b>16</b>
	<b>Umumiy soat</b>	<b>90</b>

#### **ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Axunjanov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarixi.-1-qism Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004.-106 b.
2. Axunjonov E. Kutubxonashunoslik, Arxivshunoslik, Kitobshoslik nazariy va tarixi.-Toshkent.: Tafakkur, 2011.-520 b.
3. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.
4. Qosimova O. va Yesimov T.Umumiy kutubxonashunoslik: ; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: "O'qituvchi", 1994.350 b.

#### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
7. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni //Xalq so'zi-2011.14 aprel.
8. Respublika axolisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida" 2006 yil 20 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori // Xalq so'zi-2006.-20 iyun.
9. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish.-T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.-B.3-68.
10. Umarov A. Mamlakat kutubxonachiligi islohatlar yo'lida: muammo va yechimlar// Sentral Aziya-2006:Fan, ta'lim, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish: Konfrensiya materiallari.-Urganch-Xiva, 2006.-B. B.10-16.
11. Saidov U., Nigmatova Z., Shamsiyev Sh. Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. -224 b.
12. Yesimov.T.B O'zbekistonda kutubxonachilik ishining shakllanishi va rivojlanishi.-T.:1994.-74 b.

#### **AXBOROT MANBAALARI:**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
5. [www.rsl.ru](http://www.rsl.ru)
6. [www.rgu.ac.uk](http://www.rgu.ac.uk)
7. [www.e-library.ru](http://www.e-library.ru)
8. <http://atdt.tuit.uz>

## GLOSSARIY

**Axborot-kutubxona resursi** — moddiy obektda matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot;

**kutubxona-axborot faoliyati** — axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish va axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha faoliyati;

**axborot-kutubxona fondi** — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslarining majmui;

**axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish** — foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash;

**yig'ma elektron katalog** — axborot-kutubxona muassasalarining elektron kataloglari majmui;

**foydalanuvchi** — axborot-kutubxona xizmati ko'rsatilishi uchun axborot-kutubxona muassasasida ro'yxatga olingan shaxs;

**elektron katalog** — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslari ro'yxatining elektron shakli;

**Elektron kutubxona** — axborot-kutubxona fondining elektron shakl

**Ashurbanipal kutubxonasi** (shuningdek, Assurbanipal tilida yozilgan) Musulda joylashgan Ossuriya Nineviya shahrining xarobalarida topilgan, akkad va shumer tillarida yozilgan kamida 30,000 mixxat hujjatlaridan iborat. , hozirgi Iroq. Adabiy va ma'muriy yozuvlarni o'z ichiga olgan matnlar, asosan Ashurbanipal tomonidan miloddan avvalgi 668-627 yillarda oltinchi Neo-Assuriya podshohi Ossuriya va Bobilni boshqarish uchun to'plangan; lekin u otasi Esarxaddon r ning belgilangan amaliyotiga amal qilar edi. 680-668 yillarda. Kutubxonadagi kolleksiyadagi eng qadimgi Ossuriya hujjatlari Sargon II (mil. Avv. 721-705) va Nineviyani Neo-Ossuriya poytaxtiga aylantirgan Sanxerib (mil. Avv. 704-681) hukmronliklaridan. Bobilning dastlabki hujjatlari miloddan avvalgi 710 yilda Sargon II Bobil taxtiga o'tirganidan keyin.

Bobil va Ossuriyadan kelgan matnlarning o'z ichiga turli xil ma'muriy (shartnomalar kabi huquqiy hujjatlar) va adabiy, shu jumladan mashhur Gilgamish afsonasi kiradi.

- **Tibbiy:** kasalliklarni davolash uchun maxsus kasalliklar yoki tananing qismlari, o'simliklar va toshlar
- **Leksik:** bo'g'inlar va arxaik so'zlar ro'yxati, grammatik matnlar
- **Dasturlar:** Gilgamish, Anzu afsonasi, "Yaratilish dostoni", Ashurbanipal haqidagi adabiy afsonalar
- **Diniy:** liturgiyalar, ibodatlar, diniy qo'shiqlar va madhiyalar, ikkitomonlama va ikki tilli, ekzoristlar va marsiyalardan olingan darsliklar
- **Tarixiy:** shartnomalar, Ashurbanipal va Esarxaddon haqidagi davlat targ'iboti, qirol yoki qirolning xizmatidagi mansabdor shaxslarga yozilgan xatlar
- **Divine:** munajjimlar bashorati, dabdabali xabarlar - Neo-Assiriyaliklar kelajakda qo'ylarning ichaklarini tekshirish orqali aytib berishdi
- **Astronomiya:** sayyoralar, yulduzlar va ularning yulduz turkumlari harakati, asosan astrolojik (divinatory) maqsadlar uchun

**Iskandariya Qirollik kutubxonasi**, Afina litseyidan keyin modellashtirilgan muzey va kutubxonaning bir qismi qadimgi dunyodagi eng katta kutubxona edi. Dastlab 283 yilda B.C.E. Muses ma'badi sifatida Musaeum (bu erdan "Muzey" deb nom olamiz) ma'ruza joylari,

bog'lar, hayvonot bog'i va diniy ziyoratgohlarni o'z ichiga olgan. 100 ga yaqin rezident olimlar izlanishlar olib borishgan, shuningdek, hujjatlar, xususan klassik yunon falsafasi, she'riyat va dramaning asarlari tarjima qilingan va ko'chirilgan. Kutubxonada Ossuriya, Yunoniston, Fors, Misr, Hindiston va boshqa ko'plab mamlakatlardan 400-700.000 atrofida pergament varaqalari saqlanganligi taxmin qilinadi. Mil.av. 332 yilda Iskandar Zulqarnayn tomonidan asos solingan. tashkil topganidan bir asr ichida qadimgi dunyoning eng katta shahriga aylandi. Iskandariya ellinistik madaniyatning markazi va dunyodagi eng katta yahudiy jamoasining uyi edi (yunoncha Septuagint, bu erda ibroniycha Bibliyaning tarjimasi chiqarilgan). Kutubxonaning vayron bo'lishi sir bo'lib qolmoqda va insoniyat bilimlar omborining katta yo'qotishlaridan biri bo'lib qolmoqda, ammo kutubxonalar o'rganish va stipendiya manbai sifatida tushunchasi shu paytgacha kutubxonalar va muzeylarda bilimlarni saqlashga ilhomlantirgan. O'rganish nafaqat imtiyozli elitaga, balki butun insoniyatga xizmat qilishi kerak degan g'oyani ushbu qadimiy muassasada ko'rish mumkin.

**Kutubxona** – kitoblar va kishilik jamiyati tarixi yig'indisi bo'lgani uchun insonparvar muassasadir. Bunda insoniyat erishgan barcha ilmlar, turli fan sohalari bo'yicha shaklidan, xilidan, turidan, tilidan qat'i nazar, adabiyotlar to'plangan. Kutubxonalar zulmatga, nodonlikka, jaholatga qarshi kurashda faol bo'lgan, kishilar qalbiga ezgulik, yaxshilik, sahoat, sadoqat, mehr-muhabbat, oqibat urug'larini singdirgan. U insoniyat butun borlig'ining buyuk hujjatlashgan guvohi sifatida yashab kelmoqda. Unga zarurat sezgan har bir kishi bemalol foydalana olishi va, o'z navbatida, kutubxonalar shu maqsadda hammabop bo'lishi kerak.

**Kutubxona** (yunon. βιβλίον "kitob" +θήκη "omborxona") - ommaviy foydalanish uchun bosma va yozma asarlarni yig'ish va saqlash, shuningdek, etakchi bibliografik ish.

Hozirgi kunda ko'plab kitoblar raqamlashtirilgan va elektron ommaviy axborot vositalarida saqlanmoqda, qog'oz shaklida ular yo'q.

